ДАВЛАТ АКТИВЛАРИНИ БОШҚАРИШ АГЕНТЛИГИ
UzSAMA
STATE ASSETS MANAGEMENT AGENCY

UzSAMA
TADQIQOTLAR MARKAZI

MUNIS
World Bank
Project

ScienceInnovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

IQTISODIYOT VA BIZNES BOSHQARUVI SOHALARIDA ILG‘OR TADQIQOTLAR

XALQARO SIMPOZIUM

2025 YIL, 19 SENTYABR

MATERIALLAR TO‘PLAMI



II

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI

XUSUSIYLASHTIRISH VA DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH MUAMMOLARINI TADQIQ ETISH MARKAZI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“IQTISODIYOT VA BIZNES BOSHQARUVI SOHALARIDA ILG‘OR TADQIQOTLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUM

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 19-sentabr
2-qism

PROCEEDINGS

OF THE INTERNATIONAL SYMPOSIUM “ADVANCED RESEARCH IN ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT”
September 19, 2025
Part 2

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

МЕЖДУНАРОДНОГО СИМПОЗИУМА НА ТЕМУ “ПЕРЕДОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ЭКОНОМИКИ И УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ”
19 сентября, 2025 года
Часть 2

Toshkent - 2025

Iqtisodiyot va biznes boshqaruvi sohalarida ilg‘or tadqiqotlar. Xalqaro simpozium materiallar to‘plami, 2-qism (2025-yil 19-sentabr) – T.: Science and Innovation, Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi, 2025. – 524 bet.

Бош муҳаррирлар	
И.Л. Бутиков	*Марказ директори, и.ф.д., проф.*
З.А. Ашуров	*Марказ директорининг илмий ишлар ва инновациялар бўйича ўринбосари, и.ф.ф.д. (PhD), проф.*
Таҳририят ҳайъати аъзолари	
Wolfgang Lukas	*Dr. Prof.*
А.Р. Валижонов	*и.ф.н., к.и.х.*
Р.И. Каюмов	*и.ф.н., к.и.х.*
Р.Х. Ташматов	*и.ф.д., проф.*
Р.Т. Нуралиев	*и.ф.н., к.и.х.*
Х.А.Икрамов	

Ушбу тўпламда 2025 йил 19 сентябрь куни ўтказилган «Иқтисодиёт ва бизнес бошқаруви соҳаларида илғор тадқиқотлар» мавзусида халқаро симпозиум материаллари мужассамлашган бўлиб, улар иқтисодий тараққиёт ва барқарор ривожланиш соҳасида энг сўнгги тадқиқотлар ҳамда замонавий концепциялар, бизнесни бошқариш ва бизнес жараёнларини стратегик трансформация қилиш соҳасида инновацион ёндашувлар ҳамда илғор тадқиқотлар, шунингдек замонавий иқтисодий тадқиқотларда методология ва таҳлил воситаларини ривожлантиришнинг долзарб масалаларига қаратилган. Симпозиум Жаҳон банки грант маблағлари ҳисобидан молиялаштирилган PRIM 01-25 «Strategic and Institutional Modernization of the UzSAMA Research Center towards Enhancing Capabilities and Improving Performance of Research Activity (SAMARA)» лойиҳасини амалга ошириш доирасида ўтказилди.

Мақолаларда келтирилган маълумотларнинг тўғрилиги ва аниқлиги учун муаллифлар масъулдир. / Ответственность за правильность и достоверность информации, приведенных в статьях, несут авторы. / The authors are responsible for the correctness and reliability of the information provided in the papers.

© Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali

2-SHO‘BA

BIZNESNI BOSHQARISH VA BIZNES JARAYONLARINI STRATEGIK TRANSFORMATSIYA QILISH SOHASIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR HAMDA ILG‘OR TADQIQOTLAR

***

SECTION 2

INNOVATIVE APPROACHES AND ADVANCED RESEARCH IN BUSINESS MANAGEMENT AND STRATEGIC TRANSFORMATION OF BUSINESS PROCESSES

***

СЕКЦИЯ 2

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ПЕРЕДОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ И СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

SUG‘URTA BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISHDA STRATEGIK TRANSFORMATSIYA VA DAVLAT TARTIBGA SOLISHINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI

Abdullayev Erkinjon A’zamovich
“FAROVON SUG‘URTA” AJ Bosh direktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270583

Annotatsiya. *Mazkur tezisda O‘zbekiston sug‘urta bozorida risklarni boshqarish jarayonida qo‘llanilayotgan moliyaviy mexanizmlar tahlil etiladi Muammolar sifatida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlarini cheklanganligi, qayta sug‘urtalash faoliyatining samarador emasligi va prudensial normativlarning zaifligi sifatida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy mexanizmlar, sug‘urta, risklar, qayta sug‘urtalash, moliyaviy barqarorlik, RBS.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sug‘urta bozorini modernizatsiya qilish, uni xalqaro moliya tizimi talablariga moslashtirish va aholiga keng qamrovli sug‘urta xizmatlarini taqdim etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sug‘urta sohasi iqtisodiyotning muhim moliyaviy bo‘g‘ini sifatida nafaqat xavf-xatarlarni boshqarishda, balki investitsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois sug‘urta bozorining samarali faoliyat yuritishi davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining takomillashuvi va biznes jarayonlarni strategik transformatsiya qilish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruv yondashuvlari va ilg‘or xalqaro tajribalar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish va yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bunda davlatning institutsional roli, normativ-huquqiy baza va moliyaviy tartibga solish mexanizmlari sug‘urta bozorida barqaror rivojlanishni ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda sug‘urta bozorini modernizatsiya qilish jarayonida strategik transformatsiya va davlat tartibga solishining o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilinib, ularning moliyaviy mexanizmlar orqali amalga oshirilish istiqbollari yoritib beriladi.

O‘zbekistonda biznes muhitni yaxshilash,, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, soliq va moliya sohasini tubdan isloh qilish, iqtisodiyotda xususiy mulk ulushini yanada oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish orqali uning iqtisodiyotdagi salmog‘ini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ko‘paytirish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini raqamlashtirish va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash ekotizimini yaratish va ishga tushirish hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda.

Dunyo amaliyotida risklarni sug‘urtalash, xususan, jamiyatning evolyusion rivojlanishida o‘zini-o‘zi sug‘urtalash, o‘zaro sug‘urtalash va turli xil tijorat sug‘urtasi kabi sug‘urta himoyasi mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish sohasida katta tajriba to‘plangan.

Pandemiya, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar (urushlar, iqtisodiy cheklovlar) keyingi davrlarida jahon iqtisodiyotida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar risklarni sug‘urtalash mexanizmlarini

qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, ularni mavjud yangi iqtisodiy voqeliklarga moslashtirishni talab etmoqda. Jumladan, sug‘urtaning muqobil mexanizmlarini shakllantirish, har bir risk turi bo‘yicha jahon miqyosida ehtimoliylik darajasini aniqlash, sug‘urta tizimi va mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi tizimlarni yaratish orqali sug‘urta samaradorligini oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida “...mikromoliya bozori uchun yo‘l ochib berildi. ...mikromoliya tashkilotlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratildi.”[1], deb ko‘rsatilganligi va “Sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug‘urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish, shuningdek, sohani tartibga solishni yanada takomillashtirish” bo‘yicha dolzarb yo‘nalishlarning belgilanganligi sug‘urta sohasini yanada isloh qilish va modernizatsiyalash, xususan, mamlakatimizda inklyuziv sug‘urta tizimini shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan kompleks va tizimli tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqoza etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-sonli “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadall rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlar to‘g‘risida” va 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, 2022-yil 21 - fevraldagi 80-sonli “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”, sug‘urta tarmoqlarini takomillashtirishga qaratilgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Risklarni sug‘urtalash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlari, jumladan, Allianz Research (Germaniya) [3], International Association of Insurance Supervisors (Sug‘urta nazoratchilari xalqaro uyushmasi–SNXU) [4], The Geneva Association (Shveysariya) [5], National Bureau of Economic Research, Harvard Business School (AQSh) [6], London School of Economics and Political Science (Buyuk Britaniya), Barselona Scholl of Economics (Ispaniya).

Risklarni sug‘urtalash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan, jumladan: sug‘urtaning asosiy prinsiplariga muvofiq iqlim o‘zgarishi bilan bog‘lik risklarni sug‘urtalovchilar tomonidan ochib berishning zarurligi asoslangan (The Geneva Association, Harvard Business School); sug‘urta sanoatini barqaror rivojlantirishni ta’minlash uchun anderraytingdan faol foydalangan holda risklarni kamaytirish muhim o‘rin tutishi aniqlangan (Allianz Research); uy xo‘jaliklarini sug‘urtalash ularni moliyalashtirish hajmini ko‘payishiga, risklarni samarali boshqarishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslangan (London School of Economics and Political Science); aktuar jihatdan adolatli bo‘lmagan narx-navo sharoitida riskka moyilligi mavjud bo‘lmagan har qanday fuqarolar tomonidan sug‘urta polislarini sotib olinishi aniqlangan (Barselona School of Economics, Allianz Research);

O‘zbekistonlik olimlar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqqanlari qayta sug‘urtalash va kapital yetarliligi muammolarini yoritgan. Gulirayxon Baymuratova moliyaviy risk darajasini baholash usullarini tadqiq etgan . Qayta sug‘urta – moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi muhim vosita sifatida ta’kidlangan . Shuningdek, sug‘urtada investitsiya faoliyati va prudensial normativlarning roliga e’tibor qaratilgan tadqiqotlar mavjud.

Zamonaviy iqtisodiyotda risklarni sug‘urtalash mexanizmlari tobora murakkablashib, global voqealar, pandemiyalar, iqtisodiy inqirozlar va siyosiy beqarorlik sharoitida o‘zgarishga majbur bo‘lmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini-o‘zi sug‘urtalash, o‘zaro sug‘urtalash hamda tijorat sug‘urtasi jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida risklarni boshqarishda muhim mexanizmlar bo‘lib kelgan.

Xalqaro amaliyotda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha katta tajriba to‘plangan:

– Riskga asoslangan nazorat - bu sug‘urta tashkilotlari faoliyatini ularning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar darajasi va ularning moliyaviy tizimga ta’siriga qarab tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi zamonaviy usul hisoblanadi. Ushbu yondashuvda nazorat organlari o‘z resurslarini eng yuqori risk darajasiga ega bo‘lgan tashkilotlar va faoliyat turlariga qaratadi.

– Sug‘urta himoyasi mexanizmlari – individual va korporativ risklarni minimallashtirish uchun o‘zini-o‘zi sug‘urtalash, o‘zaro sug‘urta jamiyatlari va tijorat sug‘urta kompaniyalaridan kompleks foydalanish.

– Yangi iqtisodiy voqeliklarga moslashuv – COVID-19 pandemiyasi, xalqaro siyosiy inqirozlar va iqtisodiy cheklovlar sharoitida risklarni sug‘urtalashning an’anaviy mexanizmlari yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu sababli, global sug‘urta bozorlari muqobil sug‘urta sxemalarini ishlab chiqish, ehtimollik darajalarini qayta hisoblash va risklarni qayta taqsimlashga e’tibor qaratmoqda.

– Raqamlashtirish va texnologik integratsiya – ilg‘or davlatlarda sug‘urta xizmatlari big data, aktuar modellar va sun’iy intellekt asosida boshqarilmoqda.

– Kiberrisklar va yangi yo‘nalishlar – SNXU, Geneva Association, Allianz Research va boshqa markazlar tadqiqotlariga ko‘ra, kelgusida sug‘urtalashda kiberrisklar, global iqlim o‘zgarishi xavflari hamda transchegaraviy moliyaviy xavflarni baholash asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati masalasi 2008-yilda tasdiqlangan “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi Nizom”ga asoslanadi. Ushbu hujjat sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, to‘lovga layoqatlilik marjasini hisoblash, aktivlarni joylashtirish, qayta sug‘urta mexanizmlari va risklarni boshqarish qoidalarini belgilaydi.

Sug‘urta tashkilotlarining to‘lov qobiliyati marjasi (Solvency Margin) normativi sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatini ta’minlash uchun belgilangan me’yor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.” // https://president.uz/uz/lists/view/7481.
2. International Association of Insurance Supervisors, //www.iaisweb.org/ uploads/2022/01/210930-GIMAR-special-topic-edition-climate-change.pdf

3. Allianz Research, https://www.allianz.com/content/dam/ onemarketing/azcom/ Allianz_com/ economic-research/publicati-ons/ specials/en/2022/may/ Global-Insurance-Report-2022.pdf
4. International Association of Insurance Supervisors, //www.iaisweb.org/ uploads/2022/01/210930-GIMAR-special-topic-edition-climate-change.pdf.
5. https://www.genevaassociation. org/sites/default/files/research-topics-documenttype/pdf_public/climate_ litigation_04-07-2021.pdf;
6. National Bureau of Economic Researchhttps://www.nber.org/ papers/w22293; e Smidt, G., Botzen, W. Perceptions of Corporate Cyber Risks and Insurance DecisionMaking.

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA QO'LLANILADIGAN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TAHLILI

Abdullayev Abdujabbor[1], Xakimova Dilnozaxon Sa'dulla qizi[2]
[1]Andijon davlat texnika instituti, i.f.d., prof. [2]Andijon davlat texnika instituti, magistrant
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270590

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sog'liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati va ta'siri tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, jumladan telemeditsina, elektron sog'liqni saqlash yozuvlari va sun'iy intellekt, bemorlar bilan muomala jarayonini yaxshilash, ma'lumotlarni samarali boshqarish va sog'liqni saqlash xizmatlarini yanada sifatli qilishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada raqamli texnologiyalarning afzalliklari, ularning sog'liqni saqlash tizimiga kiritilishi bilan bog'liq muammolar va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Bu tahlil raqamli texnologiyalarning sog'liqni saqlash tizimidagi o'rni va ularni yanada rivojlantirish yo'llarini tushunishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *tibbiyot, tibbiy xizmatlar, telemeditsina, bemor, sun'iy intelekt, raqamli texnologiyalar, tahlil, tizim, sog'liqni saqlash.*

Abstract. *This article analyzes the importance and impact of using digital technologies in the healthcare system. Digital technologies, including telemedicine, electronic health records, and artificial intelligence, play an important role in improving the patient experience, efficient data management, and better quality healthcare. The article examines and analyzes the advantages of digital technologies, the problems associated with their introduction into the healthcare system, and the prospects for future development. This analysis helps to understand the role of digital technologies in the healthcare system and ways to further develop them.*

Keywords: *medicine, medical services, telemedicine, patient, artificial intelligence, digital technologies, analysis, system, healthcare.*

Аннотация. *В данной статье анализируется важность и влияние использования цифровых технологий в системе здравоохранения. Цифровые технологии, включая телемедицину, электронные медицинские записи и искусственный интеллект, играют важную роль в улучшении качества обслуживания пациентов, эффективном управлении данными и повышении качества здравоохранения. В статье рассматриваются и анализируются преимущества цифровых технологий, проблемы, связанные с их внедрением в систему здравоохранения, а также перспективы дальнейшего развития.*

Данный анализ помогает понять роль цифровых технологий в системе здравоохранения и пути их дальнейшего развития.

Ключевые слова: *медицина, медицинские услуги, телемедицина, пациент, искусственный интеллект, цифровые технологии, анализ, система, здравоохранение.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, zamonaviy tibbiyotda raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta. Sababi ular ma’muriy jarayonlarni optimallashtirish, ma’lumotlarni boshqarishni takomillashtirish, bemorlarning holatini doimiy monitoring qilib borishga yordam beradi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani kabi raqamli texnologiyalarni tibbiyot sohasida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda.

Ma’lumot o‘rnida 2023-yilning 24-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining ikkita vakolatli qo‘mitalarining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Sog‘liqni saqlash vazirligining “Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risi”da axborotida so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-taomillarini qisqartirish, aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish qamrovini kengaytirish bo‘yicha muayyan ishlar haqida batafsil bayon etildi. Bunga ko‘ra, yil yakunigacha “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” tizimlari ishga tushirilishi aytib o‘tildi. Bu o‘z navbatida, ortiqcha ovoragarchilik va qog‘ozbozliklarga chek qo‘yib, barcha ishlarni tizimli ravishda olib borishga, shifokorlarning bemorlar uchun ko‘proq vaqt ajratishiga imkon beradi[1].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2025 yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2025 yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Bu ham bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri ekanini yaqqol misolidir[2].

Adabiyotlar tahlili. Sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarni tahlil qilishda mavjud adabiyotlar va metodologiyalar keng qamrovli va tizimli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, sun’iy intellekt (AI), Big Data, telemeditsina, va blokcheyn texnologiyalari sog‘liqni saqlash sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, xizmatlar samaradorligini oshirishga, operatsiyalarni tezlashtirishga, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga yordam bermoqda. Adabiyotlar tahlili, xususan, sun’iy intellektning tibbiyotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar sun’iy intellekt algoritmlarining kasalliklarni erta aniqlashda va bemorlar uchun individualizatsiyalangan davolash rejalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[3].


Shuningdek, Big Data texnologiyalari sog‘liqni saqlash ma’lumotlarini keng ko‘lamda tahlil qilish imkonini beradi, bu esa diagnostika, davolash va prognozlash jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Telemeditsina, ayniqsa qishloq hududlari va uzoq joylashgan bemorlar uchun tibbiy xizmatlarga bo‘lgan talabni qondirishda samarali vosita sifatida tanilgan, bu texnologiya orqali bemorlar onlayn tibbiy maslahatlar olish, masofaviy diagnostika va davolashni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Blokcheyn texnologiyasi esa sog‘liqni saqlash tizimidagi ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, tibbiy yozuvlarning shaffofligini oshirish va ma’lumotlarni buzilishdan himoya qilishda o‘zining samaradorligini ko‘rsatmoqda[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tizimli tahlil metodologiyasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu metod sog‘liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalarni turli omillar asosida baholashga imkon yaratadi. Kontent tahlili orqali sog‘liqni saqlash tizimlarida joriy etilgan texnologiyalarning samaradorligi, ularning tibbiyotga ta’siri va potensial xatarlari o‘rganilgan.

Metodologik yondashuvlar orqali sog‘liqni saqlash tizimlarida raqamli texnologiyalarning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlar va imkoniyatlar aniqlandi. Shu bilan birga, ilg‘or texnologiyalarni sog‘liqni saqlash tizimida implementatsiya qilishdagi samaradorlikni o‘lchash va natijalarni prognozlash uchun turli analitik metodlar, shu jumladan statistik va modellashtirish metodlari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruvini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat bemorlar uchun, balki shifokorlar, farmasevtlar va sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega[5].

Raqamli texnologiyalar sog‘liqni saqlash tizimida turli sohalarda muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Elektron tibbiy kartalar bemorlar haqidagi ma’lumotlarni raqamli formatda saqlash va tezkor kirishni ta’minlaydi. Telemeditsina bemorlar va shifokorlar o‘rtasidagi masofani qisqartirib, xizmat ko‘rsatishni qulaylashtiradi. Mobil sog‘liq ilovalari bemorlarga o‘z sog‘liq holatini nazorat qilishda yordam beradi. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili esa kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonini optimallashtirishda muhim ro‘l o‘ynaydi[6]. Quyida sog‘liqni saqlash tizmini takomillashtirishda qo‘llaniladigan eng muhim va keng tarqalgan raqamli texnologiyalar keltirilgan(1-rasmga qarang):



1-rasm. Sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruvini takomillashtirishda qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan sog‘liqni saqlash tizmini takomillashtirishda qo‘llaniladigan eng muhim raqamli texnologiyalarning har biri alohida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Ularning har

biri sog‘liqni saqlash tizmini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan jadvalda buni batafsil ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Raqamli texnologiyalar	Vazifasi
Elektron tibbiy kartalari	Bemorlarning tibbiy tarixini, tashxislarini va davolash jarayonlarini raqamli formatda saqlash imkonini beradi. Bu ma’lumotlarga tezkor kirish va oson yangilanish imkonini yaratadi.
Telemeditsina	Bemorlar va shifokorlar o‘rtasidagi masofani qisqartirib, video qo‘ng‘iroqlar yoki onlayn maslahatlar orqali sog‘liqni saqlash xizmatlarini taqdim etadi. Bu ayniqsa, qishloq joylarida yoki masofada yashovchi bemorlar uchun juda foydali.
Mobil ilovalari	Bemorlar o‘z sog‘liq holatini kuzatish, dori-darmonlarni eslatib turish va sog‘liqni saqlash bo‘yicha ma’lumot olish imkoniyatiga ega. Shuningdek, shifokorlar uchun bemorlar bilan aloqani osonlashtiradi.
Sun’iy intellekt (AI)	Ma’lumotlar tahlili va prognozlash uchun ishlatiladi. SI yordamida kasalliklarni aniqlash, davolash strategiyalarini optimallashtirish va klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash mumkin.
Wearable texnologiyalar	Yurak urishi, qon bosimi, qand darajasi kabi ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi qurilmalar. Ular bemorlarning sog‘liq holatini monitoring qilishda foydalidir.
Blokcheyn texnologiyalar	Ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash va bemor ma’lumotlarini ishonchli tarzda saqlash uchun qo‘llaniladi. Bu texnologiya, shuningdek, tibbiy ma’lumotlar almashinuvi uchun ham qulay.
Internet of Things internet buyumlari (IoT)	Tibbiy qurilmalar va sensorlar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi orqali bemorlarni real vaqt rejimida kuzatishga imkon beradi. Bu bemorlarni uydan chiqmasdan nazorat qilishda juda foydalidir.
Tibbiy robotlar	Jarrohlik amaliyotlari va reabilitatsiya jarayonlarini aniqlik bilan bajarishga yordam beruvchi robototexnika tizimlari.
Ma’lumotlar tahlili va katta ma’lumotlar (Big Data)	Sog‘liqni saqlash tizimida katta ma’lumotlarni tahlil qilish orqali epidemiologik tendensiyalarni aniqlash, kasalliklarni oldindan tashxislash va resurslarni optimal ravishda taqsimlash imkoniyatlarini beradi.

Ushbu raqamli texnologiyalar sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish, bemorlar uchun xizmat ko‘rsatishni qulaylashtirish va tibbiy yordam sifatini yaxshilashga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, texnologiyalarning murakkabligi ba’zi foydalanuvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni kengaytirish uchun sog‘liqni saqlash tizimida o‘zgarishlarga tayyorlik va resurslar mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega[7].

Xulosa. Sog‘liqni saqlash tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bemorlar va shifokorlar uchun ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi. Kelajakda raqamli texnologiyalar sog‘liqni saqlash tizimining asosiy qismi bo‘lib, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar, masalan, telemeditsina va sun’iy intellekt, bemorlar bilan samarali muomala o‘rnatish, ma’lumotlarni tezkor va to‘g‘ri boshqarish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, tibbiy xizmatlarining sifatini oshiradi va bemorlarning davolanish jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi. Biroq, texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog‘liq muammolar va qiyinchiliklar ham mavjud bo‘lib, ularni hal qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Umuman olganda, raqamli texnologiya sog‘liqni saqlash sohasida katta imkoniyatlar yaratadi va kelajakda yanada rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2023-yil 28-dekabrdagi PQ-415-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2025 yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori.
4. Davlat Statistika Qo‘mitasi.(2023). O‘zbekiston sog‘liqni saqlash statistik to‘plami 2019–2022. Toshkent.
5. Khomitjonovich, B. E. (2022). DEVELOPING ALGORITHM FOR CONVERTING INTEGER TYPE VARIABLES INTO STRING VIYeW. Academicia Globe: Indersciyencye Research, 3(04), 105-108.
6. Xakimova Dilnozaxon Sa’dulla qizi. (2023). SHIFOKORLAR TOMONIDAN BEMORLARGA BERILADIGAN DORI RO’YHATINI RAQAMLASHTIRISH. QO’QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 160–163. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.326
7. Xakimova Dilnozaxon Sa’dulla qizi. (2025). SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI. ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH, 2(1), 151–158. https://doi.org/10.5281/zenodo.14702726
8. https://parliament.gov.uz/articles/1570
9. https://gov.uz/uz/ssv/news/view/15024

ЎЗБЕКИСТОН ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИДА ЭМИССИОН ОПЕРАЦИЯЛАРИ

Абдукаюмов Абдувахид Абдувасикович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети, мустақил тадқиқотчи
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270598

Аннотация. *Ушбу мақолада тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозорида эмиссион операцияларининг мазмунига доир назарий ёндашувлар, иқтисодчи олимларнинг қарашлари ва амалдаги муаммолар таҳлил қилинган. Шунингдек, мазкур бозорда банкларнинг эмиссион операциялари бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар*: тижорат банки, қимматли қоғоз, инвестиция, эмиссия, диверсификация, андеррайтинг, акция, облигация, депозит сертификати.*

Бугунги замон иқтисодиёт шароитида тижорат банклари қимматли қоғозлар бозорнинг асосий иштирокчиларидан бири ҳисобланади. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозорида бевосита эмитент, инвестор ва молиявий воситачиликни амалга ошириб, иқтисодиёт субъектларининг капитал ресурсларга бўлган эҳтиёжини қондиришга хизмат қилади. Хусусан, қимматли қоғозлар бозори банкларнинг молиявий барқарорлиги ва даромадлилигини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони билан тасдиқланган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 миллион АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш, мамлакатимизда капитал ҳаракатини босқичма-босқич эркинлаштириш ҳамда йирик корхоналарни ва улардаги улушларни (акцияларни), шу жумладан фонд биржаси орқали хусусийлаштириш, давлат улушига эга тижорат банкларида трансформация жараёнларини якунлаб, 2026 йил якунига қадар банк активларида хусусий сектор улушини 60 фоизгача етказиш мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шартлари сифатида эътироф этилган[1]. Бу эса, ўз навбатида тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги операцияларининг янада такомиллаштириш заруратини келтириб чиқаради. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки тижорат банкларидаги давлат улушлари қимматли қоғозлар бозорида ўзининг эмиссион функциялари билан қатнашиш зарурлигини намоён қилади.

Охирги йилларда иқтисодиётнинг кескин ўзгарувчанлигида тижорат банкларининг эмиссион операцияларининг хусусиятларини ўрганиш бўйича хорижий иқтисодчилар ва бир қанча маҳаллий иқтисодчи олимлар илмий изланишлар олиб борганлар.

Жахонга машхур иқтисодчи олим Ф.Мишкиннинг фикрича банкларнинг эмиссион операцияларини капитал бозоридаги молиявий воситачиликнинг асосий турларидан бири сифатида таърифлайди. У банклар томонидан чиқариладиган облигациялар орқали ликвидликни сақлаш ва молиявий барқарорликни таъминлаш муҳимлигини таъкидлайди[2].

Молия бозорлари ва қимматли қоғозлар соҳасида етакчи рус олимларидан Я.Миркин банкларнинг эмиссион фаолиятини қуйидагича изоҳлайди. Банк эмиссияси —

бу банкнинг молия бозорида мустақил субъект сифатида ресурсларни жалб этиш воситасидир. Облигациялар ёки бошқа қимматли қоғозларни чиқариш банкнинг ликвидлигини оширади, капиталга эга бўлиш имкониятини кенгайтиради ва бозордаги мавқеини мустаҳкамлайди. Бу фаолият бозордаги рақобатни кучайтиради ва банкларни молиявий муҳитга мослашувчан қилади[3].

Мамлакатимиз олимларидан И.Бутиковнинг илмий изланишларида “Тижорат банклари томонидан қимматли қоғозларни эмиссия қилиш — бу капитал бозори орқали ресурсларни жалб қилишнинг муҳим воситаси ҳисобланади. Бундай эмиссион операциялар банклар учун ликвидликни таъминлаш, молиявий барқарорликни сақлаш ва инвестиция фаоллигини ошириш имконини беради. Бу жараён, айниқса, молия бозори ривожланаётган давлатлар учун стратегик аҳамиятга эга.”[4] дея таъкидланади.

Молия бозорлари ва қимматли қоғозлар соҳасида етакчи ўзбек олими Ш.Шохаъзамийнинг фикрига кўра “Қимматли қоғозларнинг эмиссияси банкларнинг ички ва ташқи ресурсларини жалб қилишда муҳим восита бўлиб, бу орқали банклар кредитлаш ҳажмини оширади ва инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришда фаол иштирок этади.” [5] дея эътироф этган.

Юқоридаги фикрларга асосан Ўзбекистонда тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги эмиссион операцияларини ривожлантириш масаласи мамлакатда банк тизимининг долзарб йўналиши эканлигини кўриш мумкин.

Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги фаолиятини таҳлил қилишда уларнинг ушбу бозордаги ролини аниқ белгилаш муҳим аҳамият касб этади. Илмий манбалар ва амалий тажриба асосида, банкларнинг фонд бозоридаги фаолиятини шартли равишда тўрт асосий йўналишга бўлиш мумкин. Бу йўналишлар банклар томонидан қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган операцияларда уларнинг турли вазифаларини ва функцияларини акс эттиради.

- анъанавий банк операциялари билан боғлиқ фаолият бўлиб, унда банклар қимматли қоғозлардан асосан ликвидликни бошқариш ёки ўз маблағларини жойлаштириш мақсадида фойдаланади.
- қимматли қоғозлар бозорининг профессионал иштирокчиси сифатидаги фаолият – бу ҳолда банклар брокерлик, дилерлик, кастодианлик ва андерайтинг каби хизматларни кўрсатади;
- инвестор сифатидаги фаолият – банклар ўз маблағларини даромад олиш мақсадида қимматли қоғозларга инвестиция қилади;
- эмитент сифатидаги фаолият – банклар ўзлари қимматли қоғозлар (облигациялар, акциялар) чиқариш орқали маблағ жалб қилади.

Жахон амалиётида тижорат банклари ўз қимматли қоғозларини эмиссияси – бу банклар учун стратегик молиявий восита бўлиб, банкларнинг капитал базасини мустаҳкамлаш, узоқ муддатли инвестицион лойиҳаларга молиялаштириш учун маблағ жалб қилиш, ликвидлик муаммоларини ҳал қилиш ва капитал бозорида ўз мавқеини оширишда муҳим аҳамиятга эга

Тижорат банкларининг эмиссия фаолиятининг асосий мақсадлари:

1. Капитал базасини мустаҳкамлаш;
2. Узоқ муддатли инвестицион лойиҳаларни молиялаштириш;
3. Ликвидлик муаммоларини ҳал қилиш;
4. Бозордаги рақобатбардошликни ошириш.

Республикадаги тижорат банкларининг аксарияти акциядорлик жамияти шаклида ташкил этилган бўлса-да, уларнинг фаолиятида акцияларни оммавий эмиссия қилиш ва улгуржи бозорда жойлаштириш амалиёти чекланган миқиёсда амалга оширилади. Бу, аввало, ички фонд бозорининг етарлича ликвид эмаслиги, инвесторлар доирасининг чекланганлиги, шунингдек, эмиссия жараёнларига нисбатан қатъий ҳуқуқий ва ташкилий талаблар билан боғлиқ. Шунинг учун ҳам, Ўзбекистонда банкларнинг эмиссион фаолиятини ривожлантириш учун ҳуқуқий базани такомиллаштириш, инвестицион муҳитни яхшилаш ҳамда профессионал бозор иштирокчиларини кўпайтириш каби чоралар муҳим аҳамият касб этади.

1-жадвал

2024 йил “Тошкент” РФБда сохалар кесимида битимлар сони ва хажми бўйича маълумот[1]

Соҳа	Сохалар бўйича битимлар сони	Сохалар бўйича битимлар хажми(млн.сўм)	Сохалар бўйича битимлар сони %	Сохалар бўйича битимлар хажми %
Банклар	10 946	970 564,93	43,6	90,7806
Бошқалар	7 088	93 397,64	28,2	8,7358
Энергетика	1 534	2 643,74	6,1	0,2473
Саноат	1 439	787,74	5,7	0,0737
Суғурта	1 122	635,83	4,5	0,0595
Қурилиш	1 047	470,69	4,2	0,0440
Алоқа	1 009	441,3	4,0	0,0413
Агросаноа	496	124,05	2,0	0,0116
Транспорт	360	65,81	1,4	0,0062
Лизинг	54	0,49	0,2	0,0000
ЖАМИ	**25 095**	**1 069 132**	**100**	**100**

2020–2024 йиллар давомида “Тошкент” Республика фонд биржасида (“Тошкент” РФБ) банклар томонидан акция эмиссияси фаоллиги босқичма-босқич ўсди. Бу жараён давлат томонидан хусусийлаштириш ва капитал бозорини ривожлантириш сиёсати билан боғлиқ бўлиб, айрим банклар акцияларини оммавий савдога чиқариш орқали инвестиция жалб қилишга ҳаракат қилдилар.

Ўзбекистонда тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги эмиссион операциялари мамлакат молия тизимини барқарорлаштириш ва инвестиция муҳитини яхшилашда муҳим аҳамият касб этаётганини кўриш мумкин. Банклар эмитент сифатида капитал базасини мустаҳкамлаш, ликвидликни таъминлаш, рақобатбардошликни ошириш ва инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришда фаол иштирок этмоқда.

Юқоридагиларга асосан қуйидаги таклифларни келтириш мумкин:

- Ҳуқуқий базани соддалаштириш ва такомиллаштириш, яъни банклар томонидан қимматли қоғозлар эмиссиясини амалга ошириш жараёнидаги тартибга солувчи талабларни қайта кўриб чиқиш, ортиқча бюрократик тўсиқларни бартараф этиш;
- Инвесторлар доирасини кенгайтириш, яъни жисмоний шахслар, суғурта

[1] https://uzse.uz/ маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

компаниялари ва пенсия жамғармалари каби институционал инвесторлар иштирокини рағбатлантириш;

- Ички бозорда ликвидликни ошириш**,** яъни банклар эмиссия қилган акция ва облигациялар учун иккиламчи бозор (secondary market) механизмларини такомиллаштириш;
- Халқаро молия бозорларига чиқишни қўллаб-қувватлаш, яъни Еврооблигация ва бошқа ташқи эмиссия турларини кўпайтириш учун халқаро рейтинг агентликлари билан ҳамкорликни кучайтириш;

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони //www.lex.uz.
2. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education. – 2016. [ISBN: 9780133836790]
3. Миркин Я.М. Финансовые рынки: Учебник. — М.: Юрайт, 2-е изд. — 2013 г. С. 412–415. [ISBN: 978-5-9916-2530-6]
4. Бутиков И.Л. Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда инвестиция сиёсатининг ўрни. // “Иқтисодиёт ва таълим” журнали, №4 (86), 2021 й. бет: 102–106. – [ISSN: 2181-9491]
5. Шохаъзамий Ш.Ш. Банклар ва молия институтларининг бозор иқтисодиётидаги роли. — Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2-нашр. — 2020 й. Бет: 189–192. ISBN: 978-9943-6164-45-5
6. https://lex.uz
7. https://cbu.uz/
8. https://uzse.uz/

ИНТЕРНЕТ МУҲИТИДА БИЗНЕСНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАШКИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Абдусаломов Абдусамад Баходирович
Давлат активларини бошқариш агентлиги хузуридаги илмий тадқиқотлар маркази катта илмий ходими, Иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (Phd)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270619

Республикамизда охирги йилларда олиб борилаётган ислоҳот-лар миллий иқтисодиётимизда рақамли технологиялардан кенг ва самарали фойдаланиш учун замин яратиб бермоқда. Бу борада элек-трон тижоратнинг ҳаётимизга кенг кириб келиши, фуқароларимизга катта имкониятларни яратиб бермоқда.

Ўзбекистон электрон тижоратни ривожлантиришга ва ундан самарали фойдаланишга тайёрми деган савол табиий ҳолда туғи-лади. 37 миллиондан ортиқ аҳолига

эга Ўзбекистон Республикасида Интернет фойдаланувчилари сони 27,2 миллиондан ошган.

Жаҳонда рақамлаштириш жараёнлари кечмоқда. Бу термин иқ-тисодиётга ҳам кириб келган. Барча соҳалар замонавий рақам-лаштиришга ўтиб боряпти. Баъзи тармоқлар аллақачон ахборот-коммуникация технологияларининг (АКТ) кучли таъсирига учраган бўлса, бошқалари бу йўлнинг бошида турибди. Ўзбекистондаги рақамли иқтисодиёт ривожи эса охирги йилларда сезиларли тарзда жадаллашди. Айниқса, унинг асосий қисми ҳисобланган электрон тижорат фаол ривожланиш йўлида ҳаракатланяпти.

Дунёдаги 10 та энг йирик электрон тижорат бозорлари 2023 йил якуни бўйича қуйидагича бўлган:

- Хитой - 2,779 миллиард доллар;
- Америка Қўшма Штатлари - 843 миллиард доллар;
- Буюк Британия - 169 миллиард доллар;
- Япония - 144 миллиард доллар;
- Жанубий Корея - 121 миллиард доллар;
- Германия - 102 миллиард доллар;
- Франция - 80 миллиард доллар;
- Ҳиндистон - 68 миллиард доллар;
- Канада - 44 миллиард доллар;
- Испания - 37 миллиард доллар.

Россиянинг янги бошқарув механизмларига ўтиши шароитида мамлакат иқтисодиётини ягона ахборот маконига интеграция қилиш (бирлаштириш) масаласи долзарб бўлиб қолди. Замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг турли жамоат институтлари ва ишлаб чиқариш тармоқлари фаолиятига кириб бориши билан Интер-нетдан фаол фойдаланишга асосланган тижорат муносабатлари дои-раси сезиларли даражада кенгаймоқда. Бугунданоқ электрон тижо-рат кундалик ҳаётнинг бир қисми, яқин келажакда эса бизнес алоқа-ларини ташкил этишниг бундай шакли оддий ҳолга айланади. Шунга кўра, замонавий иқтисодиёт фанида тушунчаларнинг босқичма-босқич ўзгариши кузатилмоқда, бу “электрон тижорат”, “электрон бизнес” каби турли атамаларнинг пайдо бўлишига олиб келмоқда.

Бошқача қилиб айтганда, маҳсулот ёки ҳатто хизматларни сотиб олиш учун уйдан чиқиб кетишнинг ҳожати йўқ;

- **вақтни тежаш**. Электрон тижоратнинг афзаллиги шундаки, харидорлар йўлаклар орасида қидириш ёки учинчи қаватга кўтарилиш учун вақтни беҳуда сарфламайдилар. Онлайн дўкон ёрдамида маҳсулотларни топиш осон, шунингдек уларни уйнинг эшигигача бир неча кун ичида етказиб бериш мумкин;
- **бир нечта танлов**. Харид қилиш учун уйдан чиқиб кетишнинг ҳожати йўқ. Сиз нафақат материаллар, балки нархлар бўйича ҳам чексиз кўп вариантларни танлашингиз мумкин. Турли хил тўлов усуллари ҳам таклиф этилади, шунинг учун ҳам барча керакли нарсаларни битта жойда топиш мумкин;
- **маҳсулотлар ва нархларни таққослаш осон**. Маҳсулотлар Интернетда топилганлиги сабабли, улар тавсифлари ва хусусият-лари билан бирга келади, шунинг учун уларни ҳатто икки, уч ёки ундан ортиқ Интернет-дўкон ўртасида ҳам осонликча таққослаш мумкин.

Кўп ҳолларда -тўғри фойда олиш учун тижорат операциялари (хизматлар электрон бизнес тушунчаси Интернетда бизнес фаолликнинг умумий тушунчаси сифатида талқин қилинган . Козье Д. электрон тижорат тушунчасини тўғридан ва маҳсулотларни сотиб олиш ва сотиш) билан боғлиқ бизнес операцияларини амалга ошириш жараёни ва фойда олишни қўллаб-қувватлаш (бизнес шериклар ўртасидаги ўзаро муносабатларни осонлаштириш, маҳсулот ва хизматларга талабни яратиш, сотишдан кейинги қўллаб-қувватлаш ва мижозларга хизмат кўрсатиш в.б.) деб айтади. Муаллиф ўзининг “Электрон тижорат” номли ишида электрон тижорат ананавий тижорат тузилмасига асосланган деган хулосани беради.

Электрон тижорат тушунчаси корхоналар ўртасида ёки корхона ва истеъмолчилар ўртасида тижорат операцияларини олиб бориш учун Интернетдан фойдаланиш жараёни каби талқин қилинган. Таъкидланадики, моддий товар ёки хизматлардан фойдаланиш ёки мулк ҳуқуқи узатилишининг бажарилиши бўйича ахборот- коммуникация технологиялари воситасида амалга оширилган ҳар қандай транзакция – бу электрон бизнес. Электрон тижорат фаолияти нуқтаи-назаридан қараганда хулосага қўшилишимиз мумкин, у янги иқтисодий афзалликларни олиб келади, бизнес юритишнинг янги технологияларини ўзида акс эттиради.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР

1. Котлер Ф. Маркетинг. Менеджмент. Учебник для ВУЗов/Ф.Котлер, К.Л. Келлерер. – Спб: Питер, 2017.
2. Кобелев, О.А. Электронная коммерция [Электронный ресурс]: учебное пособие О. А. Кобелев. 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Дашков и К, 2010. 684 с. - Режим доступа: http: // e.lanbook.com.
3. Жуковская И.Е., Бегалов Б.А. Место и роль информационно-комму-никационных технологий в экономическом росте. Монография. Ташкент: Фан, 2014. - 160 с.
4. Венделева М.А. Информационные технологии в управлении: Учебное пособие/ М.А. Венделева, Ю.В. Вертакова. - Люберцы: Юрайт, 2016. - 462 с.
5. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Методологические аспекты влияния информационного общества на инновационное развитие экономики. Моно-графия. Ташкент: Фан ва технологиялар. 2016. – 134 с.
6. Авдошин, С.М. Информатизация бизнеса. Управление рисками [Электронный ресурс] / С.М. Авдошин, Е.Ю. Песоцкая. - М.: ДМК Пресс, 2011. -176 с. – Режим доступа: http: //c.lanbpok.com.
7. Годин, А.М. Интернет-реклама: учебное пособие / А.М. Годин, В.М. Комаров. М: Дашков и К, 2010. - 168 с.
8. Блюмин, А.М., Феоктистов, Н.А. Мировые информационные ресурсы [Электронный ресурс]: учебное пособие / А.М. Блюмин, Н.А. Феоктистов. - М: Дашков и К. 2011. 296 с. Режим доступа: http: // e.lanbook.com
9. Морозов. Ю. В. Основы маркетинга [Электронный ресурс]: учебное пособие / Ю.В. Морозов. –М.: Дашков и К. 2011. 148 с. – Режим доступа: http: // e.lanbook.com.
10. Лазарев. И А. Новая информационная экономика и сетевые механизмы развития (Электронный ресурс] / И.А. Лазарев, Г.С. Хижа, К.И. Лазарев М. Дашков и К. 2010. 244 с. Режим доступа: http //e. lanbook.com

TIJORAT BANKLARINING AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH

Abdusattorova Dildora Bohodirovna[1], A’zamxonov Islomjon A’zamxon o‘g‘li[2]
[1]Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Dotsent, [2]Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, 4-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17270631

Annotatsiya. *Tijorat banklarining aktivlari va passivlarini boshqarish moliyaviy barqarorlik, likvidlik va rentabellikni ta’minlovchi muhim jarayondir. Bu bank resurslarini muvozanatlash, jumladan, depozitlar, kreditlar va investitsiyalarni boshqarish, shu bilan birga risklarni minimallashtirish va daromadni maksimal darajada oshirishni o‘z ichiga oladi. Aktivlar va passivlarni samarali boshqarish (AKM) me’yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta’minlash, bank kapitali tuzilmasini optimallashtirish va o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *aktivlar boshqaruvi, mas’uliyatni boshqarish, tijorat banklari, daromadlilik, risklarni boshqarish, kapital tuzilishi, normativ muvofiqlik, barqaror o‘sish.*

Abstract. *Management of assets and liabilities of commercial banks is an important process that ensures financial stability, liquidity and profitability. It involves balancing the bank’s resources, including managing deposits, loans and investments, while minimizing risks and maximizing returns. Effective asset and liability management (ALM) is important for ensuring regulatory compliance, optimizing a bank’s capital structure, and increasing its ability to meet its obligations.*

Key words: *asset management, liability management, commercial banks, profitability, risk management, capital structure, regulatory compliance, sustainable growth.*

Bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqqan holda, bank-moliya tizimiga bozor munosabatlari nuqtai nazaridan yondashish zarur. Hozirgi kunda esa bank-moliya tizimida ba’zi muammolar mavjud bo‘lib, ba’zi holatlar bozor tamoyillariga to‘liq mos kelmaydi. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2019-yilda Oliy Majlisga Murojaatnomasida bank tizimidagi muammolarga alohida e’tibor qaratib, shunday degan edi: “Bugungi kunda bank tizimidagi asosiy muammo shundaki, banklarning 83 foiz kapitali davlatga tegishli. Bu holat esa bank sektori ichida sog‘lom raqobatning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda va xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari yordamida bank-moliya tizimini rivojlantirish uchun uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi kerak. Bu strategiya doirasida davlat banklarining ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va xususiy hamda xorijiy kapitalning kirib kelishini ta’minlash rejalashtirilmoqda. Bu esa bank sektoridagi raqobatni yaxshilash, tijorat banklarining faoliyatini, kreditlash sifatini va madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.”

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanining asosiy maqsadi tijorat banklarining aktiv va passivlarini samarali shakllantirish va boshqarish, likvidlik va rentabellikni nazorat qilish usullarini tatbiq etish, strategik va operativ rejalashtirish, innovatsion xizmatlarni joriy etish, shuningdek, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning ilmiy va metodologik asoslarini o‘rgatish.

Aktivlarni boshqarish prinsiplarini va usullarini o‘rganish.

Bank majburiyatlarini boshqarish prinsiplarini va usullarini o‘rganish.

Bank kapitalini boshqarish prinsiplarini va usullarini o‘rganish.

Bank risklarini baholash va boshqarishni o‘rganish.


Tijorat banklarining likvidliligini boshqarish.

Bank daromad va xarajatlarini boshqarish.

Tijorat banklari foydasini taqsimlashni o‘rganish.

Bu fan magistratura dasturida "To‘lov tizimi va bank xavfsizligi", "Bank risklari", "Monetar siyosat", "Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar" kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Masalan, "To‘lov tizimi va bank xavfsizligi" fanida tijorat banklarining aktiv va passivlarining shakllanishi va samarali boshqarilishi, kredit siyosati, foiz siyosati, likvidlikni ta’minlashda xavfsizlik choralarini o‘rganish ko‘zda tutilgan. "Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar" fani esa O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirishda dunyoning yetakchi bank tizimlarining tajribasini o‘rganishni ta’minlaydi. "Monetar siyosat" fani orqali esa Markaziy bankning tijorat banklariga ta’siri va kreditlash, likvidlik siyosatlarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. "Bank risklari" fani bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu yerda tijorat banklarining risklarini baholash va boshqarish usullari o‘rganiladi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari, trln. so‘m. (2017-yil 59.6 trln so‘m, 2018-yil 70.0 trln so‘m, 2019-yil 63,9 trln so‘m).

2012-2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari miqdori o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, banklarning resurs bazasini mustahkamlash nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobat muhim omil sifatida foiz siyosatini ajratib ko‘rsatadi, chunki mijozlarni qo‘yilma qo‘yishga undovchi asosiy faktor, ularning qo‘yilgan mablag‘lariga daromad olish imkoniyatidir. Har bir tijorat banki depozit foiz stavkasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan hisob stavkasi, pul bozori holati va bankning depozit siyosatiga asosan mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schetlarining turli shakllarida daromad hajmi qo‘yilma muddati, summasi, hisobvarag‘ining amal

qilish xususiyatlari, xizmatlar hajmi, xarakteri va mijozning qo‘yilma shartnomasi shartlariga rioya qilishga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. “2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strateguyasi to`g`risida” PF-60-sonli Farmoni Lex.uz sayti.
2. Алпатова Э.С., Валиева Л.М. Оценка эффективности потребительского кредитования в региональном коммерческом банке (по данным ООО «КАМКОМБАНК») и совершенствование механизма его организации // Научное обозрение. Экономические науки. 2016. № 2. С. 12–19.
3. Шагазатов О “Истъмол кредитининг ривожланиш омиллари” //Бозор, Пул ва Кредит журнали. –Т.: 2006. -№7.-6-б.
4. Статистик бюлтень, Ўзбекистон Республикаси марказий банки, 2019 йил.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНЫХ КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Аблаева Валентина Борисовна
Старший преподаватель, MBA Ташкентский Архитектурно-Строительный Университет
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270647

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqaro amaliyotda soliqdan qochish holatlarining mohiyati hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ushbu holatlarni oldini olishda mamlakat aholisining moliya-soliq savodxonligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan faoliyatlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Davlat, qonun, budjet, soliqlar, fuqarolar, daromad, soliqdan qochish, soliq imtiyozlari.*

Аннотация. *В данной статье расскрывается сущность и особенности фактов уклонения от налогов в международной практике. В статье предложена рекомендация по совершенствованию управленеия деятельности повышения финансово-налоговой грамотности населения во ижбежение фактов по “уклонению от налогов” в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Государство, закон, бюджет, налоги, граждане, доход, уклонение от налогов, налоговые льготы.*

Abstract. *This article reveals the essence and features of tax evasion facts in international practice. The article offers recommendations for improving the management of activities to improve financial and tax literacy of the population in order to avoid facts of “tax evasion” in Uzbekistan.*

Key words: *Government, law, budget, taxes, citizens, income, tax evasion, tax breaks.*

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy ta’limotda Angliyalik buyuk shotland iqtisodchisi Adam Smit (1723-1790-yy) alohida o‘rin tutadi. Adam Smit 1776-yilda “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi izlanishlar” (“*Исследование о природе и причинах богатства народов*”) deb nomlangan kitobini chop etdi. Olim aynan mazkur kitobda u mehnat unumdorligi va unumsiz bo‘lgan mehnat unumdorligiga asosan davlat moliyasining mohiyati bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur kitob Adam Smitga “iqtisodiyot otasi” yoki “moliya fanining asoschisi” degan unvonini berdi. Siyosiy iqtisodning klassik maktabining asoschisi hisoblangan Adam Smitning asosiy g‘oyasi millatning boyligi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida (fiziokratlar tomonidan ilgari surilgan faqatgina qishloq xo‘jaligida emas) unumli mehnat unumdorligi orqali yaratiladi. Adam Smit moddiy ishlab chiqarishning istalgan sohasiga solingan kapitalni unumli kapital deb hisoblagan. Kapitalni dehqonchilikda qo‘llanish masalasida u mehnatgina emas, balki yerning o‘zi, tabiat ham qiymat yaratadi deb ta’kidlagan. Jamiyatning barcha a’zolari o‘zlariga tegishli daromadlarini yaratilgan milliy boylikka qo‘shgan hissasiga qarab oladi. Suning uchun millatlar boyligi jamiyatda unumli mehnat unumdorligini oshirish orqali yaratiladi va ortib boradi.

Adam Smit o‘z asarida soliqlar nazariyasiga juda katta e’tibor bergan. Soliqlar to‘g‘risida uning “dunyoda inson ikki narsadan, birinchisi o‘limdan va ikkinchisi soliqdan qochib qutula olmaydi” degan dunyoqarashini dunyoning barcha iqtisodchilari yaxshi bilishadi. Lekin shunga qaramay Adam Smit o‘z asarida soliqqa tortishni tashkil etishda to‘rtta asosiy tamoyillarni ishlab chiqqan:

- soliqlar fuqarolarning qobiliyatlari va moliyaviy ahvoliga asosan to‘lanishi lozim;
- soliqlarning miqdorlari va ularning to‘lash muddatlari aniq belgilangan bo‘lishi kerak;
- soliqlarni undirish muddatlari soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lishi kerak;
- soliqlarni undirishda minimal xarajatlar ta’minlanishi lozim.

Adam Smit ilk bor soliqqa tortish tamoyillarini ko‘rsatib berdi, soliqlarni ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to‘lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.[1] U jamiyatda amal qilayotgan soliqlarni (bilvosita, bevosita va ish xaqiga daromad soliqlari) jamiyatning iqtisodiy o‘sishiga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil etgan hamda ularga baho bergan.

Xalqaro amaliyotda “soliqdan qochish” atamasi AQSHlik mashhur iqtisodchi olim Artur Leffer bilan bog‘liq. Davlat budjeti taqchilligini qisqartirishning usullaridan biri bo‘lib, budjet daromadlarini ko‘paytirish hisoblanadi. Davlat budjeti taqchilligini qisqartirishda ushbu usuldan foydalanadigan mamlakat hukumati asosan, quyidagi yo‘nalishlardan foydalanishlari mumkin:

1. Amaliyotga yangi soliqlarni kiritish, ya’ni soliqlar turini ko‘paytirishi;
2. Mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning foiz stavkalarini ko‘tarishi;
3. Amal qilayotgan soliqlar bo‘yicha soliq to‘lovchilarga berilgan imtiyozlarni cheklashi yoki ularni umuman bekor qilishi.

Davlat budjeti taqchilligini qisqartirishda mamlakat hukumati tomonidan faqatgina ushbu usuldan foydalanilganda iqtisodiyotda “Leffer samarasi” (Кривая Леффера) yuzaga chiqadi. A.Leffer fikricha, soliq stavkalarining asossiz ravishda oshirib yuborish natijasida ma’lum muddat davomida davlat budjetiga daromadlarning ortishi kuzatiladi. Lekin soliq stavkasi chegaradan ortib ketsa soliq to‘lovchilarning “soliqlardan qochishi” yuzaga chiqadi. Ushbu holat esa, davlat budjetiga to‘lovlarning kamayishiga olib keladi.[2] Xalqaro amaliyotda keng tarqalgan soliqdan qochish holatlari so‘nggi yillarda mamlakatimizda ham kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan edi. Shu bilan birga, soliq ma’muriyatchiligi sohasida, shu jumladan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda edi. Mazkur kamchiliklarni ijobiy hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli farmonida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish ko‘zda tutilgan.[3] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan yangi taxrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi”ga muvofiq amaldagi soliq tizimiga ko‘plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, avval amal qilgan 13 ta soliqlar unifikatsiya qilinib, ularning turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Soliqlarni to‘lash muddatini uzaytirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat berish bo‘yicha engillashtirilgan mexanizmlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi soliq siyosatiga o‘zining diqqat-e’tiborini qaratib “To‘rtinchidan, fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak. 2019-yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo‘lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘lidir. Shuning uchun bu borada ta’sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur”[4] deb alohida ta’kidlagan. Keyingi yillarda qo‘shni mamlakatimizda fuqarolarning ayrim toifalari uchun “hashamat uchun soliq” joriy qilish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda ham fuqarolarning ayrim toifalarining daromadlarini soliqqa tortish mexanizmiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritilgan. Mamlakatimizda soliqlar va soliqqa tortish muammosini o‘rganish bilan birga, iqtisodiyoti taraqqiy topgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning soliq tizimidagi salbiy holatlarning yuzaga chiqish sabablarini tahlil etish hamda ularda soliq tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlarni o‘rganish, bizga, ushbu sohada kelajakda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda 2018-yilda BMTTD va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilishga ko‘maklashish” deb nomlangan qo‘shma loyihasi doirasida “Fuqarolar uchun 2019-yil budjet loyihasi to‘g‘risida”gi statistik – ko‘rgazmali risolani chop etilishi mamlakatimiz aholisi uchun kutilmagan voqea bo‘ldi.[5] Bu yerda nima uchun budjet loyihasi to‘g‘risidagi axborot mamlakatimiz fuqarolari uchun foydali bo‘lishi mumkinmi degan savol tug‘iladi. Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonning har bir fuqarosi davlat budjeti mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishida ishtirok etadi. Shakllantirishda - soliq to‘lovchi sifatida, foydalanishda esa - davlat tomonidan taqdim

etiladigan xizmat va imtiyozlar iste’molchisi sifatida qatnashadi. Aynan shu sababli O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat budjetining daromadlar qismining qanday shakllantirilishi va ulardan qaysi maqsadlarda foydalanish rejalashtirilayotganligi to‘g‘risida bilishga haqlidirlar.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, insoniyatga soliq nazariyalarning daholari hisoblanadigan Adam Smit va David Rikardolarni etishtirib bergan Angliyada fuqarolarni daromadlarini soliqqa tortish tizimi juda yuksak darajada va ipidan-ignasigacha tashkil etilgan. Tadqiqotlar shundan daloalt beradiki, Buyuk Britaniyada soliqqa tortish tizimining bexato faoliyat yuritishining asosi bo‘lib aholining soliq savodxonligini yuqori darajada ekanligi hisoblanadi. Agarda biz bu holatni O‘zbekistonga taqqolasak bu sohadagi o‘z echimini kutayotgan ko‘plab muammolar borligini guvohi bo‘lamiz. Mamlakatimizda aholi farovonligini oshirishni ta’minlash maqsadida ularga bir qator soliq imtiyozlari berilgan va ular hozirda ham saqlab qolingan. Buning natijasida, respublikamizda aholi turmush darajasini o‘sishiga erishilmoqda. Milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratish maqsadida ularga keng miqyosda soliq imtiyozlari berilgan. Lekin so‘nggi yillarda respublikamizda aholini “soliqdan qochish” va soliqlarni o‘z muddatida to‘lamaslik holatlari ko‘p kuzatilmoqda. O‘zbekistonda fuqarolar va tadbirkorlar o‘rtasida o‘z faoliyatiga tegishli bo‘lmagan soliq imtiyozlaridan o‘z maqsadlari uchun foydalanish orqali soliqdan qochish holatlari tez-tez uchrab turibdi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda soliqdan qochish holatlarini oldini olish maqsadida mutassadi tashkilotlar tomonidan aholini moliya-soliq savodxonligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli va maqsadli ishlarni olib borish lozim. Respublikamidagi ommaviy axborot vositalari yordamida soliqlarning mohiyati, ularni to‘lash tartiblari, soliq imtiyozlari, to‘lanmagan soliqlar bo‘yicha javobgarliklar to‘g‘risida qisqa, sodda va tushunarli kliplarni aholining keng qatlamiga targ‘ibotni amalga oshirish lozim. Ushbu yo‘nalishda nafaqat moliya-soliq organlari balki oliy o‘quv muassasalari, savdo-sanoat palatasi, tadbirkor ayollar uyushmasi kabi manfaatdor tomonlarni o‘zaro hamkorlikda ishlashi orqaligina aholining keng qatlamini moliya-soliq savodxonligini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Пер. с англ - М: ЭКСМО. 2007.
2. Deborah Schanz, Sebastian Schanz. Business Taxation and Financial Decisions (Germany), Springer. 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-4926736
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi.- T: “O‘zbekiston”. 2019.
5. https://www.imv.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В УПРАВЛЕНИИ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИМИ МЕХАНИЗМАМИ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аминов Анвархон Казимович
Ташкентский архитектурно строительный университет, соискатель
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270715

Аннотация. *В данном тезисе рассматриваются инновационные подходы к управлению организационно-экономическими механизмами в предпринимательской деятельности. Актуальность темы определяется необходимостью адаптации предпринимательских структур к условиям цифровой экономики, усилению конкуренции и росту требований к эффективности управления. Определены основные барьеры, препятствующие их внедрению, среди которых финансовые ограничения, недостаток квалифицированных кадров и институциональные препятствия. Предлагаются рекомендации по их преодолению за счёт государственной поддержки, совершенствования нормативной базы и развития инновационной культуры предпринимательства.*
Ключевые слова: *инновации, организационно-экономические механизмы, предпринимательская деятельность, стратегическое управление, цифровая трансформация, инновационный менеджмент.*

Современные условия развития предпринимательства характеризуются динамичными изменениями внешней среды, цифровизацией экономики и усилением конкурентного давления. В этих условиях традиционные организационно-экономические механизмы управления теряют свою эффективность, что обусловливает необходимость внедрения инновационных подходов.

К числу актуальных направлений относятся цифровизация бизнес-процессов, внедрение систем управления на основе данных (data-driven management), использование интегрированных показателей эффективности (Balanced Scorecard, KPI), а также развитие гибких организационных моделей, ориентированных на потребителя. Важное значение приобретают технологии больших данных, искусственного интеллекта и автоматизации, которые позволяют оптимизировать процессы планирования, учета и контроля.

Инновационный подход предполагает не только модернизацию управленческих инструментов, но и трансформацию организационной культуры. В предпринимательской деятельности это выражается в повышении роли стратегического менеджмента, развитии партнерских сетей, диверсификации источников финансирования и интеграции принципов устойчивого развития.

Теоретические основы исследования инновационных подходов в управлении организационно-экономическими механизмами предпринимательской деятельности берут начало в трудах Й. Шумпетера, который рассматривал инновации как ключевой фактор экономического развития и основу предпринимательской активности. Его идеи о роли предпринимателя как носителя нововведений получили дальнейшее развитие в работах П.

Друкера, акцентировавшего внимание на инновационном менеджменте, стратегическом развитии организаций и необходимости постоянного обновления бизнес-процессов.

Важный вклад в изучение организационных и стратегических аспектов управления внесли Г. Минцберг и М. Портер. Первый разработал модели организационных структур и стратегического управления, которые позволяют адаптировать предпринимательские системы к изменениям внешней среды. Второй, в свою очередь, предложил теорию конкурентных стратегий и концепцию «цепочки ценностей», что стало основой формирования современных организационно-экономических механизмов. Концепции Д. Нортона и Р. Каплана, представленные в системе сбалансированных показателей (Balanced Scorecard), позволили связать стратегические цели предпринимательских структур с показателями эффективности, а также обеспечили инструмент для внедрения инновационных управленческих решений. Значительный вклад внёс и К. Кристенсен, разработавший теорию подрывных инноваций, которая применима для анализа трансформаций в предпринимательской деятельности.

В российской научной литературе проблемы организационно-экономических механизмов предпринимательства нашли отражение в работах Е. В. Балацкого и О. Н. Олейниковой, исследующих интеграцию инноваций и организационных изменений в управление предприятиями.

В узбекских исследованиях акцент делается на цифровизации управления и стратегической трансформации предпринимательской деятельности. Работы А. Абдуллаева, Т. Абдуллаевой и А. Шерматова посвящены вопросам внедрения инновационных инструментов и повышению эффективности организационно-экономических механизмов. Б. Ходиев и У. Кучкаров изучают проблемы модернизации предпринимательства, интеграции инновационных технологий и повышения устойчивости национальной экономики за счет совершенствования механизмов управления.

Внедрение инновационных подходов в управление организационно-экономическими механизмами предпринимательской деятельности сопровождается целым рядом проблем, обусловленных как внутренними, так и внешними факторами. Прежде всего, одной из ключевых трудностей является ограниченность финансовых ресурсов. Инновации в управлении требуют значительных инвестиций в цифровую инфраструктуру, обучение персонала, разработку и адаптацию новых бизнес-моделей, что для большинства малых и средних предприятий становится серьёзным барьером.

Не менее важной проблемой остаётся недостаточный уровень компетенций управленческого и исполнительного персонала. Во многих организациях наблюдается дефицит специалистов, способных работать с современными инструментами стратегического менеджмента, цифровыми технологиями и системами аналитики данных. Это приводит к замедлению трансформационных процессов и сопротивлению изменениям внутри компании.

Существенным препятствием выступает и институциональная среда. Во многих странах, включая Узбекистан, нормативно-правовая база не всегда оперативно адаптируется к новым формам организации бизнеса и цифровым инструментам управления. Это снижает возможности предпринимательских структур для легитимного использования инновационных решений и ограничивает их участие в международной конкуренции.

Культурные и психологические факторы также оказывают влияние. Значительная часть предпринимателей демонстрирует консервативное отношение к инновациям, предпочитая традиционные формы ведения бизнеса. Недоверие к новым управленческим моделям и страх рисков часто замедляют внедрение инновационных подходов.

Кроме того, препятствием является недостаточное развитие инфраструктуры поддержки инновационного предпринимательства. Недостаток венчурных фондов, слабая система льготного кредитования, ограниченный доступ к грантам и международным инвестициям сужают возможности для модернизации организационно-экономических механизмов.

Преодоление проблем, возникающих при внедрении инновационных подходов в управление организационно-экономическими механизмами предпринимательской деятельности, требует системных мер на уровне государства, бизнеса и общества. В первую очередь особое значение приобретает государственная поддержка инновационного предпринимательства. Она может выражаться в разработке программ льготного кредитования, налоговых стимулов и грантов для предприятий, внедряющих современные управленческие технологии и цифровые решения. Это позволит снизить финансовые барьеры, особенно для малого и среднего бизнеса, и повысить их инновационную активность.

Важнейшим направлением выступает развитие человеческого капитала. Необходима подготовка и переподготовка специалистов, владеющих современными инструментами стратегического и инновационного менеджмента, технологиями анализа больших данных и цифровыми системами управления. Для этого требуется активное взаимодействие университетов, бизнес-школ и компаний с целью разработки программ обучения, ориентированных на практику, а также привлечение международного опыта и лучших практик.

Значимым фактором является совершенствование нормативно-правовой базы, обеспечивающей легитимное применение инновационных моделей в предпринимательской деятельности. Законодательство должно учитывать специфику цифровой экономики, развитие электронных контрактов, онлайн-платформ и новых организационно-правовых форм ведения бизнеса.

Не менее важным является формирование инновационной предпринимательской культуры. Для этого необходимо развитие экосистемы поддержки стартапов, создание бизнес-инкубаторов и акселераторов, распространение лучших практик управления и стимулирование обмена опытом. Внутри компаний следует развивать систему мотивации сотрудников, нацеленную на освоение инноваций и участие в трансформационных процессах.

Наконец, необходимо расширение инфраструктуры финансирования инноваций. Развитие венчурных фондов, краудфандинговых платформ, частно-государственных партнерств и международных инвестиционных проектов создаст условия для более широкого внедрения инновационных организационно-экономических механизмов.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития.М.: Прогресс, 1982. 455 с.
2. Друкер П. Ф. Инновации и предпринимательство. Практика и принципы. – М.: Вильямс, 2007. – 432 с.

3. Минцберг Г., Альстрэнд Б., Лэмпел Дж. Стратегическое сафари: экскурсия по дебрям стратегического менеджмента. СПб.: Питер, 2000. 336 с.
4. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. – М.: Альпина Паблишер, 2011. – 454 с.
5. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996. – 322 p.
6. Christensen C. M. The Innovator’s Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. – Boston: Harvard Business School Press, 1997. – 252 p.
7. Балацкий Е. В. Инновации и конкурентоспособность предприятий: организационно-экономические механизмы // Вопросы экономики. – 2017. – № 9. – С. 45–58.
8. Олейникова О. Н. Организационно-экономические механизмы управления инновациями на предприятиях. – М.: ИНФРА-М, 2019. – 276 с.
9. Томилов В. В., Наумов А. И. Стратегическое управление и организационно-экономические механизмы развития предпринимательства // Управленческие науки. – 2018. – № 4. – С. 112–124.
10. Абдуллаев А., Абдуллаева Т. Инновационные механизмы в предпринимательской деятельности: цифровизация и управление // Экономика и инновационные технологии. – 2021. – № 3. – С. 118–126.
11. Шерматов А. Стратегическое управление и организационно-экономические механизмы предпринимательства в Узбекистане // Журнал экономических исследований. – 2020. – № 2. – С. 67–75.
12. Ходиев Б., Кучкаров У. Совершенствование организационно-экономических механизмов предпринимательства в условиях цифровой экономики // Экономика и финансы. – 2022. – № 5. – С. 101–110.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALAR: BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM OMILI

Amonova Nazokat Utkurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270723

Investitsiyalar raqamli iqtisodiyot sharoitida jamiyatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda katta ahamiyatga ega hisoblangan muhim omil sanaladi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyot barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Ushbu ish raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarning rolini samaradorlikni oshirish, yangi biznes modellarini yaratish va bozorlarga kirishni kengaytirish uchun muhim vosita sifatida ko‘rib chiqadi. Raqamli texnologiyalarning resurslarni optimallashtirish, it infratuzilmasini rivojlantirish va ishchi kuchi malakasini oshirishga ta’siriga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot, zamonaviy dunyoning ajralmas qismiga aylanib, global iqtisodiyotning asosiy turtki kuchlaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va ulardan foydalanish ko‘lamining kengayishi iqtisodiy o‘sish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning asosiy dvigateliga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar va infratuzilmaga sarmoya kiritish nafaqat biznes samaradorligini oshirishga yordam beradi, balki innovatsiyalar, ish o‘rinlari yaratish va hayot sifatini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Globallashuv va tezkor texnologik taraqqiyot sharoitida raqamlashtirishga faol sarmoya kiritayotgan mamlakatlar sezilarli raqobatdosh ustunlikka ega. Raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va fintechdan tortib sun’iy intellekt va katta ma’lumotlargacha bo‘lgan turli sohalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu sohalar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun katta sarmoyalarni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarning ahamiyati, shuningdek, ularning an’anaviy tarmoqlarni yangi sharoitlarga moslashtirish qobiliyatidir. Bu jarayonda, investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Investitsiyalar raqamli iqtisodiyotda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi:

1. Texnologik yangilanish: Raqamli texnologiyalarni yangilash va modernizatsiyalash uchun mablag‘lar zarur.
2. Kadrlar tayyorlash: Raqamli ko‘nikmalar va bilimlarni rivojlantirishga investitsiya kiritish.
3. Startaplar va innovatsion loyihalar: Yangi g‘oyalar va biznes-modellarni qo‘llab-quvvatlash.

Raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish uchun quyidagi strategiyalar samarali bo‘lishi mumkin:

- Soliq imtiyozlari va subsidiyalar: Investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun davlat tomonidan beriladigan yengilliklar.
- Infrastruktura loyihalari: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy infrastrukturani yaratish.
- Huquqiy va siyosiy barqarorlik: Investitsiyalarni jalb qilish va saqlab qolish uchun muhitni yaxshilash.

Raqamli iqtisodiyotda investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu investitsiyalar texnologik yangilanishlarni, kadrlar tayyorlashni va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish uchun muhitni yaxshilash, siyosiy va huquqiy barqarorlikni ta’minlash zarur.

Raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar kiritishning samaradorligi ko‘pincha bu texnologiyalarning qo‘llanilishi va kengaytirilishiga bog‘liq. Misol uchun, bulutli hisoblash texnologiyalari va sun’iy intellekt kabi sohalarga kiritilgan investitsiyalar, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, xizmatlarni avtomatlashtirishga va yangi bozorlar yaratishga yordam beradi. Bunday texnologiyalarga qilingan investitsiyalar tez orada o‘z samarasini ko‘rsatishi mumkin, chunki ular biznes jarayonlarini optimallashtirish va mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarning barqaror iqtisodiy o‘sish uchun muhimligini ta’kidlaydigan bir nechta faktlar:

YaIM o‘sishi: Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra [1], raqamli texnologiyalarga faol sarmoya kiritayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning yuqori o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda. Masalan, raqamli infratuzilmaga investitsiyalarning har bir qo‘shimcha birligi YaIMni 0,1-0,3% ga oshirishi mumkin.

Investitsiyalar, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sohasida, yalpi ichki mahsulot o‘sishiga bevosita ta’sir qiladi. Investitsiyalar hajmining oshishi ish o‘rinlari yaratilishini, texnologik taraqqiyotni va yangi biznes imkoniyatlarini rag‘batlantiradi. Bu jarayonlar o‘z navbatida iste’mol va investitsiyalar hajmini yanada oshiradi, bu esa iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalarga qilingan investitsiyalar maxsus diqqatga sazovor bo‘lib, ular iqtisodiyotning turli sektorlarida keng ko‘lamli ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotga investitsiya kiritishning jamiyatga ta’siri ham muhim. Bu soha aholining turli qatlamlariga ta’lim va ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish IT, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar tahlili kabi sohalarda millionlab yangi ish o‘rinlarini yaratishi mumkin. 2030 yilga kelib dunyoda 12 millionga yaqin yangi raqamli ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda. Raqamli bilim va ko‘nikmalar jamiyatning keng qatlamlariga tarqalganida, bu ularning iqtisodiy faoliyatga qo‘shilishini osonlashtiradi va shu orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida davlat xizmatlarini samarali va shaffof tarzda ko‘rsatish mumkin, bu esa fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasini oshiradi.

Tadqiqot davomida raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar samarasini tahlili shuni ko‘rsatadiki, texnologik innovatsiyalar va raqamlashtirish sohasiga qilingan har bir dollarlik investitsiya, o‘rtacha YIM o‘sishini 0.13% ga oshiradi (OECD) [2].

Raqamli texnologiyalar sohasidagi har 10 million dollarlik investitsiya taxminan 250 dan 300 gacha yangi ish o‘rinlarini yaratadi, bu asosan dasturiy ta’minot ishlab chiqarish va ma’lumotlar tahlili sohalarida (International Labour Organization).

Global raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar hajmi: Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra[1], 2025 yilga kelib global raqamli iqtisodiyotning hajmi taxminan 16 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda, bu global YaIMning qariyb 20% ni tashkil etadi.

Dunyo bo‘ylab ko‘plab hukumatlar raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqmoqdalar va raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun katta mablag‘ ajratmoqdalar. Masalan, Evropa Ittifoqi 2027 yilgacha raqamlashtirish uchun 20 milliard yevrodan ko‘proq mablag ‘ ajratdi.

O‘zbekiston 2030 yilgacha mamlakatni raqamli jamiyatga aylantirish maqsadida "Raqamli O‘zbekiston 2030" strategiyasini ishlab chiqdi. Ushbu strategiya doirasida telekommunikatsiya infratuzilmasi, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili sohalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning YIMdagi ulushi joriy yilda 8% ga yetishi kutilmoqda, bu esa oldingi yillardagi 5% dan sezilarli darajada yuqori. Bu ko‘rsatkich raqamli texnologiyalarga qilingan keng ko‘lamli investitsiyalarning natijasidir.

Hukumatning raqamli ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan investitsion loyihalari tufayli, so‘nggi uch yilda raqamli texnologiyalar sohasida 30,000 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Bundan tashqari, masofaviy ta’lim tizimlari orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengaytirildi.

Ushbu faktlar raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarning barqaror iqtisodiy o‘sishga va umuman jamiyatning rivojlanishiga erishish uchun asosiy element sifatida ahamiyatini ta’kidlaydi.

Raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar zamonaviy dunyo sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli

texnologiyalarni joriy etish nafaqat biznes samaradorligini oshiradi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Biroq, raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarning maksimal ta’siriga erishish uchun infratuzilmaning mavjudligi, ta’lim dasturlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator omillarni hisobga olish kerak. Davlat sektori, biznes va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik raqamli tashabbuslarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kalitidir.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha, tahlillar natijasida ba’zi takliflar ishlab chiqildi:

Raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi, bu esa kompaniyalarga raqobatbardoshligini oshirish va tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish imkonini beradi.

Investitsiyalar raqamli texnologiyalarning rivojlanishi IT sohasida, shuningdek, ma’lumotlar tahlili va kiberxavfsizlik kabi tegishli sohalarda ish o‘rinlarini yaratish uchun yangi zamin yaratmoqda.

Raqamli infratuzilmaga investitsiyalar kichik va o‘rta korxonalarga xalqaro bozorlarga chiqishga yordam beradi, bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va alohida tarmoqlarga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi.

Investitsiyalar innovatsiya va raqamli startaplarni qo‘llab-quvvatlash innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, bu uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosiy omilidir.

Raqamli ta’limga investitsiyalar va ishchi kuchini takomillashtirish raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo‘lgan mahorat darajasini ta’minlaydi.

Investitsiyalar raqamli texnologiyalar resurslardan yanada samarali foydalanishga va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga yordam beradi, bu barqaror rivojlanishning muhim jihati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asos yaratadi. Ushbu sohada davlat va biznes darajasida strategik qarorlar qabul qilish iqtisodiy barqarorlik va farovonlikning kelajagini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. (2020). *World Development Report 2021: Data for Better Lives*.
2. OECD. (2021). *Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives*.
3. Amonova, N. U.(2022). Improving Market Mechanisms of Financing Investment Activities. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 108–114. Retrieved from https://procedia.online/index.php/philosophy/article/view/243
4. Utkurovna, A. N. (2024). Ways of Developing Market Mechanisms in Financing Investment Activities in Uzbekistan. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(2), 87-93. https://doi.org/10.5281/
5. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti).
6. https://stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi

INDUSTRIAL CLUSTERS IN THE ERA OF INDUSTRY 4.0 – A SOURCE OF SYNERGY AND REGIONAL DEVELOPMENT

Anna Horzela-Miś
Silesian University of Technology, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270726

Abstract. *This paper explores the role of industrial clusters as dynamic ecosystems that enhance innovation, competitiveness, and regional development. It analyzes how geographic proximity, inter-organizational collaboration, and knowledge exchange within clusters contribute to improved business performance. Emphasis is placed on the evolution of cluster models, the impact of Industry 4.0, and the role of science and policy in fostering innovation networks. The study highlights both benefits and limitations of cluster participation and proposes strategic directions for strengthening cluster-based economic development.*
Keywords: *industrial clusters, innovation, Industry 4.0, regional development.*

Introduction

In today's rapidly evolving economic landscape, enterprises are increasingly challenged to maintain competitiveness while simultaneously fostering innovation. Traditional approaches to business growth are proving insufficient in the face of global competition, technological change, and the growing complexity of market dynamics. In response, industrial clusters have emerged as key structures enabling firms to enhance their innovation capacity, operational efficiency, and strategic positioning [1, 2].

Clusters are geographically concentrated networks of interconnected firms, institutions, and organizations that collaborate and compete within specific sectors [3]. They offer a platform for knowledge exchange, joint investment, and technological advancement, creating synergies that individual firms may struggle to achieve independently. Rooted in classical economic theory and developed further by thinkers such as Alfred Marshall and Michael Porter, the cluster concept has become a foundation for both academic inquiry and regional development policy [4, 5].

This paper investigates the strategic importance of industrial clusters in enhancing business competitiveness and innovation. It examines the mechanisms through which clusters operate, including collaboration networks, knowledge diffusion, and shared infrastructure. The analysis places particular emphasis on the Polish context, considering how grassroots cluster initiatives and public policy frameworks support regional economic transformation [6, 7]. By reviewing current literature and theoretical models, this study aims to provide practical insights and recommendations for strengthening cluster-based development strategies in the era of Industry 4.0.

Theoretical background and methodology

The theoretical foundation for the cluster concept dates back to classical economic thought, particularly Adam Smith's idea of labor specialization [8] and David Ricardo's theory of comparative advantage [9]. These principles were further expanded by Alfred Marshall, who introduced the notion of industrial districts and emphasized the benefits of geographical proximity among firms, such as knowledge spillovers and reduced transaction costs [4, 5].

Michael Porter's work in the 1990s marked a turning point in cluster theory by framing it within the context of competitive advantage and territorial economic development. His model highlights the importance of regional ecosystems where firms, suppliers, academic institutions, and government entities form interconnected value chains that drive innovation and competitiveness [1, 3].

In recent years, the concept of clusters has evolved beyond simple geographical groupings. Researchers such as Iammarino and McCann [10]. have emphasized the role of social networks and trust in fostering innovation, while others, including Sölvell [11], have viewed clusters as dynamic knowledge ecosystems involving not only firms, but also financial institutions, media, and public agencies. The diversity of definitions reflects the increasing complexity and multifunctionality of modern clusters [12, 13].

This study employs a qualitative research design based on literature review. Te methodology synthesizes classical and contemporary perspectives to analyze how clusters influence business performance and innovation capacity. The sources include academic literature, policy documents, and empirical case studies on Polish and European clusters. The analysis focuses on collaboration mechanisms, knowledge exchange, and policy support frameworks, with particular attention to grassroots cluster initiatives that dominate the Polish context [14, 2].

By grounding the analysis in both theory and real-world practice, the study aims to provide insights into how clusters function as catalysts for innovation and regional development. Four key hypotheses are proposed to guide this inquiry:

H1: Businesses in clusters show higher innovation levels than independent firms.

H2: Geographic proximity enhances knowledge sharing and competitiveness.

H3: Synergies within clusters lower transaction costs and improve efficiency.

H4: Academic and R&D institutions are crucial to cluster-based innovation.

Results and discussion

The literature review reveals that clusters generate tangible benefits for participating enterprises, especially in the areas of innovation, knowledge exchange, and operational efficiency [15]. Porter's concept of geographically concentrated networks facilitates close collaboration between firms and institutions, fostering a competitive environment that simultaneously encourages cooperation [1, 3].

Clusters support innovation by enabling quicker identification of customer needs and providing platforms for joint development of new technologies. The proximity of firms allows for more frequent, informal exchanges of ideas, leading to faster innovation cycles and product development [16]. Additionally, clusters enhance the commercialization of research outcomes by linking academic institutions with industrial partners [7].

In Poland, grassroots cluster initiatives have proven particularly effective. Businesses initiate cooperation based on shared goals and mutual benefits, such as reduced costs and increased innovation capacity [6]. These bottom-up structures often include SMEs, universities, and local governments, forming a 'triple helix' of cooperation that strengthens regional innovation systems [17].

The emergence of Industry 4.0 further amplifies the importance of clusters. Technologies such as artificial intelligence, automation, and data exchange are more effectively integrated when firms operate within a collaborative network [18, 19]. Clusters offer a conducive

environment for testing, adopting, and scaling these technologies, particularly when supported by R&D institutions and skilled labor [20].

While the benefits are clear, some risks exist. Firms operating within clusters may face challenges such as loss of proprietary knowledge or reduced motivation for independent innovation [21]. Furthermore, cluster effectiveness depends on maintaining a balance between competition and cooperation, and on the capacity of cluster coordinators to foster trust, communication, and strategic alignment [22, 14].

Empirical studies confirm that clusters are more than economic groupings; they act as ecosystems that stimulate entrepreneurship, promote exports, attract foreign investment, and support smart specialization strategies [23, 24]. The synergy effects and shared infrastructure of clusters reduce entry barriers for smaller firms and encourage innovation, even among resource-constrained enterprises. The results confirm the hypotheses presented earlier. Clusters enhance innovation, support efficient knowledge flow, reduce costs, and provide a competitive edge. Their effectiveness, however, depends on context-specific variables, including governance, infrastructure, and the presence of supportive institutions.

Conclusion and recommendations

This study confirms that industrial clusters play a vital role in enhancing business competitiveness, fostering innovation, and driving regional development. By facilitating collaboration among firms, academic institutions, and public agencies, clusters create dynamic environments where knowledge is exchanged efficiently and innovation is accelerated.

The findings affirm that companies participating in clusters experience higher innovation levels, benefit from synergies that reduce transaction costs, and gain access to specialized infrastructure and talent. Clusters also support the diffusion of Industry 4.0 technologies, helping firms adapt to digital transformation and global market demands.

However, the full potential of clusters can only be realized through strategic policy support, well-structured governance, and active engagement of all stakeholders. Risks such as knowledge leakage, monopolization, or reduced independent innovation must be addressed through robust intellectual property frameworks and transparent collaboration rules.

Based on the analysis, the following recommendations are proposed:

1. Enhance public policy frameworks to support cluster development and smart specialization.
2. Promote triple-helix collaboration between business, academia, and government.
3. Invest in education and infrastructure to support skilled labor and technology adoption.
4. Strengthen mechanisms for knowledge protection and responsible innovation sharing.
5. Encourage the development of cluster coordinators with leadership and strategic capabilities.

REFERENCES

1. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
2. Brodzicki, T., & Kuczewska, J. (Eds.). (2012). Clusters and cluster policy in Poland: Competitiveness of enterprises, sectors, and regions. University of Gdańsk Publishing House.

3. Porter, M. E. (2001). Clusters of innovation: Regional foundations of U.S. competitiveness. Council on Competitiveness.
4. Marshall, A. (1890). Principles of Economics. London: Macmillan.
5. Martin, R., Sunley, P. (2001). Deconstructing Clusters: Chaotic Concept or Policy Panacea?, Regional Studies Association Conference on Regionalising the Knowledge Economy, Londyn.
6. Stanienda, J. (2014). The importance of clusters in business innovation. Scientific Journals of Małopolska School of Economics in Tarnów, 24(1), 197–203.
7. Horzela, A., & Olko, S. (2021). The Role of Cluster Policy in Shaping Regional Competitiveness: The Case of Poland. European Research Studies Journal, 24(4), 444–463.
8. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
9. Ricardo, D. (1817). On the Principles of Political Economy and Taxation. London: John Murray.
10. Iammarino, S., & McCann, P. (2006). The Structure and Evolution of Industrial Clusters: Transactions, Technology and Knowledge Spillovers. Research Policy, 35(7), 1018–1036.
11. Sölvell, Ö. (2009). Clusters – Balancing Evolutionary and Constructive Forces. Ivory Tower Publishers.
12. Martin, R., Sunley, P. (2003). Deconstructing clusters: chaotic concept or policy panacea? Journal of Economic Geography, No. 3.
13. Gancarczyk, M. (2005). Efekty sieci a zarządzanie innowacjami w klastrach. Organizacja i Kierowanie, 4(122).
14. Drelich-Skulska, B., Jankowiak, A. H., & Mazurek, S. (2014). Clusters as carriers of innovation for enterprises and regions. Wroclaw University of Economics Publishing House.
15. Knop L. (2013). Zarządzanie klastrem. Koncepcje, strategie, modele. Wydawnictwo Politechniki Śląskiej, Gliwice.
16. Szewczuk-Stępień, M. (2014). Cooperation of business entities and other partners in the implementation of innovative ventures. In J. Foltys & M. Adamska (Eds.), Identification of selected contemporary challenges in the management of organizations in real and digital environments (pp. 174–182). Opole University of Technology Publishing.
17. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: from National Systems and 'Mode 2' to a Triple Helix of university–industry–government relations. Research Policy, 29(2), 109–123.
18. Szum, K., & Magruk, A. (2019). Analysis of Industry 4.0 development conditions in the Podlaskie region. Academy of Management, 3(2), 73–74.
19. Pawłyszyn, I., Fertsch, M., Stachowiak, A., Pawłowski, G., & Oleśków-Szłapka, J. (2020). The Model of Diffusion of Knowledge on Industry 4.0 in Marshallian Clusters. Sustainability, 12(9), 3815.
20. Götz, M., & Jankowska, B. (2017). Clusters and Industry 4.0 – do they fit together? European Planning Studies, 25(9), 1633–1653.
21. Shaver, J. M., & Flyer, F. (2000). Agglomeration Economies, Firm Heterogeneity and Foreign Direct Investment in the United States. Strategic Management Journal, 21(12), 1175–1193.
22. Bembenek, B. (2017). Clusters of Industry 4.0 in a Knowledge-Based Sustainable Economy. Scientific Papers of Wroclaw University of Economics, (491), 41–42.

XALQARO INVESTITSIYLAR BOZORIDA KORPORATIV TUZULMALAR ISHTROKI

Anvarov Nozimjon Maxsudbek o`g`li[1], Nazirov Otashinxoja Hayrullo o‘g‘li[2]
[1]Toshkent davlat iqisdiyot universiteti Andijon fakulteti “Mutaxassislik, ijtimoiy –gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi katta o`qtuvchisi,
[2]Toshkent davlat iqisdiyot universiteti Andijon fakulteti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” yo`nalishii 4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270732

Annotatsiya. *So‘nggi yillarda xalqaro investitsiyalar bozorida korporativ tuzilmalarning roli tobora ortib bormoqda. Xususan, ko‘p millatli kompaniyalar va investitsiya fondlari global iqtisodiy jarayonlarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va investitsiya muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada korporativ tuzilmalarning xalqaro investitsiya bozoridagi o‘rni, ularning strategiyalari hamda O‘zbekiston investitsiya muhitiga ta’siri tahli qilingan.*
Kalit so‘zlar: *Xalqaro investitsiyalar, Korporativ tuzilmalar, Ko‘p millatli kompaniyalar, Investitsiya strategiyalari, Moliyaviy bozorlar, Investitsiya fondlari Globalizatsiya, Investitsiya muhit, Raqobatbardoshlik.*

Аннотация*. В последние годы роль корпоративных структур на международном инвестиционном рынке значительно возросла. В частности, транснациональные компании и инвестиционные фонды играют важную роль в обеспечении финансовой стабильности и формировании инвестиционной среды в глобальных экономических процессах. В статье анализируется участие корпоративных структур на международном инвестиционном рынке, их стратегии и влияние на инвестиционный климат Узбекистана.*
Ключевые слова: *Международные инвестиции, Корпоративные структуры, Транснациональные компании, Инвестиционные стратегии, Финансовые рынки, Инвестиционные фонды, Глобализация, Инвестиционная среда, Конкурентоспособность.*

Abstract. *In recent years, the role of corporate structures in the international investment market has increased significantly. In particular, multinational companies and investment funds play an important role in ensuring financial stability and shaping the investment environment in global economic processes. This article analyzes the participation of corporate structures in the international investment market, their strategies, and their impact on the investment climate of Uzbekistan.*
Keywords: *International investments, Corporate structures, Multinational companies, Investment strategies, Financial markets, Globalization, Investment environment.*

Kirish

Bugungi kunda xalqaro investitsiyalar jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar mamlakatlar o‘rtasida kapital oqimlarini ta’minlaydi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi va yangi ish o‘rinlari yaratadi. Xususan, korporativ tuzilmalar — ko‘p millatli kompaniyalar va investitsiya fondlari — xalqaro moliya bozorlarining eng faol ishtirokchilari sifatida maydonga chiqmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham investitsiya siyosatini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida xorijiy investitsiyalar hajmini ko‘paytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va yirik xalqaro korporatsiyalarni jalb qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali investitsiya muhitining jozibadorligi oshirilmoqda.

Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda korporativ tuzilmalar ishtiroki muhim rol o‘ynaydi. Bu davlatlar ko‘p millatli kompaniyalarni jalb etish orqali sanoatni modernizatsiya qilgan va eksport salohiyatini kengaytirgan. O‘zbekiston ham aynan shunday yo‘ldan borib, xalqaro investitsiya bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda.

Korporativ tuzilmalar va ularning roli

Korporativ tuzilmalar – bu ko‘p millatli kompaniyalar yoki investitsiya fondlaridir, ular global investitsiya strategiyalarini amalga oshiradilar. Ular innovatsiyalarni rivojlantirish, shuningdek, o‘z mamlakatlaridagi iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning "Uzbekinvest" kompaniyasi kabi davlat investitsiya kompaniyalari xalqaro bozorga kirish imkoniyatlarini yaratadi.

Xalqaro investitsiyalar bozorining tuzilishi:

Xalqaro investitsiyalar bozori – bu mamlakatlar o‘rtasida kapital, moliya va resurslar almashinuvi. Bu bozorning asosiy komponentlari: to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalari va moliyaviy xizmatlar. 2020 yilda, pandemiya sababli, xalqaro investitsiyalar 42% ga kamaydi, bu esa bozorning qanchalik noaniq ekanligini ko‘rsatadi.

Korporativ tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya strategiyalari:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar: ko‘p millatli kompaniyalar yangi bozorlar va resurslar qidirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshiradilar. Masalan, Coca-Cola va Unilever kabi kompaniyalar yangi bozorlarni o‘z ichiga oluvchi strategiyalarni ishlab chiqadilar.

Portfel investitsiyalari: investitsiya fondlari aksiyalar va obligatsiyalar orqali diversifikatsiyalangan investitsiya portfellarini yaratadilar. Bu, o‘z navbatida, kapitalning xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Korporativ tuzilmalar va globalizatsiya:

Globalizatsiya korporativ tuzilmalar faoliyatini kuchaytiradi, bu esa xalqaro investitsiyalar oqimlarini tezlashtiradi. Mamlakatlar o‘rtasida savdo va investitsiya aloqalari kuchaymoqda, bu esa iqtisodiy rivojlanishga ta’sir qiladi.O‘zbekistonning global iqtisodiyotga integratsiyasi, investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlar uchun imkoniyatlarni yaratish orqali amalga oshirilmoqda.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston investitsiya muhiti so‘nggi yillarda sezilarli darajada yaxshilandi. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq imtiyozlari va xorijiy investorlarga berilgan kafolatlar natijasida 2015–2023 yillarda investitsiyalar hajmi barqaror o‘sib bordi. Quyidagi jadvalda jahon va O‘zbekiston investitsiyalari hajmi taqqoslanadi.

Yil	Global investitsiyalar (trln. AQSh doll.)	O‘zbekiston investitsiyalari (mlrd. AQSh doll.)	Tendensiya
2015	1.9	3.2	Barqaror o‘sish
2017	2.1	4.1	O‘sish
2019	1.7	4.9	Sekinlashuv
2020	0.85	3.6	Pandemiya ta’siri
2021	1.65	6.4	Tiklanish
2023	1.9	12.0	Keskin o‘sish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2015-2023 yillar oralig‘ida ham jahon, ham O‘zbekistonga kirib kelgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXIB) hajmi umumiy o‘sish tendentsiyasini namoyon etgan. Biroq, 2020 yilgi global pandemiya tufayli jahon TXIB hajmi keskin pasayib, 1,15 trln. dollargacha tushgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda tiklanib, 2023 yilga kelib 1,72 trln. dollarga yetdi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun bu davr juda muhim bo‘ldi. Mamlakatingizga kirib kelgan TXIB hajmi 2015 yildagi 1,1 mlrd. dollardan barqaror o‘sib, 2023 yilga kelib 4,1 mlrd. dollarga ko‘tarildi. Bu o‘sish 2016 yildagi “Taraqqiyot strategiyasi” va boshqa islohotlarning bevosita natijasidir. Ayniqsa, 2020 yilda ham, jahon TXIB keskin pasayganiga qaramay, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 1,9 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu holat mamlakatning investorlar uchun ishonchli va barqaror makon sifatida shakllanishi, shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilgan investitsiya siyosati samaradorligidan dalolat beradi.

Eng muhim ko‘rsatichlardan biri – O‘zbekistonning global TXIB dagi ulushidir. Bu ko‘rsatkich 2015 yilda atigi 0,063% bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib deyarli 4 baravar o‘sib, 0,238% ni tashkil etdi. Bu O‘zbekistonning xalqaro investitsiya xaritasida tobora muhimroq o‘rin egallab borayotganini ko‘rsatadi.

Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, bu ulush hali ham jahon miqyosida juda kam bo‘lib, potensial hali ham to‘liq ochilmagan. Bu esa, bir tomondan, mamlakatda yanada qulay investitsion muhit yaratish, erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish va yirik xalqaro korporatsiyalarni jalb qilish orqali TXIB hajmini yanada oshirish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Jadval ma’lumotlari O‘zbekistonning so‘nggi yillarda investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosatning samarali ekanligini aniq ko‘rsatmoqda. Biroq, global raqobatni hisobga olgan holda, ushbu ijobiy dinamikani saqlab qolish va mustahkamlash uchun islohotlarni davom ettirish, shaffoflikni oshirish va infratuzilmani rivojlantirish zarur.



1-chizma

Yuqoridagi 1-chizma va jadval ma’lumotlari 2015-2023 yillar oralig‘ida O‘zbekistonga kirib kelgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXIB) hajmining aniq dinamikasini va o‘sish sur’atlarini aks ettiradi.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, davr boshida (2015-2019) investitsiyalar hajmi barqaror va doimiy o‘sish tendentsiyasini namoyon etgan. Investitsiyalar hajmi 2015 yildagi 3,2 mlrd. dollardan 2019 yilga kelib 4,9 mlrd. dollargacha ko‘tarilgan. Bu davrdagi o‘rtacha yillik o‘sish davlat tomonidan investitsion muhitni yaxshilash, erkin iqtisodiy zonalar yaratish va investorlarga imtiyozlar berish kabi dastlabki islohot chora-tadbirlarining samarasi sifatida baholanishi mumkin.

2020 yil butun dunyoni qamrab olgan global pandemiya sharoitiga qaramay, diagramma O‘zbekistondagi investitsiyalar hajmining keskin pasayishdan qochganligini, aksincha, ma’lum darajada barqarorlikni saqlab qolganligini ko‘rsatadi. 2020 yilda ko‘rsatkich 3,6 mlrd. dollarni tashkil etdi, bu 2017 yil darajasiga yaqin bo‘ldi. Bu holat mamlakat iqtisodiyotining mustahkamligi, davlatning pandemiya davridagi samarali iqtisodiy siyosati va investorlarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonchining yuqoriligi bilan izohlanishi mumkin.

2021 yildan boshlab diagrammada investitsiyalar hajmining keskin va tezkor o‘sishi kuzatiladi. Bu o‘sish 2020-yillarning boshidan boshlab amalga oshirilgan chuqur islohotlar, jumladan, Prezidentning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"ning dastlabki ta’siri, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va yirik xalqaro korporatsiyalarning mamlakatga kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan. Investitsiyalar hajmi 2021 yilda 6,4 mlrd. dollarga, 2022 yilda 9,0 mlrd. dollarga, 2023 yilda esa 12,0 mlrd. dollarga ko‘tarilgan. Ayniqsa, 2023 yilgi rekord ko‘rsatkich (2015 yilga nisbatan deyarli 4 baravar o‘sish) O‘zbekistonning xalqaro investitsiya bozorida tobora muhimroq o‘rin egallab borayotganining aniq isbotidir.

Diagrammadagi chiziqning umumiy yo‘nalishi yuqoriga qarab, bu mamlakatga qiziqishning doimiy o‘sish tendentsiyasini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ushbu vizual ma’lumot O‘zbekistonning so‘nggi yillarda investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosatning juda samarali ekanligini aniq tasdiqlaydi. Biroq, global raqobatni hisobga olgan holda, ushbu ijobiy dinamikani saqlab qolish va mustahkamlash uchun islohotlarni davom ettirish, shaffoflikni oshirish va infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Xulosa

Xalqaro investitsiyalar bozorida korporativ tuzilmalar ishtiroki global iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismidir. Ko‘p millatli kompaniyalar va investitsiya fondlari kapital oqimlarini ta’minlash, texnologiyalarni joriy etish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoatni modernizatsiya qilish va yangi ish o‘rinlari yaratishning asosiy vositasidir.

Kelgusida O‘zbekiston xalqaro investitsiya bozorida o‘z o‘rnini yanada mustahkamlashi uchun quyidagi tavsiyalar muhimdir:

– xorijiy investorlarga yanada qulay shart-sharoit yaratish;

– xalqaro korporatsiyalar bilan qo‘shma loyihalarni ko‘paytirish;

– innovatsion va yuqori texnologiyali sohalarga investitsiya oqimini oshirish;

– investitsiya siyosatida barqarorlik va shaffoflikni ta’minlash.

Shu yo‘l bilan, korporativ tuzilmalar ishtiroki mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNCTAD. (2021). World Investment Report 2021. United Nations Conference on Trade and Development.
2. Qodirov, M. (2019). O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar va ularning o‘sishga ta’siri. Iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish masalalari, 3(1), 45-50.
3. Abdullayev, A. (2020). Korporativ boshqaruv va investitsiyalar: O‘zbekiston tajribasi. Moliya va iqtisodiyot, 2(4), 12-20.
4. Savinova D.V. O formirovanii mehanizma privlecheniya kreditnyh resursov v malyy biznes. – Moskva, 2009.
5. Sinki J. Financial Management in Commercial Bank and Financial Services Industry. – Alpina Publisher, 2017.
6. Schumpeter J. Osnovy predprinimatelstva. – Delo, 1974.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.
8. Ilmiy rahbar taqdim etgan ma’ruza matnlari.

РАҚАМЛИ ТАҲЛИЛ ВА МАЪЛУМОТЛАРНИ ВИЗУАЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ИҚТИСОДИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ЎРНИ

Асимова Феруза Абдусатторовна
Тошкент давлат техника университети, и.ф.ф.д., катта ўқитувчи.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270748

Аннотация. *Рақамли иқтисодиёт шароитида катта ҳажмдаги маълумотлар иқтисодий тадқиқотларнинг асосий манбаи сифатида намоён бўлмоқда. Шундай шароитда рақамли таҳлил методлари – машинали ўқитиш, прогнозлаштириш моделлари ва иқтисодий симуляция усуллари – иқтисодий жараёнларни чуқур таҳлил қилиш имконини беради. Маълумотларни визуаллаштириш эса тадқиқот натижаларини*

интуитив, кўринишда ва осон қабул қилинадиган шаклда ифодалаш орқали илмий хулосаларнинг самарадорлигини оширади. Графиклар, интерактив дашбордлар ва инфографикалар ёрдамида иқтисодий тенденциялар, бозор конъюнктураси ҳамда макроиқтисодий ўзгаришларни кенг аудиторияга етказиш осонлашади. Шу тариқа, рақамли таҳлил ва визуаллаштириш воситалари замонавий иқтисодий тадқиқотларда илмий асосланган қарор қабул қилиш жараёнларини тезлаштиради, уларнинг ишончлилиги ва амалий қийматини оширади.

Калит сўзлар: *рақамли таҳлил, маълумотларни визуаллаштириш, иқтисодий тадқиқотлар, статистик маълумотлар, макроиқтисодий кўрсаткичлар, инфляция, ЯИМ, ишсизлик, дашборд, инфографика, Big Data, рақамли иқтисодиёт.*

XXI асрда рақамли технологиялар иқтисодий жараёнларни таҳлил қилишда асосий омилга айланди. Катта ҳажмдаги маълумотлар (Big Data), сунъий интеллект ва машинали ўқитиш усуллари иқтисодий тадқиқотларнинг самарадорлигини оширмоқда. Шу билан бирга, статистик жадваллар ва визуаллаштириш воситалари маълумотларнинг тушунарли ва мантиқий тарзда тақдим этилишини таъминлайди.[1].

Рақамли таҳлил иқтисодий жараёнларни чуқур англаш ва келажак тенденцияларини башорат қилиш имконини беради. Мисол қилиб, машинали ўқитиш алгоритмлари орқали бозор нархлари прогноз қилинади, макроиқтисодий кўрсаткичлар (инфляция, ишсизлик, ЯИМ ўсиши) рақамли моделлар асосида таҳлил қилинади ва тадқиқотчи анъанавий статистикадан ташқари динамик маълумот манбалари (онлайн платформалар, ижтимоий тармоқлар)дан фойдаланиши мумкин.[2].

Қуйида рақамли таҳлил ва визуаллаштириш усуллари ёрдамида кўриб чиқилиши мумкин бўлган иқтисодий кўрсаткичлар 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал.

Ўзбекистонда асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар (2021–2024 йиллар) [7].

Йил	ЯИМ ўсиши (%)	Инфляция (%)	Ишсизлик (%)	Экспорт ҳажми (млрд. $)	Интернет қамрови (%)
2021	7.4	10.9	9.7	16.5	65
2022	5.7	12.3	9.0	19.3	70
2023	6.0	9.2	8.6	21.4	75
2024*	6.5	8.5	8.1	23.0	80

2025 йилнинг январ-июн ойларида иқтисодиёт ва тармоқларида эришилган ва кутилаётган натижалардан ялпи ички маҳсулот ҳажми 6,7−6,8 фоиз атрофида шаклланиши кутилмоқда. Хусусан:саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми-6,3 фоиз;

-бозор хизматлари-13,5 фоиз;

-қишлоқ хўжалиги-4 фоиз;

-қурилиш ишлари-9,7 фоизга ўсиши кутиляпти.

Инфляция даражаси йил бошига нисбатан 4,2 фоизни (2024 йилнинг мос даврида-5,2 фоиз) ёки йиллик ҳисобда 8,7 фоизни (10,6 фоиз) ташкил қилди.[3].

Давлат бюджети даромадлари 144,2 трлн сўмни ташкил этди. Бу-ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 31,4 трлн сўм ёки 27,8 фоизга кўп.

Ярим йилликда бюджет харажатлари 13,1 фоизга ўсиб, 173,3 трлн сўмга етди.

Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ҳисобидан жами 1,6 млрд долларлик ресурслар ажратилди.

Саноат тармоқлари

6 ойлик саноат ишлаб чиқариши 460 трлн сўмни ташкил этиши кутилмоқда.

Йирик корхоналар томонидан 56,7 тонна олтин (ўсиш-3,8 фоиз), 80 тонна кумуш (16 фоиз), 24,7 млн. кв. м. ойна (1,3 баробар), 7 млн тонна цемент (10,1 фоиз), 29 млн. кв. м. гипсокартон (13,4 фоиз), 360 млн. кв. м. ип газлама (12,3%), 438 млн дона трикотаж маҳсулотлари (9,2 фоиз), 112 минг тн. трикотаж мато (8,4 фоиз) ишлаб чиқарилди.

Бунда, республика товар-хомашё биржаси битимлари ҳажми 1,3 баробарга (82,7 трлн сўмгача) ошди.

Ҳудудлар кесимида саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича Жиззах (11,8%), Навоий (10,7%), Хоразм (9,4%), Наманган (9%) ва Қашқадарё (7,2%) вилоятларида юқори ўсиш кутилмоқда.

Бунда, ҳудудларда фаолият кўрсатмаётган 4,5 мингта саноат корхонаси фаолияти қайта йўлга қўйилиб, 112 млрд сўмлик қувват яратилди ва 7 мингта иш ўрни тикланди.

Экспорт

2025 йилнинг 1 ярим йилида экспорт ҳажми 16,9 млрд долларни (ўсиш-33 фоиз) ташкил этди. Бунда, товар ва хизматлар экспорти (махсус экспортсиз) 23 фоизга ошишии кутилмоқда (10,4 млрд доллар).

Йил бошидан 1557 та янги корхона экспорт фаолиятига жалб этилиб, улар томонидан 650 млн долларлик экспорт амалга оширилди. [4].

Олтиндан ташқари, экспортдаги ўсиш асосан мева-сабзавот маҳсулотлари (140 фоиз, +243 млн доллар), заргарлик буюмлари (4,6 бар., +170 млн доллар), уран (123 фоиз, +97 млн доллар), қурилиш материаллари (117 фоиз, +61 млн доллар), ун (142 фоиз, +55 млн доллар), электр техника ва кабеллар (108 фоиз, +44 млн доллар), фармацевтика маҳсулотлари (120 фоиз, +18 млн доллар), туризм (154 фоиз, +705 млн доллар), ахборот (193 фоиз, +219 млн доллар) ва транспорт хизматлари (122 фоиз, +207 млн доллар) эвазига таъминланди.

Ҳудудлар кесимида Тошкент шаҳар (ўсиш 131 фоиз, +493 млн доллар), Самарқанд (138 фоиз, +129 млн доллар), Навоий (118 фоиз, +97 млн доллар), Сурхондарё (162 фоиз, +74 млн доллар), Фарғона (120 фоиз, +67 млн доллар), Хоразм (119 фоиз, +39 млн доллар) вилоятларида экспорт ҳажмларида юқори ўсиш суръатларига эришилди.

Банк-молия соҳаси ва инвестициялар

Жорий йилнинг июнь ойида иқтисодиётга кредит қўйилмалари қолдиғи ҳажми 618,5 трлн сўмни ташкил этиб, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 18,1 фоизга, халқаро пул ўтказмалари 26,3 фоизга (8,2 млрд доллар) ўсди.

Тижорат банклари томонидан ташқи манбалардан жорий йил I ярим йилликда жами 3,6 млрд доллар (йиллик режа 6 млрд доллар) жалб қилинди ва қиймати юз минг доллардан юқори бўлган 1300 дан ортиқ лойиҳа (уларнинг жами қиймати 2,3 млрд доллар) молиялаштирилди.

Йил бошидан асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар ҳажми дастлабки маълумотларга кўра 265,2 трлн сўмга (ўсиш 108,3%) етиб, уларнинг 71 фоизини хорижий инвестициялар ташкил этди.

Ўтган 6 ойда 18,7 млрд долларлик хорижий инвестиция киритилди. Шундан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва кредитлар 16,7 млрд доллар, давлат кафолати остидаги хорижий кредитлар-2 млрд доллар.

Шу билан бирга, бюджет ҳисобидан инвестицияларни молиялаштиришга ажратилган маблағ 34,6 фоизга ошди (13,3 трлн сўм).

Қишлоқ хўжалиги

Қишлоқ хўжалигида 177,1 трлн сўмлик маҳсулот етиштирилиши кутилмоқда.

Бунда, мева 5,3 фоиз (1,1 млн тн), полиз экинлари-6,6 фоиз (277 минг тн), гўшт 3,6 фоиз (1,4 млн тн), тухум 4,4 фоизга (3,9 млрд дона) ўсади.

Иқтисодий тадқиқотларда визуаллаштириш воситалари қуйидаги имкониятларни яратади:

1. **Тенденцияларни тез англаш** (график ва диаграммалар орқали).
2. **Интерактив таҳлил** (дашбордлар ёрдамида жорий вазиятни кузатиш).
3. **Қарор қабул қилишда ёрдам** (ишлаб чиқарувчилар, инвесторлар, давлат органлари учун).

2-жадвал

Иқтисодий тадқиқотларда визуаллаштириш турлари ва имкониятлари [5].

Визуаллаштириш тури	***Афзалликлари***	***Қўлланилиши***
Гистограмма	*Миқдорий маълумотларни таққослаш*	*Бюджет тақсимоти, бозор улуши*
Линияли график	*Вақт бўйича динамикани кўрсатиш*	*Инфляция, ЯИМ ўсиши*
Дашборд	*Интерактив таҳлил*	*Давлат бошқаруви, бизнес стратегия*
Инфографика	*Мураккаб маълумотни соддалаштириш*	*Ижтимоий тадқиқотлар, оммавий маърузалар*

AI, кенгайтирилган реаллик ва квант ҳисоблаш каби инновациялар рақамли эгизакларнинг имкониятларини кенгайтиришда давом этади, ишлаб чиқаришни оптималлаштириш ва бошқарувни такомиллаштириш учун янги воситаларни тақдим этади. Келажакда рақамли эгизаклар корхоналарнинг рақамли трансформациясининг янада муҳим элементига айланади ва экологик барқарор ҳамда юқори самарали саноат экотизимларини қуришга ёрдам беради.

Инновациялар ва рақамли трансформация замонавий саноатни ривожлантиришда асосий роль ўйнайди. Илғор технологиялардан фойдаланиш корхоналарга самарадорликни ошириш, харажатларни камайтириш ва ўзгарувчан бозор шароитларига мослашиш имконини беради. Бироқ, рақамли ечимларни амалга ошириш жараёни катта сармоя, малакаи мутахассислар ва пухта ишлаб чиқилган стратегияларни талаб қилади. Мавжуд қийинчиликларга қарамай, саноатни рақамлаштириш кенг истиқболларни очиб беради, ишлаб чиқаришни янада мослашувчан, барқарор ва жаҳон иқтисодиётида рақобатбардош қилади.[6].

Замонавий иқтисодий тадқиқотларда рақамли таҳлил ва визуаллаштириш воситалари асосий аҳамият касб этмоқда. Улар орқали иқтисодий жараёнларнинг тўлиқ

манзараси яратилади, илмий асосланган хулосалар чиқарилади ва амалиёт учун самарали қарорлар қабул қилиниши таъминланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Abdusattorovna, Asimova Feruza. "Central Asian Journal." (2024).
2. Asimova, F. (2023). SANOAT KORXONALARIDA INNOVASION FAOLIYATNING RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 139-143.
3. Асимова, Ф. А. (2022). АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. Gospodarka i Innowacje., 23, 402-406.
4. Абдусаторовна, А. Ф. (2023). АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.
5. Abdusattorovna A. F. Product Diversification In Industrial Enterprises //European Scholar Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 113-114.
6. Stata.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА РИЭЛТОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ОИД ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Ашуров Зуфар Абдуллоевич[1], Хусанов Нодирбек Джуммаевич[2]

[1]Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази директори ўринбосари, и.ф.ф.д. (PhD), проф;

[2]Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги директорининг биринчи ўринбосари, и.ф.н.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17399378

Аннотация. *Мақолада Ўзбекистонда риэлторлик фаолиятининг ҳозирги ҳолати, унинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш зарурати ҳамда янги таҳрирдаги “Риэлторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонун лойиҳасининг мазмун-моҳияти ёритилган. Асосий эътибор риэлторлик бозоридаги яширин фаолиятларни қисқартириш, хизматлар шаффофлигини таъминлаш, рақамли трансформацияни жорий этиш ва халқаро стандартларига мувофиқ молиявий хатарларни бартараф этишга қаратилган. Шунингдек, мақолада Туркия, Германия, Франция, АҚШ, Канада ва Сингапур тажрибалари таҳлил қилиниб, Ўзбекистон учун давлат ва жамоат назоратини уйғунлаштирган моделни жорий этиш таклиф этилган.*

Калит сўзлар: *риэтор, риэлторлик фаолияти, риэторлик фаолияти тўғрисидаги қонунчилик, мультилистинг тизими.*

Бугунги кунда мамлакатимиздаги кўчмас мулк бозори сўнгги йилларда жадал суръатларда ривожланмоқда, янги турар-жой массивлари барпо этилмоқда, ипотека бозори кенгаймоқда, инвестициявий фаоллик ортиб бормоқда. Шу билан бирга, бозорда норасмий воситачиларнинг кўпайиши, “яширин иқтисодиёти”нинг сақланиб қолиши ва айрим ҳолларда фуқароларнинг ҳуқуқлари бузилиши каби салбий ҳолатлар ҳам мавжуд.

Риэлторлик фаолиятини тартибга солиш соҳасида амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни замонавий тенденцияларга ва қонунчиликдаги ўзгаришларга мувофиқлигини танқидий ўрганиш тўғридан-тўғри амал қиладиган қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш заруратини тақозо этди. Шу боис, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 мартдаги ПҚ–101-сон “Давлат активларини бошқариш агентлиги фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори [1] билан тасдиқланган “Йўл харитаси”да риэлторлик соҳасидаги энг яхши халқаро тажрибани ўрганган ҳолда, соҳанинг ўзини-ўзи бошқариш механизмларини ҳамда ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш, риэлторлик хизматлари сифатини ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг «Риэлторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонунининг янги таҳрири лойиҳасини ишлаб чиқиш вазифаси белгиланди.

Таъкидлаш жоизки, 2010 йилда қабул қилинган амалдаги “Риэлторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонун [2] кўп жиҳатдан ўз вазифасини бажарган бўлса-да, бугунги кунда унинг қатор нормалари замон талабларига жавоб бермайди, унда шиддат билан ривожланиб бораётган кўчмас мулк бозорининг замонавий талаблари қамраб олинмаган. Жумладан, риэлторлик фаолиятини “соядан” чиқариш, соҳада яширин амалиётларни қисқартириш, кўчмас мулк бозорининг рақамли трансформацияси ва риэлторлик хизматларини рақамли платформалар орқали кўрсатиш, ҳамда риэлторлик хизматларини “ягона дарча” тамойили асосида кўрсатиш бўйича ҳуқуқий инструментлар белгиланмаган. Риэлторлик субъектлари фаолиятининг шаффофлигини таъминловчи механизмлар назарда тутилмаганлиги истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари бузилишига шароит яратиб бермоқда. Бундан ташқари, ФАТФ (молиявий чораларни ишлаб чиқиш бўйича гуруҳ) талабларидан келиб чиқан холда риэлторлик фаолиятида жиноий даромадларни легаллаштиришга, терроризмни ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш масалалари тўлиқ ёритилмаган.

Бугунги кунда, республикада 285 та риэлторлик ташкилоти, 684 та риэлтор ҳамда 2 та риэлторлик бирлашмаси (Риэлторлик ташкилотлари уюшмаси ҳамда Ўзбекистон Риэлторлар гильдияси) фаолият юритмоқда. Иқтисодий таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, 2024 йилнинг ўзида 108 нафар норасмий воситачилар (маклерлар) умумий қиймати 3,9 трлн сўмлик 19 мингта кўчмас мулк билан боғлиқ битимларда вакил сифатида иштирок этган, улар орқали айланма триллионлаб сўмни ташкил этган. Бу эса давлат бюджетидан солиқ тушумларини камайтириш билан бирга, фуқароларнинг ҳуқуқларига ҳам салбий таъсир кўрсатган. Шунингдек, 2022-2024 йилларда 19 та риэлтор томонидан аҳолининг 448 та кўчмас мулк объектини арзон нархларда сотиб олиб, кейинчалик уларни қиммат нархда сотиш фаолияти билан шуғулланиш ҳолатлари аниқланган.

Шу боис, қайд этилганлар ушбу ҳолталар амалдаги “Риэлторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонунга тегишли ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритган ҳолда унинг янги таҳирдаги лойиҳасини ишлаб чиқиш заруриятини тақозо этди. Натижада, Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳамда унинг таркибидаги Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази билан ҳамкорликда “Риэлторлик фаолияти тўғрисида”ги янги таҳрирдаги Қонун лойиҳаси ишлаб чиқилди. Қонун лойиҳаси 2025 йилда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилиниб [3], Сенан томонидан маъқулланди [4].

Қонун лойиҳасининг асосий мақсади этиб риэлторлик хизматларининг яширин бозорини қисқартириш, риэлторлик субъектларининг очиқлиги ва шаффофлигини

таъминлаган ҳолда ҳалол рақобатни ривожлантириш, ушбу хизматлар истеъмолчиларининг риэлторларга нисбатан ишончини ошириш, риэлторлик бирлашмаларининг ўрнини кенгайтириш белгиланмоқда.

Янги таҳрирдаги қонунда қатор янгича ёндашувлар назарда тутилган, жумладан:

- риэлторлик хизматларининг яширин бозорига қарши курашиш мақсадида, риэлторлик фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқига эга субъектлар қаторига “кўчмас мулк бўйича агент” тоифаси киритилмоқда;

- риэлторлик субъектларининг тўғри ҳисобини юритиш ва фаолияти устидан самарали мониторингни йўлга қўйиш мақсадида, аҳоли учун очиқ бўлган “Риэлторлар субъектларининг ягона реестри” ахборот тизими жорий этилмоқда;

- риэлторлик субъектлари фаолиятида шаффофликни таъминлаш ҳамда ноқонуний амалиётларнинг олдини олиш мақсадида Давактив агентлиги риэлторлик бирлашмалари билан биргаликда риэлторлик субъектлари томонидан жиноий даромадларни легаллаштиришга, терроризмни ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш борасида мониторинг олиб бориши киритилмоқда;

- риэлтор ва кўчмас мулк бўйича агентга риэлторлик хизматларини кўрсатиш шартномаси доирасида ўз номидаги кўчмас мулк объекти ва унга бўлган ҳуқуқлар билан боғлиқ битимларни тузиш тақиқланмоқда;

- кўчмас мулк бўйича агентга кўчмас мулк бозорида реклама ва маслаҳат хизматларини кўрсатиш ҳуқуқи (ҳеч қандай қўшимча шартлар ва талабларсиз) уларни “қонуний йўл”га ўтказишда рағбатлантирувчи чора сифатида киритилмоқда;

- риэлторлик ташкилотлари ва кўчмас мулк бўйича агентлар фаолияти учун миллий стандартлар жорий қилинмоқда;

- профессионал жамоат бирлашмаларининг роли кенгайтирилиб, улар малака сертификати бериш, одоб-ахлоқ кодексини тасдиқлаш, ҳамда соҳа устидан назорат олиб бориш ваколатига эга бўлади;

- ФАТФ стандартлари жиноий даромадларни легаллаштириш ва терроризмни молиялаштиришга қарши чоралар ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланади;

- маълумотларни очиқлик асосида бошқариш учун Ягона электрон мультилистинг тизими орқали риэлторлик ташкилотлари ва уларнинг хизматлари ҳақида фуқароларга очиқ маълумот бериш орқали бозор шаффофлигини ошириш кўзда тутилмоқда;

- риэлторлик фаолияти соҳасидаги асосий тушунчалар (риэлтор, риэлторлик ташкилоти, риэлторлик хизматлари, мультилистинг тизими, риэлторларнинг профессионал хулқ-атвори кодекси ва бошқалар) ҳамда принциплар (қонунийлик, холислик ва ҳалоллик, ахборотнинг махфийлиги, манфаатлар тўқнашувига йўл қўйилмаслиги) таклиф этилмоқда.

Қонун лойиҳаси ишлаб чиқилишида Туркия, Германия, Франция, АҚШ, Канада ва Сингапур тажрибалари ўрганилган. Халқаро амалиётда риэлторлик фаолиятини тартибга солиш тизимида иккита модель қўлланиладиган, турли хил миллий тизимлардан ташкил топади – биринчи модель давлат тартибга солишини ўз ичига олади (Туркия, Италия, Германия, Сингапур ва бошқалар) ва иккинчи модель жамоат (ўз-ўзини бошқариш) ташкилотлари вакили бўлган ўз-ўзини бошқариш институтларини ташкил қилишни ўз ичига олади (АҚШ, Канада, Буюк Британия, Франция, Россия, Қозоғистон ва бошқалар).

Европа ва АҚШдаги риэлторларнинг профессионал уюшмалари касбий фаолият сифатини ошириш мақсадида риэлторлик фаолиятини ўз-ўзини тартибга солиш таъсирини

оширишга интилмоқда. Шунингдек, ўрганилган халқаро тажрибага кўра, риэлторлик фаолиятини ривожлантиришда ўзини-ўзи тартибга солувчи жамоат бирлашмаларини муҳим ўрин тутишини қайд этиш лозим. Хусусан, Францияда риэлторлар қонуний фаолият юритиш учун профессионал карта *(Carte Professionnelle)* олишлари шарт. Мазкур карта фақат тасдиқланган профессионал ташкилотларига *(FNAIM (Миллий кўчмас мулк агентлари федерацияси) ёки UNIS (кўчмас мулк бўйича профессионаллар иттифоқи)* аъзо бўлган тақдирда берилади.

Сингапурда кўчмас мулк агентлари фаолияти Кўчмас мулк агентликлари кенгаши давлат органи *(Council for Estate Agencies, CEA)* томонидан "Кўчмас мулк агентлари тўғрисида"ги қонунга *(Estate Agents Act)* мувофиқ тартибга солинади. Кўчмас мулк агенти лицензиясини олиш учун профессионал бирлашмага аъзо бўлиши керак *(Real Estate Developers' Association of Singapore, REDAS, Property Agents and Consultants Association, PACE, Singapore Institute of Accredited Real Estate Agencies, SIREA).* Ушбу ташкилотлар ўз аъзоларини ўқитиш, сертификатлаш ва назорат қилишни таъминлайди.

Туркияда кўчмас мулк агентлари фаолиятини 6763-сонли “Кўчмас мулк савдоси” қонунига мувофиқ тартибга солинади. Мазкур Қонунга асосан риэлторлик фаолиятидаги лицензия олиш учун кўчмас мулк агентлари профессионал палатаси аъзолиги бўлиши керак.

Демак, Ўзбекистон учун ҳам давлат назорати билан бир қаторда жамоат бирлашмалари иштироки асосида ўзини-ўзи тартибга солиш тизимини кучайтириш энг мақбул йўл ҳисобланади.

Фикримизча, ушбу янги таҳрирдаги қонун лойиҳасининг қабул қилиниши: риэлторлик фаолияти соҳасидаги амалдаги ҳужжатлар тизимлаштирилади ва тўғридан-тўғри тартибга солувчи нормалар амалиётга киритилади; риэлторлик фаолияти соҳасидаги профессионал жамоат бирлашмаларининг ваколатларини кенгайтиради; риэлторлик ташкилотларининг риэлторлик хизматлари сифати ва рақобатбардошлигини оширади; риэлторлик хизматлари кўрсатиш жараёнлари ва тартибларининг такомиллаштирилишига ҳамда кўчмас мулкнинг айланмаси ва операциялари бўйича хизматлар кўрсатиш ва соҳани тартибга солиш механизмлари ривожланишига олиб келади.

Қабул қилиниши билан “Риэлторлик фаолияти тўғрисида”ги янги таҳрирдаги Қонун нафақат ҳуқуқий, балки иқтисодий жиҳатдан ҳам жуда муҳим қадам бўлиб, у риэлторлик фаолиятини янги босқичга олиб чиқишга, бозор иштирокчилари учун қонуний ва адолатли шарт-шароит яратишга, ҳамда риэлторлик соҳасини замонавий ва шаффоф механизмларга ўтказиш хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 мартдаги ПҚ–101-сон “Давлат активларини бошқариш агентлиги фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори / Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлар миллий базаси (www.lex.uz).
1. 2 Ўзбекистон Республикасининг “Риэлторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонуни / Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлар миллий базаси (www.lex.uz).
2. Риэлторлик фаолиятини такомиллаштириш ҳамда тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга қаратилган қонунлар дастлабки тарзда кўриб чиқилди. 10.09.2025 [Электрон ресурс] – URL: https://senat.uz/oz/post/post-4066

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ И СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Бердиназаров Зафар Улашович
Высшая школа бизнеса и предпринимательства, д.э.н., доц.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270756

Аннотация. *Статья анализирует текущее состояние и перспективы внедрения инновационного менеджмента и стратегической трансформации бизнес-процессов в Узбекистане. Рассматриваются усилия государства по цифровизации, участие частного сектора, а также существующие барьеры и вызовы. Выделены ключевые направления развития, включая автоматизацию, искусственный интеллект и развитие цифровой инфраструктуры. Делается вывод о необходимости системного подхода и инвестиций в человеческий капитал для устойчивых преобразований.*
Ключевые слова*: инновации, бизнес, трансформация, цифровизация, стратегия, Узбекистан.*
Abstract. *The article analyzes the current state and prospects of innovation management and strategic business process transformation in Uzbekistan. It examines government-led digital initiatives, private sector involvement, and key implementation challenges. The paper highlights development areas such as automation, artificial intelligence, and digital infrastructure. The conclusion emphasizes the need for a systemic approach and investment in human capital to achieve sustainable innovation-driven change.*
Keywords*: innovation, business, transformation, digitalization, strategy, Uzbekistan.*

Инновационный менеджмент является неотъемлемой частью современного бизнеса, играя ключевую роль в процессе адаптации предприятий к быстрым изменениям внешней среды. В условиях глобализации, усиленной конкуренции и технологических преобразований организации сталкиваются с необходимостью постоянных изменений в бизнес-процессах и стратегии для поддержания своей конкурентоспособности. В данном контексте эффективное внедрение инновационного менеджмента в сферу бизнеса становится важным фактором для обеспечения долгосрочного успеха и устойчивого развития компаний. Основной задачей инновационного менеджмента является создание системы, позволяющей компании интегрировать инновации в стратегию, культуру и операционные процессы организации.

Инновационный менеджмент представляет собой системный подход к разработке и внедрению новых идей, технологий и процессов для повышения конкурентоспособности организации. В его основе лежит стратегическое планирование, направленное на внедрение инноваций на всех уровнях — от разработки продукта до организации внутренних процессов [1].

Ключевые аспекты инновационного менеджмента:

- стратегическое планирование: включает разработку долгосрочных целей, которые направлены на использование инновационных технологий для достижения устойчивых конкурентных преимуществ;

- культура инноваций: создание в организации среды, способствующей креативности и внедрению инновационных решений;

- управление знаниями: эффективное использование накопленных знаний и опыта для стимулирования инновационной активности;

- инвестирование в инновации: привлечение ресурсов для реализации инновационных проектов, включая научные исследования, разработки и технологические улучшения.

Компании, которые успешно интегрируют инновации в свою деятельность, обеспечивают себе не только конкурентные преимущества, но и способность адаптироваться к изменениям внешней среды. Это позволяет повысить эффективность бизнес-процессов и улучшить финансовые результаты [2].

Стратегическая трансформация бизнес-процессов через инновации представляет собой процесс изменений, направленных на значительное улучшение структуры и функциональности бизнес-процессов организации. Это может включать внедрение новых технологий, автоматизацию процессов, цифровизацию, а также изменения в корпоративной культуре и управлении персоналом [3].

Важнейшими инструментами стратегической трансформации являются:

- цифровизация бизнес-процессов: внедрение информационных технологий и цифровых инструментов в ежедневную деятельность компании позволяет не только улучшить оперативность и точность процессов, но и снизить затраты;

- автоматизация: использование автоматизированных систем для выполнения рутинных операций освобождает ресурсы для более креативной работы и принятия стратегических решений;

- большие данные и аналитика: применение аналитических инструментов для оценки текущей ситуации и прогнозирования будущих изменений позволяет более точно управлять рисками и возможностями;

- гибкость и адаптивность: стратегическая трансформация также включает внедрение гибких подходов в управлении проектами, таких как методология Agile, что позволяет быстро реагировать на изменения внешней среды и внутренние вызовы.

Процесс трансформации бизнес-процессов требует не только технологических изменений, но и культурных изменений внутри организации. Важно, чтобы сотрудники были готовы к новым подходам в работе и могли эффективно использовать новые инструменты.

Несмотря на очевидные преимущества, внедрение инновационного менеджмента может столкнуться с рядом препятствий. Среди них можно выделить:

- сопротивление изменениям: одним из главных вызовов является человеческий фактор. Сотрудники могут быть не готовы принять новые методы работы и технологии;

- отсутствие необходимой инфраструктуры: внедрение инновационных решений требует наличия соответствующих технологий, специалистов и бюджета, что может быть не всегда доступно для всех организаций;

- риски и неопределенности: введение инноваций всегда связано с риском. Некоторые проекты могут не оправдать ожиданий, а затраты на внедрение новых технологий могут превысить предполагаемую отдачу;

- нехватка квалифицированных кадров: для успешной реализации инновационного менеджмента необходимо наличие специалистов, обладающих необходимыми знаниями и навыками.

Будущее инновационного менеджмента в бизнесе связано с развитием технологий и изменением подходов к управлению. Важно отметить следующие тренды:

- интеграция искусственного интеллекта: использование ИИ и машинного обучения для оптимизации бизнес-процессов и принятия решений будет играть ключевую роль в развитии инновационного менеджмента;

- экологическая устойчивость и социальная ответственность: с учетом роста экологических и социальных требований, инновационный менеджмент будет направлен на создание устойчивых бизнес-моделей, которые способствуют сохранению природных ресурсов и улучшению качества жизни;

- гибридные модели работы: пандемия COVID-19 показала важность гибридных форматов работы. Перспективы использования дистанционных и гибких рабочих мест становятся важной частью стратегии бизнес-трансформации;

- управление инновациями через стартапы и партнерства: компании будут стремиться к созданию инновационных экосистем, объединяя ресурсы крупных корпораций и стартапов для разработки прорывных решений [4].

В последние годы Узбекистан демонстрирует устойчивую тенденцию к модернизации бизнес-среды и переходу к инновационно-ориентированной модели управления. С начала масштабных экономических реформ (после 2016 года) инновационный менеджмент стал важным направлением в стратегии развития как частного, так и государственного сектора: [5].

- государственная поддержка и институциональные реформы: Правительство активно продвигает цифровизацию экономики и стимулирует внедрение инновационных решений в бизнесе. Были созданы специализированные агентства, такие как *Министерство цифровых технологий*, *Агентство по инновационному развитию* и *IT-Park Uzbekistan*, которые поддерживают трансформацию бизнес-процессов через субсидии, акселерационные программы и налоговые льготы;

- цифровизация бизнес-процессов: Узбекские компании, особенно в банковской, телекоммуникационной и ритейл-сферах, внедряют ERP-системы, облачные технологии и инструменты аналитики. Популярность получают CRM-системы, платформы электронного документооборота и системы автоматизации бухгалтерии (например, 1С, SAP, Bitrix24) [7];

- ограничения и вызовы: несмотря на позитивные сдвиги, уровень внедрения инновационного менеджмента в большинстве отраслей остаётся умеренным. Основные барьеры — нехватка квалифицированных специалистов, ограниченный доступ к финансированию для МСП, а также слабая инновационная культура внутри организаций. Малый и средний бизнес часто ограничивается точечными решениями, без системного подхода к трансформации; [8]

- перспективы: в ближайшие годы ожидается рост инвестиций в инновационные технологии, развитие корпоративных акселераторов и распространение практик

цифрового лидерства. Особое внимание уделяется интеграции ИИ, Big data и автоматизации в производственные и логистические процессы, а также в госуправление; [9]

Исходя из вышеизложенного можно сказать, что инновационный менеджмент и стратегическая трансформация бизнес-процессов представляют собой важнейшие инструменты для обеспечения конкурентоспособности и устойчивости организаций в условиях современной экономики. Эффективное использование инноваций в управлении бизнесом способствует повышению гибкости, улучшению качества продуктов и услуг, а также улучшению операционной эффективности.

В Узбекистане формируется основа для внедрения инновационного менеджмента и трансформации бизнес-процессов. При поддержке государства и росте технологических компетенций бизнес-среда страны движется в сторону большей цифровой зрелости, однако для устойчивого прогресса требуется комплексный подход к инновационному управлению и развитию человеческого капитала.

В будущем инновационный менеджмент станет еще более важным, учитывая рост новых технологий и изменяющиеся требования рынка.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Котлер, Ф. (2016). *Управление маркетингом*. Санкт-Петербург: Питер.
2. Шахид, М.Р. (2019). *Инновационный менеджмент: теория и практика*. Москва: Инфра-М.
3. Тимошенко, А.М. (2018). *Стратегическая трансформация бизнес-процессов*. Киев: Ника-Центр.
4. Друкер, П.Ф. (2014). *Менеджмент: задачи, ответственность, практика*. Москва: Альпина Паблишер.
5. Рузиев, К. (2021). Инновационный менеджмент в Узбекистане: реалии и перспективы. Журнал "Экономика и инновации", №4, 12–18.
6. Азизов, Ш. (2022). Государственная поддержка цифровизации бизнеса в Узбекистане. Ташкент: Институт стратегических и региональных исследований.
7. KPMG Uzbekistan. (2023). Digital Transformation in Uzbekistan: Business Survey 2022–2023. Retrieved from kpmg.uz
8. World Bank. (2023). Uzbekistan: Fostering Innovation for Sustainable Growth. Washington, D.C.
9. UNDP Uzbekistan. (2023). Digital Uzbekistan 2030: Progress Report. United Nations Development Programme.

TIJORAT BANKLARDA ANDERRAYTING JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Bobojonov Xursand Qadamovich
“IPOTEKA-BANK” OTP GROUP, Katta menejer va TASHKENT XALQARO UNIVERSITETI, mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17270771

Annotasiya. *Bugungi kunda tijorat banklarining tavakkalchilik darajasini pasaytirish yo‘llarini izlash va kredit portfelidagi muammoli kreditlar (NPL) miqdorini kamaytirish dolzarb hisoblanadi. Anderrayting bu kredit yoki boshqa moliyaviy mahsulotni ma’qullashdan oldin kredit oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun uning moliyaviy tavakkalchiligini baholash jarayonidir. Mazkur tesizda respublikamizdagi tijorat banklarida anderrayting jarayonlarini takomillashtirish muammolari yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *bank, anderrayting, likvidlik, risk, kredit, texnologiya, portfel.*

Tijorat banklarining anderrayting jarayonlari moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular kredit va boshqa aktiv amaliyotlar orqali o‘zlarining daromad keltiruvchi aktivlarini kengaytirish, likvidlikni boshqarish va kredit portfellarini diversifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular banklarning samarali faoliyat olib borishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Quyida ushbu muammolarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. Huquqiy va tartibga soluvchi muammolar.

Banklarning anderrayting jarayonlarini tartibga solish uchun davlat va xalqaro miqyosda ko‘plab qonunlar va qoidalar mavjud. Bu tartibga soluvchi muammolar banklar uchun ikki tomonlama qiyinchilik tug‘diradi:

Qonunchilikdagi o‘zgarishlar, mamlakatlarda anderraytinga oid qonunchilik tizimi murakkab va tez-tez o‘zgaruvchan bo‘lib, bu o‘z navbatida banklar uchun katta noaniqliklar tug‘diradi. Masalan, AQSh va Evropa Ittifoqidagi tartibga solish choralari, jumladan, BIS CRE va Basel III talablariga javob berish kabi talablarga rioya qilish banklar uchun katta yuk bo‘lib, ulardan katta miqdorda resurslarni talab qiladi. Yangi qoidalar banklarning operatsiyalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular kredit anderraytingi faoliyatini yuridik jihatdan to‘g‘ri amalga oshirishi kerak. Har bir mamlakatning o‘ziga xos tartibga solish qoidalari bo‘lishi sababli, banklar xalqaro miqyosda faoliyat olib borishda turli qonunlarga moslashish uchun qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirishi kerak.

Muvofiqlik xarajatlari, banklar anderrayting jarayonlarini tartibga soluvchi qonunlarga rioya qilish uchun katta mablag‘ sarflashlari kerak. Bunday xarajatlar muvofiqlikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan texnologik investitsiyalar, huquqiy maslahat xizmatlari, ekologiya, kompleans, ichki audit va nazorat tizimlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, kichik va o‘rta banklar uchun bu xarajatlar katta yuk bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, muvofiqlik jarayonlari murakkabligi sababli, anderraytingning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lishi qiyinlashadi, bu esa raqobatni cheklashi mumkin.

2. Risklarni Boshqarish Muammolari.

Kreditlar banklar uchun katta foyda manbai bo‘lishi mumkin, biroq bu amaliyotlarning o‘ziga xos risklari mavjud. Banklar ushbu risklarni boshqarishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi:

kredit risklari qarz oluvchilarning banklar oldidagi qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolini bo‘lib, banklarning barqarorligi va rentabelligiga jiddiy tahdid soladi. Kredit riskini to‘g‘ri baholamaslik muammoli kreditlar hajmini oshishi natijasida likvidlik muammolari, o‘z navbatida, banklarning kreditlash faoliyatiga ham ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

bozor risklari kreditlarning foiz stavkasi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular banklarning kredit portfellariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, kreditlar foiz stavkasining keskin pasayishi banklar uchun katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Bozorning volatilligi yuqori bo‘lgan davrlarda, masalan, iqtisodiy inqiroz yoki siyosiy beqarorlik sharoitida, bu risklar yanada oshadi. Banklar bu holatda portfellarini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirishga intiladi, ammo bu har doim ham yetarli bo‘lmaydi.

3. Likvidlik muammolar.

Banklar uchun likvidlikni boshqarish muhim masalalardan biridir. Kredit muammoga aylanishini oldini olish bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, lekin bir qator muammolar mavjud:

Banklarda kredit ajratish uchun har doim ham yetarli likvidlik mavjud emas. Likvidlik bozor ishtirokchilari soniga, ularning faoliyatiga va bozor sharoitlariga bog‘liq. Iqtisodiy inqiroz davrlarida likvidlik keskin kamayadi, chunki investorlar xavfsiz aktivlarga o‘tishga intiladi va omonatlar hajmi pasayadi. Bunday vaziyatda banklar likvidlikni ta‘minlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ayniqsa muammoli kreditlarni yuzaga kelishini oldini olish zarur bo‘ladi. Aks holda, banklarning umumiy likvidlik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Banklar o‘z kredit portfellarini diversifikatsiya qilish uchun turli xil kreditlar ajratadi. Biroq, bu kreditlarning tavakkalchilik darajasi bir xil emas. Misol uchun, jismoniy shaxslarning kredit riski yuridik shaxslarning kredit riskiga nisbatan kamroq hisoblanadi. Yuridik shaxslarning yirik kredit loyihalari riski yoki ularning kreditlari muammoga aylansa bankning likvidlik holatini yomonlashtiradi. Banklar kredit portfelni shakllantirishda kreditlarni o‘z vaqtida qaytishiga katta e’tibor qaratishlari zarur, lekin bu har doim ham iqtisodiy samaradorlikni ta’minlamaydi. Shu sababli, banklar likvidlikni ta’minlash uchun boshqa moliyaviy vositalardan, masalan, qimmatli qog‘ozlar va repo bitimlaridan foydalanishlari mumkin.

4. Bozordagi raqobat va innovatsion muammolar.

So‘nggi yillarda texnologik rivojlanish va fintech kompaniyalarining ko‘payishi banklar uchun yangi raqobatchilar paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu kompaniyalar yangi texnologiyalar va innovatsion mahsulotlar yordamida ayniqsa jismoniy shaxslarni kreditlashda banklarga raqobat qilmoqda. Fintech kompaniyalar banklarga nisbatan tezroq va qulay xizmatlar taklif qilishadi, bu esa ularning bozordagi ulushini oshiradi.

Tijorat banklarining kredit anderrayting jarayonlarini tahlil qilish va kelgusida ularning kreditlash hajmini bashorat qilish muhim iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Bu albatta, tijorat banklari kreditlash faoliyatini kelgusi davrga bo‘lgan holatini bashoratlash ularning kredit portfeli va aktiv operatsiyalari holati va rivojlanish istiqbollari haqida tegishli tasavvurga ega bo‘lish hamda moliyaviy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o‘z vazifa hamda majburiyatlarii qay darajada bajarishiga bog‘liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini anderrayting tomonidan tahlil qilish va kredit berish bo‘yicha loyiha

tayyorlash kredit taqdim etuvchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Kredit beruvchi bank qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, ishlab chiqarish imkoniyati, marketingi, moliyaviy boshqaruvini qay darajada bilishi, kreditga bo‘lgan talabning qanchalik darajada to‘g‘ri asoslanganligi va kreditning maqsadi bank uchun to‘g‘ri kelishini aniqlab olishi lozim.

1-jadval. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari va muammoli kreditlar ulushi.

Sana	Kreditlar, mlrd so‘mda			Muammoli kreditlar (NPL), mlrd so‘mda			Muammoli kreditlarning jami		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020	211,580.5	186,630.3	24,950.2	3,169.1	2,809.0	360.1	1.5	1.5	1.4
01.01.2021	276,974.8	244,483.9	32,490.9	5,784.8	5,167.6	617.2	2.1	2.1	1.9
01.01.2022	326,385.6	280,073.6	46,311.9	16,974.0	15,068.8	1,905.2	5.2	5.4	4.1
01.01.2023	390,048.9	324,680.8	65,368.2	13,992.4	12,643.3	1,349.1	3.6	3.9	2.1
01.01.2024	471,405.5	333,298.1	138,107.4	16,621.4	13,267.2	3,354.2	3.5	3.9	2.4
01.01.2025	533,121.2	366,730.5	166,390.7	21,185.1	14,343.8	6,841.3	3.9	3.9	4.1

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmi yil sayin oshib bormoqda. Xususan, so‘nggi olti yilda 2,5 barobarga oshib, 2025-yil yanvar holatiga 533 trln so‘mdan otiqni tashkil etdi.

Berilgan kreditlarning aksariyat katta qismi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, 2020-yilda 88,2 foiz, 2021-yilda 88,3 foiz, 2022-yilda 85,8 foiz, 2023-yilda 83,2 foiz, 2024-yilda 70,7 foiz, va 2025-yilda 68,8 foizni tashkil etmoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari ulushining pasayishi bank tizimi uchun ijobiy holat hisoblanib, buni boshqa banklar tomonidan berilgan kreditlarning ortganligi bilan izohlash mumkin. O‘z navbatida, muammoli kreditlar 6,7 martaga oshgan, 2020-yilda 3,2 trln so‘mdan 2025-yilda 21,2 trln so‘mga qadar ko‘tarilgan.

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2020 yildagi 1,5 foizdan 2022 yilda 5,2 foizga yetib, eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan. Buning asosiy sababi, 2021 yilda ro‘y bergan pandemiya bo‘lib, kredit oluvchilarga kredit va foizlarni qaytarishda imtiyoz berilishi (to‘lov muddatini kechiktirilishi) hisoblanadi. Ko‘rilgan choralar natijasida, muammoli kreditlar ulushini 2022-2024 yillarda 1,3 foiz bandga yoki 2025 yil 1 yanvar holatiga 3,9 foizgacha tushgan. Muammoli kreditlar davlat ulushi mavjud tijorat banklarida 3,9 foizi va boshqa banklarda 4,1 foiz to‘g‘ri kelmoqda. Ma’lumki, tijorat banklari faoliyatida xavfli bo‘lgan kredit qo‘yilmalar - bu muammoli kreditlar shakliga kirgan qo‘yilmalardir. qoniqarsiz va undan past tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar toifasiga kiradi.

Shuningdek, elektron platformalar kreditorlar yig‘ilishlarini tashkil etish, ovoz berish jarayonlarini o‘tkazish va qarorlarni hujjatlashtirish imkoniyatini beradi. Natijada inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi, jarayonning shaffofligi va aniqligi oshadi. Raqamli tizimlar yordamida sud boshqaruvchisi masofadan turib ham korxona faoliyatini kuzatishi, sud majlislarida onlayn qatnashishi va zarur hujjatlarni elektron shaklda topshirishi mumkin. Bu esa ularning ish yuklamasini sezilarli darajada kamaytiradi.

Eng muhimi, raqamlashtirilgan tizimlar orqali qarzdor korxonalarda sun’iy bankrotlik alomatlarini erta aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Moliyaviy oqimlar va qarzdorlik dinamikasini avtomatik kuzatish sud boshqaruvchisiga tezkor tahlil qilish va noqonuniy harakatlarning oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, hisobotlarni elektron shaklda shakllantirish va topshirish jarayoni nafaqat ishni soddalashtiradi, balki ularning aniqligi va to‘liqligini ham ta’minlaydi.

Natijada, sud boshqaruvchilarning faoliyati yanada samarali va shaffof bo‘lib, ularning ishiga bo‘lgan ishonch kuchayadi. Raqamlashtirish orqali kreditorlar va davlat organlari boshqaruvchi faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa korrupsion xavflarni kamaytirib, tizimning umumiy ishonchliligini oshiradi. Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, elektron platformalar sud boshqaruvchilari uchun qulayliklar yaratibgina qolmay, butun to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

To‘lovga qobiliyatsizlik tizimida raqamlashtirishning dolzarbligi bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

- Shaffoflik va tezkorlik. Elektron platformalar orqali kreditorlar va qarzdorlarning huquq va majburiyatlari yuzasidan ma’lumot almashinuvi aniq va tez amalga oshadi. Bu sud jarayonlarida ham samaradorlikni oshiradi.

- Ma’lumotlar bazasi va monitoring. Yagona elektron reyestr orqali bankrotlikka oid barcha ishlar, qarorlar va statistik ma’lumotlar jamlanadi. Bu esa davlat organlariga monitoring va tahlilni soddalashtiradi.

- Raqamli sud jarayonlari. Masofaviy sud majlislari, elektron ariza topshirish, onlayn kuzatuv mexanizmlari tizimning ochiqligini ta’minlaydi.

- Korrupsion xavflarni kamaytirish. Jarayonlarning avtomatlashtirilishi inson omilini kamaytiradi, bu esa halollikni kuchaytiradi.

- Xalqaro tajriba. Rivojlangan davlatlarda bankrotlik tizimida elektron reyestrlar va masofaviy boshqaruv tizimlari keng joriy qilingan bo‘lib, bu tajriba O‘zbekiston uchun ham dolzarb.

To‘lovga qobiliyatsizlik tizimida raqamlashtirish nafaqat samaradorlik va shaffoflikni oshiradi, balki ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish, xalqaro standartlarga moslashish hamda investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu boisdan, O‘zbekiston sharoitida mazkur jarayonni jadallashtirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son - https://lex.uz/docs/-4800657
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son - https://lex.uz/docs/-5030957

SUG‘URTA XIZMATLARIDA BIZNES JARAYONLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH: O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MOLIYAVIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI

Ilyosov Tursunboy G‘iyosjon o‘g‘li
“ALSKOM SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ Bosh direktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272756

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlarini rivojlantirishda biznes jarayonlarni transformatsiya qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan.*

Raqamlashtirish sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlarga qulaylik yaratishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sug‘urta bozorida innovatsion boshqaruv yondashuvlari, onlayn platformalar va big data texnologiyalari asosida moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari o‘rganiladi hamda milliy sug‘urta tizimi uchun strategik istiqbollar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *sug‘urta xizmatlari, biznes jarayonlar, transformatsiya, raqamli texnologiyalar, moliyaviy samaradorlik, innovatsion boshqaruv, onlayn platformalar, big data, O‘zbekiston sug‘urta bozori.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida sug‘urta xizmatlari bozorini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va aholiga yanada qulay sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sug‘urta kompaniyalarining biznes jarayonlarini tubdan o‘zgartirishga, xizmat ko‘rsatish tezligi va sifatini oshirishga imkon yaratmoqda. Shu bilan birga, biznesni boshqarishda innovatsion yondashuvlar

va ilg‘or tadqiqotlardan foydalanish moliyaviy samaradorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyotga transformatsiya jarayoni, sug‘urta bozori, sug‘urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, “O‘zbekiston yangi taraqqiyot sari intilmoqda, mamlakatimizda, milliy iqtisodiyotda iqtisodiy, siyosiy, tuzilmaviy va ijtimoiy islohotlar keskin sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda, ilmiy innovatsion muhit, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishning yangi qirralarini zabt etmoqda” [1].

Xususan, big data, sun’iy intellekt va onlayn platformalar asosida sug‘urta jarayonlarini avtomatlashtirish nafaqat xarajatlarni qisqartiradi, balki mijoz ehtiyojlarini chuqurroq o‘rganish va individual yechimlar taklif qilish imkonini beradi. Mazkur maqolada O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlarida raqamli transformatsiyaning moliyaviy samaradorlikka ta’siri va strategik rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Jahon iqtisodiyoti sharoitida sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish yuqori moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, davlatning ijtimoiy funksional vazifalarini samarali tashkil etishda hamda moliyaviy resurslarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Zero, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, xususan, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy tahlil instrumentlarini joriy etish orqali sug‘urta tashkilotlari faoliyatida barqaror kapitallashuv darajasiga va moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishga imkon yaratishi mumkin. Shu o‘rinda alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihati borki, moliyaviy samaradorlikning oshishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotining samaradorligiga, balki investitsiyaviy jozibadorlikka, investitsiya oqimlariga va sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarining yuksalishiga ham bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [2].

Dunyo bo‘ylab davom etayotgan moliyaviy inqirozlar, tabiiy va texnogen baxtsiz hodisalarga qaramay, sug‘urta tashkilotlarida riskni boshqarish, anderrayting siyosati, sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar bilan ishlash amaliyoti ham davlat nuqtai nazardan hamda xususiy sektorda ham takomillashib bormoqda.


Jahondagi global raqamli transformatsiya sharoitida sug‘urta biznesi va modelini tubdan o‘zgartirish, tez o‘zgarib borayotgan bozorda sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda sohaga yangi raqamli texnologiyalar va yondashuvlarni joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «2022 yilda jahon bo‘yicha sug‘urta sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,6 foizni tashkil etgan» [3].

O‘zbekistonda esa, ushbu ko‘rsatkich 0,34 foizdan 0,7 foizga oshgan. «So‘nggi yillarda dunyo aholisi jon boshiga o‘rtacha 650-700 AQSH dollari miqdorida sug‘urta mukofoti to‘g‘ri kelmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich taxminan 150 AQSH dollarni, O‘zbekistonda esa, o‘rtacha 15 AQSH dollarni tashkil etadi» [4].

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy samaradorligini boshqarish uning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ushbu jarayon to‘rtta asosiy tamoyilga asoslanadi (1-rasm).

Strategik rejalashtirish uzoq muddatli maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo‘lini ko‘rsatadi.




1-rasm. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy samaradorligini boshqarish tamoyillari[13]

Moliyaviy resurslarning optimal boshqarishi kapital va zaxiralarning samarali taqsimlanishini nazarda tutadi.

Yaxshi korporativ boshqaruv shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi, xolisona risklarni boshqarish esa kompaniyani kutilmagan yo‘qotilardan himoya qiladi. Sug‘urta tashkilotlariga moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida samaradorlikni baholash metodologiyalarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish hamda tadqiq etish kabi masalalar e’tirof etilmoqda.

Shu bilan birga, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash, zarar bilan ishlayotgan sug‘urta tashkilotlarini transformatsiya qilish va faoliyat natijalarini natijaviylik va samaradorlik mezonlari asosida baholash muhim omil sifatida qaralmoqda. Ushbu tamoyillarning integratsiyasi sug‘urta kompaniyasining moliyaviy mustahkamligi va bozorda muvaffaqiyatli ishlashining asosiy garovi hisoblanadi.



[13] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan


2-rasm. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy samaradorligini boshqarishning funksional elementlari[14]

Zamonaviy sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy samaradorlikni boshqarishda murakkab tizimli jarayon ekanligi, uning samaradorligi bir qator funksional elementlarning integratsiyasiga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).

Ushbu elementlar tizimi, birinchi navbatda, moliyaviy va operatsion hisobot yordamida kompaniyaning joriy holati va faoliyat natijalarini aniq aks ettirishni nazarda tutadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ahamiyatli jihati axborot-ma’lumotlar bazasi bilan ishlashga, ya’ni ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qayta ishlashning zamonaviy usullaridan foydalanishga bevosita bog‘liq.

Tezkor moliyaviy boshqaruv instrumentlari operativ moliyaviy vaziyatni nazorat qilish va kerak bo‘lganda darhol chora ko‘rish imkonini beradi. Moliyaviy monitoringning tizimli xarakteri kompaniya moliyaviy holatining uzluksiz kuzatilishi va barqarorligini ta’minlaydi. Riskni boshqarishda aktuar hisob-kitoblari va ehtimollik nazariyasiga asoslangan yondashuvlar sug‘urta risklarini baholash va ularga zarur zaxiralar ajratishning ilmiy asosini tashkil etadi. Ushbu barcha funksional elementlarning o‘zaro muvofiqlashgan holda ishlashi sug‘urta kompaniyasining moliyaviy mustahkamligi, to‘lov qobiliyati va bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlaydigan yagona mexanizmni hosil qiladi.

Ammo, so‘nggi yillarda sug‘urta tashkilotlarida to‘lov intizomi bilan bog‘liq muammolar natijasidagi yuqori debitorlik qarzlari, yuqori tannarx xarajatlari hisobiga past darajadagi aktivlar rentabellik, majburiyatlar va soliqlar hisobiga yuqori xarajatlar natijasidagi xususiy kapital rentabelligining past darajasi sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil etish bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarni oldini olish bilan bog‘liq bir qancha ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilish mumkin.



3-rasm. Sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish ko‘rsatkichlari tizimi umumlashgan elementlar[15]

[14] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
[15] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy samaradorligini baholashda ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llanilib, tizimning asosini to‘rtta fundamental element tashkil etadi (3-rasm).

Birinchi navbatda, moliyaviy natijalar samaradorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar (ROA - aktivlar rentabelligi, ROE - kapital rentabelligi, ROS - sotuvlar rentabelligi) kompaniyaning aktivlar va kapitaldan foydalanish samaradorligini, shuningdek, operatsion faoliyatning daromadliligini baholash imkonini beradi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi muvozanatlashgan moliyaviy holat ko‘rsatkichlari tashkilotning to‘lovqobilligi, likvidligi va moliyaviy barqarorligini ifodalaydi. Uchinchi komponent - ishonchlilik va obro‘ga oid ko‘rsatkichlar mijozlar ishonchi, bozordagi imidj va brend qadri kabi nomoddiy aktivlarning moliyaviy samaradorlikka ta’siri orqali o‘lchanadi. To‘rtinchi element sifatida korporativ boshqaruv ko‘rsatkichlari moliyaviy resurslarning adolatli va samarali boshqarilishi, shaffoflik va hisobdorlik darajasini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi sug‘urta tashkilotining moliyaviy salomatligini har tomonlama baholash, strategik qarorlar qabul qilish va raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
2. Karshiev N.O. Optimizing financial management in SOEs: lessons from Uzbekistan and other Central Asian countries // Journal of international scientific research. ISSN: 3030-3508. Volume 2. ISSUE -6. P. -275-280
3. https://www.iii.org/publications/a-firm-foundation-how-insurance-supports-the-economy/driving-economicprogress/contribution-to-gdp#:~:text=A%20Firm%20Foundation%3A%20How%20Insurance%20Supports%20the%20Economy&text=Gross%20domestic%20product%20(GDP)%20is,GDP%20stood%20at%202.6% 20percent.
4. www.napp.uz ma’lumotlari asosida muallif hisob kitobi

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ "УМНОГО" ГОРОДА НА ПРИНЯТИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ РЕСУРСОВ

Инь Мэнюэ
аспирант, Белорусский национальный технический университет
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272760

Аннотация. *С ускорением темпов новой урбанизации и цифровой трансформации "умные" города стали основным направлением высококачественного городского развития. Система оценки "умного" города количественно определяет основные параметры инфраструктуры, эффективность управления и уровень обслуживания, предоставляя инвестиционным организациям инструменты для выявления рисков и прогнозирования выгод, а также направляя государственные и рыночные ресурсы в ключевые области. Анализируя его неприятие риска, рекомендации по направлению и*

пути оптимизации принятия инвестиционных решений, эта статья представляет собой руководство для принятия научных решений при строительстве "умных" городов.

Ключевые слова: *Система оценки "умного" города, инвестиционные решения, распределение ресурсов, эффективность управления.*

Объем мирового рынка умных городов достиг 5577,63 млрд долларов США в 2023 году и, как ожидается, вырастет до 2277,59 млрд долларов США к 2031 году, при этом совокупный годовой темп роста составит 21,68% в период с 2024 по 2031 год. [1] Однако из-за отсутствия научной системы оценки в некоторых городах существуют проблемы “слепоты” инвестиций (например, чрезмерные инвестиции в оборудование, но игнорирование операционной эффективности) и "неправильного распределения" ресурсов (например, несоответствие между ресурсами государственных служб и потребностями жителей).Таким образом, при строительстве "умных" городов необходимо руководствоваться системой оценки и увязывать инвестиционные цели и потребности городского развития с помощью поддающихся количественной оценке показателей, чтобы избежать неправильного понимания того, что "основное внимание уделяется технологиям, а не эффективности".

Суть системы оценки "умного города" заключается в том, чтобы отразить всесторонний уровень цифровой трансформации городов с помощью "измеримых, сопоставимых и оптимизированных" показателей. В соответствии с GB/T 33345-2023, его основные размеры включают :

1. Инфраструктурный аспект: Он охватывает такие показатели аппаратного обеспечения, как плотность базовых станций 5G, вычислительная мощность центров обработки данных и уровень покрытия интеллектуальными транспортными средствами. Это "физическая основа" "умных" городов. ;
2. Показатели эффективности управления: включая скорость онлайн-обработки государственных услуг, время реагирования на чрезвычайные ситуации, скорость межведомственного обмена данными и т.д., отражающие возможности цифрового управления городом;
3. Аспекты государственных услуг, такие как время ожидания умного медицинского обслуживания, баланс умных образовательных ресурсов и т.д., напрямую связаны с ощущением доступности для жителей;
4. Измерение экономической жизнеспособности: включая долю отраслей цифровой экономики, темпы цифровой трансформации малых и средних предприятий и т.д., отражающие стимулирующее воздействие "умных" городов на экономику.;
5. Аспекты экологической устойчивости: такие, как уровень охвата интеллектуальным мониторингом энергопотребления, коэффициент использования возобновляемых ресурсов и т.д., в соответствии с целью "удвоения выбросов углерода".

Как предположил Ян Цзайгао в своей книге "Оценка умного города и эффективность распределения ресурсов", высококачественная система оценки должна соответствовать “динамике” и "дифференциации": динамика означает обновление весовых коэффициентов показателей на основе технологических изменений (таких как искусственный интеллект и развитие Интернета вещей) и дифференциации относится к корректировке направленности показателей в зависимости от масштаба городов (таких как мегаполисы, малые и средние города).[4]

Инвестиции в "умный" город характеризуются длительным циклом (обычно 5-10 лет), высокими невозвратными затратами (инвестиции в оборудование составляют более 60%) и неопределенной отдачей. Система оценки уменьшает асимметрию информации для принятия решений с помощью "количественных сигналов", а ее влияние в основном отражается в трех аспектах:

1. Неприятие риска: "Негативные показатели" в системе оценки могут предупреждать об инвестиционных рисках, чтобы выявить "краткосрочные области" в инвестировании.
2. Руководство по направлениям: "Распределение веса" системы оценки определяет направление инвестиций и фокусирует их на областях с высокой доходностью.
3. Прогнозирование дохода: Система оценки прогнозирует инвестиционный доход с помощью "показателей динамического мониторинга" и количественно определяет долгосрочную стоимость.

Распределение ресурсов в "умном" городе предполагает координацию между правительством (государственные ресурсы) и рынком (частные ресурсы). Система оценки использует принципы "соответствия спроса" и "эффективность превыше всего", чтобы реализовать преобразование ресурсов от "децентрализации" к "интенсификации".

1. Государственные ресурсы: переход к "краткому описанию средств к существованию людей".

Правительство выявляет слабые звенья в сфере государственных услуг с помощью системы оценки и оптимизирует распределение финансовых ресурсов. Например, оценка показала, что "уровень охвата интеллектуальными услугами по уходу за пожилыми людьми составляет всего 40% (ниже целевого значения в 60%)", и финансовый бюджет может быть скорректирован в следующем году для увеличения инвестиций в интеллектуальный уход за пожилыми людьми.

2. Рыночные ресурсы: устраняя ресурсные барьеры, способствуйте "междисциплинарному сотрудничеству".

Например, "умная" страна Сингапур требует открытости данных в транспортном, медицинском и образовательном секторах и напрямую продвигает Grab (платформу такси) для сотрудничества с Министерством здравоохранения Сингапура в целях оптимизации маршрутов скорой помощи на основе данных о дорожном движении, что сокращает время реагирования на чрезвычайные ситуации на 12%.[3]

3. Ресурсы данных: реализация "динамического развертывания"

"Индикаторы мониторинга в режиме реального времени" (такие как интеллектуальные данные о транспортном потоке и потреблении энергии) в системе оценки позволяют динамически корректировать ресурсы.Например, на основе "Интеллектуальной системы оценки перевозок" в Пекине в 2023 году интервал отправления автобусов будет динамически корректироваться с помощью данных о трафике в режиме реального времени, а пропускная способность автобусов будет увеличена в сторону перегруженных линий в утренние и вечерние часы пик для повышения эффективности движения на линиях.[2]

Система оценки "умного" города влияет на инвестиционные решения с помощью "раннего предупреждения о рисках - определения направлений - количественной оценки выгод" и оптимизирует распределение ресурсов с помощью "определения краткого плана действий - совместной разработки - динамической корректировки". Это основной

инструмент для решения проблемы "больших инвестиций и низкой эффективности" в "умном" городе. строительство. В будущем необходимо еще больше усовершенствовать два аспекта: во-первых, усилить "дифференциацию" системы оценки и сформулировать характерные показатели для городов разного размера (таких как малые и средние города, ориентированные на "умное" сельское хозяйство, и мегаполисы, ориентированные на "городскую безопасность"); во-вторых, заключается в продвижении замкнутого цикла "оценка-обратная связь-оптимизация" и корректировке показателей эффективности инвестиций и использования ресурсов для формирования механизма непрерывного совершенствования.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Глобальный объем рынка интеллектуальных систем: обзор [Электронный ресурс]. – URL: https://www.sdilan.com.cn/shichangdongtai/261.html (дата обращения: 14.09.2025)..
2. Комитет транспорта г. Пекина. Отчет о внедрении интеллектуальной транспортной системы [Электронный ресурс]. – 2024. – URL: https://jtw.beijing.gov.cn/zmhd/zxft/wqhg/202410/t20241017_3922431.html (дата обращения: 14.09.2025).
3. Ян Сюэчэн. Управление государством на основе больших данных: взгляд на Сингапур «Умная нация 2025» // Communications World. – 2017. – Т. 24, № 9.
4. Ян Цзайгао. Оценка умного города и эффективность распределения ресурсов: теория и практика. – Пекин: Изд-во архитектуры и строительства Китая, 2021. – С. 45–52.

KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Isakova Naima Ikramjanovna
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv texnologiyalari universiteti, PhD, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272783

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy va metodologik asoslari chuqur yoritilgan. Zamonaviy rivojlanish bosqichida korxonalarining iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashning ahamiyati alohida ta’kidlangan. Iqtisodiy xavfsizlik — bu korxonaning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi barqarorlikka ega bo‘lishi, resurslarini samarali boshqarishi hamda raqobatbardoshlikni saqlab qolish qobiliyatidir.*

Maqolada, iqtisodiy xavfsizlikni hisobga olgan holda korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimining elementlarini tuzish va birlashtirish hamda korxona faoliyat yuritish va iqtisodiy xavfsizlikning hozirgi darajasini ta’minlash ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy xavfsizlik, boshqaruv qarorlari, iqtisodiy xavfsizligini taminlash mexanizimi, ichki tahdidlar, tashqi tahdidlar, barqaror rivojlanish.*

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi - bu korxonani tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishga va kelajakda ularga qarshi turish uchun noyob qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan strategik, taktik va tezkor chora-tadbirlarning tizimli majmui. Korxonada iqtisodiy

xavfsizlikni tashkil etishga kompleks va tizimli yondashuvgina uning to‘liq ishonchli himoyasini ta’minlaydi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash tizimining asosiy vazifalari:


- korxonaning asosiy risklarini baholash va tahlil qilish;
- xavf-xatarlardan qochish yoki ularning oqibatlarini qoplashda korxona xavfsizligi holatini prognoz qilish;
- raqobatchilar, uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy niyatli shaxslarning iqtisodiy razvedka tuzilmalari tomonidan korxonaga kirib kelishining oldini olish;
- korxonaning virtual ma’lumotlar bazasiga jinoiy maqsadlarda kirishga qarshi kurashish;
- konfidensial ma’lumotlar va tijorat sirlarini himoya qilishni ta’minlash;
- korxona moddiy boyliklarining xavfsizligi;
- korxona va uning xodimlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- tashqi xavfsizlik tahdidlari manbalaridan korxona va uning xodimlariga qarshi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jinoiy niyatlarni o‘z vaqtida aniqlash;
- korxona xodimlarining mumkin bo‘lgan noqonuniy va boshqa salbiy xatti-harakatlarini aniqlash, oldini olish va tugatish;
- korxona xodimlarini zo‘ravonlik hujumlaridan himoya qilish;
- korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimini samarali axborot-tahliliy ta’minlashni shakllantirish;
- korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimini innovatsion qo‘llab-quvvatlashni shakllantirish va jadal foydalanish;
- korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi va taktikasi bo‘yicha eng maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- iqtisodiy xavfsizlik tizimi faoliyati samaradorligi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, uning elementlarini takomillashtirish.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimi sanab o‘tilgan vazifalarni, raqobat sharoitlarini, biznesning o‘ziga xos xususiyatlarini, texnologik xususiyatlarini, raqobat strategiyasini, korxonaning hayot aylanish bosqichini hisobga olgan holda quriladi. Har bir korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimi mutlaqo individualdir. Uning to‘liqligi va samaradorligi ko‘p jihatdan davlatda mavjud qonunchilik bazasiga, korxona rahbari tomonidan ajratilgan moddiy-texnika va moliyaviy resurslarga, har bir xodimning biznes xavfsizligini ta’minlash muhimligini tushunishiga, shuningdek, tizimning o‘zini qurish va qo‘llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etuvchi iqtisodiy xavfsizlik tizimi rahbarining bilimi va amaliy tajribasiga bog‘liq.

Korxonalarning ozgina qismi iqtisodiy xavfsizlik tizimi kabi birlikni ajratadi, ko‘pincha bu masalalar menejerlar, tahlilchilar va korxona xavfsizligi bilan shug‘ullanadi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimini qurish tamoyillarga rioya qilish asosida amalga oshirilishi kerak[1]: qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklari, maxfiylik, kuchlar va mablag‘lardan kompleks foydalanish, ilg‘or moddiy-texnika jihozlari, korporativ odob-axloq qoidalari, davlat organlari bilan muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorlik.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimining asosiy elementlariga tijorat sirlari va maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish, kompyuter xavfsizligi, ichki xavfsizlik, binolar va inshootlar xavfsizligi, jismoniy xavfsizlik, aloqa xavfsizligi, xo‘jalik va shartnomaviy faoliyat xavfsizligi, tovarlar va shaxslarni tashish xavfsizligi, reklama, madaniy, ommaviy tadbirlar xavfsizligi, biznes uchrashuvlari va muzokaralar xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, yong‘in xavfsizligi va tahliliy ishlar. texnik va texnologik xavfsizlik, xodimlar xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, moliyaviy xavfsizlik, soliq xavfsizligi, kuch xavfsizligi kiradi.

Tijorat siri — davlat siri bo‘lmagan, ishlab chiqarish, texnologiya, moliya, boshqaruv jarayonlari va tashkilotlar yoki korxonalarning boshqa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, oshkor etilishi, chiqib ketishi va ruxsatsiz kirishi ularning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlardir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimi sxematik tarzda 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi

Korxonani yanada rivojlantirishni boshlash uchun, faoliyat uchun mablag‘lardan tashqari, uning iqtisodiy xavfsizligini joriy ta’minlash uchun mablag‘ ajratish kerak. Rivojlanish jarayonlari boshlanishi bilanoq, tizimning tezroq harakatlanishi va zaiflashishi tufayli xavf doimiy ravishda oshib boradi. Korxona rivojlanadi, buning natijasida u ko‘proq foyda oladi, ammo ko‘paytirishni kengaytirish va iqtisodiy xavfsizlikning etarli darajasini ta’minlash uchun ko‘proq mablag‘lar kerak bo‘ladi. Bunday holatlar, shuningdek, korxona rivojlanish jarayonida raqobatdosh korxonalarning bozor o‘rnini yoki uning bir qismini egallashi bilan bog‘liq, bu allaqachon katta xavf hisoblanadi.

Agar korxona faoliyat yuritish va iqtisodiy xavfsizlikning hozirgi darajasini ta’minlash uchun mablag‘lardan tashqari, iqtisodiy xavfsizlikni potentsial ta’minlash uchun ham mablag‘ ajratishga qodir bo‘lsa, bu iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng yuqori darajasi hisoblanadi va unga nafaqat xavfsiz rivojlanish, balki kelajakda o‘z iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi[3]. Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladigan asosiy funktsiyalar:

- ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini himoya qilish va korxonaning tijorat siri bo‘lgan ma’lumotlarni himoya qilish;

- korxonaning tijorat sirlarini huquqiy va muhandislik-texnik muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

- tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni asossiz qabul qilish va ulardan foydalanishning oldini olish;

- tijorat siri sirasiga kiruvchi ma’lumotlarni olishni imkonsiz qiladigan maxsus ish yuritishni tashkil etish;

- faoliyat jarayonida va ekstremal vaziyatlarda maxfiy ma’lumotlarning chiqib ketishining mumkin bo‘lgan kanallarini aniqlash va mahalliylashtirish;

- korxonalarning boshqa sheriklar bilan ishbilarmonlik hamkorligi doirasidagi uchrashuvlar, muzokaralar va konferentsiyalarni istisno qiladigan barcha turdagi faoliyat uchun shunday xavfsizlik rejimini yaratish va tashkil etish;

- korxona rahbariyati va yetakchi rahbarlari va mutaxassislarining shaxsiy xavfsizligini tashkil etish;

- marketing vaziyatlari va raqobatchilar va hujumchilarning noqonuniy xatti-harakatlarini baholash. Muayyan vazifalar va funktsiyalar ro‘yxati ob’ekt turiga, uning tuzilishiga va faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ichki tahlili korxona xodimlari tomonidan, tashqi tahlili esa korxonaning marketing xizmatlari va iqtisodiy razvedka xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi[3]. Korxonaning analitik bo‘limlari kompleksda uning iqtisodiy xavfsizligini tashqi va ichki tahlil qilishlari kerak.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash sohasida ochiq manbalardan va mutlaqo qonuniy pozitsiyalardan ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan iqtisodiy razvedka (yoki raqobatbardosh razvedka, biznes razvedkasi, biznes razvedkasi) kabi yo‘nalishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Raqobat razvedkasi - bu kompaniyaning ichki va tashqi muhiti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, to‘plash, tizimlashtirish, tahlil qilish va kompaniyaning yuqori rahbariyatiga vaziyatdagi o‘zgarishlarni bashorat qilish va risklarni boshqarish bo‘yicha o‘z vaqtida maqbul qarorlar qabul qilish, kompaniyadagi o‘zgarishlarni amalga oshirish, shuningdek, kelajakdagi iste’molchilar talablarini qondirish va kompaniya qiymatini oshirishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlarni taqdim etishning uzluksiz jarayoni[4]. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir:

1. Iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha tahliliy ishlar rejasini tuzadigan va uning bajarilishini nazorat qiluvchi, iqtisodiy xavfsizlikning ichki va tashqi tahlilini uslubiy ta’minlashni tashkil etuvchi, korxona va uning bo‘linmalari xavfsizligini kompleks tahlil qilish natijalarini tashkil etuvchi va umumlashtiruvchi, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash istiqbollarini ko‘rish imkoniyatlarini o‘rganishni amalga oshiradigan rejalashtirish-iqtisodiy bo‘lim (iqtisodiy tahlil bo‘limi, tahlil bo‘limi). iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun resurslar.

2. Ishlab chiqarish bo‘limi - asosiy sexlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni fizik jihatdan, ishlab chiqarish rejasining hajmi va assortimenti bo‘yicha bajarilishini, ishlab chiqarish ritmini, mahsulot sifatini yaxshilashni, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishni, moddiy resurslarning tannarxini tahlil qiladi, mahsulot ishlab chiqarishning mehnat zichligini kamaytirish choralarini ishlab chiqadi, ishlab chiqarishni tashkil etishning texnik va boshqalar masalalarini hal qiladi.

3. Bosh mexanik va energetikaning texnik bo‘limlari mashina va asbob-uskunalarning ishlash xavfsizligini, ta’mirlash va modernizatsiya qilish rejalari va jadvallarining bajarilishini, ta’mirlash sifati va tannarxini tahlil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy xavfsizlik masalalari nafaqat iqtisodiy xizmatlar xodimlari, balki texnik bo‘limlarning ham mas’uliyati hisoblanadi. Muammoni har tomonlama o‘rganish va uning eng maqbul echimini topish faqat o‘rganilayotgan masala bo‘yicha turli bilimlarga ega bo‘lgan iqtisodchilar, texniklar, texnologlar va turli ishlab chiqarish xizmatlari rahbarlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kavun S.V. Economic and information security of enterprises in the information consolidation system. Textbook / S.V. Kavun, A.A. Pylypenko, D.O. Repko. – Kh: Publishing House of KhNEU, 2013. – 264 p.
2. Воронкова А.Е., Вечерковская Р.З., Воронков Д.К., Коренев Е.Н., Мажура И.В. Диагностика состояния предприятия: теория и практика / Харьковский национальный экономический ун-т / А.Е.Воронкова (заг.ред.).- Х.: ИД «ИНЖЭК», 2006. – 447 с.
3. Анализ данных в исследованиях социально-экономических систем: Монография / В. С. Пономаренко, Л. М. Малярец. – 2009. – 432 с.
4. Иванюта Т. М. Экономическая безопасность предприятия: учеб. пособие для студ. высш. учеб. закл. / Т. М. Иванюта, А. А. Заичковский – К.: Центр учебной литературы. 2009. – 256 с.

ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Голубева Ирина Александровна[1], Удовина Светлана Дмитриевна[2]

[1]Тихоокеанский государственный университет, кандидат экономических наук, доцент высшей школы менеджмента

[2]Тихоокеанский государственный университет, студент группы ГКУ иэу (б) – 31

https://doi.org/10.5281/zenodo.17272794

Аннотация. *В работе рассматриваются этические проблемы, связанные с современной цифровизацией. Общий подход к проблематизации цифровой среды позволил ранжировать этические проблемы по степени их значимости. Для детального изучения проблемы мошенничества в цифровой среде была проанализирована статистика банка России по количеству операций без согласия клиентов. С целью выявления мнения общества о наличии этических проблем, проведен социологический опрос, на основе которого сформировано понимание отношения респондентов к различным аспектам цифровизации.*

Ключевые слова: *Этика, цифровизация, цифровые технологии, мошенничество, информация.*

Развитие цифровых технологий стремительно меняет повседневную жизнь общества, создавая новые возможности в области коммуникаций. Цифровые технологии значительно упростили жизнь, но с их появлением возникло множество проблем, это цифровая безопасность, распространение фейковой информации, многие другие. Особое место в перечне проблематизации цифровой среды занимают этические проблемы цифровых технологий.

Цифровые технологии – это дискретная система, которая базируется на способах кодирования и трансляции информационных данных, позволяющих решать разнообразные задачи за относительно короткие отрезки времени. Примерами цифровых технологий являются искусственный интеллект, блокчейн, облачные технологии, кибербезопасность, обработка изображений и так далее. Цифровые технологии стали

популярны из-за точности и высокой скорости работы, что, несомненно, позволяет сфокусироваться на других более сложных задачах. Возможности цифровых технологий поистине безграничны, с каждым днем появляются новые открытия и улучшения, а большинству людей уже сложно представить свою жизнь без компьютера, смартфона, бытовых электронные приборов – все это часть нашей повседневной жизни [1].

Несомненно, цифровые технологии играют важную роль в повседневной жизни, их положительное влияние на общество трудно недооценивать, цифровизация способствует росту экономической и социальной эффективности для бизнеса и общества, более подробно, положительное влияние цифровых технологий представлено в схеме 1.




Рис. 1 – Положительное влияние цифровых технологий на общество

Однако именно широкий спектр социальных и экономических возможностей цифровизации создает множество этических проблем. Основные этические проблемы, связанные со стремительным развитием цифровых технологий, можно сгруппировать по ключевым направлениям (рисунок 2).

1. утечка данных;
2. искусственный интеллект и цифровое неравенство;
3. мошенничество и кибербуллинг.




Рис. 2 – Перечень этических проблем, связанных с развитием цифровых технологий

Общий подход к проблематизации цифровой среды позволяют сгруппировать этические проблемы по степени их значимости:

1. Проблема мошенничества: утечка информации пользователя, использование искусственного интеллекта с целью обмана.

2. Проблемы, связанные с использованием искусственного интеллекта: ошибки искусственного интеллекта, автоматизация бизнеса при использовании искусственного интеллекта.

3. Проблемы цифрового неравенства: неравномерный доступ к цифровым ресурсам, ограниченный доступ к саморазвитию и самореализации.

4. Проблема кибербуллинга: распространение ложной информации, травля в цифровой сети.

5. Автоматизация рабочего труда: уменьшения количества рабочих мест, несоответствие профессиональных навыков.

Цифровые технологии развиваются с огромной скоростью, так же и развиваются схемы мошенничества [2]. Именно поэтому, ключевой этической проблемой в цифровой сети является мошенничество. Рассмотрим статистику банка России по количеству операций без согласия клиентов (таблица 1). Источник: «Обзор отчетности об инцидентах информационной безопасности при переводе денежных средств» Банка России (1 квартал 2020 год – 1 квартал 2024 год) [3]

Показатель	2020 (1 квартал)	2021 (1 квартал)	2022 (1 квартал)	2023 (1 квартал)	2024 (1 квартал)
Число (ОБС), ед.	169501	237737	211263	252111	294414
Объём (ОБС) тыс. руб.	1830299,50	2873356,49	2848614,92	4549282,42	4263315,94
Доля возвращенных средств (от объема), %	11,3	7,3	5,0	4,3	7,7

Таблица 1 – Операции без согласия клиентов (ОБС)

По аналитическим данным видно, что с 2020 по 2024 год объем операций без согласия клиентов увеличился с 1830299,50 до 4263315,94 тысяч рублей. А доля возвращенных средств (от объема), в процентах с каждым годом уменьшается, с 2020 по 2023 год, и лишь в 2024 году показатель увеличился в 1,5 раза, что говорит об улучшении ситуации.

Для решения данной проблемы особое значение имеют информирование о новых методах мошенничества, создание курсов по цифровой грамотности, улучшение технологий безопасности, таких как шифрование данных и многофакторная аутентификация, создание горячих линий для оперативного оповещения о подозрительных действиях.

После изучения информации по этическим проблемам в открытых источниках, важно проанализировать мнение общества о развитии цифровых технологий. Цель исследования – выявить мнение населения в части этических проблем использования цифровых технологий, понимание отношения респондентов к различным аспектам цифровизации. На платформе «GoogleForms» был составлен опрос, состоящий из 4

вопросов, опрос и ответы респондентов, представлены в таблице 2. На основе ответов 50 респондентов составлены и проанализированы результаты. Целевой аудиторией являлись люди от 13 до 64 лет. Для достижения репрезентативности выборки выбран охват различных регионов страны и социально-демографических слоев населения.

Вопросы респондентам	Ответы респондентов		
Как цифровые технологии влияют на личные данные пользователей	Улучшают защиту данных	Увеличивают риск утечек	Не оказывают значительного влияния
	39%	43%	18%
Какие меры можно принять для защиты граждан от кибербуллинга и онлайн-угроз	Ужесточение законов	Образовательные программы	Это не решаемая проблема
	34%	31%	35%
Как вы относитесь к сбору персональных данных компаниями	Положительно	Отрицательно	Безразлично
	22%	41%	37%
Как вы относитесь к автоматизации рабочих мест	Положительно	Отрицательно	Безразлично
	29%	47%	24%

Таблица 2 – Ответы респондентов на вопросы анкетирования

При ответе на вопрос «Как цифровые технологии влияют на личные данные пользователей», большинство опрошенных респондентов 43% считают, что цифровые технологии увеличивают риск утечек личных данных пользователей, это говорит о том, что у населения присутствует недоверие к цифровой безопасности, данные опроса представлены на рисунке 3.




Рис. 3 – Влияние цифровых технологий на личные данные пользователей

На вопрос «Как вы относитесь к сбору персональных данных компаниями», большинство респондентов 41% относятся отрицательно, это означает, что у большинства людей низкий уровень доверия к корпоративной обработке данных, данные опроса представлены на рисунке 4.




Рис. 4 – Сбор персональных данных компаниями

Полученная информация позволила выявить актуальные этические проблемы цифровой среды для общества, что способствует пониманию процессов адаптации к условиям цифровизации и формированию превентивных мер по недопущению неэтических ситуаций в цифровом пространстве.

Цифровые технологии привнесли много нового в нашу жизнь и продолжают свое развитие. Например, улучшили качество жизни людей, расширили возможности в сфере коммуникаций, образования и использования искусственного интеллекта. Но, несмотря на все преимущества, цифровые технологии привели к проблемам, связанным с этикой. Решение перечисленных этических проблем требует комплексного подхода, включающего законодательные инициативы и осознанное отношение пользователей к использованию цифровых технологий.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Справочник от автора 24 / [Электронный ресурс] //[сайт] – URL:https://goo.su/DUnpoU (дата обращения 25.02.2025).
2. Горожанова О. Цифровизация и ее влияние на жизнь современного общества / [Электронный ресурс] // [сайт] – URL: https://goo.su/0SwRKP (дата обращения 11.03.2025).
3. Банк России: Обзор отчетности об инцидентах информационной безопасности при переводе денежных средств / [Электронный ресурс] // [сайт] – URL: https://goo.su/Z26n (дата обращения 11.02.2025).

КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАР ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Исмаилов Аллаёр Рашидович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети “Инновацион менежмент” кафедраси PhD доцент
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272798

Аннотация. *Ушбу мақолада корпоратив бошқарув жараёнларига инновацион усулларни жорий этишнинг назарий асослари ҳамда уларнинг замонавий тенденциялари таҳлил қилинади. Инновацион бошқарув усуллари корпоратив тузилмаларда самарадорликни ошириш, қарор қабул қилиш жараёнларини такомиллаштириш ва шаффофликни кучайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Мақолада хорижий ва миллий тажрибалар асосида корпоратив бошқарувнинг инновацион йўналишлари ўрганилган ҳамда уларнинг рақамли иқтисодиёт, ESG стандартлари, интеллектуал технологиялар ва Лидерлик 4.0 методологияси билан уйғунлиги кўрсатиб берилган. Шунингдек, корпоратив бошқарувнинг ривожланишида инновацион тенденциялардан самарали фойдаланиш бўйича илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *корпоратив бошқарув, инновацион усуллар, рақамли иқтисодиёт, ESG стандартлари, Лидерлик 4.0, самарадорлик, инновацион тенденциялар, бошқарув методологияси, интеллектуал технологиялар, стратегик ривожланиш.*

Корпоратив бошқарув жараёнларига инновацион усулларни жорий этиш масаласи ҳозирги глобал рақамлашув, иқтисодий интеграция ва ижтимоий ўзгаришлар шароитида тобора муҳим аҳамият касб этмоқда. Замонавий шароитда компанияларнинг барқарор ривожланиши нафақат молиявий самарадорлик ва бозорда рақобатбардошликка, балки инновацион ёндашувларни самарали қўллашга ҳам боғлиқдир. Корпоратив бошқарув тизимида инновацияларнинг татбиқ этилиши, аввало, қарор қабул қилиш жараёнларининг шаффофлиги ва самарадорлигини ошириш, акционерлар ҳамда бошқа манфаатдор томонлар билан ўзаро муносабатларни янги босқичга олиб чиқиш имконини яратади.

1-жадвал. Корпоратив бошқарувда инновацияларнинг назарий асослари

Назария/Ёндашув	Асосий мазмун ва аҳамият
Й. Шумпетер инновация назарияси	Инновация иқтисодий ривожланишнинг асосий драйвери, янги стратегия ва ресурсларни талаб қилади
Агентлик назарияси	Акционерлар ва менежерлар манфаатларини уйғунлаштиришда инновация муҳим восита бўлади
Манфаатдор томонлар назарияси	Корпоратив қарорларда ижтимоий ва экологик омилларни ҳисобга олиш зарурлигини таъкидлайди
Ресурс-асосланган ёндашув (RBV)	Инновация компания ресурслари ва қобилиятларини самарали бошқаришга асосланади
Динамик қобилиятлар назарияси	Ташкилотнинг бозор ўзгаришларига тез мослашиш ва янги имкониятлар яратиш қобилияти

Инновацияларнинг назарий асослари турли иқтисодий мактаблар томонидан атрофлича тадқиқ этилган. Хусусан, Шумпетер таълимотида инновация иқтисодий ривожланишнинг асосий драйвери сифатида баҳоланиб, корхоналарнинг янгича стратегия

ва ресурслардан фойдаланиш зарурати таъкидланади. Агентлик назарияси корпоратив бошқарувда менежерлар ва акционерлар манфаатларини уйғунлаштиришда инновацияларнинг ўрнига эътибор қаратса, манфаатдор томонлар назариясида корпоратив фаолиятда ижтимоий ва экологик омилларни ҳисобга олишнинг долзарблиги қайд этилади. Шунингдек, ресурс-асосланган ёндашув компанияларнинг интеллектуал, технологиявий ва молиявий имкониятларини тўғри бошқариш орқали рақобатбардош устунликка эришишини таъминлайди.

Корпоратив бошқарувда инновацион усуллар турли йўналишларни қамраб олади. Технологик инновациялар доирасида рақамли платформалар, Big Data таҳлили, сунъий интеллект ва блокчейн технологиялари орқали қарор қабул қилиш ва назорат тизимларини автоматлаштириш жараёни тез суръатларда ривожланмоқда. Ташкилий инновациялар эса матрицавий бошқарув структуралари, агил бошқарув амалиёти ва гибрид моделларни жорий этиш орқали ташкилотнинг ички самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Бизнес жараёнларида реинжиниринг, роботлаштирилган автоматлаштириш (RPA) каби усуллар орқали операцион жараёнларни оптималлаштириш тенденцияси кучаймоқда. Шу билан бирга, ESG стандартлари асосида ижтимоий ва экологик инновациялар компанияларнинг барқарор ривожланишига замин яратмоқда.

Замонавий тенденциялар корпоратив бошқарувнинг инновацион йўналишлари қандай ривожланаётганини кўрсатиб бермоқда. Рақамлашув ва маълумотларга асосланган бошқарув қарорлари асосий устувор йўналиш сифатида намоён бўлмоқда. Сунъий интеллектдан кенг фойдаланиш орқали риск-менежмент, молиявий таҳлил ва стратегик прогнозлаш жараёнлари самаралироқ тус олмоқда. ESG талаблари кучайиб, корпоратив қарорларда ижтимоий масъулият ва экологик барқарорлик омиллари марказий ўринни эгаллаб бормоқда. Шу билан бирга, блокчейн технологиялари шаффофликни кучайтираётган бўлса, гибрид бошқарув моделлари орқали компаниялар ўзгарувчан бозор шароитига тез мослашаётгани кузатилмоқда.

Инновацияларни жорий этиш жараёни методологик жиҳатдан босқичма-босқич амалга оширилиши лозим. Биринчи навбатда, ташкилотнинг инновацияларга тайёргарлик даражаси таҳлил қилинади, мавжуд ресурслар ва инфратузилма ҳолати баҳоланади. Кейинги босқичда инновация мақсадлари корпоратив стратегия билан уйғунлаштирилади ва пилот лойиҳалар синовдан ўтказилади. Синов натижалари ижобий бўлса, кенг кўламда имплементация жараёни амалга оширилади. Шу жараёнда мониторинг ва баҳолаш KPIлар асосида йўлга қўйилиб, доимий равишда тузатишлар киритилади. Охирги босқичда эса инновация компаниянинг ички қоидалари ва корпоратив маданиятига интеграция қилинади.

2-жадвал. Инновацияларни баҳолашда асосий KPI кўрсаткичлари

Йўналишлар	KPI кўрсаткичлари (асосий индикаторлар)
Молиявий самарадорлик	ROE, EBITDA маржаси, акция қиймати ўсиши
Операцион самарадорлик	Жараён тезлиги, автоматизация даражаси, ишлаб чиқариш ҳажми
Бошқарув самарадорлиги	Қарор қабул қилиш вақти, директорлар кенгаши қарорлари бажарилиш даражаси
ESG кўрсаткичлари	Углерод изи камайиши, ресурс тежамкорлиги, ижтимоий лойиҳаларда иштирок
Рақамли салоҳият	AI асосида қабул қилинган қарорлар сони, рақамли лойиҳалар улуши

Баҳолаш жараёнида молиявий кўрсаткичлар, операцион самарадорлик, бошқарув самарадорлиги, ESG кўрсаткичлари ва рақамли салоҳият индикаторларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Амалиётда инновацияларни жорий этиш қатор тўсиқлар билан ҳам юзма-юз келади. Ходимларнинг қаршилиги, малака етишмаслиги, молиявий хавфлар, ҳуқуқий чекловлар ва киберхавфсизлик муаммолари инновацияларнинг самарали татбиқ этилишига тўсқинлик қилиши мумкин. Бундай ҳолларда компаниялар стратегик йўналишларни белгилаш, пилот лойиҳалар орқали хавфларни камайтириш, ходимларни қайта тайёрлаш ва корпоратив маданиятда янгича қадриятларни шакллантириш орқали муаммоларни бартараф этишлари лозим.

Хулоса сифатида таъкидлаш мумкинки, корпоратив бошқарувда инновацион усулларни жорий этиш тизимли ёндашув ва миллий ҳамда халқаро меъёрий ҳужжатлар билан уйғунлашган ҳолда амалга оширилиши талаб этилади. Бунда давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш механизмлари, компанияларнинг ички ташаббуслари ва жамиятнинг ижтимоий талаблари ўзаро уйғун ҳолда фаолият юритиши зарур. Келгусидаги илмий тадқиқотлар сунъий интеллект ва блокчейн технологиялари асосида корпоратив қарорларни таҳлил қилиш, ESG стандартларининг иқтисодий самарадорликка таъсири ҳамда рақамли трансформациянинг корпоратив маданиятга кўрсатадиган таъсирини чуқур ўрганишга йўналтирилиши мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Scherer, A. G., & Voegtlin, C. (2020). Corporate governance for responsible innovation: Approaches to corporate governance and their implications for sustainable development. *Academy of Management Perspectives*, *34*(2), 182-208.
2. Belloc F. Corporate governance and innovation: A survey //Journal of Economic Surveys. – 2012. – Т. 26. – №. 5. – С. 835-864.
3. Veselovsky M. Y. et al. System approach to achieving new quality of corporate governance in the context of innovation development //Calitatea. – 2018. – Т. 19. – №. 163. – С. 30-36.
4. Moșneanu D. Corporate governance in the digital world //14th International Conference on Business Excellence 2020. – 2020. – С. 11-12.
5. Palladino L. Economic policies for innovative enterprises: implementing multi-stakeholder corporate governance //Review of Radical Political Economics. – 2022. – Т. 54. – №. 1. – С. 5-25.

CAREER IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT

Aytan Ismayilova
Ministry of Finance of the Republic of Azerbaijan, Azerbaijan
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272808

Abstract. *Human resource management is centered around people. Humans are the main creative force, continually developing, creating new technologies, and using those technologies. Due to the effects of globalization and the spread of modern technologies worldwide, there is a shift from manual labor to cognitive labor, necessitating the use of different strategies to ensure organizational competitiveness and sustainable development. Since the human factor is crucial in human resource management, the organization’s strategies regarding employees are implemented through human resource management. Utilizing employees’ potential, employing continuous learning models to enhance their skills and knowledge, creating a healthy work environment to boost job motivation, and planning careers based on employees’ skills and*

experience have become important for organizations. Career management in organizations can be achieved through career planning and career development. This can lead to increased labor productivity, heightened motivation, advancement based on skills and experience, and improved organizational sustainability and competitiveness.

This article will discuss the importance of career management and the necessity of career planning and development in career management.

***Keywords**: human resource management, career management, career planning, career development.*

Introduction. As the modern work environment becomes increasingly complex and dynamic, it is crucial for organizations to approach human resource management (HRM) as a strategic domain in order to achieve success and ensure sustainable development. HRM is a field aimed at effectively managing and developing an organization's most valuable assets—its people—while maximizing their contribution. This area plays a significant role in increasing employee motivation, enhancing productivity, improving the work environment, and achieving the strategic goals of the organization. Employees also bear certain responsibilities alongside the organization. A third of a person's day is spent at work. Doing a job one loves—or learning to love one's job—not only helps to make the most of working hours but also positively influences labor productivity. Therefore, making the right career choice has a strong impact on an individual's future career life. Once a profession is chosen, career planning can take place, utilizing various tools such as career centers, coaching, and other resources. These play a vital role in personal development. This article explores career in more detail, presents the core principles of career planning and development, and highlights the importance of career management in the modern work environment. A career stands at the center of professional development and personal satisfaction, and managing it correctly plays a critical role in ensuring both individual and organizational success.

Methodology. Qualitative research methods were used in the writing of this scientific article. Electronic databases were utilized, including searches on Google Scholar, and existing scientific articles were reviewed and referenced.

1. **Career in Human Resource Management**

Human Resource Management (HRM) encompasses various methods and strategies used to manage the workforce effectively, develop their skills, and align them with organizational goals. HRM is not limited to recruitment, salaries, or employment contracts; it also involves maximizing employees' potential, improving work conditions, increasing motivation, and ensuring the alignment of human resources with strategic objectives. It supports both the professional and personal development of employees with an approach designed to meet the organization's goals. Key goals of HRM include effective recruitment aligned with strategic plans, the organization of training and development programs, performance evaluation, and the creation of motivational systems. To achieve these objectives, planning and developing employees' careers is crucial, as career satisfaction is a major factor in employee satisfaction (Soysal & Kılınç, 2016). In HRM, career development is a strategic approach to enhance employee motivation, development, and organizational commitment. It is vital for ensuring long-term success for both employees and organizations. A career includes all stages of a person's professional activity, their work experience, and their development. In other words, it refers to

the journey a person takes in their work life, including education, experience, and professional growth. A career may include the following elements:

1. Career Choice – deciding in which field to work.
2. Education and Training – the education and training required to enter the profession.
3. Work Experience – experience gained in different workplaces or roles.
4. Career Development – career progression and acquisition of new skills.
5. Areas of Expertise – deep knowledge and skills in a particular field. Career management refers to the set of processes and actions aimed at advancing an individual's professional life in a strategic and goal-oriented manner. It is important for guiding professional development, maximizing potential, and achieving personal goals. This also supports a successful balance between personal and professional life. Career management tools include: Career mapping, career counseling, career leadership, career centers, coaching, training and development programs, and job enrichment (Özdemir, 2005; Özdemir & Aras, 2015).

2. **Career Planning.**

Career planning is the management of an individual's career through education, training, and work experience (Deniz and Ünal, 2007). The main objectives of career planning are to support employee career development, minimize productivity loss, recruit new employees for future vacancies, increase job satisfaction and commitment, uncover potential talents, create opportunities for creative thinking within the organization, ensure effective use of human resources, better identify training and development needs, prepare employees for promotion, evaluate talent in new fields, and improve job performance through training and career opportunities (Barutçugil, 2004; Tunçer, 2012; Can & Güney, 2007).

2.1. **Individual Career Planning.**

Individual career planning is a systematic and goal-oriented process carried out by a person to achieve long-term professional goals. It helps individuals assess their strengths, interests, development needs, and potential opportunities, while also enabling them to take strategic steps toward future career goals. It is a critical tool for supporting personal development and increasing professional success. The first stage of individual career planning is self-assessment. At this stage, strengths and weaknesses, interests, values, and skills are analyzed. Several tools can be used for selfassessment:

• Career interest tests, personality tests, and skill assessments help identify an individual's strengths and development needs.

• Personal experience analysis, such as reviewing past experiences, successes, and challenges, aids in understanding oneself.

After self-assessment, the second stage is to set personal career goals, categorized as:

- Short-term goals (1–2 years): e.g., gaining new skills, obtaining certificates.
- Mid-term goals (3–5 years): e.g., promotion, reaching a specific job title.
- Long-term goals (5+ years): e.g., moving into a leadership role, becoming an expert.

In the third stage, a concrete career plan is developed to reach these goals, which includes:

- Education and Training Programs – identifying what education/training is required.
- Gaining Experience – through internships, volunteer work, or projects.

- Networking and Mentoring – building professional relationships and receiving guidance. The fourth stage is the implementation and monitoring of the plan. This involves taking steps toward goals, regularly evaluating progress, and making adjustments as needed. The career plan should be flexible and updated over time, considering changes in market conditions, interests, and personal goals.

2.2. **Organizational Career Planning.**

Organizational career planning is a key process for enhancing employee development and overall organizational success. It includes strategic alignment, training and development programs, performance management, networking, and career guidance. Effective career planning supports the organization's strategic goals, promotes professional development, and lays the foundation for long-term success. Organizational career planning is a process that strategically directs employees' career development to achieve both individual and organizational goals. It helps enhance employee potential, support their professional growth, and strengthen overall organizational performance. The main objective of organizational career management is to improve organizational and individual efficiency and productivity by enhancing employee capabilities and ensuring upward mobility in the workplace. Ultimately, it aims to form a talented workforce that will meet the organization's future needs starting from today (Büyükyılmaz, Karakulle and Karataş, 2018).

Conclusion. Developing and planning a career are fundamental processes that form the basis of personal and professional success. The link between these two areas creates a vital foundation for individual progress and achievement. Effective career development and planning support personal growth and serve the long-term strategic goals of organizations. In today's rapidly evolving labor market, continuous training, development, and strategic deployment of the workforce remain relevant and necessary. In this context, both organizations and employees have responsibilities. Individuals must focus on self-development, discover their skills, decide which profession they want to pursue, and build a career plan accordingly to ensure success at various career stages. Organizations, in turn, must align employee interests with organizational goals to increase motivation, ensure career progression based on skills and knowledge, and contribute to overall organizational growth.

REFERENCES

1. Barutçugil, İ. (2004). Stratejik İnsan Kaynakları Yönetimi. İstanbul: Kariyer Yayınları.
2. Büyükyılmaz, O., Karakulle, İ., & Karataş, İ. (2018). The mediating role of job satisfaction in the effect of organizational career management on emotional commitment. Çankırı Karatekin University Journal of Economics and Administrative Sciences, 8(1), 1-29.
3. Can, H. & Güney, S. (2007). General Business. İstanbul: Arıkan Publishing.
4. Deniz, M. (2007). Organizational Career Management as a Function of Human Resources and a Case Study. Social Sciences, 2(2), 101–119.
5. Ismayilova, A. (2024). A New Perspective on Human Resource Management for a Greener World: Green HRM. Finance & Accounting Journal.
6. Ismayilova, A. (2024). General Overview of Green Human Resource Management. ISCEMR.
7. Özdemir, Y. (2005). The Relationship Between Career Stages and Organizational Citizenship Behavior: A Case Study from Sakarya University. Sakarya University Graduate Thesis.

8. Özdemir, Y., & Aras, M. (2015). Career Management in Social Services. Süleyman Demirel University Visionary Journal, 107–121.
9. Soysal, A., & Kılınç, E. (2016). Performance Evaluation and Career Management Practices in Strategic HRM. Journal of Socio-Economic Research, 16(31), 325–347.
10. Tunçer, P. (2012). Career Management in Changing Human Resources Understanding. Ondokuz Mayıs University Journal of Education Faculty, 31(1).

КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕСНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ

Исроилов Обид Олимжонович
мустақил тадқиқотчи
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272818

Аннотация. *Мазкур ишда кичик ва ўрта бизнес субъектларини молиялаштиришнинг аҳамияти, мавжуд муаммолар ҳамда уларни ҳал этиш йўналишлари ёритилган. Кичик ва ўрта бизнес иқтисодиётнинг таянч қисми ҳисобланиб, янги иш ўринлари яратиш, маҳаллий бозорни сифатли маҳсулотлар билан таъминлаш ва экспорт салоҳиятини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Молиялаштириш механизмларининг самарадорлиги ва уларнинг ривожланиш йўллари тадқиқ этилган.*

Калит сўзлар*: кичик бизнес, ўрта бизнес, молиялаштириш, кредит, инвестиция, лизинг, микрофинанс, инновация, исломий молия, венчур капитал, fintech, рақамли молия, давлат қўллаб-қувватлови, молиявий саводхонлик.*

Кириш. Кичик ва ўрта бизнес мамлакат иқтисодиётида муҳим ўрин эгаллайди. Уларнинг ривожланиши иқтисодий барқарорликни таъминлайди, янги иш ўринлари яратади ва рақобат муҳитини кучайтиради. Шу билан бирга, маҳаллий бозорни арзон ва сифатли маҳсулотлар билан таъминлаб, экспорт салоҳиятини оширишга хизмат қилади. Бироқ кичик ва ўрта бизнес субъектлари кўпинча молия ресурсларига кириш имконияти чекланган ҳолда фаолият юритишади. Кредит ресурсларининг қимматлиги, гаров таъминотининг етишмаслиги, молиявий саводхонликнинг паст даражаси ва риск-менежмент механизмларининг ривожланмаганлиги улар учун асосий тўсиқлардир. Шу сабабли давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигида имтиёзли кредитлар, субсидиялар ва кафолатлаш тизимлари орқали КЎБни қўллаб-қувватлаш долзарб аҳамиятга эга.

Кичик ва ўрта бизнесни молиялаштиришда турли молиявий инструментлар мавжуд. Банк кредитлари асосий манба ҳисобланса-да, уларнинг юқори фоиз ставкалари ва гаров талаблари кўп ҳолларда тадбиркорлар учун қийинчилик туғдиради. Шу боис, лизинг ва микрофинанс хизматлари, инвестиция ва венчур капитал каби замонавий воситалар муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, инновацион ва стартап лойиҳалар учун венчур молиялаштириш истиқболли йўналиш ҳисобланади. Ислом молияси талабларига мувофиқ ишлайдиган ислом молияси воситалари (мурабоҳа, ижара, мушорака) кичик бизнес учун хавфсиз ва шаффоф молиялаштириш имкониятларини тақдим этади. Шунингдек, рақамли технологиялар асосидаги fintech хизматлари, онлайн кредит платформалари ва электрон

тўлов тизимлари молиявий ресурсларга кириш имкониятларини сезиларли даражада кенгайтирмоқда.

Кўриб чиқилган омиллардан келиб чиққан ҳолда, кичик ва ўрта бизнесни молиялаштиришда қуйидаги йўналишлар устувор ҳисобланади: анъанавий кредит тизимини такомиллаштириш, инновацион молиялаштириш усулларини ривожлантириш, рақамли технологияларни кенг жорий этиш ва молиявий саводхонликни ошириш. Бу орқали КЎБ субъектлари иқтисодий фаоллигини ошириш, ички ва ташқи бозорда рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш имкониятига эга бўлади.

Кичик ва ўрта бизнесни молиялаштириш инструментлари

Инструмент	**Афзалликлари**	**Тўсиқ ва Камчиликлари**
Банк кредитлари	Асосий молиялаш манбаи, катта миқдорда маблағ олиш мумкин	Фоиз ставкалари юқори, гаров талаблари қаттиқ
Лизинг	Асосий воситаларни гаровсиз олиш имконияти	Лизинг компаниялари сони чекланган
Микрофинанс	Кичик миқдорда маблағ, тезкорлик	Сумма кичик, катта лойиҳаларга етарли эмас
Инвестиция / Венчур	Инновацион ва стартап лойиҳаларни қўллаб-қувватлайди	Инвесторлар талаблари юқори
Ислом молияси	Ислом молияси талабларига мувофиқ, хавфсиз ва шаффоф	Ҳали кенг ривожланмаган, инфратузилма чекланган
Fintech (рақамли молия)	Онлайн кириш имкони, шаффоф ва тезкор	Қонунчилик ва хавфсизлик муаммолари бор

Хулоса. кичик ва ўрта бизнесни молиялаштириш мамлакат иқтисодиётининг барқарор ривожланишида ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Молиялаштириш инструментлари турли хил имкониятларни тақдим этса-да, уларнинг ҳар бирига хос чеклов ва тўсиқлар мавжуд. Шу боис, банк кредитлари билан бирга лизинг, микрофинанс, инвестиция ва венчур капитал, шунингдек, ислом молияси ва рақамли технологиялардан кенг фойдаланиш зарур. Бунда давлат қўллаб-қувватлови, молиявий саводхонликни ошириш ва замонавий инновацион ечимларни жорий этиш орқали кичик ва ўрта бизнеснинг иқтисодий фаоллиги ҳамда рақобатбардошлиги юқори даражага кўтарилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Голдрат Э., Кокс Дж. Цель: процесс непрерывного совершенствования. – Москва: Альпина, 2015.
2. Porter M. Competitive Advantage. – Harvard Business School Press, 1985.
3. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Harvard, 1996.
4. OECD (2022). Financing SMEs and Entrepreneurs: An OECD Scoreboard. – Paris: OECD Publishing.

5. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. (2005). SMEs, Growth, and Poverty: Cross-Country Evidence. – Journal of Economic Growth, 10(3).
6. World Bank (2020). Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving SMEs’ Access to Finance and Finding Innovative Solutions. – Washington, DC: World Bank.
7. Karimov A. (2021). Kichik biznes ва хусусий тадбиркорликни молиялаштиришнинг замонавий механизмлари. – Тошкент: Iqtisodiyot журнали

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ И ИННОВАЦИОННОГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ

Ишманова Динора Нурмамад кизи[1], Сулейманов Рехим Али оглы[2]
[1]д.э.н., доцент; [2]Исследователь
https://doi.org/10.5281/zenodo.17377999

Аннотация. *В последние годы в Узбекистане проводятся широкомасштабные реформы, направленные на ускорение таких процессов, как радикальное изменение подходов в системе управления предприятиями-монополистами, налаживание корпоративных отношений, сокращение доли государства, повышение конкурентоспособности предприятий нефтегазовой отрасли.*
Ключевые слова. *Предприятия, нефть и газ, инфтраструктура, рынок, государственно-частного партнерства.*

Реализация реформ, направленных на сокращение доли государства в монопольных секторах, свидетельствует о том, что инфраструктура нефтегазовых предприятий с точки зрения качества движется в положительном направлении - "...В сфере поставок природного газа будет ликвидирована монополия и будут внедрены рыночные механизмы".[16] В связи с этим целесообразно проведение научных исследований, направленных на совершенствование управления на основе государственно-частного партнерства с целью совершенствования механизмов управления инфраструктурой нефтегазовых предприятий, снабжения природным газом, снижения нормы естественных потерь при снабжении, транспортировки, распределении и реализации природного газа, привлечении инвестиций со стороны иностранных и местных инвесторов, внедрении в практику инновационных кластеров при повышении конкурентоспособности предприятий, сокращееия государственных субсидий, выдаваемых монопольным предприятиям.

В условиях сильной конкуренции целесообразно разработать пути реализации стратегии достижения целевого конкурентного положения при обосновании основных направлений стратегии развития нефтегазовых предприятий.

[16]Послание Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева к Олий Мажлису. 29 декабря 2020 года. www.lex.uz

В практике развитых стран мира проводится большая работа по изучению теоретико-методологических аспектов деятельности корпораций, выбору стратегий их управления, комплексному исследованию проблем управления акционерными обществами на основе государственно-частного партнерства. В целях внедрения и развития эффективной системы управления нефтегазовой отраслью, повышения ее конкурентоспособности и инвестиционной привлекательности, а также Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы в соответствии с задачами, изложенными в концепции административных реформ в Республике Узбекистан:

Приоритетными направлениями дальнейшего развития топливно-энергетического сектора Республики Узбекистан являются: [17]

ведение единой энергетической политики страны, направленной на обеспечение топливно-энергетической безопасности, на удовлетворение постоянно растущей потребности экономики и населения в энергоресурсах;

государственное регулирование в нефтегазовой сфере, четкое ограничение функций экономической деятельности, совершенствование нормативно-правовой и институциональной базы социального и государственно-частного партнерства, разработка четких рыночных структур для реализации тарифной политики и на этой основе продвижение принципов здоровой конкурентной среды;

создание условия для активного привлечения инвестиций в строительство объектов инфраструктуры, а также модернизацию отраслевых предприятий, техническое и технологическое перевооружение, в первую очередь, прямых иностранных инвестиций;

широкое применение современных средств автоматизации технологических процессов, систем учета объемов производства, поставки и потребления энергоресурсов на предприятиях энергетической отрасли;

внедрение современных методов и целевых показателей (управление качеством, индикативное планирование), направленных на координацию системы управления отраслевыми предприятиями, их структуры и подразделений, достижение точных результатов организации работ, а также внедрение единого нормативно-правового и технического регулирования в области топливно-энергетической отрасли в республике;

Обсужден проект постановления Президента Республики Узбекистан "О дополнительных мерах по сокращению государственной доли в экономике от числа предприятий, полностью или частично удерживаемых в государственных пакетах акций (долей) на условиях внедрения принципов стратегии владения, управления и реформирования предприятий с государственным участием Республики Узбекистан в 2020-2025 годах. В свою очередь, это свидетельствует о соответствии предложенной нами научной теории данному проекту постановления [табл.1].

Тот факт, что государственной комиссии по тендерным торгам при реализации государственного имущества предоставлено право вносить изменения в условия и способы продажи принадлежащих государству акций (долей) пакетов хозяйственных обществ иностранным инвесторам, свидетельствует о том, что наша страна использует зарубежный опыт.

[17] Указ Президента Республики Узбектстан “О мерах по кореннму совершенствованию системы управления топливно-энергетической отрасли Республики Узбекистан”. 04.02.2019

Таблица 1

Перечень государственных предприятий, акции (доли) которых в уставном капитале продаются в полном объеме частному сектору [18]

П/н	Название	Территория	Государственная доля (%)*
1	АО "Нефтегазгазкурилиштамир"	Бухарская область	36,0
2	АО " Нефтьгазтадкикат"	Бухарская область	36,0
3	АО "Бухорогазсаноаткурилиш»	Бухарская область	58,4
4	" АО "Бухоронефтегазавтонакл"	Бухарская область	51,0
5	ООО "Алатская нефтегазовая разведочная экспедиция"	Бухарская область	100
6	АО "Узташкинефтегаз"	Город Ташкент	51,0
7	АО "Тошнефтегазкурилиш"	Город Ташкент	53,3
8	АО" Узнефтгазинформатика""	Город Ташкент	52,5
9	АО" Нефтьтаъминот"	Город Ташкент	25,0
10	АО "Сарбон-нефтегаз"	Город Ташкент	51,0

В приведенной выше таблице 3 представлено 10 государственных предприятий с государственным участием, в которых государственные пакеты акций (доли) в уставных капиталах продаются в полном объеме частному сектору на территории нашей страны, при сохранении управления нефтегазовыми предприятиями стратегического значения, что приведет к экономическому оздоровлению предприятий с финансовой нестабильностью в данной отрасли.

Таблица 1

Перечень предприятий с государственным участием, в которых полностью или частично сохраняется государственный пакет акций (доли) [19]

П/н	Название	Изменение организационно-правовой формы	Территория	Проданная акция (%)	Сохраненная доля (%)
1	АО “Узбекнефтегаз”	АО	г.Ташкент	24,0	76,0
2	АО "Узтрансгаз"	АО	г.Ташкент	24,0	75,5

Согласно анализу таблицы 4, в проекте Постановления Президента Республики Узбекистан "О дополнительных мерах по снижению доли государства в экономике" в перечне предприятий с участием государства, где полностью или частично сохраняется государственный пакет акций (доля), доля АО "Узбекнефтегаз" составляет 76,0%, а продаваемая доля - 24,0%. В проекте Постановления Президента Республики Узбекистан

[18] Анализ автора на основе проекта Постановления Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по сокращению государственной доли в экономике”

[19] Анализ автора на основе проекта Постановления Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по сокращению государственной доли в экономике”

"О дополнительных мерах по снижению доли государства в экономике" государственная доля АО "Андижаннефть" составляет 1,1%, АО "Узнефтгазказибчикариш" - 48,3%, АО "Узнефтмахсулот" - 32,4%, АО "Узнефтгазишчитаъминот" - 39,0%, АО "Узбургунефтгаз" - 27,4%, данные предприятия указаны как предприятия, ликвидированные государством или предприятия с государственным участием, к которым применен принцип банкротства. В целях сохранения финансовой устойчивости предприятий и обеспечения повторного трудоустройства работников предприятия мы предлагаем управление этими предприятиями на основе государственно-частного партнерства региональным субъектам предпринимательства или иностранным инвесторам.

Согласно информации, приведенной в таблице 5 ниже, если проанализировать пакеты государственных акций (долей) в уставном капитале хозяйственных обществ, которые предлагаются к продаже инвесторам, в том числе иностранным инвесторам, то доля органов хозяйственного управления АО "Бухоронефтгазпармалаш" составляет 51,24%, АО "Узнефтгазкудуктаъмирлаш" - 74,0%, АО "Neft va gaz quduqlarini sinash" - 73,87%, ООО “Андижоннефтегазкудуктаъмирлаш" - 100%, ООО "Ферганская нефтебаза"- 100%, ООО "Гулистанская нефтебаза" - 100% пакетов.

Таблица 2

Перечень пакетов государственных акций (долей) в уставном капитале хозяйственных обществ, предлагаемых к продаже иностранным инвесторам [20]

Т/р	**Наименование хозяйственного общества**	**Место расположения**	**Активы, подлежащие реализации (%)**	
			госдоля	**доля органа хозуправления**
Нефтегазовая сеть				
1	АО «Бухоронефтгазпармалаш»	Бухарская область	-	51,24
2.	АО «Узнефтгазкудуктаъмирлаш»	Бухарская область	-	74,0
3.	АО «Neft va gaz quduqlarini sinash»	Кашкадарьинская область	-	73,87
4.	ООО «Андижоннефтгазкудуктаъмирлаш»	Андижанская область	-	100
5.	ООО «Ферганская нефтебаза»	Ферганская область	-	100

Мы пришли к выводу, что для снижения потерь при управлении инфраструктурой нефтегазовых предприятий целесообразно использовать следующее математическое уравнение.

Математическое уравнение газового баланса в газотранспортной системе:[21]

[20]Приложение 1 к Постановлению Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № ПП-4300.
[21] Разработка автора на основе Инструкции «О порядке определения потерь при снабжении, транспортировке, распределении и реализации природного газа» от 18 май 2018 год.

$$Q_п + Q^{от}_{гесо} + Q^{н}_{ост} = Q_р + Q^{з}_{гесо} + Q^{к}_{ост} + Q_{сн} + (Q_{тп} \pm Q_{рас})$$

где, $Q_р$ — объем газа, поступающего в ГТС в соответствии с заключенными договорами поставки, 1×10 м^3;

Q^{ot}_{geso} — объем газа, изъятого из ГЕСО в отчетном месяце, 1×10 м^3;

Q^{n}_{ost}-оставшийся объем газа в ГТС на начало отчетного месяца, 1×10 м^3;

Q_r-объем газа, поставляемого потребителям, включая экспорт, 1×10 м^3;

Q^{z}_{geso} — объем газа, входящего в ГЕСО под давлением, 1×10 м^3;

Q^{k}_{ost} — оставшийся объем газа на конец отчетного месяца в ГТС, 1×10 м^3;

Q_{sn} - собственные потребности

Q_{TP}-технологические потери

Q_{ras}-расхождение между доходной и расходной частью баланса с учетом дефектов в отчете.

Объем газа, потребляемого на его технологические нужды, рассчитываемый приборами и определяемый в соответствии с настоящим порядком, определяется по следующей формуле:

$$Q_{сн} = Q_{тпн} + Q_{птн},$$

где, $Q_{тпп}$ - объем газа, израсходованного на технологические нужды, м^3;

Q_{ptn}-объем газа, израсходованного на другие технологические нужды, м^3 .

Разрыв между входной и выходной частью баланса не может быть увеличен на уровень ошибки 1,5%, чего можно избежать.Если расхождение не превышает уровень ошибки, которого можно избежать, как описано выше, дефицит газа пойдет на расходы структуры за этот период.

Общий объем газа, потребляемого для анализа и контроля потребления газа на потребительные и технологические нужды и потери, прием газа от потребителей - согласно акту-сдачи, по отношению к общему объему полученного газа, в виде процентов Rg, (%) предоставляется в виде формулы:

$$P_г = \frac{V_{с.н.} + V_{э.н.} + V_{пот.}}{V_{общ.}} \cdot 100,$$

где: $V_{e.n.}$— объем газа, израсходованного на эксплуатационные нужды, м^3;

$V_{t.n.}$— объем газа, израсходованного на технологические нужды, м^3;

$V_{pot.}$ — потери газа, м3;

$V_{общ}$-общий объем газа, полученный от поставщиков и оформленный двусторонним актом приемки-сдачи, м^3. Расчет объема природного газа, израсходованного на технологические нужды и потери на основе регламента и использования при доствке и распределении газа в организации ($V_{e.n.}$, $V_{t.n.}$, $V_{pot.}$)

за отчетный период осуществляется ведущим инженером газовой отрасли, пунктом газоснабженияи слу и службой использования приборов учета организации.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-иловаси «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси».Lex.uz

2. Ўзбекистон Республикаси ёқилғи-энергетика тармоғини бошқариш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони 04.02.2019
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 26 апрелдаги “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги 537-сонли Қарори
4. Голубничий А.С. Управление инвестиционной деятельностью естественной монополии. Автореф. дис. … канд. экон. наук, М., 2005. 22с.
5. [1]М.Шарифхўжаев, Ё. Абдуллаев Менежмент / Дарслик. Т:. – “Ўқитувчи” 2001, 404-бет
6. Квинт, В.Л. Стратегическое управление и экономика на глобальном формирующемся рынке: Монография / В.Л. Квинт. - М.: Бизнес Атлас, 2012. - 630 с.
7. А.С.Кучаров, Д.Н.Ишманова ТИФда транспорт ташувлари. Ўқув қўлланма. ТДИУ. 359-бет.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИ: 2023–2025 ЙИЛЛАР ТАҲЛИЛИ

Жаббарова Чарос Аминовна
Тошкент давлат иқтисодёт университети, PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272820

Аннотация. *Мақолада “инвестицион жозибадорлик” тушунчасининг мазмуни, уни шакллантирадиган макро ва микро омиллар, халқаро ўлчовлар (индекс ва рейтинглар), баҳолаш методологиялари ҳамда хавфларни бошқариш механизмлари таҳлил қилинади. Ўзбекистонда сармоявий муҳитнинг тўлиқ ривожланишига тўсқинлик қилаётган бир қатор омиллар ва уларни бартараф этиш йўллари бўйича қатор тавсиялар берилади.*

Калит сўзлар: *инвестицион жозибадорлик, инвестиция муҳити, солиқ имтиёзлари, ялпи ички маҳсулот, бюрократик тўсиқлар, иқтисодиётни либераллаштириш.*

Ўзбекистон иқтисодиёти сўнгги йилларда сезиларли ўзгаришларни бошдан кечирмоқда. 2017-йилда бошланган мисли кўрилмаган иқтисодий ислоҳотлар дастури мамлакатнинг аввал изоляцияланган ва юқори даражада марказлашган иқтисодиётини хусусий инвесторлар учун янада очиқроқ ва ташқи таъсирларга чидамлироқ ҳолатга келтирди. Ҳукумат ушбу ислоҳотлар орқали бизнес муҳитини яхшилаш орқали бандликни ошириш ва қашшоқликни камайтиришни ўз олдига мақсад қилиб қўйганини эълон қилган[22]. Натижада, 2017-йилдан буён Ўзбекистон иқтисодиёти йиллик ўртача 5–6% ўсиш суръатларини сақлаб, тезкор ислоҳотлари туфайли дунёдаги энг илғор ислоҳотчи мамлакатлар қаторидан жой олди[23]. Йирик ички бозор ва бой хомашё ресурслари ҳам хорижий сармоядорлар учун мамлакатни жозибадор этувчи омиллардир. 2023-йилда қабул қилинган “Ўзбекистон – 2030” Миллий тараққиёт стратегияси доирасида мамлакат

[22]https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-investment-climate-statement
[23] Uzbekistan Overview: Development news, research, data | World Bank https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview

ўз иқтисодиётини модернизация қилиб, ундаги даромадларни ўн йиллик охирига бориб юқори ўрта даромадли давлатлар даражасига етказиш мақсад қилинган.

Ҳукумат 2017-йилдан буён инвестиция муҳитини яхшилаш мақсадида қатор ислоҳотларни амалга оширди. Жумладан, 2017-йил 1-январдан бошлаб тадбиркорлик субъектларини режадан ташқари текширишлар бекор қилинди, экспорт тушумларининг белгиланган қисмини мажбурий конвертация қилиш талаби тугатилди, бизнесни рўйхатдан ўтказиш жараёни соддалаштирилди, Бизнес омбудсмани институти ташкил этилди ва коррупцияга қарши кураш тўғрисидаги қонун қабул қилинди. Амалдаги қонунчиликка мувофиқ, хорижий инвесторлар иқтисодиётнинг барча тармоқларида фаолият юритиши мумкин ҳамда уларга миллат, истиқомат жойи ёки келиб чиқишига қараб камситишлар тақиқланади. 2019-йилда қабул қилинган “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги қонун хорижий сармоядорларнинг маблағларини мамлакатдан эркин ўтказиш ва инвестицияларни миллийлаштиришдан ҳимоя қилиш кафолатларини белгилаган.

Сармоядорлар учун қўшимча қулайликлар яратиш мақсадида бир қатор солиқ ва бошқа имтиёзлар жорий этилган. Жумладан, мамлакатда уюшган еттита эркин иқтисодий зонада инвестиция лойиҳалари учун солиқ ва божхона имтиёзлари таклиф этилмоқда. Шунингдек, устав капиталида чет эл улуши 15% дан ортиқ бўлган акциядорлик жамиятлари учун турли солиқ имтиёзлари амал қилади. Инвестицияларни рағбатлантиришга қаратилган йирик давлат дастурлари ҳам мавжуд: масалан, 2023–2025-йилларга мўлжалланган Миллий инвестиция дастури доирасида умумий қиймати 55,4 млрд АҚШ долларига тенг 768 та лойиҳа амалга оширилиши режалаштирилган[24]. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги хорижий инвестиция лойиҳаларини рўйхатдан ўтказишни мувофиқлаштиради, унинг ҳузуридаги Инвестицияларни рағбатлантириш агентлиги чет эл сармоядорларига маълумот-таҳлилий хизматлар, бизнесни рўйхатдан ўтказишда кўмак ва бошқа ҳуқуқий ёрдамлар кўрсатади.

Қуйидаги жадвалда 2023–2025-йилларда Ўзбекистонга киритилган умумий инвестициялар ва тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар (ТХИ) ҳажми, шунингдек уларнинг йиллик ўзгариши келтирилган (1-жадвал):

Кўрсаткич	2023 йил	2024 йил	2025 йил (режа)
Жами инвестициялар (млрд \$)	30,0	34,9	42,0
ТХИ кирими (млрд \$)	7,2	11,9	11,9¹

2023-йил якунлари бўйича Ўзбекистонга киритилган тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг қарийб чорак қисми Хитой ҳиссасига тўғри келди (25,6%), қолган йирик сармоядорлар қаторидан эса Россия (13,4%), Саудия Арабистони (7,9%), Туркия (6,4%), Бирлашган Араб Амирликлари (5,8%) ва Германия (4,3%) ўрин олган эди[25]. Сармоялар асосан энергетика, металлургия ва кимё саноати каби тармоқларга йўналтирилди, яъни айнан ушбу соҳалар энг кўп хорижий капитал жалб қилган йўналишлар бўлди. Масалан, 2022-йилда ТХИ таркибида саноат ишлаб чиқариш соҳасининг улуши 48% ни, энергетика улуши 12% ни ташкил этгани бунга яққол

[24]Investing in Uzbekistan - Mauritius Trade Easy - Expanding markets and Facilitating compliance https://www.mauritiustrade.mu/en/market-intelligence/ explore-markets/uzbekistan/investing2

[25]https://www.mauritiustrade.mu/en/market-intelligence/explore-markets/uzbekistan/investing2. ¹ 2025 йил учун прогноз кўрсаткич; йил якунида аниқланади.

мисолдир. 2023-йил якунида тўғридан-тўғри инвестициялар умумий захираси 14,8 млрд долларни ёки ялпи ички маҳсулотнинг 16,3%ини ташкил этди. Солиштириш учун, қўшни Қозоғистонда ушбу кўрсаткич анча юқори бўлиб, 2023-йилда тўғридан-тўғри инвестициялар захираси ЯИМга нисбатан 60% атрофида эди. Бу ҳолат Ўзбекистонда келгусидаги инвестицион ўсиш учун ҳали катта салоҳият мавжудлигини англатади.

Ўзбекистоннинг инвестицион муҳити халқаро ташкилотлар томонидан қуйидаги рейтинг индексларда баҳоланади:

- Бизнес юритиш осонлиги индекси (World Bank Doing Business) – Ўзбекистон сўнгги эълон қилинган (2020-йил) рейтингда 190 та мамлакат орасида 69-ўринни эгаллади. 2019-йилга нисбатан мамлакат ўз мавқеини яхшилаб, дунёда бизнес муҳитини яхшилаш бўйича энг юқори суръатда ислоҳот ўтказган биринчи йигирматаликка кирди.
- Жаҳон иқтисодий форуми Глобал рақобатбардошлик индекс – Ўзбекистон бу индексда фақат 2021-йилдан бошлаб иштирок эта бошлади. 2019-йилгача мамлакат рейтингда расман қамраб олинмаган эди, шу боис ҳозирча тўлиқ халқаро солиштирма баҳога эга эмас.
- ТХИ жалб қилиш самарадорлиги – БМТ Савдо ва тараққиёт конференцияси (UNCTAD) маълумотларига кўра, 2023-йилда Ўзбекистонга киритилган тўғридан-тўғри инвестициялар ҳажми 2016-йилга нисбатан 86% га ошган бўлиб, мамлакатда ТХИ оқими ўсиш суръати юқори эканини кўрсатади. Бироқ ТХИ захираларининг ЯИМга нисбати (16% атрофида) бўйича ҳали минтақада қўшни давлатлардан орқада экани қайд этилади.
- Иқтисодий эркинлик индекси (Heritage Foundation) – 2023-йил баҳолашига кўра, Ўзбекистон 56,5 балл тўплаган (100 баллдан) ва “асосан эркин эмас” тоифага киритилган. Мамлакат 184 давлат орасида 100-ўринда, Осиё–Тинч океани минтақасидаги 39 мамлакат ичида 21-ўринда қайд этилган.

Ўзбекистонда сармоявий муҳитнинг ҳали тўлиқ ривожланишига тўсқинлик қилаётган бир қатор омиллар мавжуд:

- Суд-ҳуқуқ тизими заифлиги – Бизнес низолари келиб чиққанда шартномаларнинг бажарилиши ва суд қарорларининг ижро этилиши таъминланиши суст, шу сабабли сармоядорларнинг манфаатларини ҳимоя қилишда давлат органларининг кўмагисиз муваффақиятга эришиш қийин бўлиб қолмоқда.
- Бюрократик тўсиқлар – Расмий тартиб-таомиллар тўлиқ соддалаштирилмаган, айрим соҳаларда лицензиялаш ва рухсат бериш жараёнлари узоқ ва мураккаб бўлиб, бу бизнес юритишни қийинлаштиради. Давлат хорижий инвестицияларни стратегик деб ҳисобланган тармоқларда ҳали ҳам қаттиқ назорат қилиб, айрим тармоқларда маҳаллий компанияларни ҳимоя қилишга йўналтирилган регулятив чораларни сақлаб қолмоқда.
- Коррупция ва шаффофлик муаммолари – Коррупцияга қарши қонун қабул қилинганига қарамай, амалда жойларда порахўрлик ва манфаатлар тўқнашуви ҳолатлари сақланиб қолмоқда. Коррупцияни қабул қилиш индексида мамлакатнинг 121-ўринда экани ҳам бу соҳада жиддий муаммолар мавжудлигидан далолатдир.
- Молия сектори ривожланмаганлиги – Банк тизими етарлича ривожланмаган, кредит ресурсларига қолайли шароитларда эга бўлиш имконияти чекланган. Кичик бизнес учун молиявий хизматлар қиммат ва қийинлиги инвестиция муҳитига салбий таъсир этмоқда.

Сўнгги йилларда амалга оширилган ислоҳотлар ва инвестициявий лойиҳалар Ўзбекистоннинг келгуси тараққиёти учун мустаҳкам замин яратмоқда. Жумладан, қуйидаги йўналишлар истиқболли ҳисобланади:

- Саноат ва юқори қўшимча қийматли ишлаб чиқариш – Мамлакат саноат салоҳиятини ошириш учун тўғридан-тўғри инвестицияларни жалб этишни давом эттирмоқда. Масалан, 2023-йил сентябрда Хитойнинг BYD компанияси “Ўзавтомоторс” билан ҳамкорликда электромобиллар ишлаб чиқариш бўйича қўшма завод қуришга киришди ва ушбу корхона 2024-йил июлида ишга туширилди. Шу тариқа, автомобилсозлик соҳасига илғор технологияларни жалб қилиш орқали ички ва экспорт бозорлари учун рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш кўзланмоқда. Бундан ташқари, кимё, қурилиш материаллари, электр техникаси ва фармацевтика соҳаларида ҳам экспортбоп янги қувватлар яратиш бўйича қатор инвестиция лойиҳалари амалга оширилмоқда. Мавжуд хомашё базасини чуқур қайта ишлаш – хусусан, пахта-текстиль мажмуини ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги хомашёсини қайта ишлаш орқали қўшимча қиймат яратиш – истиқболли йўналишлар сирасига киради.
- Инфратузилма ва логистика – Транспорт ва логистика соҳасини такомиллаштириш учун ҳам хорижий сармоялар жалб қилинмоқда. Мисол учун, Туркиянинг KOC Construction компанияси Тошкент–Самарқанд юқори тезликдаги темирйўл лойиҳаси бўйича техника-иқтисодий асосламани тайёрлашда ҳамкорлик қилмоқда, шунингдек Урганч халқаро аэропортини кенгайтиришда иштирок этмоқда. Бундай лойиҳалар мамлакатнинг минтақавий савдо-ташув узели сифатидаги аҳамиятини ошириб, инвесторлар учун янада жозибадор шароит яратади.
- Молия ва рақамли иқтисодиёт – Ўзбекистон ҳали тўлиқ ўзлаштирилмаган молия бозори ва катта рақамли салоҳиятга эга. Сўнгги йилларда электрон тўловлар, финтек ва электрон тижорат соҳалари жадал ривожланмоқда. Масалан, маҳаллий “Uzum” компанияси мамлакатнинг илк “юникорн” стартапи мақомига эришиб, электрон тижорат ва финтек тармоқларида қиймати 1 млрд доллардан ортиқ бўлган экотизим яратди. Бундай мисоллар келгусида халқаро венчур фондлар ва технология соҳасидаги сармояларни жалб этиш учун муҳим асос бўлиб хизмат қилмоқда. Ҳукумат 5 йил ичида ахборот технологиялари ва бизнес-процесс аутсорсинги экспорт ҳажмини 1 млрд долларга етказишни режа қилгани бу соҳанинг устуворлигидан далолат беради.
- Туризм ва сервис сектори – Бой маданий-тарихий мерос ва табиий иқлим ресурслари туризмни Ўзбекистон иқтисодиётининг муҳим драйверларидан бирига айлантириш имконини беради. Охирги йилларда визасиз режим кенгайтирилиб, туристик инфратузилма яхшиланмоқда, халқаро брендларнинг меҳмонхоналари очилмоқда. Туризм соҳасини ривожлантириш орқали мамлакатга валюта тушумларини ошириш ва хизмат кўрсатиш соҳасида янги иш ўринлари яратиш кутилаяпти.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси инвестицион жозибадорликни ошириш борасида муҳим натижаларга эришмоқда, бу эса келгусида мамлакатнинг юқори иқтисодий ўсиш суръатлари ва 2030-йилга қадар юқори ўрта даромадли давлатлар сафидан жой олишига асос яратади. Халқаро экспертлар фикрича, ислоҳотлар изчил давом этса ва хусусий сектор учун янги имкониятлар очилса, “Янги Ўзбекистон” яқин йилларда минтақадаги энг жозибадор инвестиция маконларидан бирига айланиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. World Bank. (2019). *Doing Business 2020: Reforms Propel Uzbekistan to Place Among World’s Top 20 Business Climate Improvers*[22]. Washington, DC: World Bank Group.
2. World Bank. (2025). *Uzbekistan Overview*[3][39]. Washington, DC: World Bank Group.
3. U.S. Department of State. (2023). *Investment Climate Statements: Uzbekistan*[1][26]. Washington, DC.
4. Lloyds Bank. (2025). *Foreign direct investment (FDI) in Uzbekistan – Investing Guide*[14][18]. International Trade Portal, May 2025.
5. Jivraj, H. (2024). *Uzbekistan opening up, but yet to fulfil its FDI potential*[40]. fDi Intelligence, 2 Sept 2024.
6. Transparency International. (2024). *Corruption Perceptions Index 2023: Uzbekistan*[25]. Berlin: Transparency International.

O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB JIHATLARI

Jumayeva Guzal Sherxon qizi
tayanch doktorant
https://doi.org/10.5281/zenodo.17272823

Annotatsiya. *Mazkur tezis O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning dolzarb masalalarini yoritadi. Ishda korporativ boshqaruvning nazariy asoslari, xalqaro amaliyotdagi ilg‘or tajribalar hamda milliy huquqiy baza tahlil qilingan. Asosiy e’tibor boshqaruv organlarining professionallashuvi, mustaqil direktorlar institutini joriy etish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, shuningdek ESG tamoyillarini integratsiyalash orqali investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan. Ishda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, samaradorlik, mustaqil direktor, shaffoflik, investitsion jozibadorlik, ESG tamoyillari, IHTT, O‘zbekiston qonunchiligi.*

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari uchun korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish masalasi davlat ishtirokidagi aktivlarni isloh qilish, kapital bozorini chuqurlashtirish va investorlar ishonchini mustahkamlash bilan bevosita bog‘liq. Xalqaro mezonlar bu jarayonga aniq yo‘l-yo‘riq beradi. G20 va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning 2023 yildagi korporativ boshqaruv tamoyillari boshqaruv arxitekturasi, shaffoflik va javobgarlik, kengashlar tarkibi va mas’uliyati bo‘yicha zamonaviy talablarni belgilaydi [1]. Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun IHTTning 2024 yilda yangilangan yo‘riqnomasi esa professional mulkdorlik siyosati, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashni markazga qo‘yadi [2]. Milliy darajada aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishga doir qonun huquqlarni kafolatlaydi, jamiyatlar boshqaruvi va axborotlarni oshkor etish tartibini belgilaydi [3]. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan e’lon qilingan korporativ boshqaruv kodeksi hamda tegishli uslubiy hujjatlar amaliy

mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qiladi [4]. Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari va namunaviy axloq kodeksining ishlab chiqilgani esa huquqiy va tashkiliy bazani to‘ldirdi [5]. 2021–2025 yillar strategiyasi bu islohotlarni tizimli yo‘l xaritasiga bog‘laydi [6].

Korporativ boshqaruv tizimi samaradorligi, avvalo, boshqaruv arxitekturasining sifati bilan belgilanadi. Kengash tarkibida mustaqil direktorlar ulushini oshirish, nominatsiya va kompensatsiya, audit hamda risk bo‘yicha qo‘mitalarga vakolat berish, ijro organi ustidan tizimli strategik nazoratni ta’minlash zarur. Mustaqil direktorlar siyosiy va tijoriy maqsadlar kesishadigan holatlarda xolis qarorlarni kafolatlaydi, manfaatdor tomonlar o‘rtasida muvozanatni mustahkamlaydi. G20 va IHTT tamoyillari kengash mas’uliyati, tarkibi va malakasi bo‘yicha aniq talablarni belgilagan; bu talablar kundalik boshqaruv intizomini kuchaytiradi [1].

Ochiqlik va hisobdorlik samaradorlikning ikkinchi tayanchi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq hisobot yuritish, yillik va choraklik hisobotlarni o‘z vaqtida e’lon qilish, bog‘liq shaxslar bilan bitimlar bo‘yicha to‘liq ma’lumot berish, tashqi auditorlar bilan tizimli ishlash investorlar ishonchini oshiradi va kapital narxini pasaytiradi. Korporativ boshqaruv kodeksi izohli muvofiqlik tamoyilini ilgari suradi: bajarilmagan talablar bo‘yicha aniq muddatlar va resurslar bilan asoslangan rejali tushuntirish berilishi kerak [4]. Mazkur yondashuv aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi milliy qonunchilik bilan uyg‘un ishlaydi [3].

Ichki nazorat, xavf va komplayens tizimlari uchinchi yo‘nalishdir. Ichki audit xizmatining bevosita kengash (audit qo‘mitasi)ga hisobot berishi, auditorlar rotatsiyasi, xabardor etish kanallari himoyalanishi va manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish siyosatlari samaradorlikni oshiradi. Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun ishlab chiqilgan qoidalar va model axloq kodeksi bu jarayonlarni standartlashtiradi [5]. IHTTning 2024 yilgi yo‘riqnomasi professional mulkdorlik siyosati va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun risklarni boshqarish tizimini markazga qo‘yadi [2].

Barqarorlikni boshqarish to‘rtinchi yo‘nalishdir. Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv yo‘nalishlarida siyosatlar paketini joriy etish, barqarorlik hisobotini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish va ma’lumotlarni tashqi verifikatsiya qilish uzoq muddatda operatsion xatarlarni kamaytiradi, bozor ishonchini kuchaytiradi. G20 va IHTT tamoyillari hamda IHTTning davlat ishtirokidagi korxonalar bo‘yicha yo‘riqnomasi barqarorlik va javobgarlikni korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi [1], [2].

Investorlar bilan tizimli ishlash beshinchi yo‘nalishdir. Investorlar bilan ishlash kalendari, kvartal brifinglar, umumiy yig‘ilishlarni interaktiv formatda o‘tkazish, strategik yangilanishlarni o‘z vaqtida e’lon qilish bozor intizomini kuchaytiradi va ommaviy takliflarga tayyorgarlikni tezlashtiradi. Bu yondashuv korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ishlab chiqqan model hujjatlar bilan muvofiqlashganda yanada samarali bo‘ladi [4], [5].

Raqamli boshqaruv oltinchi yo‘nalish sifatida qaror qabul qilish tezligi va sifati uchun tayanchdir. Kengash va qo‘mitalar uchun elektron portal, hujjat aylanishining to‘liq raqamlashtirilishi, bog‘liq shaxslar bilan bitimlar monitoringi, real vaqt rejimidagi xavf paneli va audit izlarining saqlanishi shaffoflikni oshiradi. Xalqaro tamoyillar axborotlarni oshkor etish va hisobot sifatiga alohida e’tibor qaratadi; raqamli boshqaruv aynan shu mezonlarning bajarilishini kafolatlaydi [1].

Baholashning milliy indikatorlar tizimi yettinchi yo‘nalish bo‘lib, boshqaruv sifatini parcha-parcha ko‘rsatkichlar o‘rniga kompleks indeks orqali o‘lchashni taklif etadi. Bunday

indeks kengash mustaqilligi va malakasi, ichki nazorat va komplayens, ochiqlik, investorlar bilan ishlash, bog‘liq shaxslar bilan bitimlar intizomi, barqarorlik siyosatlari hamda moliyaviy va bozor ko‘rsatkichlarini qamrab olishi mumkin. Og‘irliklar ekspert bahosi va statistik usullar asosida kalibrlanadi. Davlat ishtirokidagi korxonalar bo‘yicha qoidalar va 2021–2025 yillar strategiyasi monitoring va reytinglashni tizimli asosga qo‘yishni qo‘llab-quvvatlaydi [5], [6].

Huquqni qo‘llash amaliyotining izchilligi sakkizinchi yo‘nalishdir. Qonun va kodeksdagi normalar aniq ishlashi uchun talqinlar va sud amaliyoti barqaror bo‘lishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlari haqidagi qonun aksiyadorlar huquqlarini, jamiyat faoliyati ustidan nazoratni, axborotdan foydalanish tartibini hamda majburiy axborotlarni e’lon qilish majburiyatlarini belgilaydi [3]. Sud-huquq amaliyotidagi izchillik dividend siyosati, majburiy takliflar, manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha nizolarda prognozlanadigan natijalarni ta’minlaydi [4].

Korporativ madaniyat to‘qqizinchi yo‘nalishdir. Axloq kodeksini qabul qilish, manfaatlar to‘qnashuvini oldindan e’lon qilish, xabar beruvchilarni himoya qilish, ichki tekshiruvlar natijalarini aniq chora-tadbirlar bilan bog‘lash boshqaruv tizimini real amaliyotga ko‘chiradi. Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun ishlab chiqilgan model axloq kodeksi bu borada tayanch vazifasini bajaradi [5].

Amaliy joriy etish o‘ninchi yo‘nalish sifatida bosqichma-bosqich yo‘l xaritasini talab qiladi. Birinchi bosqichda minimal talablar ishga tushiriladi: audit qo‘mitasining faol mexanizmi, bog‘liq shaxslar bilan bitimlar bo‘yicha oshkoralik, himoyalangan xabar berish kanali. Ikkinchi bosqichda kengashni professionallashtirish, investorlar bilan ishlash amaliyotini joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlarini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutiladi. Uchinchi bosqichda barqarorlik hisobotlari va tashqi verifikatsiya yo‘lga qo‘yiladi, kapital bozorlaridagi talablar bilan to‘liq moslashuv ta’minlanadi. Har bir bosqich muddatlar, mas’ullar va o‘lchovli natijalar bilan biriktiriladi; yildan-yilga kompozit indeks bo‘yicha ballning oshishi umumiy maqsad sifatida belgilanadi [1], [2], [4], [6].

6. https://mehnat.uz/uz/news/aellarni-ish-bilan-taminlash-tadbirkorlikka-zhalb-etishda-davlat-tashkilotlari-bilan-hamkorlikning-ahamiyati-va-istiqbollari
7. Erkin Kuldashev, Diyorbek Shermuhammedov, “Raqamli boshqarish – iste’mol bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashning asosidir” Farg‘ona Politexnika institutining xalqaro konferensiya materaillari. 2024-yil oktabr.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH

Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna
TDIU - “Marketing” kafedrasi i.f.n., dosent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288591

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda davlat aktivlarini boshqarishda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar va ularning investitsion jozibadorlikni oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda qabul qilingan “Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun (2019), Prezident farmonlari va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyati, shuningdek Jahon banki qo‘llab-quvvatlagan SAMARA loyihasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar yoritiladi. Maqolada xususiylashtirish jarayonlarining shaffofligi, xalqaro reytinglardagi ijobiy natijalar hamda xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan qulay muhit tahlil qilinib, mamlakatning global investitsion bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat aktivlari, xususiylashtirish, institutsional islohotlar, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy o‘sish, SAMARA loyihasi.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va investitsion jozibadorlikni mustahkamlash islohotlarning markazida turibdi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul

qilingan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish, davlat ulushidagi aksiyalarni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkazish va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi [1].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat aktivlarini samarali boshqarish nafaqat iqtisodiy o‘sish uchun, balki iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy investorlarni jalb etishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda olib borilayotgan institutsional islohotlar o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

2019-yilda qabul qilingan “Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun davlat aktivlarini boshqarishda yangi yondashuvni joriy etdi. Ushbu hujjat davlat mulkini samarali boshqarish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va xususiylashtirish jarayonlarini tartibga solishni nazarda tutadi [2].

2021-yilda Prezident farmoni bilan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzurida Ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi [3]. Bu institut davlat aktivlarini boshqarishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish, xalqaro tajribani joriy etish va nazariy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

2023-yildan boshlab esa “xususiylashtirishning yangi bosqichi” doirasida yirik davlat korxonalari IPO (birlamchi aksiyalarni ommaviy joylashtirish) orqali xususiy sektorga taklif etila boshlandi [4]. Bu esa mamlakat kapital bozorini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim qadamdir.

Institutsional islohotlar va SAMARA loyihasi. Davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishda institutsional islohotlarning o‘rni katta. Bugungi kunda ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, davlat mulki obyektlari bo‘yicha ma’lumotlar elektron platformalarda muntazam e’lon qilinmoqda, tender va savdo jarayonlari esa raqamlashtirilmoqda.

Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan **SAMARA loyihasi** davlat aktivlarini boshqarish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot salohiyatini kuchaytirish, kadrlar malakasini oshirish va zamonaviy analitik vositalarni joriy etishga qaratilgan [5]. Bu loyiha nafaqat boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, balki xalqaro tajribaga mos ilmiy-uslubiy yondashuvlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Investitsion jozibadorlik va global bozor. O‘zbekistonning investitsion jozibadorligi xalqaro reytinglarda tobora mustahkamlanmoqda. Masalan, “Doing Business” reytingida mamlakat o‘z pozitsiyasini yaxshilashga erishdi, Fitch Ratings va S&P Global kabi reyting agentliklari tomonidan O‘zbekistonning barqaror kredit reytingi e’lon qilindi. Bu natijalar islohotlarning samarasi sifatida baholanmoqda.

Xorijiy investorlar uchun eng muhim omillar quyidagilardan iborat:

- xususiylashtirish jarayonlarining shaffofligi va oshkoraligi;
- davlat-korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- investorlarga soliq imtiyozlari va qo‘shimcha moliyaviy rag‘batlar taqdim etish;
- davlat mulkini baholashda bozor tamoyillariga asoslangan mexanizmlardan foydalanish.

Ayniqsa, IPO orqali yirik korxonalarning xususiylashtirilishi O‘zbekistonni mintaqaviy moliya markaziga aylantirish imkoniyatini yaratmoqda. Bu jarayon xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirib, iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi.

O‘zbekistonda davlat aktivlarini boshqarishda olib borilayotgan institutsional islohotlar mamlakat iqtisodiy islohotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususiylashtirishning shaffofligi, davlat aktivlarini boshqarishda ilmiy asoslangan yondashuvlarning qo‘llanilishi, xalqaro tajriba asosida qonunchilikning takomillashuvi va SAMARA loyihasi doirasida institutsional salohiyatning kuchaytirilishi mamlakatning global investitsion bozordagi pozitsiyasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Kelgusida davlat aktivlarini boshqarishda shaffoflikni yanada kuchaytirish, xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish, xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha imtiyozlar yaratish va ilmiy-uslubiy yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish orqali O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026*. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (2019). *Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida*. Toshkent.
3. Prezident farmoni. (2021). *Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzurida ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida*. Toshkent.
4. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (2023). *Xususiylashtirishning yangi bosqichi bo‘yicha ma’lumotlar*. www.davaktiv.uz

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ АПК: АРХИТЕКТУРА ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ E-SAMS И УПРАВЛЕНИЕ ДАННЫМИ

А.В. Кузнецов
Белгородский юридический институт МВД России имени И.Д. Путилина, кафедра информационно-компьютерных технологий в деятельности органов внутренних дел
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288607

Аннотация. *В статье рассматривается процесс цифровой трансформации агропромышленного комплекса через призму информационных процессов. Анализируется архитектура системы e-SAMS как комплексной информационной системы для управления агроданными. Особое внимание уделяется методам обработки больших данных, машинному обучению для прогнозной аналитики и применению блокчейн-технологий для обеспечения безопасности и прослеживаемости информационных потоков. Исследование демонстрирует, как современные информационные технологии трансформируют традиционные подходы к управлению знаниями в аграрной сфере.*

Ключевые слова: *информационные системы, большие данные, машинное обучение, блокчейн, интеллектуальная собственность, агропромышленный комплекс, информационные процессы.*

Abstract. *The article examines the process of digital transformation in the agricultural sector through the lens of information processes. The architecture of the e-SAMS system as a comprehensive information system for agricultural data management is analyzed. Particular*

attention is paid to big data processing methods, machine learning for predictive analytics, and the application of blockchain technologies to ensure security and traceability of information flows. The study demonstrates how modern information technologies are transforming traditional knowledge management approaches in agriculture.

Keywords: *information systems, big data, machine learning, blockchain, intellectual property, agricultural sector, information processes.*

Современное развитие агропромышленного комплекса характеризуется переходом к парадигме, основанной на данных, где ключевую роль играют сложные информационные системы. Проект SAMARA, направленный на модернизацию исследовательского центра UzSAMA, представляет собой характерный пример комплексной цифровой трансформации, в основе которой лежит разработка и внедрение Electronic Strategic Agricultural Management System (e-SAMS). Эта система представляет собой распределенную информационную систему, архитектура которой строится на принципах микросервисной архитектуры и облачных вычислений. E-SAMS функционирует как интегрированная платформа для агрегации, обработки и анализа разнородных данных из различных источников: IoT-сенсоров, данных дистанционного зондирования, геномных баз данных и метеорологических сервисов. Интеграция этих потоков данных требует сложных подходов к инженерии данных, включая ETL-процессы, очистку и нормализацию данных, что обеспечивает согласованность и надежность данных для последующего анализа [1].

Важнейшим аспектом функционирования e-SAMS является реализация концепции цифровых паспортов для генетических ресурсов, что представляет собой специализированное приложение информационных технологий в области управления активами. Эти паспорта являются структурированными базами данных, содержащими многомерную информацию: геномные данные, фенотипические характеристики, условия окружающей среды и историю селекции. С точки зрения компьютерных наук, такие паспорта требуют разработки специализированных моделей данных и онтологий для точного представления сложных взаимосвязей между различными типами данных. Эффективное управление этими цифровыми активами требует современных систем управления базами данных, поддерживающих сложные запросы и эффективное извлечение данных, что непосредственно влияет на экономическую эффективность исследовательской деятельности [2].

Аналитический модуль e-SAMS использует передовые методы машинного обучения и статистического анализа для обработки больших данных. Применение алгоритмов глубокого обучения, в частности сверточных нейронных сетей для анализа мультиспектральных спутниковых изображений и рекуррентных нейронных сетей для временных рядов sensor данных, позволяет выявлять сложные паттерны и корреляции. Эти методы позволяют строить прогнозные модели урожайности, основанные на многофакторном анализе, учитывающем состав почвы, погодные условия и физиологию растений. С вычислительной точки зрения это требует значительной вычислительной мощности и оптимизированных алгоритмов для обработки крупномасштабных наборов данных, что реализуется через облачную инфраструктуру и методы параллельной обработки [3].

Аспект управления знаниями в e-SAMS представляет собой интегрированную систему управления информационными ресурсами исследовательской организации. Система реализует sophisticated методы информационного поиска и семантического анализа для обработки научных публикаций, патентной документации и исследовательских данных. Использование методов обработки естественного языка и инженерии онтологий позволяет автоматизировать процесс извлечения знаний и выявления скрытых связей между исследовательскими направлениями. Это способствует формированию комплексной информационной среды, поддерживающей полный цикл исследовательской деятельности: от генерации гипотез до коммерциализации результатов [4].

Аспекты безопасности и доверия обеспечиваются через интеграцию технологии блокчейн в архитектуру e-SAMS. Блокчейн функционирует как распределенный реестр, обеспечивающий неизменность и прозрачность всех транзакций, связанных с генетическими ресурсами. С точки зрения информационной безопасности это обеспечивает децентрализованный механизм обеспечения целостности данных и аутентификации. Смарт-контракты автоматизируют процессы лицензирования и выплаты роялти, реализуя сложную бизнес-логику в децентрализованной среде. Эта реализация требует глубокого понимания криптографических протоколов и механизмов консенсуса, а также интеграции с существующими информационными системами через специализированные API [5].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Smith, C. A systematic review of the contribution of system dynamics to value chain analysis in agricultural development// Agricultural Systems. – 2021. – Vol. 189. – P. 103044.
2. Puzis, R., Farbiash, D., Brodt, O. *et al.* Increased cyber-biosecurity for DNA synthesis. *Nat Biotechnol* **38**, 1379–1381 (2020). https://doi.org/10.1038/s41587-020-00761-y.
3. Konstantinos G. Liakos,Patrizia Busato,Dimitrios Moshou,Simon Pearson andDionysis Bochtis Machine Learning in Agriculture: A Review // Sensors 2018, 18(8), 2674; https://doi.org/10.3390/s18082674.
4. Harvard Business Review 2019. – Brighton, Massachusetts (USA): Harvard Business Publishing. №04 Volume 97 July-August (USA) – 168 p. – ISSN: 0017-8012..
5. Zhou Changchun, Zhai Yujia The space production of rural society under the background of China's urbanization. 2016 13th International Conference on Service Systems and Service Management (ICSSSM) 10.1109/icsssm.2016.7538557

АГРОБИЗНЕСНИНГ ТУЛОВГА КОБИЛИЯТЛИЛИГИ – ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ОМИЛИ

Маматов Одилжон Абдугапарович[1], Адилов Шерзот Шамильевич[2]
[1]Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлигининг Тўловга қобилиятсизлик жараёнини юритиш бошқармаси бошлиғи,
[2]Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳузуридаги хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш марказининг катта илмий ходими

https://doi.org/10.5281/zenodo.17288622

Аннотация. *Қишлоқ хўжалик корхоналарининг, жумладан агробизнеснинг тўловга қобилиятсизликнинг келиб чиқиши, молиявий жиҳатдан тикланиши ва қишлоқ жойларда аҳоли даромадини оширишга ва камбағалликни қисқартиришга таъсири кўриб чиқилади.*

Ўзбекистондаги мавжуд амалиёт ва унга оид қонунчилик таҳлил қилинади. Соғломлаштиришнинг муваффақиятли амалга оширилган мисоллари ва уларнинг натижалари кўрсатилган. Шу билан бирга, тўловга қобилиятсизликнинг олдини олиш ва соғломлаштиришнинг самарали усуллари юзасидан таклифлар берилган.

Калит сўзлар: *Тўловга қобилиятсизлик, соғломлаштириш, санация, ижтимоий ҳимоя, камбағалликни қисқартириш, даромадни ошириш.*

Abstract. *The origin of insolvency, financial recovery of agricultural enterprises, including agribusiness, and their impact on rural incomes and poverty reduction are examined.*

The current practice in Uzbekistan and the relevant legislation are analyzed. Examples of successful rehabilitation and their results are shown. At the same time, proposals were made on effective methods of insolvency prevention and rehabilitation.

Key words*: Insolvency, rehabilitation, rehabilitation, social protection, poverty reduction, income enhancement.*

Аннотация. *Рассмотрены причины неплатежеспособности, финансовое оздоровление сельскохозяйственных предприятий, в том числе агробизнеса, и их влияние на доходы сельского населения и сокращения уровня бедности.*

Анализируется сложившаяся в Узбекистане практика и соответствующее законодательство. Показаны примеры успешной реабилитации и их результаты. В то же время были внесены предложения по эффективным методам предотвращения и финансовое оздоровления неплатежеспособности.

Ключевые слова: *Неплатежеспособность, санация, сельское население, социальная защита, сокращение бедности.*

Агробизнес субъектлари республикада қишлоқ ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида, аҳолини даромадини ва турмуш даражасини оширишда, озиқ-овқат хавфсизлигини мустаҳкамлашда ва иш билан таъминлашда муҳим ўрин тутади, шунингдек, хомашё етказиб бериш, ички талабни рағбатлантириш, маҳсулотларни экспорт қилиш, валюта тушумини кўпайтиришда иқтисодиётнинг энг муҳим бўғини ҳисобланади ҳамда бошқа тармоқларнинг ривожланишига ижобий таъсирини кўрсатади.

Республикада ҳозирги кунда тўловга қобилиятсиз ҳолатига келиб қолган агробизнес субъектларини молиявий жиҳатдан соғломлаштириш муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

Тўловга қобилиятсизлик - бу суд томонидан эътироф этилган, қарздорнинг пул мажбуриятлари бўйича кредиторлар талабларини тўла ҳажмда қаноатлантиришга ва (ёки) солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича ўз мажбуриятларини тўла ҳажмда бажаришга қодир эмаслиги, юридик ёки жисмоний шахснинг ўз молиявий мажбуриятларини тўлаш имкониятининг йўқотилиши билан тавсифланадиган иқтисодий ҳолат.

Агробизнес субъектларида тўловга қобилиятсизлик ҳолати қуйидаги сабабларга биноан келиб чиқади:

-молиявий ресурсларини, маблағларини мақсадсиз йўналтириш, харажатларни режасиз ошириб юбориш ёки кредит маблағларини юқори фоизли қарзлар орқали қоплашга уриниш, дебиторлик қарзларининг кечиктирилиши мазкур субъектларда пул оқимини издан чиқаради ва бунинг натижасида кредиторларнинг қарзларини ўз вақтида қайтара олмаслиги, солиқ тўловларини ўз вақтида тўлай олмаслиги;

-молиявий-натижаларда рентабелликнинг пасайиши ва қарз миқдорининг ошиши, моддий-техника базаси эскириши, табиий-иқлимий сабаблар, молиявий ва маркетинг бошқарувнинг сустлиги, янги технологияларни жорий этмаслик, ижтимоий сабаблар, қишлоқ аҳолисида малака етишмаслиги, ишчи кучи камайиши, етиштирилган маҳсулотларни бозорга олиб чиқиш муаммолари, етиштирилган маҳсулотларни белгиланган истеъмол муддатларда сотилмаслиги натижасида тез эскирувчанлиги ва истеъмолга яроқсиз бўлиб қолиши, экспорт имкониятларнинг чекланганлиги, аграр соҳасидаги корхоналар билан рақобатга чидамли эмаслиги, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш учун хом ашё ва бошқа харажатларнинг таннархининг юқорилиги.

Масалан, агробизнес субъектлари томонидан қишлоқ хўжалик маҳсулотларни етиштиришда жами харажатлар, жумладан, дастлабки маҳсулотлар хариди, шунингдек олинадиган хом ашё (маҳсулот таннархи), уруғчилик,минерал ўғитлар, ёнилғи, энергетика, техника хизматлари ва бошқа харид харажатларини юқорилиги (давр харажатлари ва бошқа харажатлар), харажатлари даромаддан ошиб кетиши натижасида молиявий йилни зарар билан якунлайди.

Агробизнес субъектларининг тўловга қобилиятсизлиги мазкур субъектлар фаолият кўрсатадиган ҳудудларидаги қишлоқ аҳолиси даромадларига ҳам ўз салбий таъсирини кўрсатади. Бунинг натижасида ижтимоий-иқтисодий барқарорлик, инвестиция салоҳияти пасаяди, ишсизлик ва камбағаллик даражаси ўсади, субъектлар ўзларининг ишчи-хизматчиларига ҳисобланган иш ҳақидан қарздорлиги кўпаяди.

Тўловга қобилиятсиз субъектларнинг тўлов қобилиятини тиклаш ва молиявий соғломлаштириш, уларга қўлланиладиган суд санацияси, судгача санация ва ташқи бошқарув жараёнлари Ўзбекистон Республикасида тўловга қобилиятсизлик ва соғломлаштириш “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги *(12.04.2022 йилдаги ЎРҚ-763-сон)* [1] ва “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунлари *(25.12.1997 йилдаги ЎРҚ-535-I-сон)* [2] билан тартибга солинади.

Юқорида кўрсатилган Қонунлар аввало, юридик шахслар, яъни корхона ва ташкилотлар учун аниқ ва амалий механизмларни назарда тутади. Унда тўловга

қобилиятсизликка олиб келувчи ҳолатлар, қарздорни соғломлаштириш тартиблари, кредиторлар билан музокара олиб бориш, қарзни таркибий жиҳатдан ўзгартириш (реструктуризация) қилиш ҳамда тўловга қобилиятсизлик жараёнлари муносабатларини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солади.

Қонуннинг амалий самарадорлиги тўғридан-тўғри суд тизимининг очиқлигига, суд бошқарувчиларининг малакалилиги ва холислигига боғлиқ. Суд органлари томонидан суд ишлари адолатли ва тезкор кўриб чиқилса, молиявий жиҳатдан соғломлаштириш тартиб-таомиллари муваффақиятли амалга оширилади, шунингдек суд бошқарувчиларнинг етарли билим ва тажрибага эга бўлиши, уларнинг манфаатлар тўқнашувидан холилиги ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Акс ҳолда, юридик шахсларни тўловга қобилиятсизликдан чиқаришнинг ўзи кутилган самарали натижани, коррупциявий ҳолатларга олиб келиши мумкин. Шу боис, ушбу юқоридаги мазкур Қонунларнинг самараси унинг амалиётга қандай татбиқ этилишига ва тизимнинг институционал салоҳиятига боғлиқ.

Ўзбекистонда суд назоратини, молиявий маслаҳат, қарзни таркибий жиҳатдан ўзгартириш (реструктуризация) ва соғломлаштириш хизматларини кўрсатиш йўлга қўйилган бўлиб, уларни юқори даражада ривожлантириш ва шакллантириш, шунингдек замонавий автоматлаштирилган воситаларни жорий этиш ва профессионал хизматлар соҳасидаги салоҳиятни янада ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Бу эса муаммоли масалаларни барвақт аниқлаш, корхоналарни тўловга қобилиятсизликкача етиб бормасдан қайта тузиш имкониятларини янада кенгайтиради.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда тўлов қобилиятсизлиги ва соғломлаштириш тизими янада ривожланмоқда. Юридик ва жисмоний шахсларда, жумладан, агробизнесда соғломлаштириш нафақат корхонани қутқариш, балки аҳолининг ижтимоий-иқтисодий турмуш даражасига ҳам тўғридан-тўғри ижобий таъсир этмоқда.

Мазкур Қонунлар ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистонда Судлар томонидан 2024-2025 йиллар давомида тўловга қобилиятсизлик ва банкротликка оид кўрилган ишлар сони 2024 йилда 9987 та, 2025 йил 1-ярим йилликда сони 6920 тани ташкил этган [4].

Қарздор субъектларнинг тўлов қобилиятини тиклашга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширишда эса ижобий натижаларга эришилиб борилмоқда, жумладан, ҳозирги кунда қарздор субъектларни соғломлаштириш мақсадида суд санацияси 10 та субъектга, ташқи бошқарув 3 та субъектга жорий қилинган. Шундан, суд санацияси жорий қилинган қишлоқ хўжалик корхоналари сони 2 тани ташкил этади. Шунингдек, банкротлик деб топилган 244 та қишлоқ хўжалик корхоналарининг фаолияти тикланган (МЧЖ ва фермер хўжаликлари).

Қишлоқ жойларда аҳолига асосий иш берувчилар ҳисобланган агрофирмалар, фермер хўжаликлари, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштирувчи, ишлаб чиқарувчи, экспорт қилувчи, кооператив ва тайёрлов-савдо корхоналари ва қишлоқ хўжалигига ихтисослаштирилган бошқа субъектларнинг тўлов қобилиятсизлигини тикланиши ва соғломлаштирилиши оқибатида уларнинг фаолиятини давом эттиришга хизмат қилади. Бу эса мазкур субъектларда молиявий барқарорликни таъминлайди, кейинчалик тўлов қобилияти ва рентабеллик даражаси ошади, уларда ишчи ўринлар сақланади ва янги иш ўринлари яратилади ва бунинг натижасида қишлоқ жойларда ижтимоий инфратузилмани

ривожланишига, ижтимоий барқарорликни таъминлашга ва камбағалликни қисқартиришга олиб келади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 мартдаги “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5975-сон Фармони, шунингдек, иқтисодий барқарорликни таъминлаш заминида бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш натижасида камбағалликни қисқартириш бўйича мақбул давлат сиёсатини ҳаётга жорий этиш тизими ишлаб чиқилди ва шу асосда Ўзбекистонда камбағаллик ва қашшоқликни тугатиш учун чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.[3]

Яна бир муҳим масала шуки, мазкур субъектларнинг молиявий жиҳатдан соғломлаштиришни амалга ошириш амалиётида суд ишлари жараёнларининг самарали олиб борилиши учун молиявий бошқарувчилар ва қарзларни реструктуризация соҳасидаги малакали мутахассислар сонини кўпайтириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ўзбекистонда қуйидаги чоралар долзарб ҳисобланади:

-юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳамда агробизнес субъектлари учун молиявий жиҳатдан соғломлаштириш дастурларини кенг жорий этиш ва автоматлаштириш;

-аҳоли учун молиявий саводхонлигини ошириш дастурларини амалга ошириш, молиявий маслаҳат хизматларини кенгайтириш ва жисмоний шахслар учун қонунчилик базасини мустаҳкамлаш;

-соғломлаштириш жараёнларига давлат-хусусий шериклик механизмларини киритиш;

-камбағалликни қисқартириш мақсадида қишлоқдаги иқтисодий ночор субъектларни қайта тиклаб, аҳоли учун янги иш ўринларини яратиш ва ўз навбатида ҳудудни ижтимоий-иқтисодий ривожланишини ошириш.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, Ўзбекистонда юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳамда агробизнеснинг тўловга қобилиятсизлик ва молиявий жиҳатдан соғломлаштириш жараёнлари нафақат иқтисодий, балки ижтимоий аҳамиятга ҳам эга, шунингдек, қарздор томонидан кредиторларга қарзни босқичма-босқич тўлаш, ишчи ва хизматчи ходимларга эса – иш ҳақи бўйича қарзларни бериш имкониятлари шаклланади. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санациясининг муҳимлиги ва долзарблиги, юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳамда агробизнес субъектларини молиявий барқарорлаштириш орқали аҳоли даромадлари ошади, қишлоқ жойларда иш ўринлари сақланиб қолади ва мазкур субъектларининг рентабеллик даражаси ошган сари уларнинг даромадлик даражаси кўтарилади ва ўз навбатида камбағаллик даражаси камаяди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни (12.04.2022 йилдаги ЎРҚ-763-сон) //https://lex.uz/ru/docs/5957616.
2. “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (25.12.1997 йилдаги ЎРҚ-535-I-сон) //https://lex.uz/ru/docs/5957612.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 мартдаги “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5975-сон Фармони// https://lex.uz/docs/4776669

NORASMIY BANDLIK: YASHIRIN IQTISODIYOTDAGI ROLI VA IQTISODIY MOSLASHUVCHANLIKNING OMILI SIFATIDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti
ORCID: 0009-0000-8092-0365
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288631

Kirish. Jahon mamlakatlarida har qanday iqtisodiy taraqqiyot darajasiga erishganligi va turli xil ma’muriy va siyosiy infratuzilmalarning ishlab chiqilganligiga qaramasdan har bir davlatning iqtisodiy sektorlarida yashirin iqtisodiyotning mavjudligi haqida turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu yashirin iqtisodiyotning vujudga kelishi, uning o‘sish yoki kamayishi, uni bartaraf etish hamda unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga oid ilmiy tadqiqotlar har bir mamlakat uchun siyosiy-iqtisodiy jarayonlarning dolzarb masalasiga hisoblanadi.

Rasmiy iqtisodiyotdan tashqarida faoliyat yurituvchi aholining ulushi ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jiddiy muammo sifatida qaraladi. Biroq, zamonaviy iqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, norasmiy bandlik nafaqat noaniqlik va soliq yo‘qotishlari bilan bog‘liq, balki iqtisodiy tizimning moslashuvchanlik salohiyati, ishsizlikka qarshi amortizator mexanizmi va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Jumladan, Jahon bankining 2023-yildagi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 33 foizi norasmiy sektorda band bo‘lgan va bu ko‘rsatgich Markaziy Osiyodagi eng yuqori darajalardan biri bo‘lgan. Shuningdek, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda iqtisodiy faol aholi 14,98 millionni tashkil qilgan va ulardan 13,7 million kishi ish bilan band bo‘lgan. Ammo, ish bilan band aholidan atigi 6,5 millon kishi rasmiy sektorda ishlagan. Bundan bilishimiz mumkinki, ish bilan band aholining 53% norasmiy sektorda faoliyat yuritgan.

Davlat siyosati ham so‘nggi yillarda bu holatni rasmiylashtirish, tartibga solish va iqtisodiy imkoniyatga aylantirishga yo‘naltirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2021-yil 27-avgustdagi PQ–5221-sonli qarori bilan norasmiy mehnat bozorini qisqartirish bo‘yicha “Yoshlar bandligini ta’minlash va norasmiy sektordan rasmiy mehnatga o‘tishni rag‘batlantirish dasturi” qabul qilindi. Shu bilan birga, 2022-yil 30-dekabrdagi PF–269-sonli Farmon esa o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun soliq va ijtimoiy to‘lovlar tartibini soddalashtirib, ularni rasmiy mehnat tizimiga integratsiya qilishga xizmat qilmoqda. Ammo, ushbu huquqiy hujjatlar O‘zbekistonda norasmiy bandlikka qarshi emas, balki uni rivojlanish resursi sifatida ko‘rib, legallashtirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatga aylantirish yondashuvini shakllantirmoqda

Norasmiy bandlik – bu qonuniy mehnat munosabatlarisiz, rasmiy hisobga olinmasdan amalga oshirilayotgan iqtisodiy faoliyat bo‘lib, u nafaqat ishchilarning ijtimoiy himoyasizligiga, balki davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga va natijada yashirin iqtisodiyotning o‘sishiga olib keladi. Yashirin iqtisodiyot esa – rasmiy statistikada aks etmaydigan, ammo, qonuniy bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari hisoblanadi. Norasmiy bandlik sektori odatda quyidagi sohalarda keng tarqalgan:

- Kichik savdo faoliyati,
- Xizmat ko‘rsatish sohalar,
- Qishloq xo‘jaligi
- Transport xizmatlari.

Norasmiy bandlik iqtisodiy taraqqiyotga erishishda xalaqt beradigan omil bo‘lsada, qisqa va o‘rta muddatda iqtisodiyotga va jamiyatga qator ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, mamlakatda iqtisodiy o‘sish surati sust kechayotgan yoki iqtisodiy inqirozlar vujudga kelayotgan mamlakatlar uchun norasmiy sektor muhim amortizator (yumshatuvchi omil) vazifasini o‘taydi. Ya’ni rasmiy ish o‘rinlari yetishmaganda bandlik manbai sifatida xizmat qiladi. Quyida bunga bir necha misollar keltiriladi.

Misol uchun O‘zbekistonning qishloq hududlarida va boshqa hududlardagi kasb-hunarga ega bo‘lmaganlar orasida norasmiy holatda ishlab chiqarish, savdo-sotiq, qurilish kabi sohalarda vaqtinchalik yoki mavsumiy ishga joylashish imkoniyati mavjud. Birgina paxta yig‘im-terim davrida fermerlar tomonidan minglab aholi norasmiy yollanadi. Shu bilan birga, yoshlar uchun birinchi ish tajribasiga ega bo‘lish maqsadida xizmat ko‘rsatish sohasida norasmiy ishga joylashish qulay hisoblanadi (masalan, kafe, restoran, mehmonhonalar, IT xizmatlari). Yana bir ijoniy qulayliklardan bu pensionerlarning norasmiy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari. Ba’zan mehnat pensiyasining yetarli emasligi dabab ko‘plab keksa fuqarolar ustachilik, dehqonchilik, yo‘lovchi tashish kabi norasmiy sektorlarda faoliyat yurishadi. 2022-yilgi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hisobotida qayd etilishicha, norasmiy sektorda band bo‘lganlarning 23 foizini 60 yoshdan oshgan shaxslar tashkil qilgan.

Bundan tashqari norasmiy sektor kichik iqtisodiy birliklar sifatida mahalliy iqtisodiyotni jadallashtirishda ham xizmat qiladi. Birinchidan, bu sektor orqali mahalliy iste’mol tovarlarining sezilarli qismi ishlab chiqariladi. Bunga misol qilib nonvoylar, qandolat sexlari, tikuvchilar, yo‘g‘ ishlab chiqaruvchilar, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchilarni aytishimiz mumkin. Ikkinchidan, Sartaroshlik, avtomobil ta’miri, qurilish xizmatlari, IT xizmatlari kabi ko‘plab xizmat turlari rasmiylashtirilmagan holda faoliyat yuritadi, ammo aholining asosiy ehtiyojlarini qondiradi. Uchinchidan, inovatsion faoliyat uchun ham muhit yaratib beradi. Norasmiy muhitda yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki biznes modellarini sinab ko‘rish imkoniyati mavjud. Bu ko‘p holatlarda startaplar uchun “test bazasi” bo‘la oladi. Misol uchun, Toshkent shahrida faoliyat yuritgan norasmiy dasturchilar guruhi 2023-yilda o‘z mobil ilovalarini rasmiy “start-up”ga aylantirib, xalqaro inkubatsion dasturda ishtirok etishdi. Bu ularning rasmiy sektor bilan integratsiyalashuviga olib keldi.

Yuqorida ta’kidlanganidek norasmiy bandlik qisqa muddatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishini oldini oladi. Ijtimoiy barqarorlikdagi ijobiy ta’sirlaridan biri bu rasmiy ishga joylasha olmayotgan fuqarolarni ish bilan ta’minlab ularning hukumatga nisbatan salbiy munosabatlarini kamaytira oladi. Shu bilan birga, migrantlar, yoki chekka hudud aholisi ham rasmiy mehnat bilan shug‘ullanish imkoniyati bo‘lmaganda, norasmiy faoliyat orqali o‘zlarini moliyaviy ta’minlay olsishadi va bu davlatda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi sonining o‘sishini oldini oladi. Yana bu sektor madaniy qadryatlarni saqlashga ham xizmat qiladi. Norasmiy faoliyat doirasida ko‘plab xalq hunarmandchiligi (zargarlik, do‘ppido‘zlik, milliy libos tikuvchilik) rivojlanmoqda va madaniy merosni avloddan avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Buning misoli sifatida, Buxoro viloyatida faoliyat yurituvchi norasmiy gilamdo‘z ayollar guruhi UNESCO tomonidan e’tirof etilib, 2023-yilda grant asosida rasmiy hunarmandchilik ko‘rinishiga o‘tganini aytishimiz mumkin.

Xulosa. Norasmiy bandlik tizimi barcha salbiy jihatlariga qaramay, muayyan sharoitlarda iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ajralmas elementi hisoblanadi. U ishsizlikni yumshatadi, iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi va jamiyatdagi muvozanatni ta’minlaydi. Ammo bu ijobiy ta’sirlar qisqa muddatli bo‘lib, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun norasmiy sektordagi resurslarni rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalash zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5221-sonli qarori, 2021-yil 27-avgust. *Yoshlar bandligini ta’minlashga doir kompleks chora-tadbirlar*.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–269-sonli Farmoni, 2022-yil 30-dekabr. *Ish bilan ta’minlash va rasmiy mehnatga o‘tishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*.
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024). *Mehnat bozori holati va bandlik darajasi bo‘yicha hisobot*.
4. Xalqaro Mehnat Tashkiloti. (2023). Dunyoda mehnat statistikasi hisoboti.
5. Schneider, F. (2023). Yashirin iqtisodiyot: nazariya va amaliyot.
6. Charmes, J. (2022). Norasmiy sektor va iqtisodiy rivojlanish.

CHET EL TAJRIBASIDA IPOTEKA KREDITLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Mardiyev Akrom Djumaboyevich
Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288651

Annotatsiya. *Maqolada chet el tajribasida ipoteka kreditlash jarayonining o‘ziga xos jihatlari Rossiya Federatsiyasi, AQSh va Germaniya Federativ Respublikasi misolida yoritib berilgan. Ushbu mamlakatlarda ipoteka kreditlash tizimining ustunliklari hamda kamchiliklari tahlil qilingan. Shuningdek, ipoteka kreditlash jarayonida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari o‘rganilgan. Ipoteka kreditlashning umumiy shartlarini qo‘llash bilan birga milliy xususiyatlarni saqlab qolish tajribasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Rossiya Federatsiyasi, AQSh va Germaniya Federativ Respublikasidagi tajribalar asosida O‘zbekistonda ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘llash mumkin bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ipoteka kreditlash, imtiyozli kreditlash, ixtisoslashgan kompaniyalar, uzoq muddatli investitsiya, ipoteka bozori.*

Kirish. Bugungi kunda uy-joy masalasi nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoning ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ham eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Aholining o‘sishi, shaharsozlik jarayonlarining jadallashuvi, urbanizatsiyaning kuchayishi va mehnat migratsiyasi uy-joyga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu sharoitda uy-joy sotib olishni moliyalashtirishning zamonaviy shakllaridan biri sifatida ipoteka kreditlash tizimining ahamiyati ortib bormoqda.

Ipoteka kreditlash — bu moliya bozori vositalaridan biri bo‘lib, u fuqarolarga uzoq muddatli qarz asosida turar-joy sotib olish imkoniyatini beradi. Ipoteka kreditlash tizimining rivojlanishi nafaqat aholini uy-joy bilan ta’minlash, balki butun iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki ipoteka orqali moliyaviy resurslar qurilish sohasi va unga yaqin tarmoqlarga yo‘naltiriladi, bu esa investitsiya jarayonlarini faollashtiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi hamda ichki iste’mol bozorini kengaytiradi.

Xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ipoteka kreditlash tizimi turli mamlakatlarda o‘ziga xos shakllanib, milliy iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashgan. Masalan, **Rossiya Federatsiyasi**da ipoteka kreditlash ko‘proq uy-joy muammosini hal qilish vositasi sifatida ko‘rilsa, **AQSh**da bu tizim keng rivojlangan moliyaviy bozor va investitsiya mexanizmlariga tayangan holda faoliyat yuritadi. **Germaniya**da esa ipoteka kreditlashning o‘ziga xos modeli mavjud bo‘lib, u aholining keng qatlamlarini arzon kreditlar bilan ta’minlash orqali uy-joy siyosatini samarali amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xorijiy tajribani o‘rganish orqali ipoteka kreditlash jarayonining afzalliklari, kamchiliklari, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini aniqlash mumkin. Bu esa O‘zbekistonda ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish, aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini yanada samarali qondirish hamda iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish uchun muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uy-joy qurilishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish, avvalo, ularning farovonlik darajasini oshirishga olib keladi. Uy-joy bilan ta’minotning yuqori darajaga ko‘tarilishi esa mamlakatdagi demografik jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan ipoteka kreditlari nafaqat iqtisodiy o‘sish va moliya bozorini rivojlantirish, balki aholi turmush darajasi va bank tizimining barqarorligiga ham ta’sir qilib, mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ipoteka kreditlash jarayoni muhim ijtimoiy muammolarni hal etishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. U moliya tizimining barqarorligini ta’minlash bilan birga qurilish sohasini rag‘batlantiradi hamda aholi uy-joyga bo‘lgan talabini qondirishga yordam beradi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ipoteka kreditlash keng tarqalgan moliyalashtirish shakllaridan biri sifatida e’tirof etiladi. So‘nggi yillarda Rossiya Federatsiyasida ipoteka kreditlash tizimi g‘arb davlatlari singari sezilarli darajada rivojlanib bormoqda.

So‘nggi yillarda ipoteka kreditlash tizimi dunyo mamlakatlarida aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda asosiy moliyaviy vositalardan biriga aylandi. Uy-joy fondini kengaytirish, qurilish sohasini rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashda ipoteka kreditlari muhim rol o‘ynaydi. Har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy imkoniyatlari, moliyaviy bozorlari rivojlanish darajasi va qonunchilik tizimidan kelib chiqqan holda ipoteka kreditlashni tashkil etadi. Shu bois, xorijiy tajribani o‘rganish O‘zbekiston uchun ham dolzarb masalalardan biridir.

1. Ipoteka kreditlash tizimining umumiy tamoyillari

Dunyo amaliyotida ipoteka kreditlash quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi:

- uzoq muddatli kreditlash (10–30 yilgacha);
- past foiz stavkalari va subsidiya mexanizmlaridan foydalanish;
- garov sifatida ko‘chmas mulkni qo‘llash;

- davlat tomonidan aholining kam ta’minlangan qatlamiga qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish.

Ushbu tamoyillar barcha rivojlangan mamlakatlarda o‘z aksini topadi, biroq amaliyotda ular turlicha shaklda qo‘llaniladi.

2. AQSh tajribasi

AQSh ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish bo‘yicha eng katta tajribaga ega mamlakatlardan biridir. Bu yerda:

- **Fannie Mae** va **Freddie Mac** kabi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi moliya institutlari faoliyat yuritadi;
- kreditlarning aksariyati ikkilamchi ipoteka bozoriga chiqarilib, obligatsiyalarga aylantiriladi;
- fuqarolarga 15 yildan 30 yilgacha bo‘lgan muddatli ipoteka kreditlari taqdim etiladi;
- foiz stavkalari 3–6% oralig‘ida bo‘lib, bozordagi umumiy iqtisodiy vaziyatga qarab o‘zgaradi.

Mazkur tizim aholining keng qatlami uchun uy-joy sotib olish imkoniyatini yaratadi.

3. Germaniya tajribasi

Germaniyada ipoteka kreditlashning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yerda **“Bausparkassen”** deb nomlanuvchi maxsus jamg‘arma-kredit institutlari faoliyat ko‘rsatadi. Bu tizimda:

- fuqaro avval ma’lum miqdorda pulni jamg‘aradi;
- keyin shu mablag‘ asosida ipoteka krediti olish huquqiga ega bo‘ladi;
- kreditlar asosan uzoq muddatli va past foiz stavkali bo‘ladi.

Bunday mexanizm aholining pul mablag‘larini jalb qilish bilan birga, moliya bozorida barqarorlikni ta’minlaydi.

4. Yaponiya tajribasi

Yaponiyada ipoteka kreditlash tizimi davlat tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlanadi. Asosiy xususiyatlari:

- davlat uy-joy qurilish jamg‘armasi orqali fuqarolarga qulay shartlarda ipoteka beradi;
- kreditlar asosan uzoq muddatli bo‘lib, 35 yilgacha cho‘zilishi mumkin;
- foiz stavkalari juda past, ayrim hollarda 1–2% atrofida bo‘ladi;
- energiya tejamkor uy-joy qurilishiga alohida imtiyozlar taqdim etiladi.

Ushbu tajriba uy-joy bozorini rivojlantirish bilan birga, aholining yashash sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

5. Rossiya tajribasi

Rossiyada ipoteka kreditlash tizimi 2000-yillardan boshlab faol rivojlandi. Bugungi kunda:

- **Rossiya ipoteka agentligi** ikkilamchi ipoteka bozorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi;
- foiz stavkalari 7–10% oralig‘ida bo‘lib, aholining hamma qatlami uchun ham qulay emas;
- davlat tomonidan yosh oilalarga, ko‘p bolali oilalarga hamda ijtimoiy himoyaga muhtojlarga imtiyozli ipoteka dasturlari joriy qilingan.

6. Xorijiy tajribani O‘zbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari

O‘zbekiston uchun xorijiy tajribadan quyidagi jihatlar foydali bo‘lishi mumkin:

1. AQSh tajribasidagi kabi ikkilamchi ipoteka bozorini rivojlantirish;
2. Germaniya modeliga o‘xshash jamg‘arma-kredit tizimini kengaytirish;
3. Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, ekologik toza va energiya tejamkor uy-joylarga imtiyozli ipoteka taqdim etish;
4. Rossiya amaliyotiga o‘xshab, yosh va ko‘p bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Xulosa. Rossiya Federatsiyasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aholining uy-joy bilan ta’minlanishi mamlakatdagi eng dolzarb ijtimoiy va siyosiy muammolardan biridir. Ushbu masala hal etilishi uy-joy qurilishi rivojlanish sur’atlari, aholining moddiy ahvoli hamda davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Turar-joy sotib olish uchun kreditlar tizimining joriy etilishi uy-joy bozorida moliyaviy oqimlarni kuchaytiradi, qurilish sohasiga investitsiyalarni jalb etadi va natijada ish o‘rinlarining ko‘payishiga hamda aholining daromadlarining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uzoq muddatli investitsiya resurslarining yetishmasligi, investorlar uchun soliq imtiyozlarining mavjud emasligi va huquqiy bazaning to‘liq shakllanmagani ipoteka kreditlash tizimining sust rivojlanishiga olib kelmoqda. Shunday bo‘lsa-da, Rossiyada ipoteka kreditlash uy-joy muammosi va kapital qurilishni moliyalashtirish masalasini hal qilishning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Ipoteka kreditlari mamlakat iqtisodiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ishlab chiqarishning pasayishi oldini olish, modernizatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash hamda mahsulot sifatini oshirish imkonini bermoqda.

AQSh tajribasi esa ipoteka kreditlashning dunyodagi eng rivojlangan namunasi sifatida e’tirof etiladi. Ipoteka kreditlash jarayoni bu mamlakatda o‘tgan asrning 30-yillarida shakllangan. Kreditlash ikki turga bo‘linadi: qurilish uchun kreditlar va turar-joy sotib olish uchun kreditlar. AQShda ipoteka bo‘yicha alohida qonunchilik mavjud bo‘lmasa-da, mamlakat moliyaviy vositalarining rivojlanganligi, shaffof ikkilamchi bozor tizimi va kuchli tashkiliy-moliyaviy modeli tufayli yetakchi mavqega ega. AQShda ikki bosqichli ipoteka tizimi mavjud: birlamchi bozorda kichik banklar va ipoteka agentliklari jismoniy shaxslarga kredit beradi, so‘ngra ular ikkilamchi bozorda yirik investitsion banklar va korporatsiyalarga sotiladi. AQSh ipoteka kreditlari boshqa kreditlardan farqli ravishda odatda 20–30 yil muddatga beriladi, bu esa qarzdor uchun uzoq muddatli va qulay to‘lov imkoniyatlarini yaratadi hamda kredit xavfini pasaytiradi.

AQSh ipoteka bozori uchta asosiy yo‘nalishga ega:

1. **Uy-joy sotib olish uchun kreditlar**.
2. **Ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish** – bunda mijozlar soliq to‘lovidan imtiyozlarga ega bo‘ladilar.
3. **Teskari ipoteka kreditlari** – asosan 60 yoshdan oshgan fuqarolar o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, ular uylarini bankka sotib, zaruratga qarab to‘lovni bosqichma-bosqich oladilar.

Umuman olganda, Rossiya va AQSh tajribasi ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirishda milliy sharoitni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Rossiyada ipoteka ko‘proq ijtimoiy muammoni hal qilish vositasi sifatida ko‘rilsa, AQShda bu jarayon keng qamrovli moliyaviy tizim va bozor mexanizmlariga tayanadi.

Rossiya Federatsiyasida ipoteka bozori 1990-yillarda shakllanib, 1998-yil 16-iyulda qabul qilingan 102-FZ-sonli “Ipoteka (ko‘chmas mulk garovi) to‘g‘risida”gi Federal qonun va 1997-yilda tashkil etilgan “Ipoteka kreditini rivojlantirish agentligi” faoliyati bilan jadal rivojlanishga yuz tutdi. Shuningdek, fuqarolarning ayrim toifalarini qo‘llab-quvvatlashga

qaratilgan davlat dasturlarining amalga oshirilishi ham bu jarayonni tezlashtirdi. Shunga qaramay, uy-joy xavfsizligi va aholining uy-joy bilan yetarlicha ta’minlanishi masalasi Rossiyada eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov A. “Ipoteka kreditlash tizimining rivojlanish istiqbollari”. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
2. Mirzayev Sh., Xasanova N. “Uy-joy bozorini rivojlantirishda ipoteka kreditlarining roli”. – O‘zbekiston moliya jurnali, №4, 2020. – B. 34-41.
3. Qodirov B. “Moliyaviy tizim va ipoteka kreditlari: nazariya va amaliyot”. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2019.
4. Россия Федерацияси Ҳукумати. “О программе льготной ипотеки”. Постановление Правительства РФ №1711 от 30.12.2017.
5. Россия Федерацияси Ҳукумати. “О программе сельской ипотеки”. Постановление Правительства РФ №1567 от 30.11.2019.
6. Дом.РФ. “Ипотека в России: современное состояние и перспективы развития”. – Москва: Аналитический центр ДОМ.РФ, 2021.
7. Federal Housing Administration (FHA). “Annual Report to Congress on the Financial Status of the FHA Mutual Mortgage Insurance Fund”. – Washington D.C., 2022.
8. U.S. Department of Housing and Urban Development (HUD). “Housing Finance Reform Plan”. – Washington D.C., 2019.
9. OECD. “Housing and Mortgage Markets in OECD Countries”. – Paris: OECD Publishing, 2020.
10. European Mortgage Federation (EMF). “Hypostat – A Review of Europe’s Mortgage and Housing Markets”. – Brussels, 2022.

O‘ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH MEXANIZMLARINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Mardiyev Akrom Djumaboyevich
Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288760

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy ishda O‘zbekistonda ipoteka kreditlash mexanizmlarining shakllanishi, rivojlanishi va amaliyotdagi qo‘llanilish xususiyatlari keng yoritilgan. Tadqiqot jarayonida mamlakatda moliya bozori barqarorligini ta’minlash, aholini uy-joy bilan ta’minlashda ipoteka kreditlarining o‘rni, shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish orqali mavjud tizimni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Asarda O‘zbekiston bank-moliya tizimida olib borilayotgan islohotlar, yangi qonun hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar va hukumat qarorlari asosida ipoteka kreditlash amaliyotining huquqiy hamda iqtisodiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ipoteka kreditlari bozorining rivojlanishida duch kelinayotgan muammolar, ularning yechimlari hamda istiqboldagi takomillashtirish mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan asoslab beriladi. Tadqiqotda ipoteka kreditlash mexanizmlarini yanada*

samarali yo‘lga qo‘yish, aholining turmush darajasini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Ipoteka, kreditlash tizimi, moliya bozori, bank islohotlari, uy-joy siyosati, normativ-huquqiy asos, xalqaro tajriba, iqtisodiy barqarorlik, aholi turmush darajasi, moliyaviy mexanizm.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya tizimining barqaror faoliyati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholining uy-joy bilan ta’minlanishi, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va yashash sharoitlarini yaxshilash masalalarida ipoteka kreditlash tizimi alohida o‘rin tutadi. Har qanday mamlakatda iqtisodiy islohotlarning samaradorligi bevosita aholining turmush darajasi, uy-joy bozorining rivojlanishi hamda moliya institutlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois O‘zbekistonda ipoteka kreditlash mexanizmlarini to‘g‘ri tashkil etish va takomillashtirish masalasi dolzarb mavzulardan biri sifatida ilmiy hamjamiyat va mutasaddi tashkilotlar diqqat markazida turibdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bo‘lgani kabi bank-moliya sohasida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Uy-joy masalasi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu borada hukumat tomonidan qator qarorlar qabul qilinib, aholiga qulay sharoitlarda ipoteka kreditlari ajratish mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ipoteka bozorini rivojlantirish, aholiga uzoq muddatli, qulay foiz stavkalarida uy-joy kreditlarini taqdim etish uchun huquqiy asoslar yaratildi. Shu bilan birga, oxirgi yillarda ipoteka kreditlari tizimida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Avvalgi yillarda asosan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ipoteka dasturlari ustuvorlik qilgan bo‘lsa, bugungi kunda bozor mexanizmlariga asoslangan, xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu esa ipoteka kreditlash tizimining yanada samarali ishlashini ta’minlash, aholi ehtiyojlarini kengroq qondirish va moliya bozorida raqobatni kuchaytirish imkonini bermoqda.

Biroq mavjud yutuqlar bilan bir qatorda, ipoteka kreditlash tizimida qator muammolar ham mavjud. Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari aholining barcha qatlamlari uchun ham qulay emasligi, dastlabki badalning yuqoriligi, uy-joy narxlarining tezkor o‘sishi hamda banklar tomonidan qo‘yiladigan ayrim talablarning murakkabligi ipoteka mexanizmlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, mavjud muammolarni ilmiy asosda o‘rganish, ularni hal etish yo‘llarini izlash va xorijiy tajribadan samarali foydalanish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistonda uy-joy siyosati ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishning eng muhim kafolatlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yangi uy-joy qurilishlari, ipoteka dasturlari va aholiga yaratilayotgan imtiyozlar mamlakatda iqtisodiy faollikni oshirish bilan birga, ijtimoiy hayotda ham katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ipoteka kreditlash tizimini yanada mukammallashtirish, uni aholining barcha qatlamlari uchun qulay qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Ilmiy ishda ipoteka kreditlashning nazariy asoslari, uning iqtisodiyotdagi o‘rni, O‘zbekiston tajribasi hamda xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan amaliyotlar o‘rganiladi. Shu bilan birga, mavjud tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda ipoteka kreditlash mexanizmlarini

yanada samarali tashkil etish, uni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy qarashlar, iqtisodiy yondashuvlar va nazariy tamoyillar asoslanadi. Amaliy ahamiyati esa, ishlab chiqiladigan tavsiyalarni mamlakatimiz moliya institutlari, tijorat banklari va uy-joy bozorida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar amaliyotga tatbiq etishi mumkinligidadir.

Shuningdek, ushbu ishda ipoteka kreditlashning xalqaro tajribasi ham o‘rganilib, rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi ilg‘or yondashuvlar tahlil qilinadi. Bu tajribalarning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqilib, ularning milliy iqtisodiyot talablariga moslashtirilgan variantlari ishlab chiqiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ipoteka kreditlash tizimining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- O‘zbekistonda mavjud ipoteka kreditlash mexanizmlarini o‘rganish;
- mavjud muammolar va to‘siqlarni aniqlash;
- xorijiy tajribani tahlil qilish va qiyosiy o‘rganish;

ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Shunday qilib, ushbu ilmiy ish O‘zbekistonda ipoteka kreditlash mexanizmlarini chuqur o‘rganish, mavjud tizimni yanada samarali yo‘lga qo‘yish va xalqaro tajriba asosida takomillashtirish masalalariga bag‘ishlanadi.

Asosiy qism: O‘zbekiston Respublikasida ipoteka kreditlash tizimi iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda. Mamlakatda aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish, ayniqsa yosh oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va barqaror daromadga ega bo‘lgan fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilashda ipoteka muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ipoteka kreditlash mexanizmlarini tashkil etish va ularni bosqichma-bosqich takomillashtirish masalasi davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Ipoteka kreditining iqtisodiy mohiyati asosan uzoq muddatli qarz mablag‘larini taqdim etish orqali aholining uy-joy bilan ta’minlanishini rag‘batlantirishdan iborat. An’anaviy bank kreditlaridan farqli ravishda ipoteka qarzlari ko‘proq muddatga beriladi, foiz stavkalari nisbatan qulayroq belgilanadi va eng asosiysi, kredit qaytarilishi uy-joyning o‘zi garov sifatida hisobga olinadi. Bunday tizim aholining moliyaviy imkoniyatlariga mos keladi, banklar uchun esa xavflarni kamaytiradi.

O‘zbekiston sharoitida ipoteka kreditlash jarayoni davlat tomonidan qattiq nazorat qilinib, maxsus normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Xususan, “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari ushbu tizimni huquqiy asos bilan ta’minlab kelmoqda. So‘nggi yillarda ipoteka kreditlarini olish tartiblari soddalashtirilib, yosh oilalarga, shuningdek, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholiga alohida imtiyozlar berildi. Shu orqali ipoteka kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Amaldagi ipoteka kreditlash mexanizmlarining muhim jihati shundaki, kredit qaytarilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri oylik daromad bilan bog‘liq tarzda hisoblab chiqiladi. Kredit miqdori odatda qarz oluvchining oylik maoshidan kelib chiqqan holda belgilanadi, bu esa o‘z navbatida qarzdorlikni o‘z vaqtida so‘ndirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, davlat tomonidan subsidiya va kompensatsiya mexanizmlari ham joriy etilgan bo‘lib, ular aholining ipoteka kreditiga bo‘lgan talabini kuchaytirmoqda. Masalan, ayrim dasturlar asosida yosh oilalarga dastlabki badalning bir

qismini davlat tomonidan to‘lab berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.Shu o‘rinda ipoteka kreditlash tizimida mavjud bo‘lgan qator muammolarga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Avvalo, aholining barcha qatlamlari uchun ipoteka shartlari bir xil qulay emas. Past daromadli oilalar uchun dastlabki badalning yuqoriligi va oylik to‘lovlarning qisman yuqoriligi katta to‘siq bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, ayrim hududlarda qurilish materiallarining narxi yuqoriligi sababli uy-joy narxlari ham oshib ketmoqda, bu esa ipoteka kreditlarining jozibadorligini pasaytiradi. Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan foiz stavkalari hamma uchun ham maqbul emas. Shu sababli ayrim fuqarolar ipoteka kreditidan foydalanishga jur’at eta olmaydi. Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ipoteka kreditlash mexanizmlari bozor tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, AQShda ipoteka bozorini maxsus agentliklar boshqaradi va kreditlar ikkilamchi bozorda sotiladi. Bu tizim kreditlar hajmini kengaytirishga va foiz stavkalarini pasaytirishga yordam beradi. Yevropa mamlakatlarida esa uzoq muddatli va past foizli ipoteka kreditlari keng tarqalgan. Rossiyada ipoteka kreditlash dastlab qiyinchilik bilan rivojlangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda aholiga qulay shartlar taklif qilinmoqda. O‘zbekiston ushbu tajribalarni o‘rganib, o‘ziga mos mexanizmlarni joriy etishi mumkin.akomillashtirish borasida bir nechta takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, ipoteka kreditlarini ajratishda differensial yondashuvni kengaytirish, ya’ni har bir ijtimoiy qatlam uchun alohida mexanizm ishlab chiqish zarur. Masalan, talaba va yosh oilalar uchun boshlang‘ich to‘lovni kamaytirish yoki davlat tomonidan to‘liq kompensatsiya qilish mumkin. Ikkinchidan, ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish mexanizmini yo‘lga qo‘yish, bu orqali banklar o‘z resurslarini samarali boshqarishi va kreditlar hajmini kengaytirishi mumkin. Uchinchidan, ipoteka bozorini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, kredit olish jarayonini onlayn shaklda amalga oshirish amaliyotini kengaytirish lozim. Bu aholiga ham, banklarga ham katta qulaylik yaratadi.

Yana bir muhim jihat — ipoteka kreditlarining ikkilamchi bozorini shakllantirishdir. Agar banklar o‘z kredit portfelining bir qismini ikkilamchi bozorda sotish imkoniga ega bo‘lsa, ular qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ega bo‘ladi. Natijada ipoteka kreditlari hajmi oshadi, foiz stavkalari pasayadi va aholining kengroq qatlami ushbu xizmatdan foydalana oladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ipoteka kreditlash tizimi jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, mavjud mexanizmlarni yanada mukammallashtirish, jahon tajribasini hisobga olgan holda milliy sharoitga moslashtirish talab etiladi. Faqat shundagina ipoteka kreditlari keng ommaga xizmat qiladi va aholining uy-joy sharoitini yaxshilashga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ipoteka kreditlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Ipoteka kreditlash bo‘yicha statistik ma’lumotlar”. – Toshkent, 2023.
3. Karimov A., To‘rayev B. "Moliyaviy bozorlar va bank ishi”. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
4. Xolboev M. “Uy-joy bozorida ipoteka kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. World Bank. “Housing Finance in Emerging Markets”. – Washington D.C., 2022.
6. Qodirov S. “Bank tizimida ipoteka kreditlari boshqaruvi”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV MADANIYATNING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD, “Marketing” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17461614

Annotatsiya. *Maqolada globallashuv jarayonida O‘zbekiston mintaqaviy sanoat korxonalari oldida paydo bo‘layotgan yangi chaqiriqlar va ularni samarali boshqarishda korporativ madaniyatning o‘rni tahlil qilinadi. Boshqaruv samaradorligini baholash uchun uchta asosiy indikator — ichki boshqaruv tizimi, xodimlar motivatsiyasi va ijtimoiy-psixologik muhit tanlanib, maxsus baholash matritsasi ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari yuqori korporativ madaniyatga ega korxonalarda mehnat unumdorligi va eksport hajmi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Shuningdek, xalqaro tajriba ham korporativ qadriyatlarning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sirini tasdiqlaydi. Muallif xulosa qiladi: korporativ madaniyatni rivojlantirish nafaqat korxonalar, balki hududiy sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi uchun ham muhimdir.*

Kalit so‘zlar: *korporativ madaniyat, boshqaruv samaradorligi, sanoat korxonalari, xodimlar motivatsiyasi, ijtimoiy-psixologik muhit, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, investitsion jozibadorlik.*

Bugungi globallashuv jarayonida va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi sharoitida sanoat korxonalarining faoliyatini samarali tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonning mintaqaviy sanoat tarmoqlari ham jahon bozoridagi raqobat, texnologik yangilanishlar va investitsion jarayonlar ta’sirida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda korxonalar oldida nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish, balki ichki boshqaruv samaradorligini oshirish, xodimlarning motivatsiyasini kuchaytirish va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish vazifalari ham kun tartibiga chiqmoqda.

Samarali boshqaruvning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida korporativ madaniyat alohida ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy natijalar nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga, balki korxonada shakllangan qadriyatlar tizimi, rahbariyat va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch darajasi, hamkorlik madaniyati va mehnat muhitining barqarorligiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois korporativ madaniyatni boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.Hozirgi globallashuv jarayonida va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi sharoitida O‘zbekiston mintaqalarida joylashgan sanoat korxonalari oldida yangi chaqiriqlar yuzaga chiqmoqda. Ular ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini kengaytirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlash bilan bir qatorda, ichki boshqaruv samaradorligini ham muntazam ravishda oshirib borishlari zarur. Shu nuqtayi nazardan, korporativ madaniyatning boshqaruv samaradorligiga ta’sirini ilmiy asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki iqtisodiy natijalar ko‘pincha nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga, balki korxona ichida shakllangan qadriyatlar

tizimi, rahbariyat va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, mehnat muhitining barqarorligi va jamoaviy hamkorlikka ham bog‘liq.

So‘nggi yillarda qabul qilingan bir qator qarorlar bu masalaning dolzarbligini yanada oshirdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-2030 yillarda sanoatni rivojlantirish strategiyasi”da mehnat unumdorligini oshirish, sanoat klasterlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va inson kapitalidan samarali foydalanish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Bundan tashqari, “Hududiy sanoatni rivojlantirish dasturi” va “Energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar”da ham korxonalarda boshqaruvni takomillashtirish, xodimlar motivatsiyasini kuchaytirish va jamoada sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishga alohida urg‘u berildi. Bu esa korporativ madaniyatni nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy boshqaruv vositasi sifatida ham o‘rganishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot jarayonida boshqaruv samaradorligini baholash uchun uchta asosiy indikator tanlandi: ichki boshqaruv tizimi -qaror qabul qilish tezligi, boshqaruv strukturalarining aniq taqsimlanishi va nazorat mexanizmlarining samaradorligi; xodimlar motivatsiyasi -moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va ijtimoiy kafolatlarning mavjudligi; ijtimoiy-psixologik muhit -jamoada o‘zaro ishonch darajasi, hamkorlik madaniyati, kommunikatsiya sifati va nizolarni hal qilish mexanizmlarining mavjudligi. Ushbu indikatorlar asosida maxsus baholash matritsasi ishlab chiqildi. Har bir indikator 5 balli tizim bo‘yicha o‘lchandi va umumiy “Korporativ madaniyat samaradorligi indeksi” shakllantirildi. Indeksning ustunligi shundaki, u moliyaviy ko‘rsatkichlardan tashqari sifat ko‘rsatkichlarini ham inobatga olib, boshqaruv samaradorligining real manzarasini ochib beradi.

Amaliy tadqiqotlar 10 ta mintaqaviy sanoat korxonasida o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, yuqori indeksga ega korxonalarda ishlab chiqarish unumdorligi o‘rtacha 15 foizga, eksport hajmi esa 18 foizga oshgani qayd etildi. Bundan tashqari, bunday korxonalarda xodimlar almashinuvi sezilarli darajada kamayib, ijtimoiy barqarorlik ta’minlandi. Aksincha, korporativ qadriyatlari zaif korxonalarda kadrlar oqimi yuqori, qaror qabul qilish jarayonlari sust, innovatsion tashabbuslar esa kam kuzatildi. Bu esa korporativ madaniyatning bevosita iqtisodiy samaradorlikka ta’sir ko‘rsatishini yaqqol namoyon qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kuchli korporativ qadriyatlarga ega korxonalarda nafaqat iqtisodiy natijalar, balki ijtimoiy ko‘rsatkichlar ham yuqori bo‘ladi. Chunonchi, bunday korxonalarda xodimlarning kasbiy rivojlanishga qiziqishi ortadi, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar ko‘payadi, jamoada hamkorlik va bir-biriga yordam berish madaniyati shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida raqobatbardoshlikni kuchaytirib, investitsion jozibadorlikni oshiradi. Natijada korporativ madaniyatni rivojlantirish nafaqat alohida korxona, balki butun hududiy sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba ham bu xulosalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, E. Sheyn va G. Hofstede tadqiqotlari korporativ qadriyatlarning boshqaruv samaradorligiga ta’sirini ilmiy asoslab bergan bo‘lsa, mahalliy amaliyot ham bu masalaning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi doirasida ham korporativ boshqaruv madaniyatini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan, chunki innovatsion yechimlarni joriy etish xodimlarning motivatsiyasi va tashabbuskorligisiz imkonsizdir.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy sanoat korxonalarida korporativ madaniyatni rivojlantirish boshqaruv samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Ichki boshqaruv tizimini mukammallashtirish, xodimlar motivatsiyasini kuchaytirish, sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish orqali korxonalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikka,

balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishga ham erishishi mumkin. Shu bois korporativ madaniyat indikatorlarini boshqaruv samaradorligini baholash metodologiyasiga integratsiya qilish zarur bo‘lib, u mintaqaviy sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va investitsion jozibadorlikni ta’minlashda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025–2030-yillarda sanoatni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori, 2025-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2024-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks dastur”i, 2024-yil.
4. Schein E. Organizational Culture and Leadership. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017.
5. Hofstede G. Culture’s Consequences: International Differences in Work-Related Values. – Beverly Hills: Sage, 2001.
6. Cameron K., Quinn R. Diagnosing and Changing Organizational Culture. – Addison-Wesley, 2011.
7. Mahmudov N., Raximov A. Korxonalar boshqaruv samaradorligini baholashda innovatsion yondashuvlar. – TDIU ilmiy jurnali, 2023.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Shavkatovich Mirzaaxmedov Nodirbek
Oriental universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288839

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muhim o‘rin egallagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini yanada rivojlantirish, shu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to‘ldirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar muhokama qilinadi. Ayniqsa, boshqaruvning samarali usullarini joriy etish orqali ushbu subyektlarning moliyaviy barqarorligini oshirish, moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni ilmiy asoslangan holda qondirish, yangi moliyalashtirish manbalarini jalb etish orqali ta’minlash dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘rilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes korxonalari, tarmoq korxonalari, yalpi ichki mahsulot, sanoat korxonalari, kapital, rivojlanish strategiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy investitsiyalar, kichik biznes subyektlari.*

Bugungi kunda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan eng murakkab muammolardan biri – ko‘plab kichik biznes subyektlarining investitsiya va aylanma kapital ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega emasligidir. Banklar esa kichik korxonalarning past kredit kafolatlari sababli kredit risklarini yuqori baholashga va foiz

stavkalarini oshirishga majbur bo‘lmoqda. Shu bilan birga, kichik korxonalarning yetarli moliyaviy mablag‘ ajrata olmasligi ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa kreditlash jarayonini asosan garov talablariga bog‘lab qo‘ymoqda.

Yevropa Ittifoqida kichik va o‘rta korxonalar 250 nafardan ko‘p bo‘lmagan xodimga, yillik 50 million yevrodan oshmagan daromadga yoki 43 million yevrodan kam umumiy balans aktivlariga ega tashkilotlar sifatida belgilanadi. Muhim jihati shundaki, boshqa ko‘plab davlatlardan farqli ravishda, ularning qonunchiligida aktivlar hajmiga chegaraviy limit belgilab qo‘yilmagan.

AQShda esa kichik va o‘rta korxonalarni mikrotoifalarga bo‘lish amalda mavjud emas. Kichik biznes tasnifida o‘rtacha yillik daromad - 7,5 million AQSh dollari va xodimlar soni o‘rtacha 500 nafar mezon sifatida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, turli iqtisodiy faoliyat sohalarida bu mezonlarga turlicha cheklovlar tatbiq etiladi. Kichik korxonalarni farqlashda asosan yillik mahsulot hajmi va daromad miqdori asos qilib olinadi.

Malayziyalik mualliflar guruhi olib borgan tadqiqotlar esa shuni aniqladiki, strategik rejalashtirishni qo‘llash va kichik biznes bozoriga yo‘naltirilganlik faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan strategik rejalashtirish usullari bozor yo‘nalishini rag‘batlantirishi va biznes samaradorligini oshirishi lozim. Iqtisodchi olimlar fikricha, bozor yo‘nalishiga e’tibor qaratish kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik muhitini yaxshilashga yordam beradi. Yuqori raqobat sharoiti esa bozor ma’lumotlariga (mijozlar, kontragentlar, raqobatchilar haqidagi ma’lumotlarga) tayanishni taqozo qiladi, bu esa o‘z navbatida bozor sharoitidagi o‘zgarishlarni kuzatib borish imkonini beradi. Demak, bozor yo‘nalishi strategik rejalashtirish orqali kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Kichik va o‘rta korxonalar, shuningdek, yirik biznes subyektlari xorijda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisob yuritadi. Mamlakatimizda esa kichik biznes subyektlari faoliyatida milliy moliyaviy hisobot standartlari qo‘llaniladi. Shu sababli, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda to‘liq joriy etilgan deyish mumkin emas.

Hisob tizimidagi dastlabki farqlar va natijada moliyaviy ma’lumotlarning hisobotlarda turlicha aks ettirilishi sababli, mahalliy va xorijiy korxonalar moliyaviy tahlil natijalarini solishtira olmaydi. Chunki bir xil moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash turlicha shakllangan ma’lumotlarga asoslanadi. Bundan tashqari, mahalliy amaliyotda moliyaviy tahlil ko‘proq rentabellik, tadbirkorlik faolligi, moliyaviy barqarorlik va likvidlik, to‘lov qobiliyati kabi ko‘rsatkichlarga qaratilgan bo‘lsa, xorijiy amaliyotda aksiyalar qiymatidagi o‘zgarish, foyda, umumiy xarajatlardagi doimiy xarajatlar ulushi hamda pul oqimlari va majburiyatlar nisbati chuqur o‘rganiladi.

Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish mezonlaridan biri, avvalo, kichik biznesni moliyalashtirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilish va mutaxassislar tomonidan taqdim etilgan takliflarni amaliyotga keng joriy etish bo‘lishi kerak. Kichik va xususiy biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga oid boshqa bir muhim mezon esa **neytral va maqsadli siyosatning joriy etilishi**dir. Muhim yo‘naltirilgan siyosatlardan biri davlat korxonalari orqali moliya bozorida bevosita ishtirok etish va ayrim toifadagi kichik biznes subyektlariga selektiv himoya ko‘rsatishdir. Bunday choralarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun kredit stavkalarini pasaytirish, shuningdek, ularga qulay biznes muhitini shakllantirish kiradi (Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J., 2023).

Shu bilan birga, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari odatda banklar tomonidan kreditni ta’minlash uchun talab etiladigan asosiy vositalar yer yoki bino kabi garov mablag‘lariga ega emas. Aksincha, ular asosan moliyalashtirishda ko‘chmas mulk emas, balki ko‘chma mulkka tayangan holda ish yuritadilar. Zaruriy huquqiy va institutsional himoyani ta’minlash uchun an’anaviy kafolatlar asosida alternativ kreditlash variantlarini ishlab chiqish va tadbirkorlarning biznesni boshlashi hamda boshqarishi uchun zarur resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, kafolatli ro‘yxatga olish vositalaridan foydalanish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun moliyaviy to‘siqlarni kamaytirish yo‘llaridan biri bu – moliyaviy vositalarni yaratish, ro‘yxatdan o‘tkazish va amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani tizimli ravishda mustahkamlashdir. Bunga qonunlar, qarorlar, institut kafolatlari, kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichlari va kredit hisobotlari kiradi.

Jahonning iqtisodiy sohada eng muvaffaqiyatli davlatlari xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va kichik biznesni kengaytirishga qaratilgan choralarni amalga oshirmoqda. Bunday davlatlar qatoriga Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, AQSh va Buyuk Britaniya kiradi. Shundan kelib chiqib, kelajakda O‘zbekiston Respublikasining ham iqtisodiy rivojlanishda ushbu “yuqori tezlikdagi lokomotiv”ni qo‘llab-quvvatlashni asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilashi qiyin emas.

Bugungi kunda mamlakatimizda biznes muhitini yanada liberallashtirish maqsadida, shaffoflikni ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatiga oid tartib-taomillarni soddalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda deyarli birorta ham xususiy korxona yo‘q edi. Bugungi kunda esa kichik biznes yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko‘pini ishlab chiqaradi, iqtisodiy subyektlarning o‘ndan to‘qqizi aynan shu sohaga to‘g‘ri keladi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, xususiy tadbirkorlik aholining bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirishda alohida o‘rin tutadi: ish bilan bandlarning 78 foizi kichik biznes sohasida faoliyat yuritadi, aholining 52 foizdan ortiq daromadi tadbirkorlik faoliyatidan shakllanadi. Bu esa ushbu sohaning inson kapitali rivojlanish darajasi va sifatini oshirishdagi o‘ta muhim ahamiyatidan dalolat beradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik doimiy ravishda o‘smoqda. Ko‘plab tashabbuskor insonlar noodatiy g‘oyalarga ega, biroq bu orzularini amalga oshirish uchun moliyaviy manbalarni topishda muammolarga duch kelishadi. Tadbirkorlar, odatda, barcha kuchlarini kapitalni ko‘paytirishga yo‘naltirishni afzal ko‘rishadi. Ular yangi biznes ochish uchun qarz olish jarayoniga vaqt va mablag‘ sarflashni istamaydilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydigan bir nechta omillar mavjud:

Hujjatlarni to‘g‘ri yuritish – mamlakatda banklar kreditlarning katta qismini ajratadi. Ammo kichik biznes ko‘pincha bank talab qiladigan zarur kafolatlarni taqdim eta olmaydi. Qarzdorning bankka yetarlicha ma’lumot bermasligi ham kredit ajratishga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Hujjatlarning yetarli emasligi bank va qarzdor o‘rtasida muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, korxonalar barcha zarur hujjatlar mavjudligini ta’minlashlari shart.

Professional rahbarlik – ba’zi tadbirkorlar barcha muammolarni mustaqil hal qilishga urinadilar. Biroq sohaning barcha jihatlarini nazorat qilishga intilish muammolarni yanada kuchaytirishi mumkin. Tadbirkor hisob-kitob va soliqqa oid bilimlarga ega bo‘lishi mumkin, lekin kredit olish bo‘yicha yetarli tajribaga ega bo‘lmasa, jarayonning mohiyatini to‘liq tushunmasligi ehtimoli katta.

Foiz stavkalari – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga beriladigan kreditlar odatda yuqori foiz stavkalari bilan taqdim etiladi. Shu bois, ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi natijalarni ko‘rsatish va isbotlash muhim hisoblanadi. Faoliyat samaradorligi oshib borgani sayin, ushbu soha haqidagi umumiy qarashlar ham ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Kredit reytingi – kreditni tasdiqlash jarayonida juda muhim rol o‘ynaydi va foiz stavkalariga ta’sir qiladi. Kredit tarixidagi har qanday o‘zgarish yomon kredit reytingiga olib kelishi mumkin. Past kredit reytingi esa kredit olish yo‘lida jiddiy to‘siqqa aylanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik investitsiyalarni oshirishda o‘xshash qiyinchiliklarga duch keladi. Buning asosiy sababi – ushbu sektor yuqori xavfli deb baholanadi va ayrim banklar o‘z mablag‘larini bu sohaga yo‘naltirishni xavfli hisoblaydi. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda xususiy sektorga investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun turli imtiyozlar joriy etilgan. Masalan, Hindiston hukumati tijorat banklari kredit siyosatlarida kamida 40% ulushni ustuvor sektorlarga yo‘naltirish talabini belgilagan bo‘lsa, Bangladeshda institutsional investorlar aktivlarining 30% ini ustuvor sektorlarga kiritishi majburiy qilib belgilangan.

Ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida banklar tomonidan biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish yo‘llari mavjud bo‘lib, ularning O‘zbekiston bank tizimida qo‘llanilishi yuqori samaraga olib kelishi mumkin.

Kichik biznes korxonalari faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, diversifikatsiyaning sustligi sababli ularning pul oqimlari hisobotidagi asosiy bo‘lim “operatsion faoliyat” hisoblanadi. Chunki asosiy faoliyatda rejalashtirish, tahlil va nazoratni talab qiladigan eng ko‘p operatsiyalar amalga oshiriladi.

Pul oqimlarini boshqarish kichik biznes korxonalari uchun moliyaviy boshqaruv usullari ichida eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Pul oqimlari korxonaning haqiqiy to‘lov qobiliyatini aks ettiradi va ular yordamida butun tashkilotning moliyaviy holatini tahlil qilish, rejalashtirish hamda nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot foydalanuvchilarga xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni baholash, hisobot davrida qancha mablag‘ kirgani va qancha mablag‘ chiqqani haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, pul oqimlari hisobotida xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyat natijasida olingan pul oqimlari haqida aniq ma’lumot bo‘lishi zarur, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va milliy strategik loyihalarda faol ishtirok etish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Xususan, mijozlarga xalqaro standartlarga mos bank xizmatlarini ko‘rsatish orqali tarmoq infratuzilmasini yangilash imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Shu bilan birga, har bir mijozning tarmoq xususiyatlari haqida xabardorligini oshirish va ularning biznes faoliyati – korporativ, kichik va o‘rta, chakana sektor samaradorligini oshirish uchun dolzarb bank vositalaridan foydalanish talab etiladi. Bank o‘z strategiyasini tanlashda Respublikamiz hukumati tomonidan belgilangan bank tizimini isloh qilish, yangi bank tizimini yaratish va islohotlarni amalga oshirishga oid vazifalarga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Idar, R. (2012). Bozor yo‘nalishining strategik rejalashtirish amaliyotlari va natijadorlik munosabatiga vositachi sifatida ta’siri: Malayziya KOBlaridan dalillar / R. Idar, Y. Yusoff,

R. Mahmood. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro konferensiya: «Innovatsiya va barqarorlik» (ICSMED 2012). *Procedia Economics and Finance*, № 4, 2012, 68-75-betlar.

2. Kalkan, A. (n.d.). Turkiya KOBlarida strategik rejalashtirish vositalari va usullaridan foydalanish va ularni tanlash: rahbarlarning qarashlariga ko‘ra / A. Kalkan, Ö.C. Bozkurk // 9-konferensiya.
3. Shernaev, A.A. (2021). Mikrodarajada soliq rejalashtirishda soliq tahlili. *Zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari elektron jurnali*. 2021-yil, fevral, IV-son. ISSN 2181-9750, 75–82-betlar.
4. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R., & Turayevich, J. (2023). Ko‘p agentli tizimlarni muvofiqlashtirilgan boshqarishda fraksion-tartibli chiziqsiz tenglamalarning qo‘llanilishi. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335
5. Kalkan, A. (2013). Turkiya KOBlarida strategik rejalashtirish vositalari va usullaridan foydalanish va ularni tanlash: rahbarlarning qarashlariga ko‘ra / A. Kalkan, Ö.C. Bozkurk. *9-xalqaro strategik boshqaruv konferensiyasi*. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, № 99, 2013, 1016–1025-betlar.
6. Shernaev, A.A. (2020). Aksiyadorlik jamiyatlari soliqqa tortish samaradorligi masalasi haqida. *Iqtisodiyot va biznes: nazariya va amaliyot*. Xalqaro ilmiy jurnal, №9-2 (67). Moskva, “Kapital” nashriyoti, 149–152-betlar.
7. Turayevich, J. I., & Akmal o‘g‘li, S. M. (2023). Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining o‘rni. *Pedagogs jurnali*, 35(4), 147–157.
8. Shernaev, A.A. (2020). Korxonalarda soliq rejalashtirishning umumiy metodologik asoslari. *International Journal of Economics, Commerce and Management, UK*. ISSN 2348-0386, Vol. VIII, Issue 4, April 2020. 357-bet.
9. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O‘zbekistonda davlat boshqaruv organlari ish haqi tizimini takomillashtirish masalalari. *Pedagogs jurnali*, 35(4), 128–138.
10. Shernaev, A.A. (2020). Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash tizimida soliq rejalashtirish. *Internauka: ilmiy jurnal*, № 12(141), qism 2. Moskva, “Internauka” nashriyoti, 43–45-betlar.
11. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo‘llari. *Science and Education*, 4(6), 881–887. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100
12. Shernaev, A. A. (n.d.). Aksiyadorlik jamiyatida ichki soliq nazorati tizimini tashkil etish tamoyillari va usullari. *International Journal of Economics, Business and Management Studies*, ISSN 2347-4378.
13. Jumaniyazov, I. T. (n.d.). O‘zbekiston rekonstruksiya va taraqqiyot jamg‘armasining moliyaviy kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’siri. *International Journal of Economics, Commerce and Management, UK*. ISSN 2348-0386.
14. Shernaev, A. A. (2020). Aksiyadorlik jamiyatlarida soliq rejalashtirishni takomillashtirish – moliyaviy menejment samaradorligini oshirish mexanizmi sifatida. *Iqtisodiyot va jamiyat*, (4), 20–28.
15. Jumaniyazov, I. (2020). Suveren jamg‘armalar faoliyatida xorijiy tajriba. *International Finance and Accounting*, 2020(2), 1.

16. Idar, R. (2012). Bozor yo‘nalishining strategik rejalashtirish amaliyotlari va natijadorlik munosabatiga vositachi sifatida ta’siri: Malayziya KOBlaridan dalillar / R. Idar, Y. Yusoff, R. Mahmood. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro konferensiya: «Innovatsiya va barqarorlik» (ICSMED 2012). *Procedia Economics and Finance*, № 4, 2012, 68–75-betlar.
17. Jumaniyazov, I. T. (2019). O‘zbekiston rekonstruksiya va taraqqiyot jamg‘armasi xarajatlarining YAIM o‘sishiga ta’siri. *Science, research, development*, №16. Monografiya (konferensiya materiallari).
18. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). Ijtimoiy sug‘urtaning ijtimoiy himoyadagi ahamiyati. *Science and Education*, 4(1), 1033–1043. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941
19. Inomjon, J. (2023). Gender byudjetlashtirishda davlat moliyaviy nazoratining o‘rni. *Ta’lim yangiliklari: XXI asr tadqiqotlari*, 1(6), 1187–1191.
20. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari. *Science and Education*, 4(2), 1509–1516. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237
21. Jumaniyazov, I. T., & Islomov, A. (2023). O‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiyani takomillashtirish istiqbollari. *Pedagogs jurnali*, 35(4), 121–127.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА НЕДВИЖИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА ПОСЛЕ ПРИНЯТИЯ ЗАКОНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН «О РИЭЛТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ»

Мирзарахманов Фаррух Сапарали угли
Стажер-исследователь, Центра исследования проблем приватизации и управления государственными активами
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288856

Аннотация. *Статья оценивает перспективы рынка недвижимости Узбекистана после принятия нового Закона Республики Узбекистан «О риэлторской деятельности». Закон создаёт нормативные предпосылки для цифровизации и безопасных расчётов. Предлагаются обновления НСРУ-3, НСРУ-2, НСРУ-1 и разработка стандарта МЛС для запуска этих инструментов. Ожидается сокращение неформального посредничества, ускорение сделок и рост прозрачности цен при сохранении правовой защиты.*

Ключевые слова: *рынок недвижимости, риэлторская деятельность, НСРУ-1, НСРУ-2, НСРУ-3, мультилистинговые системы МЛС, электронные торги, электронный документооборот, электронная подпись, безопасные расчёты, цифровизация, комплаенс KYC AML, прозрачность цен.*

Рынок недвижимости Узбекистана — значимый сектор экономики, влияющий на инвестиции, занятость и доступность жилья, его устойчивость определяется прозрачностью процедур и профессиональным уровнем посредников. Принятие нового

Закона Республики Узбекистан «О риэлторской деятельности» (одобренного Законодательной палатой Олий Мажлиса 1 июля текущего года) формирует более организованную отрасль, закрепляет публичный статус участников через единый реестр, вводит подтверждение квалификации специалистов и укрепляет механизмы саморегулирования. Одновременно закон создаёт нормативные предпосылки для поступательного развития цифровых механизмов совершения сделок — мультилистинговых систем (МЛС), электронного документооборота в риэлторских организациях, безопасных расчётов между участниками и интеграций с государственными реестрами.

Однако фактический запуск данных механизмов потребует разработки ряда подзаконных актов, технологических интеграций и организационной готовности рынка.

Для практической реализации предусмотренных законом возможностей необходимо последовательно обновить действующие стандарты и закрепить в них цифровые процессы. Речь идёт не о декларациях, а о чётких правилах, форматах данных и процедурах, которые позволят рынку безопасно перейти к электронным сделкам.

Комплексную актуализацию необходимо начать с переработки НСРУ-3 «Организация торгов объектами недвижимости и правами на них» с закреплением электронных торгов (онлайн-аукционы и конкурсы), удалённой идентификации, применения ЭЦП на юридически значимых действиях, электронного документооборота, безопасных расчётов (эскроу/аккредитив), логирования и открытых API, продолжить цифровизацией НСРУ-2 «Информационные и консультационные услуги на рынке недвижимости», унифицировав раскрытие информации об объектах, классификаторы и машиночитаемые форматы, правила дистанционных консультаций и интеграции через API, завершить выпуском обновлённого НСРУ-1, который установит единые сквозные требования к внутренним правилам и внутреннему контролю качества, включая цифровые процессы и безопасность, обязательные для всех профессиональных участников рынка недвижимости.

Параллельно потребуется разработка отдельного Национального стандарта мультилистинговых систем, задающего единые правила для публикации объектов, обмена данными и интеграций. Такой пакет документов создаст нормативную основу для мультилистинга, электронного документооборота, безопасных расчётов и прозрачного контроля качества, а также снизит правовые и операционные риски.

Переработка НСРУ-3 должна закрепить полноценную модель электронных торгов. В новой редакции разумно прописать отдельные режимы проведения торгов (электронный аукцион, электронный конкурс), базовые требования к площадке (доступность, резервирование, защита персональных данных), а также единые правила аутентификации участников. Для допусков к торгам следует предусмотреть дистанционную идентификацию с использованием национальных средств электронной подписи и проверок по документам, а также риск-ориентированные процедуры KYC/AML для участников, действующих от имени третьих лиц.

Юридически значимые действия — подача заявки, внесение задатка, подтверждение участия, формирование протокола торгов, заключение договора — должны выполняться с применением квалифицированной электронной подписи и сопровождаться отметкой времени и неизменяемыми журналами событий. Это обеспечит

проверяемость волеизъявления сторон, целостность данных и возможность последующего аудита.

Логика электронных торгов требует единых правил «времени сервера» как единственного источника истины при сопоставлении ставок и сроков, а также регламента работы при форс-мажорах (сбой связи, недоступность площадки, отмена или перенос торгов).

Цифровизация НСРУ-2 должна унифицировать раскрытие информации и консультирование в электронных каналах. Для объявлений и карточек объектов целесообразно определить обязательный набор полей имеющих значения для потребителя риэлторских услуг (тип объекта, адрес и координаты, площадь, планировка, этажность, год постройки и состояние, кадастровые сведения, права и обременения, коммунальная инфраструктура и условия сделки. Стандарт должен включать и требования к качеству контента (например, разрешение фотографий, наличие поэтажных планов, 3D-туров при их наличии), а также правила указания источников данных и интервалов обновления. Потребуется единый словарь классификаторов — типы объектов, статусы сделки, виды прав, виды обременений, классы энергоэффективности, типы конструктивных элементов — с их машиночитаемыми кодами, чтобы карточка объекта выглядела одинаково и в МЛС, и в банковской системе, и при необходимости на портале госуслуг.

В дистанционном консультировании важно формализовать каналы (чат, аудио, видео), зафиксировать правила получения и хранения согласий клиента на обработку данных, определить, какие вопросы могут решаться удалённо (включая проверку базовых сведений) и какие требуют очного присутствия. Стандарт должен задать требования к хранению переписки и записей — сроки, форматы, резервное копирование, доступ по ролям — и ввести метрики качества, время ответа, доля исправлений в карточках, доля подтверждённых сведений, удовлетворённость клиентов по результатам консультации. Для обмена данными следует закрепить машиночитаемые форматы (например, JSON-схемы) и базовые принципы API-взаимодействия, включая авторизацию, лимиты и уведомления об изменениях. Это позволит подключать внешние сервисы и МЛС, не дублируя ручной труд.

Новая редакция НСРУ-1 должна закрепить обязательные требования к внутренним правилам контроля качества риэлторских организаций в цифровой среде, описать последовательность этапов сделки (первичная проверка объекта и клиента, оценка рисков, подготовка и согласование документов, подписание, расчёты, госрегистрация, постсделочный контроль), определить для каждого этапа создаваемые документы и записи, распределение ответственности (кто выполняет, кто отвечает, кого консультируют и информируют), критерии качества и сроки. Внутренние правила должны включать чек-листы KYC/AML с минимальными проверками и признаками повышенного риска, порядок обработки персональных данных (основания и цели, сроки хранения, доступ по ролям, минимизация), требования к электронному архиву (форматы, индексирование, резервное копирование, контроль целостности, сроки хранения и безопасное удаление) и ведение аудит-трейлов, фиксирующих действия сотрудников с документами.

Необходимо установить квалификационные требования к персоналу по ЭДО, ЭЦП и защите данных, предусмотреть регулярное обучение и тестирование, поддерживать актуальный банк вопросов и регламент независимого внутреннего аудита качества с обязательными корректирующими действиями.

Отдельный отраслевой стандарт мультилистинговых систем должен зафиксировать термины, роли и правила игры, чтобы МЛС стала не просто «большой доской объявлений», а инфраструктурой обмена проверяемыми данными. В стандарте необходимо определить роли участников (риэлтор-покупатель, риэлтор-продавец, риэлтор-арендатор, риэлтор-арендодатель, администратор платформы и др.) и их ответственность, минимальную модель данных карточки с версионированием изменений, жизненный цикл статусов (новый, активный, под офертой, снят, реализован) и условия перехода между ними, правила публикации и модерации (подтверждение права на размещение, недопустимость дублей, признаки недостоверности, сроки действия объявлений).

Модель открытости и обмена данными должна строиться на документированных интерфейсах, публичные или партнёрские API с описанными ресурсами, фильтрами и вебхуками для событий, чёткая аутентификация и авторизация, лимиты и логирование запросов, версии API и правила обратной совместимости. Важно заранее задать принципы ранжирования и маркетации карточек, чтобы исключить манипуляции выдачей, так как, пользователи должны понимать, почему одни объекты показываются выше других, и иметь доступ к механизму оспаривания.

Для защиты данных потребуются требования по шифрованию «в передаче» и «на хранении», сегментации доступов, управлению ключами, журналированию событий безопасности и реагированию на инциденты. В документе должны быть предусмотрены локализация — двуязычие (узбекский/русский), единый формат адреса, часовой пояс Asia/Tashkent и метки времени в ISO-8601 — должна быть зафиксирована как часть обязательных требований.

Для согласованной работы всех элементов нужна переходная архитектура и поэтапный план внедрения. В период начального запуска важно обеспечить обучение кадров. Для этого целесообразно разработать краткие курсы повышения квалификации для профессиональных участников рынка недвижимости, а также внедрить систему тестирования по обновлённым стандартам.

По мере масштабирования цифровых процессов нельзя забывать о потребителях. Нужно обеспечить понятную коммуникацию, сервисы «проверь риэлторскую организацию или риэлтора в реестре», доступные памятки о безопасной сделке, стандартизованные «краткие паспорта объекта» с набором подтверждённых полей, единые пиктограммы и термины. Важно предусмотреть доступность сервисов для людей с ограниченными возможностями, а также адаптацию интерфейсов к мобильным устройствам. Наличие единых форм и понятных шагов уменьшит число ошибок и снизит нагрузку на модерацию.

Управление рисками — отдельная линия работы. Риск формального выполнения требований без реальных изменений снижается привязкой допуска к торгам и ряду госуслуг к статусу в реестре и фактическому выполнению обновлённых стандартов. Технические риски минимизируются через обязательные аттестации площадок, независимые тесты на отказоустойчивость и безопасность, а также регулярные проверки журналов событий. Юридические риски снижаются типовыми оговорками в электронных документах и понятной процедурой апелляций. Репутационные риски рынка уменьшаются благодаря прозрачным метрикам качества и регулярной публикации агрегированной статистики.

Ожидаемый эффект нормативного обновления проявится поэтапно и будет подтверждаться измеримыми показателями. По завершении переработки НСРУ-3, обновления НСРУ-2, принятия новой редакции НСРУ-1 и утверждения отраслевого стандарта МЛС рынок получит согласованный цифровой регламент с проверяемыми статусами участников через реестр, сопоставимыми и верифицируемыми карточками объектов, прозрачными и прослеживаемыми процедурами сделки от оферты до регистрации, защищённые расчёты и надёжный электронный архив. Это создаст условия для уменьшения доли неформального посредничества, сокращения сроков прохождения сделок и повышения прозрачности ценообразования при сохранении правовой защиты сторон. При подкреплении правовой рамки подзаконными актами, технологическими интеграциями (включая взаимодействие с государственными реестрами и платёжной инфраструктурой) и организационной готовностью участников закон начнёт работать как практический инструмент развития рынка.

ОСОБЕННОСТИ ЭКОСИСТЕМЫ ВУЗОВ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

Мурадова Наргиза Улжаевна
Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё, д.ф.э.н., доцент
https://doi.org/10.5281/zenodo.17288871

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности формирования и функционирования экосистемы вузов в цифровой среде. Теоретически обосновано понимание экосистемного подхода, включающего интеграцию образовательных, исследовательских, управленческих и маркетинговых процессов в рамках единого цифрового пространства. Отмечено, что цифровая экосистема вуза является не только технологической платформой, но и стратегическим инструментом трансформации высшего образования. На основе анализа отечественных и зарубежных исследований показано, что цифровые кампусы, национальные консорциумы и сетевые образовательные программы способствуют развитию гибких траекторий обучения и повышению конкурентоспособности вузов. Особое внимание уделено роли маркетинговых стратегий, включая цифровой брендинг, SMM-коммуникации и использование аналитических инструментов, обеспечивающих укрепление имиджа и формирование устойчивых отношений с целевыми аудиториями. Сделан вывод о том, что интеграция маркетинга в цифровую экосистему вуза является ключевым условием её успешного функционирования и повышения конкурентоспособности в глобальной образовательной среде.*

Ключевые слова: *цифровая экосистема, вуз, цифровая среда, открытая экосистема, безопасность, цифровая инфраструктура, цифровой кампус, образовательная траектория, педагогический потенциал, пандемия COVID-19, маркетинговые стратегии, SMM-коммуникации, бренд-менеджмент, KPI, SMM-метрики, цифровой бренд, контент-маркетинг, CusDev, Kano.*

Современные вузы переживают радикальные трансформации под влиянием цифровизации. Традиционная модель вуза как изолированного образовательного института сменяется концепцией цифровой экосистемы, в которой образовательные, исследовательские, управленческие и социальные компоненты объединяются в едином цифровом пространстве. Такая экосистема формируется за счёт интеграции онлайн-платформ, облачных сервисов, цифровых коммуникаций и инновационных педагогических практик, обеспечивая устойчивое развитие вуза и его конкурентоспособность в глобальной образовательной среде.

С теоретической точки зрения экосистема вуза в цифровом измерении определяется как совокупность взаимосвязанных элементов — студентов, преподавателей, административного аппарата, партнёров, а также цифровых технологий, объединённых единой инфраструктурой. Исследователи подчёркивают, что цифровая экосистема выступает не просто инструментом автоматизации, но и средством стратегической трансформации вуза, способствующим перестройке процессов обучения, научной деятельности и управления.[1; 2] Важным элементом здесь является открытость: вузы всё чаще формируют «открытые экосистемы», основанные на взаимодействии с внешними партнёрами, бизнес-структурами и государственными институтами. В такой системе особое значение приобретает безопасность, указывающими на необходимость защиты персональных данных, формирования культуры кибербезопасности и устойчивости цифровой инфраструктуры. [3]

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, миллий иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг молиявий механизмларининг амалиёти таҳлили шуни кўрсатадики, биринчидан Ўзбекистонда яратилган инвестиция муҳити жозибадорлигининг пастлиги, иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг молиявий механизмларининг асосий усуллари бўлган тўғридан-тўғри ва портфель хорижий инвестициялар ҳажмининг биз кутган даражада эмаслигидан ҳамда ушбу хорижий инвестицияларнинг самарали йўналтирилишида ҳам муаммолар борлиги юзага чиқади. Хусусан, юқори технологияли ишлаб чиқариш (шу жумладан, қайта ишлаш) ва илмталаб соҳаларга хорижий инвестицияларни жалб қилишда сустқашлик кузатилади. Иккинчидан, ҳудудлар

[34] Муаллиф ишланмаси.

ижтимоий-иқтисодий салоҳиятининг турли даражада эканлиги, умумий инфратузилманинг ривожланмаганлиги, айниқса энергия таъминотидаги узилишлар иқтисодий ривожланишга тўсқинлик қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. UNCTAD. Отчёт о мировых инвестициях 2024 год. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_overview_ru.pdf
2. Ўзбекистон Республикасининг 25 декабр 2019 йилдаги «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти» тўғрисидаги ЎРҚ-598 сон қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон-2030» стратегияси тўғрисидаги фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600413

BANK-MOLIYA SEKTORIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISHDA BOSHQARUV HISOBIDA BYUDJETLASHTIRISHNING “BEYOND BUDGETING” YONDOSHUVIDAN FOYDALANISH

Soatov Farhod Komiljon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktorantura talabasi (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17317563

Annotatsiya. *Bank-moliya sektori bugungi kunda tez o‘zgaruvchan global iqtisodiy muhitda faoliyat yuritmoqda. Foiz stavkalari o‘zgarishi, raqobatning kuchayishi, texnologik innovatsiyalar va tartibga soluvchi talablar banklarni strategik rejalashtirishni moslashuvchan va samarali tarzda amalga oshirishga majbur qilmoqda. An’anaviy byudjetlashtirish usullari ko‘pincha bu dinamikaga mos kelmaydi, chunki ular o‘zgarmas chegaralar va yillik rejalarga asoslangan. Shu bois, "Beyond Budgeting" yondashuvi – byudjetlashtirishdan tashqariga chiqish – boshqaruv hisobida muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu yondashuv banklarga strategik maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda moslashuvchanlik, tez qaror qabul qilish va xodimlar motivatsiyasini oshirish imkonini beradi. Ushbu maqola "Beyond Budgeting" konsepsiyasini tushuntirib, uning bank-moliya sektoridagi qo‘llanilishini ko‘rib chiqadi, afzallik va qiyinchiliklarini muhokama qiladi.*

Kalit so‘zlar: *“Beyond budgeting”, byudjetlashtirish, pragnoz, rejalashtirish, markazlashgan, innovatsiya.*

Asosiy qism

"Beyond Budgeting" – bu an’anaviy byudjetlashtirish jarayonlaridan voz kechib, kompaniyani boshqarishni yaxshilashga qaratilgan g‘oya. U 1990-yillarning oxirida Beyond Budgeting Round Table (BBRT) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, Bjarte Bogsnes kabi ekspertlar tomonidan targ‘ib qilingan. Ushbu yondashuv kompaniyalarni qoliplashgan byudjetlardan ozod qilib, dinamik va moslashuvchan boshqaruv tizimini joriy etadi[1]. Bjarte Bogsnes moliya va inson resurslari sohasida uzoq yillik xalqaro karyeraga ega bo‘lib, “Beyond Budgeting” yondoshuvining tadbiqchilaridan biridir. U Norvegiyaning eng yirik kompaniyalaridan biri bo‘lgan Equinor (sobiq Statoil) da “Beyond Budgeting” tamoyillarini

joriy etishda muhim rol o‘ynadi. Bu tamoyillar o‘zgarmas byudjetlardan voz kechib, moslashuvchan boshqaruv, jamoalarga ishonch va doimiy yaxshilanishni ta’minlashga yordam berdi.

Beyond Budgeting yondashuvi kompaniya maqsadini pragnoz qilish va resurslarni taqsimlash jarayonlaridan alohida ko‘rib chiqadi hamda har yili tuziladigan byudjet o‘rniga uzluksiz va doimiy yangilanib turadigan rejalashtirish jarayonini taklif qiladi. Beyond Budgeting kompaniyalarning moliyaviy rejalashtirish va samaradorlikni boshqarish uslublarida o‘zgacha yondoshuvni tadbiq etadi. Ushbu falsafa an’anaviy byudjetlashtirishning qat’iy, byudjetlashtirish va rejalashtirishning markazlashgan yondashuvlaridan voz kechib, moslashuvchan, markazlashtirilmagan va iqtisodiy holatga mos strategiyani qo‘llashga intiladi.

Bu transformatsion yondashuv an’anaviy byudjetlashtirishning cheklovlarini bartaraf etib — ya’ni maqsad belgilash, bashorat qilish va resurslarni taqsimlash jarayonlarini bir-biridan ajratib ko‘rib chiqadi va har bir bosqich uchun maxsus vosita va metodlarni joriy etadi. Bunday segmentatsiya (ajratilgan yondashuv) — moliyaviy boshqaruvda ochiqlik, aniqlik va etik tamoyillarga asoslangan yondashuvni ta’minlaydi. U xodimlar va bo‘linmalarga ko‘proq mustaqillik beradi, qaror qabul qilishni tezlashdiradi va muvaffaqiyatni faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki mijozlar qoniqishi, xodimlar motivatsiyasi va uzoq muddatli barqarorlik bilan baholaydi. Bank sektorida bu yondashuv bozor o‘zgarishlariga tez moslashish va samaradorlikni oshirish uchun ishlatiladi.

“Beyond Budgeting”ni joriy etish rahbarlardan noaniqlikni qabul qilish, jamoalarga ishonish va doimiy moslashishni talab qiladi. Bu an’anaviy boshqaruvdan qiyinroq, lekin kompaniyaning to‘liq salohiyatini ochadi, xodimlar ijodkorligini oshiradi va doimiy yaxshilanishni ta’minlaydi. Banklarda bu mijozlar sadoqati va samaradorlikni oshiradi.

Yondashuvning asosiy tamoyillari ikki qismga bo‘linadi: boshqaruv va operatsion faoliyat. *Boshqaruv tamoyillari quyidagilar:*

- Maqsadlar: Absolyut emas, balki nisbiy maqsadlar qo‘yish (masalan, raqobatchilarga nisbatan);
- Motivatsiya: Xodimlarning ichki motivatsiyasini rag‘batlantirish, bonuslarni byudjetga bog‘lamasdan amalga oshirish;
- Boshqaruv: Markazlashgan emas, balki mas’uliyatni taqsimlash;
- Resurslar: Resurslarni dinamik taqsimlash, o‘zgarmas byudjet cheklovlarisiz;
- Mijozlar: Mijozlar ehtiyojlariga asoslangan qarorlar;
- Shaffoflik: Ma’lumotlarning ochiqligi va ishonchlilik.

Operatsion faoliyat tamoyillari esa:

- Rejalashtirish: Doimiy rejalashtirish (rolling forecasts);
- Baholash: Doimiy va ko‘p tomonlama baholash;
- Nazorat: O‘z-o‘zini nazorat qilish;
- Resurslar: Talab bo‘yicha resurslar taqsimoti;
- Koordinatsiya: Bozor mexanizmlariga asoslangan;
- Maqsadlar: Nisbiy va moslashuvchan.

Ushbu tamoyillar kompaniyani moslashuvchan qiladi, ayniqsa noaniq va o‘zgaruvchanlik sharoitlarida.

An’anaviy byudjetlashtirishning kamchiliklari


An’anaviy byudjetlashtirish yillik rejalarga asoslanib, xarajatlarni tasdiqlangan byudjetga nisbatan nazorat qiladi. Biroq, bank sektorida bu usul quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- Moslashuvchanlikning yo‘qligi: Bozor o‘zgarishlari (masalan, valyuta kurslari yoki foiz stavkalari) byudjet aktualligini yo‘qotadi.
- Vaqt sarfi: Byudjet tayyorlash ko‘p vaqt oladi, lekin tez fursatda foydasiz bo‘lib qoladi.
- Noto‘g‘ri motivatsiya: Xodimlar byudjet cheklovlari tufayli innovatsiyalardan qochadi yoki manipulyatsiya (o‘z manfaatlari doirasida raqamlarni oshirib yoki kamaytirib ko‘rsatish) qilishlari mumkin.
- Markazlashgan nazorat: Qarorlar yuqoridan pastga tushadi, bu esa faoliyat samaradorligini va biznes jarayonlari tezligini pasaytiradi[2].

Banklarda, masalan, kredit risklari yoki mijozlar oqimi o‘zgarishi byudjet ko‘rsatkichlarini buzishi mumkin, natijada strategik rejalashtirish samarasiz bo‘lib qoladi.

Bank-moliya sektori “Beyond Budgeting” uchun ideal, chunki u dinamik va riskli muhitda ishlaydi. Ushbu yondashuv strategik rejalashtirishni boshqaruv hisobi bilan birlashtirib, banklar faoliyatida quyidagilarni ta’minlaydi:

- Doimiy prognozlar: Yillik byudjet o‘rniga, doimiy yangilanadigan prognozlar (rolling forecasts) ishlatiladi. Masalan, banklar foiz stavkalari o‘zgarishini tezda hisobga olib, resurslarni qayta taqsimlay oladilar;
- Desentralizatsiya: Filiallar yoki bo‘limlar o‘z mas’uliyatini oshiradi, markaziy nazorat kamayadi. Shvedsiyaning Handelsbanken banki bu yondashuvni muvaffaqiyatli qo‘llagan: ular byudjetdan voz kechib, filiallarning avtonomiyasini oshirgan, natijada rentabellik yuqori bo‘lgan[3];
- Risk Boshqaruvi: Banklar risklarni real vaqtda baholaydi, bu Basel qoidalari talablariga mos keladi;
- Innovatsiyalar: Fintech va raqamli bankingda moslashuvchanlik muhim. “Beyond Budgeting” xodimlarga tez tajribalar o‘tkazish imkonini beradi.



1-rasm. “Beyond budgeting”ni amalga oshirishdagi 3 bosqichli yondoshuv.

Afzalliklar:

- Tez qaror qabul qilish va bozorga moslashish;

- Xodimlar motivatsiyasi oshishi, natijada innovatsiyalar ko‘payishi;
- Xarajatlarni samarali boshqarish va resurslar optimizatsiyasi;
- Bankning umumiy rentabelligi va mijozlar qoniqishini oshirish.

Qiyinchiliklar:

- Kompaniya madaniyatini o‘zgartirish qiyin, chunki an’anaviy byudjetga odatlangan xodimlar qarshilik ko‘rsatishi mumkin;
- Shaffoflik va nazoratni ta’minlash uchun yangi tizimlar (masalan, IT vositalari) kerak;
- Ba’zi banklarda byudjetni qayta joriy etish holatlari bo‘lgan, chunki to‘liq voz kechish har doim ham mos kelmaydi.

Xulosa

“Beyond Budgeting” yondashuvi bank-moliya sektorida strategik rejalashtirishni tubdan o‘zgartirishi mumkin, an’anaviy byudjetning cheklovlaridan ozod qilib, moslashuvchan va innovatsion tizimni yaratadi. Banklar uchun bu nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshiradi, balki global raqobatda ustunlik beradi. Ammo muvaffaqiyat kompaniya rahbariyati va madaniyatiga bog‘liq. Kelajakda ko‘proq banklar bu yondashuvni qo‘llashi kutilmoqda, chunki iqtisodiy noaniqlik kuchaymoqda. An’anaviy byudjetlar yangilik va tez moslashishga to‘sqinlik qiladi. Bjarte Bogsnesning “Beyond Budgeting” g‘oyasi moslashuvchan va erkin moliyaviy boshqaruvni taklif qiladi. Bu bozor o‘zgarishlariga tez javob berishga va kompaniya ichida ishonchli madaniyat yaratishga yordam beradi. Rahbarlar jamoalarga erkinlik berib, maqsadlarni, prognozlarni va resurslarni alohida boshqaradi, shunda o‘zgarmas yillik byudjetlardan qochib, dinamik va raqobatbardosh bo‘lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jeff Schmidt. “Beyond Budgeting” - yuqori darajada markazlashmagan tashkiliy tizim va boshqaruv jarayonlarining moslashuvchan to‘plamini yaratishga qaratilgan qolip. https://corporatefinanceinstitute.com/resources/fpa/beyond-budgeting/
2. Selda Schretzmann, Sohrab Salimi. Beyond budgeting: An’anaviy moliyaviy jarayonlarni o‘zgartirish. 2024. https://www.agile-academy.com/en/agile-leader/beyond-budgeting-transforming-traditional-financial-practices/
3. Per Nikolaj Bukh, Amalie Ringgaard and Niels Sandalgaard. Moving beyond Beyond Budgeting: A Case Study of the Dynamic Interrelationships between Budgets and Forecasts. European Accounting Review, 2025Vol. 34, No. 3, 1221–1247, https://doi.org/10.1080/09638180.2024.2362681
4. Matilde Delzanno, Yasin Ayranci. Beyond budgeting: The effect of reallocating resources towards agility in an uncertain world. Stockholm School of Economics Department of Accounting and Financial Management.
5. Soatov Farhod Komiljon o‘g‘li. Beyond Budgeting for Adaptive Financial Management inUzbekistan’s Banking Sector. Academia OpenVol 10 No 1 (2025): June DOI: 10.21070/acopen.10.2025.10769. Article type: (Business and Economics)

ФОРМИРОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ БИЗНЕС_СРЕДЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ВЫЗОВОВ

Соколинская Татьяна Владимировна
Белорусский государственный технологический университет, старший преподаватель
https://doi.org/10.5281/zenodo.17317575

***Аннотация**: В статье представлены результаты исследования, целью которого являлось определение основных проблем и направлений улучшения бизнес-климата регионов, позволяющих активизировать деятельность местных органов власти по поддержке малого и среднего бизнеса с учетом особенностей развития территорий. Предметом данного исследования являются новые методологические подходы к оценке деловой среды страну, условия и факторы, формирующие деловой климат региона.*
***Ключевые слова**: предпринимательство, бизнес-среда, рейтинг, национальная экономика, устойчивое развитие, инновации, цифровизация.*

Формирование эффективной бизнес-среды объективно требует оптимальных подходов к нахождению приемлемых вариантов развития рыночной системы хозяйствования в специфических условиях каждой страны, что, в свою очередь, требует сосредоточения усилий по поиску направлений обеспечения устойчивого развития национальных экономик. Одним из важнейших условий является рейтинговый подход нахождения механизмов успешного развития и управления бизнес-климатом Исследование теоретико-методологических основ позволяют выявить наиболее сильные и слабые стороны бизнеса в условиях глобальных вызовов, неопределенности развития.

Исследование проблем бизнеса основывается на принципах оптимизации сложных экономических явлений многоуровневого характера, затрагивающего всю организационно-управленческую составляющую рыночного хозяйства и его неопределенность. Особую остроту проблеме придает тот факт, что неустойчивость и неопределенность рыночного процесса в специфических условиях обострения глобальных вызовов и внешнеэкономических противоречий характеризуется повышенным интересом и необходимостью дальнейшего исследования факторов, благоприятствующих инвестиционной активности экономических субъектов. Целью исследования многочисленных международных исследований является формирование эффективной бизнес среды и выработка практических рекомендаций по преодолению рыночной неопределенности.

Понятие «бизнес-климат» (предпринимательский климат, деловой климат) появилось в экономической литературе сравнительно недавно. Нередко между понятиями «бизнес климат» и «бизнес-среда» ставится знак равенства, в связи с пониманием их как совокупности условий и факторов, определяющих возможности для развития предпринимательства [1].

В зарубежной практике при оценке деловой активности на национальном уровне наибольшую популярность и применимость приобрел рейтинг Всемирного Банка «Ведение бизнеса» (Doing Business, DB). Однако для повышения конкурентоспособности национальной экономики, создания привлекательного инвестиционного климата,

стимулирования развития предпринимательства на современном этапе следует учитывать новые тенденции оценки бизнес-среды, предлагаемые Всемирным Банком в значительно доработанном обновленном рейтинге «Готовность бизнеса» (Business Ready,BR), сменившем знаменитую прежнюю версию.

Публикация отчетов была прекращена в 2021 году, после того как аудит обнаружил искажения данных отчетов за последние годы. В мае 2023 года Всемирный Банк опубликовал новую методологию исследований, а в 2024 первый обновленный отчет под новым названием Business Ready (B-READY) [2,3].

Цель проекта отражена в его названии - сделать экономическую среду каждой страны готовой для динамичного частного сектора. Название подчеркивает тот факт, что экономики находятся на разных стадиях готовности и что правительства играют ключевую роль в создании деловой среды, благоприятной для устойчивого развития

Следует отметить, что в настоящее время B-READY находится на начальной стадии трехлетнего этапа развертывания, в ходе которого будет дорабатываться методология и расширяться география обследуемых стран. Этот этап охватывает период с 2024 по 2026 год. Отчет за 2024 год являлся первым из трех базисных начальных отчетов и включает 50 национальных экономик. Второй отчет ожидается в октябре 2025 года, он будет охватывать более 100 экономик. Третий отчет, который планируется опубликовать в сентябре 2026 года, будет содержать анализ почти 180 экономик. Он завершит этап развертывания проекта и создаст полноценный глобальный эталон для дальнейших исследований. При этом, если проект «Doing Business» был сосредоточен на оценке деловой среды для малых и средних предприятий, проект «B-READY» уже преследует более глобальную цель: он нацелен на развитие частного сектора в целом [2].

По данным Всемирного Банка, в 2022-2023 годах частный сектор обеспечивал около 90 процентов рабочих мест, 75 процентов инвестиций, более 70 процентов производства и более 80 процентов государственных доходов в развивающихся странах. Однако после мирового финансового кризиса 2008–2009 годов его развитие замедлилось. В период с 2023 по 2024 год темп роста инвестиций на душу населения составил в среднем всего 3,7 процента, тогда как в предыдущие два десятилетия он был вдвое выше [3].

Условием жизнеспособности нового плана преодоления барьеров развития должна стать особая модель развития частного сектора – обеспечивающая мобилизацию частного капитала и приносящая максимум выгод компаниям, предпринимателям, работникам и обществу в целом.

Общий методологический подход остался неизменным: оценка направлена на выявление процедурных и процессуальных сложностей ведения бизнеса на различных этапах жизненного цикла предприятий. Показатели рейтинга сгруппированы в десять тем: регистрация предприятия, размещение бизнеса, подключение к коммунальным сетям, трудовые отношения, финансовые услуги, международная торговля, налогообложение, разрешение споров, рыночная конкуренция и несостоятельность (банкротство). Каждая тема рассматривается в трех аспектах и учитывает:

-подготовленность законодательной базы,

-нормативы оказания государственных услуг,

-фактические временные и финансовые затраты предпринимателей на каждом из соответствующих этапов (операционная эффективность) [2].

Такой подход позволяет определить величину административных издержек ведения бизнеса по каждой стране и региону в целом на основе учета числа обязательных процедур, их стоимости и времени, необходимого для их осуществления.

Аналитическая концепция обновленного проекта Business Ready исходит из признания того, что здоровая бизнес-среда – это нечто большее, чем «легкость ведения бизнеса». Она учитывает возможность того, что снижение «издержек ведения бизнеса» может непреднамеренно вызвать повышение издержек для общества в целом. Соответственно, в рамках этого проекта оценивается не только административное бремя компаний – например, сколько времени требуется для открытия нового бизнеса, – но и качество нормативного регулирования.

Помимо оценки правил и норм, регулирующих ведение бизнеса, Business Ready изучает государственные услуги, необходимые для воплощения замыслов в реальность. Оценивается надежность работы коммунальных служб по водо- и электроснабжению предприятий, соблюдения экологических и социальных гарантий, предоставления публичные баз данных, способствующих прозрачности и свободному обмену информацией для здорового делового климата

Новый проект выходит за рамки узконаправленного измерения того, насколько легко вести бизнес в различных регионах: теперь оценка включает целый спектр социальных аспектов функционирования предпринимательства, от права на коллективные переговоры для работников до уровня достижения целей устойчивого развития. Сквозными темами исследования становятся:

-устойчивость (экологические стандарты, адаптация к климатическим изменениям);

-инклюзивность (гендерное равенство, поддержка малого бизнеса);

-цифровизация экономики и доступность электронных государственных услуг [3].

Такой подход акцентирует внимание уже не на количественных, а на качественных характеристиках бизнес-среды. Обновленный рейтинг фокусирует внимание на балансе de jure и de facto, создаваемых бизнес-условий. Теперь оценка включает не только законодательные нормы, но и реальные условия их реализации через опросы предпринимателей. Например, учитывается доступность кредитов для женщин или уровень кибербезопасности. При этом данные собираются уже не только по столицам, но и другим регионам, что особенно важно для крупных стран (Россия, Индия, Китай, Бразилия).

B-READY даёт инвесторам более реалистичную картину:

- Позволяет оценить не только регуляторные условия, но и риски (например, кибератаки или перебои с энергоснабжением);
- Выделяет «узкие места» для отраслей (логистика, IT, производство).

Для государств рейтинг становится инструментом стратегического планирования, помогая синхронизировать реформы с целями устойчивого развития (ЦУР ООН), цифровизации и социальной ответственности. При правильном выборе и выверенной последовательности реформы в сфере бизнеса возможно ускорение экономического роста, повышение производительности и в то же время сокращения загрязнения окружающей среды. Это создаст благоприятные условия для нового витка экономического развития, согласованного с принципами экологичности и социальности.

На основе рекомендаций Всемирного Банка предлагается провести комплексное исследование условий ведения бизнеса по новой международной методологии в

национальных экономиках и регионах. Это даст возможность каждой стране выявит сильные и слабые стороны формирующейся деловой среды. Далее на основе полученных результатов по каждому направлению рейтинга и анализа лучших практик предлагается сформировать национальную целевую модель условий ведения бизнеса для страны и регионов, направленную на создание привлекательного инвестиционного климата. Что касается государственной поддержки бизнеса, то она должна быть доступна всем и оказываться быстро, быть максимально автоматизированной и обезличенной. Поэтому особое внимание должно уделяться переводу этих услуг в разряд электронного правительства. И, наконец, программы по развитию регионов должны быть синхронизированы с государственными программами поддержки предпринимательства.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Dollar D., Hallwart-Driemier M., Mengistae T. Investment Climate and Firms Performance in the Development Economies. — World Bank: Economic Development and Cultural Change, 2003. — P. 1–31.
2. Business Ready Methodology Handbook First Edition – Текст электронный - URL: https://thedocs.worldbank.org/en/doc/357a611e3406288528cb1e05b3c7dfda-0540012023/original/B-READY-Methodology-Handbook.pdf (дата доступа 05.09.2025)
3. Business Ready 2024. – Текст: электронный - URL: https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/08942fab-9080-4f37-b7be-ef61c9f9aed9/content (дата доступа: 05.09.2025)

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN G‘AZNACHILIK MONITORINGI: SAMARADORLIK VA NAZORAT MEXANIZMLARINI KUCHAYTIRISH

Shodmonkulova Shahlo Olimjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi tayanch doktaranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17377942

Abstract. *G‘aznachilik faoliyatining samarali monitoringi davlat moliyasining barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida g‘aznachilik jarayonlarini nazorat qilish va boshqarishning sifatli yangi metod va vositalari paydo bo‘lmoqda. Ushbu tadqiqot ishida pul oqimlarini kompleks monitoring qilish tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan axborot texnologiyalarining samaradorligi va ularning nazorat mexanizmlariga qo‘shadigan hissasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *G‘aznachilik, moliyaviy resurslar, pul oqimlari, davlat byudjet mablag‘lari, iqtisodiy barqarorlik, axborot texnologiyalar, g‘aznachilik monitoringi.*

G‘aznachilik – bu davlat moliyaviy resurslariga oid operatsiyalarni boshqarish, qayd etish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonidir. Ushbu tizimning ajralmas qismi bo‘lgan monitoring esa pul oqimlarining shaffofligi, qonuniyligi va samaradorligini ta’minlash imkonini

beradi. Ayniqsa, davlat byudjet mablag‘lari va daromadlari, qarz majburiyatlari va investitsiya operatsiyalari ustidan nazorat tahliliy ishlar natijasida iqtisodiy barqarorlik va davlat siyosatining samaradorligi oshadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, **axborot texnologiyalarining g‘aznachilik monitoringiga integratsiyasi** davlat moliya tizimini boshqarishda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Chunki zamonaviy raqamli yechimlar yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish, real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish va nazoratning aniqligini oshirish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Bu esa g‘aznachilik faoliyatining shaffofligi va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarining kadrlarni avtomatlashtirish, real vaqt rejimida ma’lumotlarga ishlov berish, xatoliklarni kamaytirish kabi imkoniyatlari g‘aznachilik monitoringini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu sohada quyidagi asosiy yondashuv va texnologiyalar samarali hisoblanadi:

- Ma’lumotlarni markazlashtirilgan yig‘ish va integratsiya qilish: Turli moliyaviy tizimlardan real vaqt ichida ma’lumotlar to‘plami tashkil qilinadi va yagona platforma ostida boshqariladi. Bu byudjet, soliq, valyuta va moliyaviy operatsiyalarni kuzatishda aniqlik va tezlikni ta’minlaydi.
- Sun’iy intellekt (SI) va mashinani o‘rganish algoritmlari: SI yordami bilan pul oqimlaridagi anomaliyalar, xatoliklar va firibgarlik holatlarini avtomatik aniqlash mumkin. Bu nazorat sifatini oshiradi va inson omilini kamaytiradi.
- Blokcheyn va ma’lumotlar xavfsizligi: Moliyaviy operatsiyalarni himoyalash va ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash uchun blokcheyn texnologiyasi va kriptografik usullar qo‘llaniladi. Bu davlat moliyaviy resurslari ustidan ishonchni ta’minlash uchun zarur.
- Avtomatlashtirilgan hisobot va audit tizimlari: Hisobotlar va audit jarayonlari avtomatlashtirilib, nazorat organlari uchun real vaqt rejimida to‘liq, aniq va har tomonlama ma’lumotlar taqdim etiladi.

Shunday qilib, axborot texnologiyalariga asoslangan monitoring tizimi davlat g‘aznachilik faoliyatini **tezkor, shaffof va ishonchli** qilish orqali nafaqat samaradorlikni, balki nazorat mexanizmlarini ham keskin kuchaytiradi.

Shu bilan birga, g‘aznachilik tizimida pul oqimlarini monitoring qilish jarayoni o‘ziga xos **murakkablik va komplekslik** bilan ajralib turadi. Chunki davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari, qarz majburiyatlari, investitsiya mablag‘lari hamda subsidiya va grantlar oqimi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir jarayon turli ishtirokchilar – vazirlik va idoralar, moliya institutlari, byudjet tashkilotlari, xalqaro moliya tashkilotlari o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni talab qiladi.

Davlat g‘aznachiligidagi pul oqimlari ko‘p qirrali va ko‘plab tizimlarni qamrab oladi. Har bir operatsiyaning tegishli byudjet chiziqlariga to‘g‘riligini tekshirishdan tortib, moliya oqimidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishgacha bo‘lgan jarayonlarning avtomatlashtirilgan monitoringi murakkab algoritm va ko‘p darajali tekshiruvlarni talab qiladi. Shu bois:

- Ma’lumotlarning turli manbalardan kelishi va formatlari har xil bo‘lishi (masalan, banklar, soliq organlari, davlat agentliklari) tizim integratsiyasini qiyinlashtiradi.
- Pul oqimlarida yuzaga keladigan kechikishlar, muvofiqlik nuqsonlari va xatolarni aniqlash uchun statistika, kompyuter modellashtirish va prognozlash metodlaridan foydalanish zarur.

- Nazorat mexanizmlarida inson omilini minimallashtirish maqsadida imkon qadar avtomatlashtirish jarayonlari joriy etilishi lozim.

Shu nuqtada shuni ta’kidlash lozimki, davlat g‘aznachiligi faoliyatidagi murakkab va ko‘p qirrali pul oqimlari ustidan nazoratni faqat mavjud uslublar bilan cheklab bo‘lmaydi. Zamonaviy iqtisodiy sharoit, global moliyaviy o‘zgarishlar va texnologik rivojlanish monitoring jarayonlarini **yangicha yondashuvlar** asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, inson omilini minimallashtirish, xatoliklarni kamaytirish va jarayonlarning shaffofligini ta’minlash uchun nazorat mexanizmlarini yangilash hamda ularning samaradorligini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Axborot texnologiyalari yordamida g‘aznachilik monitoringini takomillashtirish faqat texnik jihatlar bilan cheklanmaydi, balki tizimlarning yuridik, tashkiliy va kadrlar siyosatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan:

- Yangi normativ-huquqiy bazani shakllantirish: Moliyaviy monitoring tizimlarida axborot xavfsizligi, ma’lumot almashinuvi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qonuniy qoidalar ishlab chiqilishi zarur.
- Professional kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Zamonaviy texnologiyalarni boshqarish, tahlil qilish va xavfsizlikni ta’minlash uchun yuqori malakali mutaxassislarning tayyorlanishi ustuvor vazifa hisoblanadi.
- Keng qamrovli hamkorlik va tizimli fikrlash: Ochiq ma’lumotlar siyosati va davlat, xususiy sektor hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali monitoring samaradorligini oshirish mumkin.
- Inson faktorini kompyuter tizimlari bilan uyg‘unlashtirish: Axborot texnologiyalarining tahliliy imkoniyatlari inson ekspertizasini to‘ldirib, qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtiradi.

Shunday qilib, axborot texnologiyalariga asoslangan g‘aznachilik monitoringi davlat moliya boshqaruvini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida pul oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, ularni tahlil qilish va firibgarlik yoki xatoliklarni oldindan aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa davlat byudjetining shaffofligi va samaradorligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq monitoring jarayonining murakkabligi, ko‘p qirraliligi va tashqi-ichki omillarga sezuvchanligi sababli nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati yanada oshmoqda. Shu nuqtada axborot texnologiyalarini faqat texnik vosita sifatida emas, balki huquqiy, tashkiliy va kadrlar siyosati bilan uyg‘unlashgan holda joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, g‘aznachilik monitoringini yanada samarali qilish uchun quyidagi tavsiya va takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Tavsiya va takliflar jadvali

Yo‘nalish	Tavsiya va takliflar	Kutilayotgan natijalar
Normativ-huquqiy asos	Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va blokcheyn asosida tranzaksiyalarni tartibga soluvchi yangi qonuniy me’yorlarni ishlab chiqish	Monitoring jarayonida huquqiy aniqlik va ma’lumotlarning ishonchliligi ta’minlanadi
Texnologik integratsiya	Banklar, soliq organlari, davlat agentliklari va xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlarini yagona platformada jamlash	Pul oqimlari ustidan kompleks va real vaqt rejimidagi nazoratni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi
Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish	AI va mashinani o‘rganish algoritmlarini joriy etish orqali firibgarlik va xatoliklarni oldindan aniqlash	Nazorat samaradorligi ortadi, inson omili va xatoliklar kamayadi
Kadrlar salohiyati	G‘aznachilik monitoringini boshqarish, tahlil qilish va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish	Yuqori malakali, IT va moliyaviy tahlilni birlashtirgan mutaxassislar yetishtiriladi
Xalqaro hamkorlik	Estoniya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi ilg‘or mamlakatlar tajribasini o‘rganish va qo‘shma loyihalar yaratish	Davlat moliya tizimi xalqaro standartlarga moslashtiriladi va barqarorligi oshadi

Demak, axborot texnologiyalariga asoslangan g‘aznachilik monitoringi nafaqat davlat moliyaviy resurslari ustidan samarali nazoratni ta’minlaydi, balki moliyaviy jinoyatlarning oldini olish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va davlat byudjeti boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida shakllantirilgan ushbu tavsiyalar davlat moliya boshqaruvini raqamli transformatsiya asosida modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Shodmonkulova. Experience of foreign countryies in imporoving the methodology for monitoring cash flows in the treasury. / In volume 2, Issue 12 of Web Scientist: International Scientific research Journal (WOS) December, 2021.
2. Sh. Shodmonkulova. G‘aznachilik tizimining joriy qilinishining davlat moliyasi tizimidagi ahamiyati. International conference on developements in education Hosted from Amsterdam, Netherlands; April, 2022. 350-351b.
3. Sh. Shodmonkulova. FINANCIAL RESOURCES OF THE TREASURY SYSTEM AND ISSUES OF THEIR MANAGEMENT./ Web of Scientist: International Scientific Research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. 493-495p.
4. Sh. Shodmonkulova. G‘AZNACHILIKDA PUL OQIMLARI USTIDAN KOMPLEKS MONITORING QILISH. https://doi.org/10.5281/zenodo.7070762
5. Прокофьев С., Шубина Л. Орасширении функций органов федерального казначейства / Бюджет, 2003. No 9. С. 20-21.

6. Прокофьев С. Казначейская система исполнения бюджета / Бюджет, 2003. No 9. С. 58-60.
7. Sh. Shodmonkulova. Hozirgi bosqichda G‘aznachilik faoliyati samaradorligini oshirishning huquqiy asoslari. 27.03.2023y. 50-53 betlar. 12th- International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Hosted from Berlin, Germany, March. 27th 2023. https://conferencea.org
8. Sh.Shodmonkulova. Davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil etishda g‘aznachilikning mavqei va ahamiyatli jihatlari. 30.03.2023y. 111-113 betlar. “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 7-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. O‘zbekiston. ISSN: 2181-3035. 30.03.2023. www.talqinvatadqiqotlar.uz
9. Sh.Shodmonkulova. G‘aznachilikda pul oqimlarining kompleks monitoringini takomillashtirishda intellektual tizim ilovalari va ularning ahamiyati. 104-105 betlar. “Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU. 16.06.2023y www.scientists.uz
10. Sh.Shodmonkulova. O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reytingda mamlakatning o‘rnini yaxshilashda va davlat hududidagi byudjet xarajatlari samaradorligini oshirishda g‘aznachilik tizimining ahamiyati. 16.11.2023y. 661-663 betlar. The International scientific and practical conference “Improving Uzbekistan’s position in international rating and indexes: theory, practice and strategy” held on November 17, 2023y. https://ilmiyanjumanlar.uz

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА СТРАТЕГИЯЛАР МАТРИЦАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Темиров Абдулазиз Алимжанович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети, и.ф.н., проф.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17399530

Аннотация. Тезисда тижорат банклари фаолият самарадорлигини оширишда стратегиялар матрицаси ва ундан фойдаланиш имкониятлари таҳлил қилинган. Банк бошқарувида бозор шароитига мос бўлган стратегияларни танлаш муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли ҳам стратегиялар матрицаси банклар учун турли ҳолатларда қарорлар қабул қилишда, молиявий барқарорликни кучайтиришда ва корпоратив бошқарув самарадорлигини оширишда методологик восита сифатида хизмат қилади.

Калит сўзлар: тижорат банки, корпоратив бошқарув, ривожланиш стратегияси, стратегиялар матрицаси, бозор муҳити, риск, самарадорлик

Иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги шароитида банк бошқарувининг энг маъсулиятли қисм бўлиб стратегик режалаштириш ҳисобланади. Банк фаолиятини режалаштириш бу банк фаолиятининг молиявий-иқтисодий натижаларини ўрганиш, иқтисодий жараёнларнинг омиллари, тенденциялари ва нисбатларини, шунингдек банкни

ривожлантиришнинг асосли йўналишларини аниқлаш билан боғлиқ бошқарув жараёни бўлиб ҳисобланади.

Молиявий режалаштириш тижорат банкларида банк бошқарув тизими доирасида унинг амалга ошириши керак бўлган вазифалар ҳамда объектларидан келиб чиққан ҳолда турли мазмун ва мақсадли молиявий режаларни тузиш йўли билан амалга оширилади [1]. Бироқ, режа ўзгармас бўлиши мумкин эмас, чунки банк доимо ташқи муҳити боғлиқликда бўлиб, ҳар қандай ташқи ўзгаришларга мослашувчандир, шунингдек у бозор қонунларига мувофиқ ривожланади.

Тижорат банкларида молиявий режалаштириш ва банк фаолияти самарадорлигини ошириш стратегиялари ўртасидаги боғлиқликни стратегиялар матрицаси асосида таҳлил қилиш банк корпоратив бошқарувининг асосий воситаларидан бири ҳисобланади. Тижорат банклари самарали фаолият юритиш, мижозлар эҳтиёжини қондириш ва бозорда барқарор ўрин эгаллаш учун стратегик бошқарув воситаларидан кенг фойдаланиши зарур. Шундай воситалардан бири – стратегиялар матрицаси ҳисобланади.

Стратегиялар матрицаси банкнинг ички имкониятлари ва ташқи бозор шароитларини солиштириб, турли ҳолатларда қайси стратегияни танлашни мақсадга мувофиқлигини кўрсатиб берувчи восита бўлиб ҳисобланади. Мазкур матрицада асосан икки ҳолат - ташқи муҳит ҳолати – бозордаги рақобат, мижозлар талаблари, давлат сиёсатлари, технологик янгиликлар ҳамда ички муҳит ҳолати– банкнинг молиявий барқарорлик, капитал етарлилиги, ресурслар, хизмат кўрсатиш сифати ҳисобга олинади [4].

Тижорат банки фаолияти самарадорлигини ошириш стратегиялари матрицаси банкнинг ташқи ва ички муҳитини баҳолаш асосида унга мос равишда стратегик қарорларни қабул қилишга ёрдам берувчи восита бўлиб ҳисобланади. Бу матрица орқали банк раҳбарияти банкнинг кучли ва заиф жиҳатлари, ташқи имкониятлар ва таҳдидларни ҳисобга олган ҳолда, самарали стратегик йўналишларни белгилайди.

Фикримизча, банкнинг бозордаги мавқеи ва ҳолати бўйича мақсадларига қараб, банк самарадорлигини ошириш стратегиясининг бир нечта вариантларидан бирини танлаши имконияти юзага келиши мумкин. Мазкур танлов таклиф этилаётган стратегик танлов матрицасида банк фаолияти самарадорлигини оширишнинг ички ва ташқи муҳит ҳолатларини ҳисобга олган ҳолда ўз аксини топади [5]. Ўрганишлар асосида банкнинг бозордаги мавқеи ва ҳолати бўйича фаолият самарадорлигини ошириш юзасидан стратегиялар матрицаси ишлаб чиқилди.

Таклиф этилаётган тижорат банки фаолияти самарадорлигини оширишнинг стратегиялар матрицаси ички ва ташқи муҳитининг ноқулай, нейтрал ва қулай ҳолатларида кўриб чиқилади. Улар асосида эса мазкур ҳолатлар бўйича банкнинг ривожланиш стратегияларидан бирини танлаш имкони кўриб чиқилади. Банк фаолияти самарадорлигини оширишнинг стратегиялари ички ва ташқи муҳитининг қандай шароитида қайси стратегияни танлаш вариантларини кўриб чиқамиз.

1-жадвал

Тижорат банки фаолияти самарадорлигини оширишнинг стратегиялари матрицаси*

Ташқи муҳит ҳолати **Ички муҳит ҳолати**	**Қулай**	**Нейтрал**	**Ноқулай**
Қулай	Консолидация стратегияси	Позицияларни сақлаш стратегияси	Етакчиликка интилиш стратегияси
Нейтрал	Захиралар қидириш стратегияси	Позицияларни сақлаш, кейинчалик етакчиликка интилиш стратегиясига ўтиш	Юқори ўсиш стратегияси
Ноқулай	Позицияларни сақлаш, кейинчалик ўртача ўсиш стратегиясига ўтиш	Юқори ўсиш стратегияси	Инновацион интилиш стратегияси

* *Маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси*

1. Ички ва ташқи муҳитнинг қулай бўлган ҳолатида консолидация стратегияси йирик тижорат банклари учун мос ҳисобланади. Рақобатбардошликни ошириш, капитални жамлаш, активлар ва филиаллар бирлашуви орқали бозордаги улушни мустаҳкамлашга эришади.

2. Захираларни қидириш стратегияси шундан келиб чиқадики, банк ҳали ҳам рақобатбардош самарадорликни ошириш учун ички захираларга эга, бу эса ноқулай бозор шароитида мавжуд позицияларини сақлаб қолиш ва бозордаги ўрнида қолишга имкон беради. Банк асосий эътиборни ресурсларни жалб этиш, ички ресурсларни самарали тақсимлаш ва стратегик ҳамкорликларни ривожлантиришга қаратиши лозим.

3. Позицияларни сақлаш стратегияси нейтрал бозорда тенг рақобатдош устунликка эга бўлмаган банклар ёки ноқулай ташқи муҳитда янада ўсиш учун зарур ички ресурсларга эга банклар томонидан қўлланилади.

4. Ўртача ўсиш стратегияси банкнинг рақобатбардош самарадорлигининг асосий позицияларини "эҳтиёткорлик билан" ошириш стратегиясидир.

5. Юқори ўсиш стратегияси рақобатбардош устунликларни амалга ошириш орқали рақобатбардошликнинг катта захирасига эга бўлган банкка бозор мавқеини сезиларли даражада яхшилашга имкон беради.

6. Инновацион интилиш стратегияси фақат бозор инновацияларга тайёр бўлса ва банк бунинг учун зарур имкониятларга эга бўлса мумкин.

Мазкур маълумотлар асосида Агробанк АТБ фаолиятини ўрганилганда, қуйидаги кўрсаткичлар шаклланди.

2-жадвал

Агробанк АТБ фаолият самарадорлигини ошириш стратегиялари матрицасини танлаш ҳолатининг таҳлили*

№	Таҳлил йўналишлари	Натижалар	Ҳолати
1	**Ички муҳит таҳлили**		
	Банк молиявий барқарорлиги	Капитал етарлилиги белгиланган меъёрда, активлар ўсиши барқарор	қулай
	Персонал	Малакали раҳбарлар, филиаллар сони кўп	қулай
	Ахборот технологиялари	Рақамли банк хизматлари, мобил банк, CRM (мижозлар билан муносабатларни бошқаришга мўлжалланган дастурий таъминот)тизими жорий қилинган	қулай
	Корпоратив бошқарув	Қўмита ва кенгашлар фаолияти яхши йўлга қўйилган, лекин ички назорат тизимида баъзи заифликлар бор	нейтрал
2	**Ташқи муҳит таҳлили**		
	Бозор имкониятлари	Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва уларни экспорт қилиш лойиҳаларида иштирок этиш имкониятлари юқори	қулай
	Регулятор сиёсати	Микромолиялаштириш ва рақамли банкка йўналтирилган қўллаб-қувватлаш сиёсати бор	қулай
	Рақобат	Миллий ва хорижий банклар бўлимлари томонидан кучли рақобат	нейтрал

* *Маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси*

Маълумотларни ўрганиш асосида шуни таъкидлаш мумкинки, таҳлил йўналишлари бўйича аксар натижалар қулайлигини кўрсатмоқда. Бу эса ўз навбатида банк томонидан консолидация стратегияси ёки интенсив ўсишга мўлжалланган стратегияни танлашига олиб келди. Бу эса корпоратив бошқарувни стратегик даражага олиб чиқишга, бинобарин унинг фаолиятини самарали бўлишига олиб келади.

Тижорат банклари фаолиятида самарадорликни ошириш стратегиялари матрицасининг аҳамияти шундаки, у банк раҳбариятига ички ресурслар ва ташқи муҳит шароити асосида тўғри стратегик йўналишни танлаш имконини беради. Банк қандай стратегияни танлашига қараб, корпоратив бошқарувнинг тузилмаси ҳам ўзгариши мумкин [4]. Масалан, интенсив ўсиш – инновация ва янги бозорларга чиқишни талаб қилади, бу эса тезкор қарор қабул қилишни кўзда тутади, етакчиликка интилиш стратегияси – рискни минималлаштириш механизмларини мустаҳкамлашни талаб қилади ва бошқалар.

Ҳар бир ҳолат учун тегишли стратегияни танлаш ўз навбатида банкни барқарор ривожлантиришга ёрдам беради ҳамда корпоратив бошқарувнинг мақсадга мувофиқлигини таъминлайди. Бунинг баробарида матрица банкнинг ташқи таҳдидлар шароитида қандай стратегияни танлаши кераклигини кўрсатади, бу эса корпоратив бошқарувда рисклар билан самарали ишлашни таъминлайди [5].

Хулоса қилиб айтганда, стратегиялар матрицаси тижорат банклари учун

рақобатбардошликни таъминлайди ҳамда барқарор ривожланишга хизмат қилади. Таклиф этилаётган стратегиялар матрицасидан Ўзбекистон банклари фаолиятида фойдаланиш уларнинг келгусида молиявий барқарорлигини мустаҳкамлашга ва мижозлар ишончини оширишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Никонец О.Е., Казимирова Н.П. Формирование стратегии коммерческого банка: вопросы методологии и практики: монография. Москва: Изд. «Интернаука», 2018. 170 с.
2. Подборнова Е.С., Сухов А.С., Низамов Б.Р. Особенности разработки финансовой стратегии банка // Вестник Самарского университета. Экономика и управление. №10, 2019. -54-63 с.
3. Синки Д. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Москва: Альп. Бизнес Букс, 2016. 1018 с
4. Темиров А.А. Тижорат банклари корпоратив бошқарув тизимининг самарадорлигини баҳолашга оид янгича ёндашувлар // Management and Economics Scientific Research Journal, № 2, 2025. 81-91 б.
5. Темиров А.А. Тижорат банклари фаолият самарадорлигини ошириш стратегиясини шакллантириш масалалари // Яшил иқтисодиёт, №7, 2024. -175-181 б.

ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ БИЗНЕСОМ

Ташиева Айилина Шайлообековна[1], Ыпышова Нургуль Узакбаевна[2], Ташиева Нуржамал Сайпидиновна[3]

[1]Студентка магистратуры ВШМОП Ошского государственного университета, [2]старший преподаватель Ошского государственного университета,[3]преподаватель Ошского государственного университета

https://doi.org/10.5281/zenodo.17317589

Аннотация. *В условиях глобального экологического кризиса и усиления требований к устойчивому развитию возрастает значимость интеграции принципов зелёной экономики в стратегическое управление бизнесом. В статье рассматриваются теоретические основы зелёной экономики, а также механизмы её внедрения в корпоративные стратегии. Особое внимание уделяется ESG-подходу, как инструменту оценки экологической и социальной ответственности компаний. На основе анализа современных практик предлагаются рекомендации по адаптации стратегического управления к требованиям устойчивого развития. Результаты исследования подтверждают, что экологизация бизнес-процессов способствует повышению конкурентоспособности и инвестиционной привлекательности предприятий.*

Ключевые слова: *зелёная экономика, стратегическое управление, устойчивое развитие, ESG, экологизация бизнеса.*

Abstract. *In the context of global environmental challenges and the growing importance of sustainable development, the integration of green economy principles into strategic business*

management is becoming increasingly relevant. This article explores the theoretical foundations of the green economy and the mechanisms for its implementation in corporate strategies. Special attention is given to the ESG approach as a tool for evaluating environmental and social responsibility. Based on the analysis of current practices, recommendations are proposed for adapting strategic management to sustainability requirements. The findings confirm that ecological transformation enhances competitiveness and investment attractiveness.

Keywords: *green economy, strategic management, sustainability, ESG, business transformation.*

Annotatsiya. *Global ekologik muammolar va barqaror rivojlanish zarurati sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillarini biznesni strategik boshqaruvga integratsiya qilish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari hamda korporativ strategiyalarga uni joriy etish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. ESG yondashuviga alohida e’tibor qaratilib, kompaniyalarning ekologik va ijtimoiy mas’uliyatini baholash vositasi sifatida tahlil qilinadi. Amaliy tajriba asosida strategik boshqaruvni barqarorlik talablariga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari ekologik transformatsiya raqobatbardoshlik va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, strategik boshqaruv, barqaror rivojlanish, ESG, biznes transformatsiyasi.*

Введение. Современные экономические реалии характеризуются возрастающим вниманием к вопросам устойчивого развития, рационального природопользования и экологической ответственности бизнеса. В условиях глобальных климатических изменений, истощения природных ресурсов и усиления экологических рисков традиционные модели экономического роста теряют свою актуальность, уступая место концепции зелёной экономики. Последняя представляет собой альтернативный подход, ориентированный на гармонизацию экономических интересов с экологическими и социальными приоритетами [1].

Внедрение принципов зелёной экономики в стратегическое управление бизнесом становится неотъемлемым условием повышения конкурентоспособности и инвестиционной привлекательности предприятий. Компании, ориентированные на устойчивое развитие, демонстрируют более высокую адаптивность к внешним вызовам, снижают операционные риски и формируют позитивный имидж среди потребителей и партнёров [2]. В этом контексте возрастает значимость ESG-подхода, включающего экологические (Environmental), социальные (Social) и управленческие (Governance) аспекты, как инструмента оценки эффективности и устойчивости корпоративных стратегий [3].

Целью настоящего исследования является анализ механизмов интеграции принципов зелёной экономики в стратегическое управление бизнесом, а также выявление факторов, способствующих успешной экологизации корпоративных процессов. В рамках работы рассматриваются теоретические основы зелёной экономики, практические кейсы внедрения устойчивых стратегий, а также формулируются рекомендации по адаптации бизнес-моделей к требованиям устойчивого развития.

Обзор литературы

Теоретические основы интеграции зелёной экономики в стратегическое управление

Зелёная экономика представляет собой концептуальную модель, ориентированную на устойчивое развитие, минимизацию негативного воздействия на окружающую среду и рациональное использование ресурсов. В отличие от традиционной экономики, основанной на максимизации прибыли без учёта экологических последствий, зелёная экономика предполагает сбалансированное взаимодействие между экономическим ростом, социальной справедливостью и экологической устойчивостью [1].

В стратегическом управлении принципы зелёной экономики находят отражение в формировании целей, задач и механизмов реализации корпоративной политики, направленной на снижение экологических рисков, повышение энергоэффективности и внедрение инновационных решений. Компании, ориентированные на устойчивое развитие, интегрируют экологические критерии в процессы планирования, бюджетирования и оценки эффективности деятельности [2].

Особое значение приобретает ESG-подход, включающий три ключевых компонента: экологические (Environmental), социальные (Social) и управленческие (Governance) аспекты. Он используется инвесторами, аналитиками и регуляторами для оценки устойчивости и ответственности бизнеса. Внедрение ESG-метрик в стратегическое управление позволяет компаниям не только соответствовать требованиям законодательства, но и формировать долгосрочную ценность для заинтересованных сторон [3].

Хронологические рамки исследования охватывают период с начала XXI века до настоящего времени. Особое внимание уделяется анализу изменений и тенденций в последние десять лет, когда тема зеленой экономики получила особое развитие как на международном уровне, так и в контексте Кыргызстана.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлиги, барча мулкларнинг мақбул нисбатига асосланиб, субъектнинг барқарор ишлашига, қийинчиликлар ва таҳдидларга муносиб жавоб беришга, ривожланиш ва такомиллаштириш имконини беради. Субъектнинг мақсад ва вазифалари тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишларини ярата олиш имкониятини таъминлайди. Шунингдек, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг қуйидаги асосий функционал компонентларини баҳолаш орқали аниқлаш мумкин деб ҳисоблаймиз:

биринчидан, функционал компонентларга омилларнинг сезиларли таъсир кўрсатиши;

иккинчидан, иқтисодий хавфсизликнинг функционал компонентларини таъминлашга таъсир этувчи асосий жараёнларнинг таъсирини аниқланиши;

учинчидан, иқтисодий хавфсизликнинг функционал компонентларини таъминлашда иқтисодий кўрсаткичларни аниқланиши.

Бизнингча тўлиқ иқтисодий хавфсизликни таъминлашда хўжалик юритувчи субъектларнинг ички ресурслардан тўлиқ ва самарали фойдаланиш орқали эришиш мумкин бўлади. Бунда ресурсларнинг барча даражаларида бошқарувни самарали ташкил этиш ва молиявий тизимлардан оқилона фойдаланишни талаб этилиши керак. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлигининг ҳолатига бевосита таъсир кўрсатиши мумкин бўлган таҳдидларнинг ҳар бири моддий, маънавий ва молиявий зарарни келтириб чиқаради. Аниқланган таҳдидни камайтириш ва олдини олиш бўйича амалга оширилаётган чора ва тадбирлар унинг минимал даражагача камайтириш имконини яратади. Умуман олганда, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини оширишда саккизта функционал таркибий қисмдан: молиявий, интеллектуал, кадрлар, технологик, ахборот ва экологик таҳдидларни

бартараф этишга ҳар томонлама ёндашувни талаб қилиниши керак. Мазкур омиллар хўжалик юритувчи субъектларда иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда ва соҳада барқарорлик, хавфсизлик ва молиявий қудратга эга бўлишни таъминлайди.

Умуман олганда иқтисодий хавфсизлик тизими ва унинг самарали ишлашига кўмаклашувчи чора-тадбирларни доимий равишда янгилаш ва қайта кўриб чиқишни талаб этилиши керак. Хўжалик юритувчи субъектларда иқтисодий хавфсизлик чораларини самарали амалга ошириш учун иқтисодий хавфсизликни таъминлаш мақсадида бир вақтнинг ўзида назорат ва мувофиқлаштирувчи вазифаларни бажариши лозим. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш самарадорлигини оширишда таҳдидларни таснифлаш ва таснифлар асосида иқтисодий хавфсизликни баҳолаш ҳамда кичик тадбиркорлик субъектларида ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш тизимларини самарадорлигини оширишга эришилади.

Умуман олганда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолияти учун иқтисодий хавфсизликка потенциал таҳдидлар қуйидагича бўлиши мумкин:

1-жадвал


Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар

Ташкилот ичкарисида	**Ташкилот ташқарисида**
Тижорат сири бўлмиш ахборотнинг белгиланган тартибини бузиш	Жиноий тузилмалар томонидан қонунга хилоф ҳаракатлар
Жамоадаги носоғлом психологик муҳит	Тадбиркорлик субъектлари ўртасидаги ўзаро фирибгарлик
Коррупция ва порахўрлик	Адолатсиз рақобат шароити
Иқтисодий рисклар	Ахборот хавфсизлигига таҳдидлар
Тадбиркор мулкига қарши қонунга хилоф ҳаракатлар	Шартнома мажбуриятларига риоя қилмаслик
Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг беқарорлиги	
Ходимлар ва раҳбарият ўртасидаги зиддиятлар	

Манбаа: Жадвал муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Тадбиркорлик субъекталари иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар ичида энг муҳимлари – иқтисодий айғоқчилик ва разведка ҳисобланади. Мутахассисларнинг ҳисоботларига кўра АҚШда ҳар йили хусусий фирмалар иқтисодий разведка мақсадлари учун 1,5 миллиард доллардан ортиқ маблағ сарфлайдилар. Япония корпорациялари эса айғоқчилик орқали бошқа мамлакатларнинг техника ютуқлари тўғрисидаги ахборотларнинг 40 фоизига эга бўладилар. Ушбу йўл билан рақиблар бир-бирларининг бозор стратегиялари, битимлар, ишлаб чиқариш режалари тўғрисидаги маълумотларни яширинча олишга ҳаракат қиладилар. Яширин тарзда сақланаётган маълумотларни, ҳужжатларни ўғирлаш, нусха кўчириш, алоқа каналларини яширинча эшитиш, тегишли ходимларни сотиб олиш, уларга таҳдид қилиш, компьютер, тармоқлар ва тизимларга кириш ва бошқа усулларини қўллаш йўли билан иқтисодий айғоқчилик фаолиятини

амалга оширадилар. Дунёнинг ТОП 10 та иқтисодий ривожланган давлатлар ЯИМ ҳажими таҳлил этилгандауларнинг жорий натижаларга эришиши, шунингдек, мазкур тараққиёт кўрсаткичларини сақлаб қолишлари учун амалга ошираётган иқтисодий хавфсизлик сиёсати иқтисодчилар орасида қизиқиш уйғотиши табиий. Шунингдек, глобаллашув жараёнларининг кенг миқёсда авж олиши иқтисодий хавфсизликка таҳдидларнинг кучайиши ва иқтисодий жиноятлар турлари кўпайиши энг кичик даражада иқтисодий хавфсизликни таъминлашда тадбиркорлик тузилмаларининг ролини ошиб боради. Шу сабабли айни шароитда дунёнинг бир қатор ривожланган давлатлар тадбиркорлик тузилмаларининг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, ноқонуний ҳатти-ҳаракатларни олдини олиш ва камайтириш учун янгидан-янги методлардан фойдаланишлари кенг тус олмоқда. (1-расм)



1-расм. Иқтисодий ривожланган давлатлар ЯИМ (млрд. долларда) Манбаа: http://visasam.ru/emigration/vybor/vvp-stran-mira. маълумотлари асосида муаллифлар томонидан ишлаб чиқилган.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятида замонавий бошқарув усулларини қўллаш учун иқтисодий хавфсизликнинг таъминланиши уни кичикроқ миқёсдаги бир қатор мақсадларга бўлишни назарда тутади. Бундай кичик мақсадларини тадбиркорлик субъекти иқтисодий хавфсизлигининг функционал мақсадлари деб қарасак ҳам бўлади. Улар:

- тадбиркорлик субъектининг юқори молиявий самарадорлигини ва унинг молиявий барқарорлиги ва мустақиллигини таъминлаш;

- тадбиркорлик субъектининг технологик мустақиллигини таъминлаш ва унинг технологик салоҳиятининг юқори рақобатдошлигига эришиш;

- тадбиркорлик субъекти бошқарувининг юқори самарадорлигига, унинг ташкилий тузилишининг мақбуллигига эришиш;

- унинг интеллектуал салоҳиятидан фойдаланган ҳолда тадбиркорлик субъекти ходимларининг юқори малакасини таъминлаш;

- тадбиркорлик субъектининг юқори даражадаги экологик софлигига эришиш, ишлаб чиқариш фаолияти натижаларининг атроф-муҳит ҳолатига зарарли таъсирини минималлаштириш;

- тадбиркорлик субъекти фаолиятининг барча жиҳатлари сифатли ҳуқуқий ҳимоясини таъминлаш;

- тадбиркорлик субъектининг ахборот муҳити, тижорат сирларини муҳофаза қилишни таъминлаш ва унинг барча хизматларини юқори даражада ахборот билан таъминлашга эришиш;

- тадбиркорлик субъекти ходимларининг жисмоний ҳамда шахсий хавфсизлигини, уларнинг капиталини, мулкий ва тижорат манфаатларини таъминлаш.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш юқоридаги каби кичик-кичик мақсадлар асосига қурилади. Тактик ёки айни даражадаги тадбиркорлик субъектининг иқтисодий хавфсизлик тизими фаолиятининг асосий мазмуни юзага келадиган реал таҳдидга жавобни ишлаб чиқишдан иборат бўлади. Бизнинг томонимиздан таклиф этилаётган айни даражадаги асосий қадамлар:

- иқтисодий хавфсизликка реал таҳдиднинг салбий таъсирини баҳолаш;

- ножўя таъсирларнинг сценарийларини ишлаб чиқиш;

- салбий таъсир сценарийларининг турли хил вариантлари учун зарарни баҳолаш;

- салбий таъсирнинг турли сценарийларига мувофиқ корхона имкониятлари ва ресурсларини таҳлил қилиш;

- салбий таъсир сценарийларининг турли хил версияларига корхона жавобини ишлаб чиқиш;

- салбий таъсирларга энг самарали ва мақбул жавобни танлаш.

Тактик даражадаги тадбиркорлик субъектининг иқтисодий хавфсизлик тизими ишлаш вақти тадбиркорлик субъектининг ҳажмига боғлиқ бўлади. Агар тадбиркорлик субъекти кичик бўлса, вақт қисқа, агар тадбиркорлик субъекти катта бўлса, вақт узоқроқ давом этади. Бироқ корхонанинг иқтисодий хавфсизлик тизими фаолиятининг тактик даражаси бир йилдан ошмаслиги керак. Иқтисодий хавфсизлик тизими фаолиятининг узоқроқ даври истиқболли даражада ҳисобланади, у бир йилдан уч йилгача давом этиши мумкин. Йирик тадбиркорлик субъектида бу муддат узайтирилиши мумкин. Мазкур босқичдаги ишларнинг асосий мазмуни маҳсулот, хомашё ва материаллар учун истиқболли бозорларни стратегик башорат қилиш, давлатнинг иқтисодиётга таъсири, технология ва технологияларни ривожлантириш истиқболлари, потенциал рақобатчилар пайдо бўлиш эҳтимоли, меҳнат бозори ва ижтимоий муносабатлар соҳасидаги давлат сиёсати, ташқи шерикликни ривожлантириш истиқболлари, инновациялар ва бошқалар шулар жумласидандир [16, 236-б]. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолияти иқтисодий хавфсизлигига тадбиркорлик субъектининг ҳуқуқий ва иқтисодий муносабатлардаги ҳолати, ташкилий алоқалари, моддий ва интеллектуал ресурслари таъсир қилади. Бунда унинг фаолияти ва молиявий барқарорлиги, тижорат муваффақиятлари, самарали илмий ва техник ривожланиш кафолатланган бўлади. Тадбиркорлик субъектининг иқтисодий хавфсизлиги ушбу субъектга бўлажак хавфсизлик муаммолари ва таҳдидларининг олдини олиш қанчалик самарали бўлишига асосланади. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш энг муҳим вазифа сифатида қаралиши керак, бунда асосий мақсад иқтисодий

хавфсизликка таҳдидларнинг олдини олишнинг аниқ стратегиясини амалга оширилиши ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2019 йил 14 майдаги “Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5718-сон фармони (манба: www.lex.uz)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5490-сонли фармони, 27.07.2018 y. 2. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий сайти www.stat.uz
3. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. O‘zRPDJQ akademiyasi, -T.: Akademiya, 2012. 102-103-pp.
4. Пименов Н. А. Управление финансовыми рисками в системе экономической безопасности. Учебник. Москва.: 2020. С-25
5. Ю.А.Бурцев. Экономическая безопасность малого предпринимательства в России. Научный журнал “Мир новой экономики”.: №1/2016. С-90
6. П.З.Ҳошимов. Тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш концепцияси ва тизими. “Иқтисод ва молия” илмий журнали-Т.: 2019/11. 24-б

KOMPANIYANING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI MOLIYAVIY VA NOMOLIYAVIY OMILLAR

Usmanova Yulduzxon
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17317627


Annotatsiya. *Ushbu tezisda kompaniyaning investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar moliyaviy va nomoliyaviy jihatlar tahlil qilingan. Xususan, tadqiqotda kompaniyaning barqaror daromadlari, rentabellik ko‘rsatkichlari, aktivlarning samarali boshqarilishi va qarz yukining pastligi kabi moliyaviy omillar, korporativ boshqaruv, menejment sifati, innovatsion salohiyat, bozor imiji, huquqiy-muammoli holatlar kabi nomoliyaviy omillar o‘rganilgan.*
Kalit so‘zlar: *investitsiyaviy muhit, rentabellik, volatillik, faoliyat shaffofligi*

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsiyaviy jozibadorlik shaffof va samarali korporativ boshqaruv, kuchli bozor ko‘rsatkichlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qiluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilish orqali ta’minlanadi. Ko‘pgina hollarda, fond bozori vositalari orqali investitsiyalarni rag‘batlantirish kompaniyaning jozibadorligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mamlakatda moliyaviy bozorlarning rivojlanishi kompaniyalarga nafaqat kapital oqimini, balki tashkilotning uzoq muddatli o‘sishi va barqarorligini ta’minlab, ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun turli yo‘llarni paydo qiladi.

Demak, investitsiyaviy jozibadorlik - bu kompaniyaning moliyaviy barqarorlik, rentabellik va o‘sish salohiyatini namoyish etish orqali investorlarni jalb qilish qobiliyatini anglatadi. Investitsiyaviy jozibadorlikka turli omillar ta’sir qilib, ularni tabiati va ta’siriga qarab turli toifalarga bo‘lish mumkin. Asosiy tasniflarga moliyaviy, iqtisodiy, boshqaruv, bozor, institutsional va tashqi makroiqtisodiy omillar kiradi.


Moliyaviy ko‘rsatkichlar kompaniyaning rentabelligi, barqarorligi va investorlar uchun daromad olish qobiliyatini aks ettirishi sababli uning investitsiyaviy jozibadorligining asosi hisoblanadi [1]. Investorlar risklarni va kelajakdagi daromadlarni baholash uchun rentabellik, likvidlik, moliyaviy mustaqillik va aksiyalarning samaradorligi kabi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qiladilar.

Aniqki doimiy daromadga, past qarz darajasiga va shaffof dividend siyosatiga ega bo‘lgan moliyaviy jihatdan kuchli kompaniya uzoq muddatli o‘sish salohiyati va moliyaviy barqarorlikni o‘zida mujassam etgani uchun investitsiyalarni jalb qilish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. Umuman olganda, kompaniyaning investitsiyaviy jozibadorligiga ta’sir qiluvchi moliyaviy omillar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikka ta’sir etuvchi moliyaviy omillar

Kompaniyaning iqtisodiy muhiti uning investitsiyaviy jozibadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan yana bir omil hisoblanadi. YaIMning o‘sishi, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari va umumiy sanoat tendentsiyalari kabi omillar biznesning barqarorligi va rivojlanish istiqbollarini belgilaydi (2-rasm). Kuchli iste’mol talabi va qulay makroiqtisodiy sharoitlar bilan tez rivojlanayotgan sanoatdagi kompaniya odatda xavfsizroq va istiqbolli sarmoya hisoblanadi [2]. Aksincha, iqtisodiy pasayish, yuqori inflyatsiya yoki bozorning to‘yinganligi noaniqlik va risklarning kuchayishi tufayli investorlarni sarmoya kiritishdan qaytaradigan asosiy sabablar hisoblanadi.




2-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikka ta’sir etuvchi investitsiyaviy muhit omillari

Samarali boshqaruv va korporativ boshqaruv investitsiya jozibadorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynovchi yana bir muhim omil hisoblanadi. Investorlar ko‘pincha tajribali yetakchilik, aniq strategik yo‘nalish va kuchli risklarni boshqarish siyosatiga ega kompaniyalarni qidiradi. Shaffof hisobot, axloqiy biznes amaliyoti va innovatsiyalarga e’tibor ham investorlarning ishonchini oshirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri qaror qabul qilish va bozor o‘zgarishlariga moslashish obro‘siga ega bo‘lgan yaxshi boshqariladigan kompaniya kapitalni jalb qilish va uzoq muddatli muvaffaqiyatni saqlab qolish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

Kompaniyaning bozordagi o‘rni va raqobatbardosh ekanligi uning investorlar uchun jozibadorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi yana bir muhim omil hisoblanadi [3]. Bozor bilan bog‘liq omillarga brend obro‘si, bozor ulushi, mijozlarning sodiqligi va mahsulotni diversifikatsiya qilish kiradi. O‘z sohalarida yetakchilik qiladigan, kuchli raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lgan hamda mahsulot va xizmatlarda innovatsiyalarni namoyish etuvchi kompaniyalar investorlarni ko‘proq jalb qilishi aniq.


Investitsiyaviy jozibadorlikka ta’sir qiluvchi yana bir muhim omil bu mamlakatda iqtisodiy o‘sish, kompaniyaning va investorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy va tartibga soluvchi muhitning yaratilgani hisoblanadi. Investorlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda biznes yuritishning qulayligini, soliq siyosatini, investorlarni himoya qilish normalari va davlat imtiyozlarini sinchiklab o‘rganadi. Kuchli va puxta qonunchilik bazasi, shaffof tartib-qoidalar va qulay soliq siyosatiga ega mamlakatlar biznesning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, bu esa bunday manzillarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni sarmoya uchun jozibador ob’ektga aylanish imkoniyatini beradi (3-rasm).



3-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikka ta’sir etuvchi institutsional omillar

Siyosiy barqarorlik, valyuta kursining o‘zgarishi va global savdo siyosati kabi kompaniyaning nazorati ostida bo‘lmagan makroiqtisodiy sharoitlar investitsiya qarorlariga sezilarli ta’sir qiluvchi muhim omillardan hisoblanadi. Investorlar, rejalashtiriladigan iqtisodiy siyosatga ega siyosiy barqaror mintaqalardagi kompaniyalarga kapital ajratishga ko‘proq moyil bo‘lib, davlatning ichki va tashqi siyosatidagi har qanday noaniqlik ularni sarmoya kiritishdan qaytaradi.

Shuningdek, savdo kelishuvlari va ta’minot zanjiri barqarorligi kabi global iqtisodiy tendensiyalar, xalqaro aloqalari o‘rnatilgan, tovar va xizmatlarni chet elda ayirboshlay oladigan kompaniya uchun investitsiyaviy jozibadorlik nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi (4-rasm).



4-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikka ta’sir etuvchi tashqi siyosiy va iqtisodiy omillar

Muxtasar qilib aytganda, barqaror va investorlar uchun qulay muhitda ishlaydigan kompaniyalar ko‘proq uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вербин, Н. Е. "Анализ факторов, влияющих на инвестиционную привлекательность ценных бумаг." Национальные экономические системы в контексте формирования глобального экономического пространства. 2016.
2. Karimov, N. G. (2007). Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. T.: Fan va texnologiya, 240.
3. Mansur, E. (2016). Investment and market structure deployment in the implementation of enterprise value advancement: Case of Uzbekistan. Journal of Management Value and Ethics, 6(1).

ИНВЕСТИЦИИ В ТУРИСТСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ И ДИНАМИКА ТУРИСТСКОГО ПОТОКА: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНЫХ ДЕСТИНАЦИЙ (НА ПРИМЕРЕ ТВЕРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Волконский Элен Эдвардович
РЭУ им. Г.В. Плеханова, Москва, аспирант
https://doi.org/10.5281/zenodo.17317643

Аннотация. *В статье рассматривается взаимосвязь инвестиций в туристскую инфраструктуру и динамики туристского потока на примере Тверской области. На основе данных государственной программы 2024–2029 гг. проведён анализ бюджетного финансирования и налоговых поступлений, выявлен эффект «инвестиционного импульса», обеспечившего долгосрочный рост турпотока. Показано, что инфраструктурные вложения способствуют не только количественному увеличению туристов, но и формированию предпосылок для креативных туристских дестинаций.*

Ключевые слова: *инвестиции; туризм; креативные дестинации; государственно-частное партнёрство.*

Современное развитие туризма в России характеризуется возрастающей ролью региональных программ как инструмента повышения конкурентоспособности территорий и их интеграции в национальное и международное туристское пространство. Инвестиции в туристскую инфраструктуру становятся ключевым фактором не только экономического роста, но и формирования креативных туристских дестинаций (КТД), где сочетаются культурные, социальные и инновационные практики [1, 2].

По данным Ассоциации туроператоров России, внутренний турпоток в стране в 2024 году достиг около 96 млн поездок, что примерно на четверть превышает показатель 2023 года [3]. Такая динамика подтверждает устойчивый рост интереса к внутренним направлениям и усиливает значение региональных программ как инструмента развития туризма. Тверская область в этом контексте выступает одним из наиболее перспективных регионов: она сочетает богатое культурное наследие, выгодное географическое положение между Москвой и Санкт-Петербургом и наличие уникальных природных ресурсов.

Тверская область является показательной территорией для анализа: здесь утверждена государственная программа «Развитие туристской индустрии в Тверской области» на 2024–2029 гг., предусматривающая комплекс мероприятий, включая бюджетное и внебюджетное финансирование, создание туристских кластеров, развитие инфраструктуры и повышение привлекательности региона [4].

Инвестиции в туризм обладают мультипликативным эффектом: вложения в инфраструктуру способствуют росту числа туристов, а увеличение турпотока стимулирует занятость, развитие малого бизнеса и налоговые поступления [1].

Для креативных туристских дестинаций инвестиции играют двойную роль:

- обеспечивают базовую инфраструктуру (гостиницы, транспорт, инженерные сети);

- создают условия для развития креативных индустрий (арт-кластеры, событийные площадки, гастрономические проекты).

Таким образом, инвестиции формируют не только экономическую, но и культурно-социальную основу туристских дестинаций.

В научной литературе прослеживается устойчивая тенденция к рассмотрению инвестиций в туризм как комплексного фактора, влияющего как на инфраструктуру, так и на нематериальные активы дестинации. Исследования показывают, что участие государства в форме ГЧП является ключевым условием реализации крупных инфраструктурных проектов и туристских кластеров. Данная модель постепенно находит применение, что подтверждают региональные программы, направленные на развитие туризма.

Эмпирической базой исследования стали материалы госпрограммы Тверской области «Развитие туристской индустрии в Тверской области» [4]. Для анализа отобраны следующие показатели:

- туристский поток (млн чел.);
- налоговые поступления от гостиниц и организаций питания (млрд руб.) (см. табл. 1);
- бюджетное финансирование программы (млрд руб.);
- бюджетные инвестиции в форме капитальных вложений (млрд руб.) (см. табл. 2).

Таблица 1- Динамика туризма в Тверской области (2024–2029 гг.)

	2024	2025	2026	2027	2028	2029
Туристский поток в Тверскую область (млн. чел)	2,98	3,33	4,16	4,44	4,71	4,94
Поступление налоговых платежей и других доходов в консолидированный бюджет Тверской области от гостиниц и организаций общественного питания (млрд. руб)	1,16	1,23	1,40	1,49	1,58	1,66

Источник: составлено автором на основе [4]

Таблица 2 - Финансирование туристской программы (2024–2026 гг.)

	2024	2025	2026
Финансовое обеспечение гос. программы, млрд. руб	5,16	0,17	0,17
Бюджетных инвестиции в форме капитальных вложений, млрд. руб	0,896	0,029	0,029

Источник: составлено автором на основе [4]

На рисунке 1 видно, что инвестиционный рывок 2024 года (0,896 млрд руб.) совпадает с дальнейшим устойчивым ростом турпотока: с 2,98 млн до 4,94 млн человек к

2029 г. Даже при минимальных вложениях в 2025–2026 гг. рост сохраняется, что указывает на наличие инерционного эффекта.




Рисунок 1 – Туристский поток и капитальные вложения в Тверской области

Примечание: по 2027-2029 гг. в приложении к программе приведены укрупнённые показатели; точные значения бюджетных капвложений отсутствуют (в настоящей табл. отражены доступные данные)

Важно подчеркнуть, что инвестиции 2024 года стали своеобразным «точечным импульсом», который определил траекторию роста турпотока на весь рассматриваемый период. Даже при снижении последующих бюджетных ассигнований рост сохраняется, что указывает на наличие отложенного эффекта капитальных вложений. Этот эффект проявляется в расширении номерного фонда, повышении качества обслуживания и улучшении транспортной доступности.

Анализируя имеющиеся данные (налоговые поступления и финансовое обеспечение программы) [4] наблюдается аналогичная зависимость: несмотря на сокращение бюджетных ассигнований после 2024 г. (0,14 - 0,17 млрд руб.), налоговые поступления стабильно увеличиваются (от 1,16 до 1,66 млрд руб.), что подтверждает фискальную отдачу вложений.

Таким образом, стартовый инвестиционный импульс обеспечил долгосрочный эффект в развитии туристской дестинации, а увеличение налоговых поступлений подтвердило экономическую целесообразность вложений.

Полученные данные показывают, что даже при ограниченном объёме бюджетных инвестиций возможно формирование устойчивой динамики турпотока. Однако для перехода к качественно новому уровню — созданию креативной туристской дестинации – необходима диверсификация источников финансирования и активное использование механизмов государственно-частного партнёрства.

Инвестиционный импульс 2024 года должен быть дополнен проектами в сфере креативных индустрий:

- создание культурных и событийных кластеров;
- развитие гастрономического и этнографического туризма;
- поддержка локальных брендов и арт-пространств.

Дополнительно важно учитывать роль местных сообществ в формировании креативных туристских дестинаций. Участие населения в культурных проектах, развитие локальных ремёсел и проведение региональных фестивалей усиливают уникальность туристского продукта. В совокупности с инвестициями такие меры создают предпосылки для устойчивого развития туризма и повышения конкурентоспособности региона на национальном уровне.

Это позволит Тверской области сформировать устойчивый туристский продукт, основанный на уникальности и инновационности.

Таким образом, инвестиции в туристскую инфраструктуру выступают не только экономическим механизмом развития региона, но и стратегическим условием формирования креативной идентичности территории.

Полученные результаты имеют не только теоретическую, но и практическую значимость. Они могут быть использованы органами региональной власти при корректировке стратегий развития туризма, а также бизнес-структурами, планирующими участие в проектах государственно-частного партнёрства. Применение методики анализа взаимосвязи инвестиций и турпотока возможно и для других регионов России, что позволит сопоставить эффективность реализации программ в межрегиональном разрезе.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Волконский, Э.Э., Морозов, М.А. Роль государственно-частного партнерства в развитии туристской индустрии // Экономика: вчера, сегодня, завтра. – 2024. – № 7. – С. 97–106.
2. Волконский, Э.Э., Морозов, М.А. Государственно-частное партнерство как эффективный инструмент формирования и развития туристских дестинаций // Международный научно-исследовательский журнал. – 2024. – № 11 (149). – С.123-131. – DOI: 10.60797/IRJ.2024.149.78.
3. Ассоциация туроператоров России (АТОР). Внутренний туризм в 2024 году показал органический рост на 8 % // АТОР. – 2025. – 13 янв. – URL: https://www.atorus.ru/article/ator-vnutrenniy-turizm-v-2024-godu-pokazal-organicheskiy-rost-na-8-60120 (дата обращения: 15.09.2025).
4. Постановление №122-пп О государственной программе Тверской области «Развитие туристской индустрии в Тверской области» от 09.04.2024

YASHIL OBLIGATSIYALAR VA ULARNING O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDAGI O‘RNI VA ISTIQBOLLARI

Xikmatova Husnora Fatxulla qizi
TDIU mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17317653

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda jahon moliya bozoriga kirib kelgan yashil obligatsiyalar haqida ma’lumot berilgan hamda ularning O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida qo‘llanilishi o‘rganilgan va bu bo‘yicha tegishli xulosalar berilgan.*
Kalit so‘zlar: *moliyaviy instrumentlar, yashil obligatsiyalar, emitent, yashil iqtisodiyot, moliya bozori.*
Аннотация: *В данной статье дается информация о зеленых облигациях, вышедших сегодня на мировой финансовый рынок, рассматривается их применение в условиях узбекской экономики и делаются соответствующие выводы.*
Ключевые слова: *финансовые инструменты, зеленые облигации, эмитент, зеленая экономика, финансовый рынок.*
Abstract. *This article provides information about green bonds that have entered the global financial market today, examines their application in the conditions of the Uzbek economy, and draws relevant conclusions.*
Keywords: *financial instruments, green bonds, issuer, green economy, financial market.*


Global miqyosda ekologik muammolarni hal etishda moliya bozorining roli ortib bormoqda. Xususan, moliya bozorining asosiy instrumentlaridan biri bo‘lgan obligatsiyalar investorlar e’tiborini tortayotgan muhim vositalardan hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida yashil obligatsiyalardan foydalanib kelinmoqda. Yashil obligatsiyalar an’anaviy obligatsiyalarga o‘xshab ishlaydi, chunki investor loyihani moliyalashtirish uchun kompaniyaga qarz beradi va investor kredit muddati tugagach foiz to‘lovlarini va asosiy qarzni oladi. Oddiy obligatsiyalardan farqli ravishda “yashil” obligatsiyalar bevosita ekologik toza va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Umuman olganda, yashil obligatsiya bu-iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit bilan bog‘liq muayyan loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydigan moliyaviy vositadir.

Ilk yashil obligatsiyalar Yevropa Investitsiya Banki (EIB) tomonidan 2007-yilda Climate Awareness Bond (CAB) nomi bilan chiqarilgan. Jahon banki (Word Bank) esa 2008-yilda o‘zining ilk “labelled green bond” ya’ni aniq yashil loyihalarga yo‘naltirilgan obligatsiyani muomilaga chiqardi [1]. Yashil obligatsiyalar sotuvidan tushgan mablag‘lar faqat qayta tiklanadigan energiya loyihalari, barqaror transport, biologik xilma-xillikni saqlash va ekologik toza binolarni qurish kabi ekologik sabablarga qaratilgan tashabbuslarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan. SEBI korporativ obligatsiyalar va sekuritizatsiya bo‘yicha maslahat qo‘mitasining yig‘ilishida obligatsiyalar yashil obligatsiyalar deb hisoblanishi uchun to‘rtta talabni belgilab berdi. Bular quyidagilar:

- Obligatsiyalar sotuvidan tushgan tushumni yashil tashabbuslarni moliyalashtirish uchun sarf etish;

- Loyihani baholash va tanlashda foydalaniladigan usul emitent tomonidan ochiqlanishi kerak;
- Emitent shaffoflikni ta’minlashi kerak;
- Emitentlar daromadlarni holati va natijalari haqida ma’lumot berishi lozim [2].

Bugungi kunda yashil obligatsiyalarning eng yirik emitenti sifatida Amerika Qo‘shma Shtatlari hamda Xitoy hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar bozori 2023-yilda sekinroq o‘sdi va 475 ta 118,29 milliard AQSh dollari teng qiymatidagi emissiya bilan Xitoyni 2023-yilda ikkinchi yirik yashil obligatsiyalar bozoriga aylantirdi. Yashil obligatsiyalar umumiy hajmdan 1,17 foizga ega bo‘ldi. AQSh va Xitoy korxonalari 2024 yilda yashil obligatsiyalarning eng yirik emitentlari bo‘ldi.



1-rasm. Davlatlar kesimida yashil obligatsiyalar emissiyasi [3]

Rasm ma’lumotlaridan anglashimiz mumkinki, 2021-2024 yillarda turli mamlakatlarning yashil obligatsiyalar emissiyasi taqqoslangan bo‘lib, ular yildan-yilga o‘sib borishini ko‘rishimiz mumkin. 2021-yilda umumiy hajm 250-300 mlrd dollar atrofida bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 450 mlrd dollarga yaqinlashgan. Demak, 2021-2024 yillar oralig‘ida yashil obligatsiyalar bozori taxminan 1,5 baravarga o‘sgan. Asosan, yashil obligatsiyalar sotuvida AQSH va Xitoy yetakchilik qilib kelmoqda.

Investorlar tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, energetika sohasini liberallashtirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish orqali savdoni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarga yuqori baho berildi. Bu tashabbuslar «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan maqsad va chora-tadbirlarga hamohangdir. Ta’kidlash joizki, so‘mda chiqarilgan yevroobligatsiyalar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)dagi birinchi “yashil” suveren obligatsiyalardir.

“Yashil” obligatsiyalar biznesni barqaror rivojlantirishga, jumladan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga ortib borayotgan e’tiborga mos keladigan ekologiya va “yashil” moliyalashtirish sohasidagi prinsip, standart va mezonlarga muvofiq keladi. “Yashil” obligatsiyalar vositasida emitentlar atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik sharoitlarni yaxshilash bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirishni ta’minlaydi. 2023-yil oktabr oyida O‘zbekiston 660 million AQSH dollari qiymatidagi yevroobligatsiyalarni va 4,25 trillion so‘mlik dastlabki “yashil” suveren yevroobligatsiyalarini London fond birjasida muvaffaqiyatli tarzda joylashtirdi. 2-4 oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy banki mas’ul xodimlari tomonidan Nyu-York, Boston va London shaharlarida

“road-show”lar o‘tkazilib, ular davomida 50 dan ortiq sarmoyadorlar ishtirokida O‘zbekistonning iqtisodiy istiqbollari muhokama qilingan [4].

O‘zbekiston Prezidenti 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Keyingi besh yilda mamlakatimizni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari qatoriga quyidagilar kiradi: barcha jabhalarga yashil iqtisodiyot texnologiyalarini faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, umumiy ishlab chiqarish quvvatlarini 100 milliard kVt/soatga yetkazish, qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini 2026-yilga borib 25 foizga yetkazish. Investitsiyalar, jumladan, 170 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Besh yil davomida birja aylanmasini 200 million dollardan 7 milliard dollarga oshirish rejalashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, shu kungacha O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar bozorining shakllanishi bosqichma-bosqich rivojlandi. Avval xalqaro bozorda suveren yashil Eurobondlar samarali joylashtirildi va ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirildi. Yurtimizda yashil obligatsiyalarni yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro UNDP, Yevropa Ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik izchil yo‘lga qo‘yilib, bilim va tajribalar almashildi. Yashil obligatsiyalar barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda samarali vositadir. Ogohlik va qo‘llab-quvvatlashning ortishi bilan yashil obligatsiyalar yangi imkoniyatlarni ochish va yashil iqtisodiyotni yaratishga yordam berish potentsialiga ega. Natijada, moliyaviy manzara ham o‘zgarishi mumkin, chunki ular investitsiya oqimlarini ekologik barqaror loyihalarga yo‘naltiradi. Shu orqali mamlakatda kapital bozorining diversifikatsiyasi, xalqaro investorlar ishtirokining ortishi va yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni tezlashishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://www.cbd.int/financial/greenbonds/oecdgreenbondscountries2016.pdf
2. https://www.thefixedincome.com/blog/bonds-and-debt/green-bonds-definition-history-advantages-and-disadvantages/
3. https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-02-10/china-s-green-bond-debut-is-chance-to-capitalize-on-us-retreat
4. https://www.imv.uz/en/news/category/yangiliklar/post-1621

INVESTITSIYA FAOLIYATIDA RISKLARNI BAHOLASH USULLARI

Xomitov Komiljon Zoitovich1, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi2
1Toshkent davlat iqtisodyot universiteti professori,
2Toshkent davlat iqtisodyot universiteti magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.17317662

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biznesga asosli moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradigan boshqaruv hisobida investitsiya faoliyatida yuzaga keladigan risklarni baholashning asosiy usullari ko‘rib chiqiladi. Boshqaruv qarorlari sifatini oshirish maqsadida risklarni baholashning integratsiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada*

risklarni baholash usullarini qo‘llash va ularning samaradorligini baholashning amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *investitsiya, investitsiya faoliyati, risk, investitsiya riski, riskni baholash, riskni baholash usullari, tahlil.*

Uzluksiz tavakkalchilik va noaniqlik, ya’ni riskning mavjudligi tadbirkorlik faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, nafaqat muammolarni keltirib chiqaradi, balki moliya tizimining dinamik rivojlanishini rag‘batlantiradi. Bozor dinamikasi bilan to‘yingan zamonaviy iqtisodiyot moliyaviy faollik sharoitida doimiy o‘zgarishlar, bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar va bozor kon’yunkturasining tebranishlari bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiyotning cheklangan barqarorligi sharoitida moliyaviy vaziyatning noaniqligi ortib borishi, riskning oldindan aytib bo‘lmaslik darajasini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichga aylanishi ma’lum bo‘ladi.

Investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati sub’ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuidir [1].

Investitsiya faoliyati jarayonida risklarni o‘rganish investitsiya loyihasi maqsadlariga erishishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va baholashning tizimli jarayonidir. Asosan, bu investitsiya loyihasini amalga oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan istalmagan holatlarning yuzaga kelish ehtimolini tahlil qilishdir [2]. Potensial risklarni tahlil qilish nafaqat ularning yuzaga kelish ehtimolini baholashni, balki salbiy oqibatlarni minimallashtirish va nazorat qilish usullari va strategiyalarini ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon investitsiya loyihasi oldiga qo‘yilgan vazifa va maqsadlarga yanada samarali erishishni ta’minlab, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni oldindan boshqarish imkonini beradi.

Dastlabki bosqichda loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mumkin bo‘lgan tahdidlarni keltirib chiqaradigan tegishli elementlarni aniqlash va ularning muhimlik darajasini baholash amalga oshiriladi.

Riskni o‘rganish o‘zaro bog‘liq ikki turga bo‘linadi: sifat va miqdoriy tahlil. Risk omillari, sohalari va turlarini aniqlashga qaratilgan tahlil sifat tahlili deb ataladi. Risklarni baholashning ushbu usuli nisbatan soddaligi bilan ajralib tursa-da, o‘z oldiga nafaqat yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni, balki muayyan faoliyatni amalga oshirish jarayonida ularning darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash vazifasini ham qo‘yadi. Investitsiya loyihasi risklarining sifat tahlili kontekstida ularni aniqlash yo‘nalishiga urg‘u beriladi, bu esa tahliliy jarayonning muhim elementi hisoblanadi.

Bizningcha, investitsion risklarni samarali o‘rganish nafaqat xilma-xil turdagi risklarni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish, ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni tahlil qilish va ularni kamaytirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishni, balki miqdoriy baholashga o‘tishni ham o‘z ichiga oladi. Bu muayyan loyiha uchun aniqlangan xatarlarni kamaytirish bo‘yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlarning qiymat tahlilini o‘tkazishni anglatadi [3]. Yakuniy natijaning belgilangan darajadan pastga tushish ehtimolini ko‘rib chiqishga, shuningdek, prognoz qilinayotgan zararni uning yuzaga kelish ehtimoliga ko‘paytirishga asoslangan risklarni baholash miqdoriy deb ataladi. Tahlilning bu usuli nafaqat individual risklar ko‘lamini, balki umuman loyiha riskining umumiy darajasini ochib beruvchi raqamli qiymatlarni yaratadi.

Potensial risklarni tahlil qilishda eng keng tarqalgan yondashuvlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin [2]:

1. Ehtimollik tahlili (statistik usul): ushbu yondashuv modelda qurish va hisoblash ehtimollik nazariyasining asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishini nazarda tutadi, bu esa miqdoriy xavfni tahlil qilish jarayoniga yuqori qat’iylik darajasini beradi. Yo‘qotishlarning yuzaga kelish ehtimoli o‘tgan davr uchun statistik ma’lumotlar bilan o‘zaro ta’sir orqali aniqlanadi, bu esa o‘tmishdagi tendensiyalar va voqealarni puxta hisobga olishni ta’minlaydi. Ushbu usul nafaqat risk zonalarini ajratishni, balki investitsiyalarning yetarliligini baholashni, shuningdek, risk koeffitsiyentini hisoblashni ham o‘z ichiga oladi. Oxirgisi ifodalaydi

kutilayotgan foydaning umumiy sarflangan mablag‘lar hajmining loyiha doirasida sarflangan umumiy resurslarga nisbatiga ko‘paytmasi.

2. Dastlabki ma’lumotlarga kirish cheklangan yoki umuman yetarli bo‘lmagan vaziyatlarda xavflarni ekspert tahlili talab qilinadigan usul hisoblanadi. Yondashuvning mohiyati tavakkalchilikni har tomonlama baholashni amalga oshirish uchun taniqli mutaxassislar guruhining bilimlaridan foydalanishdan iborat. Ular loyihani va uning alohida jarayonlarini diqqat bilan tahlil qiladilar, nafaqat ma’lum bo‘lgan xavf omillarini, balki amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklarni ham hisobga oladilar.

3. O‘xshashlik usuli: o‘tgan shunga o‘xshash loyihalarning muvaffaqiyatlarini joriy loyihaga moslashtirish uchun ularning tajribasi va natijalariga murojaat qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv taklif etilayotgan loyihaning ichki va tashqi muhit sharoitlari o‘xshash omillarga sezilarli darajada o‘xshash bo‘lganda qo‘llaniladi.

4. Barqarorlikni baholash usuli yoki kritik nuqtalarni hisoblash deb ham ataladigan kritik daraja ko‘rsatkichlarini o‘rganish loyihani amalga oshirish sharoitlarining mumkin bo‘lgan o‘zgarishlari nuqtai nazaridan loyihaning barqarorligini aniqlashga qaratilgan.

5. Kritik daraja ko‘rsatkichlarini o‘rganish usuli, shuningdek, barqarorlikni baholash usuli yoki kritik nuqtalarni hisoblash deb ham ataladi, uni amalga oshirish shartlarining mumkin bo‘lgan o‘zgarishlari nuqtai nazaridan loyihaning barqarorligini aniqlashga qaratilgan.

6. Loyihaning sezgirligini tahlil qilish nafaqat asosiy o‘zgaruvchilar qiymatlarining o‘zgarishi loyihaning umumiy samaradorligiga qanday ta’sir qilishini baholash, balki ularni turli kontekstlarda yoki stsenariylarda loyiha natijalariga aylantirish imkonini beradi.

7. Loyiha rivojlanishining mumkin bo‘lgan stsenariylarini tadqiq qilish usuli shu bilan farq qiladiki, u loyiha rivojlanishining bir nechta variantlarini uning kelajagining turli imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratishni o‘z ichiga oladi. Bunda nafaqat optimistik va eng ehtimoliy stsenariylar tahlil qilinadi, balki omillar o‘zgarishining pessimistik varianti ham inobatga olinadi.

Shuningdek, statistik usul, sezgirlikni tahlil qilish usuli (sensitivity analysis), stsenariylarni tahlil qilish usuli, qarorlar daraxti usuli ham keng tarqalgan [4].

Ko‘rsatilgan usullarni qo‘llash nafaqat investitsiya loyihasi risklarini miqdoriy tahlil qilish, balki ushbu omillar uning umumiy samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini beradi. Investitsion riskni baholashning statistik usulini qo‘llashdagi muhim qiyinchiliklardan biri olingan natijalarni talqin qilishning murakkabligidir. Statistika aniq raqamlar va raqamli ko‘rsatkichlarni taqdim etsa-da, ularni to‘g‘ri tushunish, ayniqsa bu sohada chuqur bilimga ega bo‘lmaganlar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Statistik tahlil yordamida olingan xulosalar investitsiya sohasida asosli qarorlar qabul qilish uchun foydali

bo‘lishi uchun puxta talqin va kontekstni talab qiladi. Bundan tashqari, boshqa omillarning ta’sirini hisobga olmagan holda bir omilning o‘zgarishini izolyatsiya qilish imkoniyati cheklangan. Masalan, sezgirlikni tahlil qilishda va barqarorlikni tekshirish usullarida ko‘pincha turli o‘zgaruvchilarning ta’sirini ajratishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, bu esa natijalarning ishonchliligini va prognozlarning aniqligini pasaytirishi mumkin. Statistik usullardan foydalanish ushbu cheklovlarga e’tiborli munosabatda bo‘lishni va investitsiya riskiga ta’sir qiluvchi omillarning murakkabligini hisobga olish uchun qo‘shimcha strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

$$\bar{\chi} = \frac{\Sigma x_i n_i}{\Sigma n_i}, (1)$$

bunda, $\bar{\chi}$ - o‘rtacha taxmin qilingan miqdor;

$\sum n_i$ - - har bir hodisa uchun qiymat;

x_i - taxminiy qiymat;

n_i - kuzatuvlar soni.

Yakuniy qaror qabul qilish uchun potentsial natijaning o‘zgaruvchanlik darajasini sinchkovlik bilan baholash kerak. Tebranuvchanlik kutilgan o‘rtacha qiymatning og‘ish o‘lchovidir. Real amaliyotda ko‘pincha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikkita mezon - dispersiya va o‘rtacha kvadratik chetlanish yordamida baholanadi.

Dispersiya biz uchun o‘rtacha qiymatga nisbatan variatsiya ko‘rsatkichi bo‘lib, o‘lchashda muhim ahamiyatga ega.

$$\sigma^2 = \frac{\sum (x_i - \bar{x})^2 n_i}{\sum n_i}. (2)$$

Investitsiya loyihasining o‘rtacha qiymatiga nisbatan daromadli bo‘lishi uchun variatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi, u loyiha bilan bog‘liq tavakkalchilik va noaniqlik darajasini baholash imkonini beradi. Variatsiya koeffitsiyentining qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, loyiha natijalari va xarajatlarining uning o‘rtacha qiymatiga nisbatan tarqoqligi shunchalik katta bo‘ladi. Shu sababli, variatsiya koeffitsiyentini batafsil tahlil qilish investitsiya loyihasini tadqiq etish jarayonida muhim qadam hisoblanadi. Amaliyotda bu o‘rtacha qiymatga nisbatan xavf darajasini baholash imkonini beruvchi standart og‘ish ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

$$\upsilon = \frac{\sigma}{\bar{x}} \cdot 100\%. (3)$$

Asosiy ko‘rsatkich variatsiya koeffitsiyenti bo‘lib, u 0 dan 100% gacha oraliqda o‘zgarib turadi. Belgilangan shkala bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti qiymatlarini quyidagicha baholash mumkin: 10% dan kam - past o‘zgaruvchanlikni, 10-25% - o‘rtacha o‘zgaruvchanlikni, 25% dan yuqori qiymatlar yuqori o‘zgaruvchanlikni tavsiflaydi. Agar mo‘ljallangan foyda darajasi bir xil bo‘lsa, past standart og‘ish bilan investitsiyalar ishonchliroq hisoblanadi, bu esa mo‘ljallangan foydaga erishish ehtimoli (daromadlilik variatsiyasi) ning kamroq o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Investitsiyalarni tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish, ayniqsa, o‘rtacha daromadlilikning turli qiymatlariga ega bo‘lgan imkoniyatlarni taqqoslashda juda murakkab bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda investitsiyalar to‘g‘risida qaror qabul qilishda asosiy omil variatsiya koeffitsiyenti

bo‘lib, u daromadlilikka bog‘liq bo‘lgan tavakkalchilik o‘lchovidir. O‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti pastroq bo‘lgan investitsiya loyihalari afzalroq hisoblanadi, chunki ular daromadlilik va tavakkalchilikning yanada foydali kombinatsiyasini ifodalaydi. Bunday yondashuv chuqurroq va asosli tahlilni ta’minlaydi, shuningdek, investitsiya strategiyalarini oqilona belgilash imkonini beradi.

Investitsion loyihalash jarayonida riskni baholash uchun sezgirlikni tahlil qilish usuli keng qo‘llaniladi [5]. Ushbu usul tavakkalchilikni nafaqat mavhum tahdid sifatida ko‘rib chiqadi, balki tavakkalchilikni ekspluatatsiya sharoitidagi o‘zgarishlarning loyihaning asosiy ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘lchovi sifatida o‘rganish imkonini beruvchi vositadir.

Investitsiya loyihasi muvaffaqiyatining sof keltirilgan daromad, ichki daromadlilik me’yori va boshqalar kabi asosiy ko‘rsatkichlariga turli omillarning ta’sirini chuqur o‘rganish sezgirlik tahlilining asosiy maqsadi hisoblanadi [6].

Risklarni baholash usullarini o‘rganish zamonaviy biznesda oqilona strategik qarorlar qabul qilish uchun samarali tahlilning ajralmas ahamiyatini ta’kidlaydi. Usullarni ko‘rib chiqish ularning afzalliklari va kamchiliklarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi, bu esa moliyaviy xatarlarni baholashga kompleks va moslashuvchan yondashuv uchun asos yaratadi.

Ta’kidlash joizki, risklarni baholashning turli usullarini birgalikda qo‘llash moliyaviy jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan kompleks va dinamik yondashuv bo‘lib, bozorning o‘zgaruvchanligi sharoitida tashkilotni yanada barqaror boshqarishni ta’minlaydi. Boshqaruv hisobiga zamonaviy uslubiyotlarni faol joriy etish biznes olamida imkoniyatlarni yanada aniqroq aniqlash va risklarni samarali boshqarish istiqbollarini ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-sonli «Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni.
2. Аскинадзи, В. М. Инвестиционный анализ: учебник для академического бакалавриата: для студентов высших учебных заведений, обучающихся по экономическим направлениям / В. М. Аскинадзи, В. Ф. Максимова. – Москва: Юрайт, 2019. – 422 с.
3. Amonova N.U. Loyihaviy moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. -T.: Innovasion rivojlanish nashriyot matbaa uyi. 2023. – 280 b.

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR VA ULARNING BANK AKTIVLARIGA TA’SIRI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Bank va moliya kafedrasi Mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17461658

Annotatsiya. *Ushbu maqolada banklarda muammoli kreditlar ulushining bank aktivlariga ta’siri tahlil qilinadi. Muammoli kreditlarning ortishi banklarning likvidlik va rentabellik darajasiga hamda umumiy moliyaviy barqarorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishi muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada muammoli kreditlarni kamaytirish bo‘yicha xalqaro tajriba va samarali boshqaruv strategiyalari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tijorat banklari, aktiv, likvidlik, rentabellik, muammoli kredit, kapital, moliyaviy barqarorlik.*

Abstract. *This article analyzes the impact of the share of non-performing loans in banks on bank assets. It examines how the increase in non-performing loans affects liquidity, profitability, and overall financial stability. The article also explores international practices and effective management strategies to reduce the share of non-performing loans.*

Keywords: *Commercial banks, asset, liquidity, profitability, non-performing loan (NPL), capital, financial stability.*

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние доли проблемных кредитов в банках на активы банков. Рассматривается, как рост проблемных кредитов влияет на уровень ликвидности, рентабельности и общую финансовую стабильность банков. Также в статье анализируется международный опыт и эффективные стратегии управления для снижения доли проблемных кредитов.*

Ключевые слова: *Коммерческие банки, актив, ликвидность, рентабельность, проблемный кредит, капитал, финансовая стабильность.*

KIRISH

Bank tizimi iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib, uning barqarorligi va samaradorligi mamlakatning moliyaviy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bank aktivlarining sifat va miqdoriy tarkibi, xususan, muammoli kreditlar ulushi banklarning moliyaviy holatiga hamda iqtisodiyotning umumiy vaziyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli kreditlar banklarning aktivlarida to‘plangan bo‘lib, ularning ko‘payishi nafaqat banklarning rentabelligini pasaytiradi, balki moliyaviy tizimning barqarorligini ham xavf ostiga qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish va bank sohasidagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar hamda farmonlar ushbu masalaga alohida e’tibor qaratmoqda. Masalan, Prezidentning 28.01.2022-yildagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- sonli[1] Farmoni muammoli kreditlarni kamaytirish va bank aktivlarining sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu farmonda bank tizimini mustahkamlash va muammoli kreditlarni bartaraf etish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Узоқ муддатли истиқболда корхоналарнинг самарадорлиги, уларнинг ривожланишини таъминлаш ва рақобатбардошлигини ошириш, биринчи навбатда уларнинг инвестицион фаоллиги даражаси билан белгиланади. Инвестиция рискларини малакали баҳолаш лойиҳани амалга ошириш шартлари ўзгарган тақдирда ҳам уни амалга ошириш имконини беради.

Корхоналар фаолиятининг узоқ муддатли даврдаги самарадорлиги, энг аввало, уларнинг инвестицион фаоллиги даражаси, яъни реал активларга инвестициялаш билан белгиланади. Ҳозирги босқичда инвестиция ва молиявий таҳлилнинг ўзаро таъсири ва ўзаро боғлиқлиги масалалари айниқса долзарбдир, чунки уларнинг комбинациясида корхонанинг молиявий-инвестиция фаолияти ва рискларни баҳолашнинг янги концепциялари ва усуллари бўйича янги бошқарув қарорларини танлаш ва асослашни таъминлаш учун таркибий элементлар тўпламини шакллантириш мумкин [2].

Молиявий-инвестицион таҳлилнинг муҳим вазифаси объектив ва субъектив рискларни ҳисобга олган ҳолда лойиҳани амалга ошириш натижаларини ва унинг корхонанинг молиявий ҳолатига таъсирини аниқлашдир [3]. Молиявий-инвестицион фаолият йўналишларини тадқиқ этиш ва рискларни баҳолашнинг долзарблиги жаҳондаги тобора ортаётган иқтисодий беқарорликнинг ошиши билан янада кучаймоқда.

Молиявий қўйилмалар туфайли юзага келадиган хавф-хатар муқаррардир. Кўпгина инвестиция лойиҳаларида мавжуд бўлган риск муаммолари умумий ҳодиса ва универсал феноменология деб аталади, яъни тегишли лойиҳалар тегишли риск муаммоларига дуч келади. Инвестиция риски тасодифийликка эга, яъни инвестиция лойиҳалари инвесторларга кутилмаган, тасодифий рискларни келтириб чиқаради.

Инвесторлар ўз тажрибалари ва омадларига асосланиб, лойиҳаларга сармоя киритадилар. Инвестиция режимининг бу тури нисбатан субъективдир. Бироқ, инвесторлар ҳар доим якуний олинган пул миқдори ҳақида нисбатан ноаниқ тасаввурга

эга бўладилар, бу эса рискларни баҳолаш концепциясини жорий этмасдан рискларни бошқариш сифатига таъсир кўрсатади [4].

Рискни баҳолаш инвестиция лойиҳалари самарадорлигини таҳлил қилишнинг энг асосий ва ажралмас қисмидир. Инвестиция фаолияти инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш ҳамда корпоратив ҳуқуқлар ва бошқа турдаги мулкий ҳамда интеллектуал қимматликлар билан боғлиқ операцияларни ўтказиш орқали таъминланади.

Бизнингча, инвестиция лойиҳаси - бу миллий иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг миллий қадриятлар тизими ва вазифалари асосида белгиланган жорий қийматлардан фойдаланган ҳолда инвестиция фаолияти субъектлари томонидан амалга ошириладиган алоҳида тармоқлар, иқтисодиёт секторлари, ишлаб чиқаришлар, ҳудудларни ривожлантиришга қаратилган (ташкилий-ҳуқуқий, бошқарув, таҳлилий, молиявий ва муҳандислик-техник) чора-тадбирлар мажмуасидир.

Инвестицион рискларнинг белгиловчи асосий белгилари бўлиб инвестицион муҳит, лойиҳанинг давомийлиги ва ҳажми, риск позицияси, профили, риск-иштаҳаси, инвестиция лойиҳасига таъсир кўрсатиш оқибатлари, қуввати ва натижалари ҳисобланади.

Инвестиция рискини таҳлил қилиш [5] қуйидаги кетма-кетликни назарда тутади:

- инвестиция лойиҳаси рискларини идентификациялаш; инвестиция риски шаклланишининг аниқланган ички ва ташқи омиллари рўйхатини аниқлаш;
- сифат ва миқдорий таҳлилнинг икки ёки ундан ортиқ ёндашувларидан фойдаланган ҳолда маълум бир хавф турини баҳолаш;
- молиялаштириш ҳажми ва манбаларининг молиявий мақсадга мувофиқлигини аниқлаш;
- инвестицияларнинг иқтисодий мақсадга мувофиқлиги ва самарадорлигини аниқлаш;
- таваккалчиликнинг алоҳида тури даражасини оширувчи ёки камайтирувчи омилларни аниқлаш;
- таваккалчиликнинг йўл қўйиладиган даражасини ўрнатиш учун мезонларни танлаш;
- таваккалчилик даражасидан қочиш ёки уни камайтириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш.

Рискнинг сифат таҳлили хавф омилларини, хавф соҳасини, одатда, эксперт йўли билан аниқлашни назарда тутади. Бунда корхона таъсир кўрсата олмайдиган (ташқи ёки объектив), шунингдек, корхона таъсирига учрайдиган (лойиҳанинг ўз таваккалчилиги, корпоратив ёки ички фирма таваккалчилиги, бозор таваккалчилиги) рисклар кўриб чиқилади [6].

Жаҳон молиявий таҳлил ва менежмент амалиётида инвестиция лойиҳасининг ўз рискини таҳлил қилишнинг турли усулларидан фойдаланилади. Энг кенг тарқалган усулларга қуйидагиларни киритиш мумкин: дисконт меъёрига тузатиш киритиш усули; рискни ҳақиқий ўлчаш, ишончли эвивалентлар усули; самарадорлик мезонларининг сезгирлигини таҳлил қилиш; сценарийлар усули; тўлов оқимларининг эҳтимолий тақсимланишини таҳлил қилиш; “қарорлар дарахти” усули; имитацион моделлаштириш (Монте-Карло усули), статистик, эксперт, аналогиялар усули. Инвестицион рискларни баҳолашнинг ушбу усулларининг тавсифи 1-жадвалда келтирилган [7].

1-жадвал

Инвестиция рискларини баҳолаш усуллари тавсифи [7]

Усул	Тавсифи
Рискни ҳисобга олган ҳолда дисконт меъёрига тузатиш киритиш усули (risk adjusted discount rate approach - RAD)	Рисксиз ёки минимал қониқарли деб ҳисобланган дисконтнинг базавий меъёрига тузатиш киритишдан иборат. Рискка тузатиш киритилган дисконтлаш ставкаси - бу рискли инвестицияларнинг жорий қийматини ҳисоблашда риск учун кутилаётган мукофотни рисксиз ставка билан бирлаштириш натижасида олинган ставкадир.
Ишончли эквива-лентлар (аниқлик коэффициентлари) усули	Лойиҳани амалга оширишнинг ҳар бир даври учун махсус пасайтирувчи коэффициентларни жорий этиш орқали дисконт меъёрига эмас, балки тўловлар оқимининг кутилаётган қийматларига тузатиш киритишни назарда тутади.
Ҳақиқий риск ўлчови	Рискни ўлчаш олдинги маълумотлардан тадқиқот шарти сифатида фойдаланади, мос ҳолдаги инвестиция рискини баҳолайди ва эҳтимоллик назариясига мувофиқ зарарларни аниқлайди. Молиявий инвестициялар рискини баҳолаш учун эҳтимоллик ҳисоблашлар орқали молиявий инвестициялар келтириб чиқарадиган зарарлар таҳлил қилинади. Йўқотишлар частотасини баҳолашнинг икки тури мавжуд. Дастлаб эҳтимоллар тақсимоти назарияси йўқотишлар тақсимоти тўғрисида эмпирик маълумот олиш учун олдинги ахборотлар маълумотларини саралаш учун ишлатилади, сўнгра тақсимот ҳолатига қараб рискнинг пайдо бўлиш эҳтимоли баҳоланади. Иккинчидан, ахборот йўқотилиши эҳтимоллар тақсимоти жадвалини шакллантириш учун асос сифатида қаралади. Маълумот аниқ бўлса, баҳолаш натижаси ишончлироқ бўлади.
Статистик усул	Молиявий қўйилмаларнинг кутилаётган даромадлиликдан четланишини баҳолаш ва инвестицион даромаднинг йўқотилишини башорат қилиш учун ишлатилади. Дисперсия қиймати қанчалик катта бўлса, инвестицион риск индекси шунчалик катта бўлади; иккинчиси - қиймат рискини баҳолаш бўлиб, у йўқотишларнинг максимал қийматини ўлчаш борасида муҳим хусусиятга эга. Бошқача қилиб айтганда, индекс молиявий активларнинг ҳақиқий риск даражасини аниқ кўрсатиши мумкин. Индекс қанчалик катта бўлса, инвестиция риски шунча юқори бўлади. Демак, корхона рискни баҳолаш даврида индекс ёрдамида баҳолаш вазифасини бажариши лозим.
Хавф-хатарлар-нинг эксперт	Лойиҳа билан ишлашнинг дастлабки босқичларида

таҳлили	етарли маълумотлар бўлмаганда қўлланилади, бу экспертлар томонидан ҳар бир хавф тури бўйича баҳо бериш ва мезонларнинг вазн коэффициентларини ҳисобга олган ҳолда рискнинг интеграл даражасини ҳисоблашдан иборат.
Аналогиялар усули	Йўқотишлар эҳтимолини ҳисоблаш мақсадида шунга ўхшаш лойиҳаларни амалга оширишга оид корхона ихтиёрида мавжуд бўлган барча маълумотларни таҳлил қилишдан иборат.
Сценарий таҳлили	Таҳлилчи ёки инвестордан учта мумкин бўлган сценарийни яратишни талаб қилади: Асосий сценарий одатий/типик ҳолатга, вазиятгага тегишли. Масалан, инвестицияларнинг соф жорий қийматини аниқлаш учун дисконтлаш ставкаси ва солиқ ставкасидан фойдаланиш мумкин. Энг ёмон сценарий, агар бирор нарса режалаштирилганидек бўлмаса, содир бўлиши мумкин бўлган энг экстремал вазиятни англатади. Энг яхши сценарий энг мақбул прогноз қилинадиган натижага тегишли.
Лойиҳанинг сезгирлигини таҳлил қилиш	Лойиҳанинг дастлабки параметрлари ўзгаришининг унинг якуний натижасига таъсирини баҳолашдан иборат бўлиб, одатда лойиҳа соф келтирилган қиймати (NPV)га таъсирини аниқлашда қўлланилади.

Инвестиция лойиҳалари рискларини баҳолашда сценарий таҳлили ва сезгирлик таҳлили риск суммаси ва потенциал фойдани аниқлашда ўхшашликка эга. Бу икки усул ўртасидаги фарқ шундаки, сезгирлик таҳлили бир вақтнинг ўзида фақат битта ўзгарувчининг ўзгариш таъсирини ўрганади. Бошқа томондан, сценарий таҳлили барча кириш ўзгарувчиларининг бир вақтнинг ўзида ўзгариши таъсирини баҳолайди. Бундай ёндашувда таҳлилчи келажакда содир бўлиши мумкин бўлган турли хил ҳодисаларни ўйлаб топади. Сезгирлик таҳлили маҳсулот ёки хизматлар баҳосининг маълум бир фоизга ошиши кейинчалик сотилган маҳсулот миқдорининг неча фоизга камайишига олиб келиши ҳақидаги прогнозни ифодалайди.

Замонавий шароитларда инвестиция рискларини баҳолаш учун бизнинг фикримизча, сезгирликни таҳлил қилиш усулидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ, чунки бу усул етарлича содда (фақат битта кириш параметрини созлаш жараёнини ва унинг умумий моделга қандай таъсир қилишини ўрганишни назарда тутади) ва бошқа усулларга нисбатан бир қатор афзалликларга эга: чуқур баҳолашни таъминлайди ва далилларни текширишга ёрдам беради. Лойиҳанинг сезгирлигини таҳлил қилиш ушбу лойиҳанинг белгиланган параметрлари маълум даражада ўзгарганда лойиҳа самарадорлигининг асосий кўрсаткичи (NPV ёки IRR) қанчалик ўзгаришини кўрсатади. Дастлабки шарт-шароитлар ўзгарганда лойиҳанинг самарадорлик кўрсаткичлари қанчалик кучли ўзгарса,

яъни лойиҳа бевосита ва билвосита омилларнинг ўзгаришига қанчалик сезгир бўлса, лойиҳанинг риск даражаси шунчалик юқори бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019-йил 25-декабрдаги ЎРҚ-598-сонли «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида»ги қонуни.
2. Котова О.С., Заступов А.В. Сравнительный анализ оценки рисков инвестиционной деятельности предприятий // Проблемы развития предприятий: теория и практика. – 2018. – № 1. – С. 189-192.
3. Лесников Р.В., Ленина В.В. Методы оценки инвестиционных рисков на машиностроительном предприятии // Тенденции развития науки и образования. – 2018. – № 44-2. – С. 61-67.
4. Аслаханова С.А., Бачаев А.А. Риск как составная часть инвестиционной деятельности. Основные виды инвестиционных рисков, методы оценки и управления//Финансовая экономика. – 2019. – № 4. – С. 895-898.
5. Зарипова И.Р., Минеева В.М., Дворников Н.В., Меркурьев Е.О. Методология анализа экономических рисков в инвестиционных проектах // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2020. – № 3 (153). – С. 86-92.
6. Халяпин А.А. Инвестиционное проектирование в перерабатывающей отрасли АПК / А.А. Халяпин, А.Н. Яковенко, К.К. Токарев // Вестник академии знаний. – Краснодар: ООО «Академия знаний», №43(2), 2021, с. 423-432.
7. Сервис оценки рисков Мастер-план [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.masterplans.ru/!risk/ .

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL BUDJETLASHTIRISH”: BAJARILGAN ISHLAR VA KELGUSIDAGI REJALAR

Xudoyberdiyeva Umida Yoqub qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17377966

Annotatsiya. *Ushbu maqolada iqtisod barqarorligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishining oldini olish va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida “yashil iqtisod”ga o‘tish masalasi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ekologik maqsadlarga erishish uchun budjet va fiskal siyosat vositalaridan foydalanish, O‘zbekistonda “yashil budjetlashtirish” amaliyotiga o‘tish, uning afzalliklari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat moliyasi, budjet siyosati, ekologik budjet, davlat sektori subyektlari, davlat budjeti mablag‘lari, “yashil iqtisod”, “yashil budjetlashtirish”.*

Kirish. Darhaqiqat, butun dunyoda avj olib borayotgan iqlim o‘zgarishi muammosidan aziyat chekmagan, uning ortidan paydo bo‘ladigan salbiy oqibatlar jabrini tortmagan inson yo‘q bo‘lsa kerak. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan sanoat bir tomondan inson hayotida qaysidir ma’noda yengillik berayotgan bo‘lsa, bilaks, qayerdadir oyog‘imizdan chalmoqda, turli tuman

ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ham ko‘plab mamlakatlar iqtisodida “yashil budjetlashtirish”, “yashil iqtisod” atamalari allaqachon paydo bo‘lib, rivojlanish yo‘lida ildamlamoqda desak ham adashmagan bo‘lamiz. Ha, mamlakatimizda ham bu sohada bajarilayotgan ishlar, tadbiq etilayotgasn rejalar sarhisobini qiladigan bo‘lsak, yetarlicha gapira olamiz. Masalan, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2025-yilning “Atrof muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilishi zamirida ham katta ma’no yashiringan. O‘zbekiston iqtisodini yaxshilash, sanoatini har tomonlama rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar manashu yil nomida yaqqol o‘z aksini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakatimiz iqtisodi rivojlanishi, aholi sonining ko‘payishi har tomonlama qulay, ya’ni, xavsiz va barqaror energiyaga talabning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan manashu mavzuda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning davlatimiz mustaqilligining 34 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida e’tirof etib o‘tganlar. “Yashil iqtisod” nafaqat energetikada, balki, ijtimoiy sohada, urbanizatsiya jarayonlari ham “yashil iqtisod” tamoyili asosida barpo etilayotgani ko‘zni quvontiradi.

O‘zbekiston barqaror rivojlanishni to‘laqonli ta’minlash, ekologik muammolarni oldini olish va xavfsizlikni mustahkamlash, hamda “yashil iqtisod”ga o‘tishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olgan. Shunday ekan, “yashil budjetlashtirish” amaliyoti ham bu ustuvor yo‘nalishlarda ko‘zga ko‘ringan muhim bir omil sifatida e’tirof etishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. “Yashil iqtisod” rivojlanshining dastlabki bosqichlarida “yashil budjetlashtirish” atamasi yangi bir yondashuv bo‘lib, uning aniq bir ta’rifi hamda metologiyasi yo‘q bo‘lgan. Bu mamlakatimiz iqtisodi uchun yangi mavzu. Shu sababli ham ushbu mavzu bo‘yicha juda kam tadqiqotlar olib borilgan. O‘quv adabiyotlarini esa deyarli uchratmaymiz. Ijtimoiy yo‘naltirilgan boshqaruv (ESG) konsepsiyasini hayotga tatbiq etish jarayonida ko‘plab davlatlar o‘zlarining moliyaviy va budjet tizimlarini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida qayta shakllantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu borada, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va ekologik ustuvor yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “yashil” moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish hamda davlat budjetini “yashillashtirish” g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro miqyosda ishlab chiqilgan metodologiyalar, masalan, Yevropa Ittifoqining yashil taksonomiyasi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) hamda Parij kelishuvi kabi global tashabbuslar “yashil” budjetlash jarayoniga nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, davlatlar uchun budjet va moliyaviy siyosatni ekologik barqarorlik mezonlari asosida shakllantirish bugungi kunda strategik vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, “yashil” budjetni “yashil” moliyalashtirish kontekstida ko‘rib chiqish davlatning moliyaviy siyosatini yanada tizimli, uzoq muddatli va barqaror rivojlanishga qaratilgan holda olib borish imkonini beradi. Bu esa nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish va aholining turmush sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada ma’lumotlarni tahlil qilishda statistik guruhlash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mamlakatning “yashil iqtisodi” samaradorligini baholashda muhim ko‘rsatkich sifatida “yashil budjetlashtirish” jarayonini o‘rganishga qaratilgan. Shu jumladan, ushbu jarayonning nazariy va uslubiy asoslarini chuqur tahlil qilish, “yashil budjetlashtirish”ning mamlakat iqtisodidagi o‘rni va rivojlanish darajasini aniqlash hamda uni uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslash tadqiqotning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Natija va muhokama. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ekologik siyosatni moliyaviy mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida sezilarli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, davlat budjeti xarajatlarida ekologik loyihalar uchun ajratilayotgan mablag‘lar miqdori bosqichma-bosqich oshmoqda hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda “yashil budjetlashtirish”ni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar izchil amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodning barcha sohalarida “yashil iqtisod” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda milliy siyosatni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, tabiiy ofatlar xavfini samarali boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari va budjet jarayonlarini ushbu omillarni inobatga olgan holda tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, oqibatlarini yumshatish bo‘yicha rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va baholash jarayonlarida ham partisipativ yondashuvni qo‘llash “yashil budjetlashtirish”ning dolzarbligini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan PQ-436-sonli qarori — **“2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** hamda boshqa ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni jadallashtirish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga mustahkam huquqiy asos yaratmoqda.

O‘zbekistonning 2019–2030-yillarda “yashil iqtisod”ga o‘tishini tartibga soluvchi, mamlakatda ekologik barqaror iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, “yashil” investitsiyalarni jalb etish hamda ekologik muammolarning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodning barcha sohalarida resurslarni tejash hamda xalq xo‘jaligining tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishlariga chidamliligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar hajmi ham ortib bormoqda. To‘g‘ri, bu qaysidir ma’noda xarajatdir, ammo shuni unutmasligimiz kerakki, hozir ushbu chora-tadbirlarni keyinroqqa qoldirsak, e’tiborimizni bundan ham muhimroq deb o‘ylagan boshqa sohaga jalb etsak, menimcha kelgusidagi harajatlarimiz hozirnikidan anchagina qimmatli bo‘ladi, badali ham og‘ir bo‘ladi. Ha, “yashil budjetlashtirish” davlatimiz oldidagi eng to‘g‘ri, ishonchli, kelajagi bor bo‘lgan muhim bir yo‘l. Bu yo‘lda O‘zbekiston qaysidir ma’noda ma’lum bir masofani bosib o‘tdi. Bundan keyingi marralar ham shak shubhasiz bizkini.

1-jadval. 2020-2022 yillarda iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan budjet xarajatlari

	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Davlat budjeti xarajatlari, jami (milliard so‘m)	144 143	188 157	236 579
Iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar, jami (mlrd. so‘m)	14 878	16 809	26 302
YAIM (milliard so‘m)	602 193	738 425	888 342
Iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar (Jami budjet xarajatlariga foiz ko‘rinishida)	10,3%	8,9%	11,1%
Iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar (YAIM foizi ko‘rinishida)	2,5%	2,3%	11,1%

Davlat budjeti xarajatlari, jami, yillar kesimida foiz ko‘rinishidagi o‘zgarish		130,6%	125,7%
Iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar, yillar kesimida foiz ko‘rinishidagi o‘zgarish		113,0%	156,5%

Tahlil qilingan davr mobaynida iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan davlat budjeti xarajatlarida sezilarli o‘sish kuzatilgan. Mazkur xarajatlar nafaqat mutlaq sonlarda oshib bordi, balki yillar kesimida ham foiz ko‘rinishidagi o‘zgarishlar bilan ajralib turdi. Bunda iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlarning davlat budjeti umumiy xarajatlari va yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibidagi ulushi ham ma’lum darajada o‘zgarib bordi. Jumladan, 2020-yilda ushbu xarajatlarning davlat budjeti umumiy xarajatlaridagi ulushi 10,3 foizni, YAIMdagi ulushi esa 2,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 11,1 foiz va 3,0 foizgacha ko‘tarildi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlarning hajmi yildan-yilga muntazam ravishda o‘sib bormoqda. 2022-yil yakunlariga ko‘ra, mazkur xarajatlarning umumiy hajmi 26 302,4 milliard so‘mni tashkil qildi. Bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlash va “yashil iqtisod” tamoyillarini amaliyotga keng joriy etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarning ortib borayotganidan dalolat beradi. Natijada, davlat budjeti doirasida iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan loyihalar va dasturlarni moliyalashtirish hajmining ortishi nafaqat iqtisod tarmoqlarini modernizatsiya qilishga, balki ekologik muvozanatni saqlashga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu xarajatlar tarkibining o‘sib borishi O‘zbekistonda “yashil budjetlashtirish” tizimini bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini ko‘rsatadi.

“Yashil iqtisodiyot siyosati ko‘plab mamlakatlarda va O‘zbekistonda ham ustuvor yo‘nalishga aylanib bormoqda. Milliy budjet esa bu siyosatni amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi, BMTTD va AFD yashil iqtisodiyot uchun budjetdan samarali foydalanish maqsadida Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga hamrohlik qilish uchun kuchlarni birlashtiradi”.[48] 2024-yil 6-may kuni Fransiya taraqqiyot agentligining Markaziy Osiyo bo‘yicha vakolatxonasi direktori janob Vinsent Kaupin, Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi elchisi xonim Sharlotta Adrian va BMT Taraqqiyot dasturining mamlakatdagi doimiy vakili janob Anas Fayyad Qarman ishtirokida moliyaviy bitim imzolandi. Ushbu kelishuv uch tomonlama hamkorlikni mustahkamlash hamda O‘zbekiston hukumatining yashil ustuvor yo‘nalishlari va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bitim doirasida Yevropa Ittifoqi tomonidan 600 ming yevro miqdorida grant ajratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu mablag‘ AFD va BMTTD hamkorligida 2024–2026 yillarda qo‘shma loyihani amalga oshirish uchun texnik yordam ko‘rinishida yo‘naltirildi. O‘zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi esa ushbu loyihaning milliy hamkori sifatida faol ishtirok etdi. Fransiya taraqqiyot agentligining Markaziy Osiyo bo‘limi rahbari janob Vinsent Kaupen o‘z nutqida shunday dedi: “Agar biz hozirda sanitariya va geosiyosiy inqirozlarni boshdan kechirayotgan bo‘lsak, ekologik inqiroz biz bilan ham ekanligini unutmasligimiz kerak. Bu inqirozni yengish va yaratilgan imkoniyatlardan foydalanish uchun bizga vositalar kerak. Tartibga solish bitta. Lekin moliyaviy siyosat ham kuchli vosita bo‘lishi mumkin”, seminar mavzusining kelajak avlod uchun

[48] Fransiya taraqqiyot agentligining Markaziy Osiyo bo‘yicha vakolatxonasi direktori

dolzarbligini ta’kidlash maqsadida u o‘z so‘zini “Biz Yerni ajdodlarimizdan meros emas, biz uni farzandlarimizdan qarzga oldik” degan hind maqolini keltirish bilan yakunladi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz kelajakda “yashil iqtrisod”, “yashil budjetlashtirish” sohalarida qilmoqchi bo‘lgan sayi harakatlari ham yetarlicha. Misol qilib Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan birgalikda moliyalashtirilayotgan Global ekologik fond (GEF)ni olishimiz mumkin. Ushbu loyihalarning umumiy budjeti taxminan 6,5 million dollarni tashkil etadi, amalga oshirish 2030 yilgacha rejalashtirilgan.

Yana misol qilib keltirishimiz mumkinki, 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida qator ustuvor maqsadlar yoritib o‘tilgan. Masalan, strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi: issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish; sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish; yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish; iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish; yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish; respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish; Mazkur ustuvor yo‘nalishlarda qilinajak ishlar shubhasiz allaqachon boshlab yuborilgan, va davom etajak.

Xulosa. Ushbu maqolada O‘zbekistonda “yashil budjetlashtirish” tizimida amalga oshirilayotgan ishlar va kelajakda bajarilishi rejalashtirilgan vazifalar yoritib o‘tilgan bo‘lib, xalqaro tajriba va milliy amaliyotlarga tayangan holda mamlakatimiz iqtisodini barqaror rivojlantirish yo‘li tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “yashil budjetlashtirish” faqatgina ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga ham xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali davlat mablag‘larining atrof-muhitga ta’siri baholanib, ekologiyani yaxshilashga qaratilgan loyihalar ustuvorlikka ega bo‘ladi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiyalarni kengaytirish uchun qulay sharoit yaratiladi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodga o‘tishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, u energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish, zararli chiqindilarni kamaytirish va chiqindilarni qayta ishlashni tezlashtirish kabi masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, mamlakat yashil moliyalashtirish mexanizmlari, ESG dasturlari va ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Ammo ta’kidlab o‘tish joizki, sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, samaradorlik va barqarorlikni yanada oshirish, uning bardavomligi va foydaliligini yanada rag‘batlantirish uchun ekologik soliqlar va resurslarni boshqarish siyosatini amalda qo‘llash va ularni yanada takomillashtirish zarur deb o‘ylayman. Puxta o‘ylanib, tajriblalardan “butun” o‘ta olgan yashil moliyaviy vositalarning joriy etilishi ham ekologik barqarorlikni yaxshilashga oz bo‘lsada o‘z hissasini qo‘shadi, davlat daromadlarini ko‘paytiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni

rag‘batlantiradi. Moliyaviy siyosatni barqarorlik maqsadlariga muvofiqlashtirish orqali O‘zbekiston yanada yashil va barqaror iqtisodga o‘tishda muvaffaqiyatga erishadi deb o‘ylayman va bunga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
2. Davlat statistika qo‘mitasi www.stat.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi https://www.imv.uz
4. Ismailova Nasiba Komildjanovna GREEN BUDGETING AS A NEW TOOL OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND THE PRACTICE OF ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN American Journal of Business Management, Economics and Banking
5. Xudoyberdiyeva Umida Yoqub qizi O‘ZBEKISTONDA “YASHIL BUDJETLASHTIRISH”NI JORIY ETISH: XALQARO
6. MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT Moliya ilmiy jurnali 80-b
7. D.Po‘latov, U.Qo‘lliyev, X.Bakirov “Yashil budjetlashtirish”. Uslubiyot. Toshkent-2023.
8. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil iqtisodiyot” darslik. Toshkent: “Zebo print”, 2021-y

3-SHO‘BA

ZAMONAVIY IQTISODIY TADQIQOTLARDA METODOLOGIYA VA TAHLIL VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

***

SECTION 3

ISSUES OF DEVELOPING METHODOLOGY AND ANALYTICAL TOOLS IN MODERN ECONOMIC RESEARCH

***

СЕКЦИЯ 3

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОЛОГИИ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ИНСТРУМЕНТОВ В СОВРЕМЕННЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

ИҚТИСОДИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МЕТОДОЛОГИЯСИДА НАЗАРИЙ ВА ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ УСУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ

Ашуров Зуфар Абдуллоевич[1], Уролов Нурбек[2]
[1]Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини
тадқиқ этиш маркази директори ўринбосари, и.ф.ф.д. (PhD), проф;
[2]TDIU "International Finance" akademik litseyi, Iqtisodiyot yo‘nalishi 2 bosqich o‘quvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17489951

Аннотация. *Мақолада иқтисодий тадқиқотлар методологиясининг мазмун-моҳияти очиб берилади ҳамда назарий ва эмпирик усулларнинг ўрни тизимли равишда таҳлил қилинади. Муаллиф назарий усуллар ҳамда амалиётга йўналтирилган эмпири усулларни иқтисодий мисоллар орқали ёритади. Назарий ва эмпирик усулларни уйғун қўллаш натижалар ишончлилигини оширади ва иқтисодий сиёсат учун амалий тавсиялар ишлаб чиқишга хизмат қилади.*

Калит сўзлар*: иқтисодий тадқиқотлар методологияси, назарий усуллар, эмпирик усуллар, абстракциялаш, анализ ва синтез, дедукция ва индукция, моделлаштириш, кузатиш, эксперимент, рақамли иқтисодиёт.*

Илмий тадқиқот – бу янги илмий билимларни ҳосил бўлиш жараёни, билиш фаолиятининг бир тури, аниқ бир мақсадга қаратилган билиш бўлиб, унинг натижалари тушунчалар тизими, қонунлар ва назариялар кўринишида пайдо бўлади. Илмий тадқиқот объективлик, такрор ишлаб чиқишлик, асослилик ва аниқлик каби кўрсаткичлар билан характерланади.

Ҳар қандай тадқиқотчи ўзига белгилаб олган аниқ вазифа ва мақсадларга боғлиқ ҳолда, аввалambор, ўз изланишига у ёки бу ёндашувни танлаб олади. Кўп ҳолларда бундай ёндашувлар бўлиб қуйидагилар ҳисобланади: 1) ҳозирга қадар синовдан ўтмаган предмет тўғрисида мавжуд билимлар асосида изланиш; 2) мавжуд бўлмаган, аммо илмий башоратлашнинг объектив маълумотларига кўра рўёбга чиқиши керак бўлган нарса устида изланиш; 3) реал фантазия нуқтаи-назаридан изланиш. Шу нуқтаи назардан, ҳар қандай илмий изланишнинг самарадорлиги тадқиқотчи томонидан танланган методологик ёндашувнинг тўғрилиги ва илмий асосланганлигига бевосита боғлиқдир.

Глобаллашув, рақамли иқтисодиёт ва сунъий интеллект технологиялари жадал ривожланаётган ҳозирги даврда иқтисодий тадқиқотларнинг методологияси янада комплекс ва интердисциплинар ёндашувни талаб этмоқда. Замонавий иқтисодий таҳлилда нафақат классик назарий моделлар, балки катта маълумотлар таҳлили (big data analysis), иқтисодий моделлаштириш, прогнозлаштириш, бихевиорал иқтисодиёт ва тизимли таҳлил усулларидан фойдаланиш зарур бўлмоқда. Шу боис, иқтисодий тадқиқотларда тўғри методологик асос изланиш натижаларининг ишончлилиги, амалий қиймати ва иқтисодий қарорлар қабул қилишда уларнинг фойдали бўлишини таъминлайди.

Иқтисодий тадқиқотлар методологияси — бу иқтисодий ҳодисалар, жараёнлар ва муносабатларни илмий таҳлил қилишда қўлланиладиган назарий асослар, принциплар, ёндашувлар ва усуллар тизимидир. У иқтисодиёт фанининг мақсади, предмети,

вазифалари ва уларни ўрганишнинг илмий йўлларини белгилайди. Иқтисодий тадқиқотлар илмий тадқиқот усуллари ёрдамида амалга оширилади.

Илмий тадқиқот усули – бу ақлий ва (ёки) амалий ишлар (жараёнлар) тизими бўлиб, у муайян билишга оид мақсадларни кўзлайди ва муайян билишга оид вазифаларни ечишга йўналтирилган бўлади. Ҳар қандай фанда, шу жумладан иқтисодиёт фанида, илмий тадқиқотнинг усуллари асосан 2 гуруҳга бўлинади:

1. Назарий тадқиқот усуллари
2. Эмпирик тадқиқот усуллари

Илмий тадқиқотнинг назарий усулларига қуйидагилар киради:

Абстракциялаш – шундай тадқиқот усулики, унда бир ажратиб олинган параметр алоҳида, бошқа параметрлар инобатга олинмаган ҳолда ўрганиб чиқилади. Абстракциялаш ўрганилаётган ҳодисанинг бир туркум хоссалари ва муносабатларини алоҳида жалб этган ҳолда, биргаликда ундан бизни қизиқтирадиган хоссаларни ва муносабатларни ажратиб олишдан иборат. Абстакциялашнинг натижаси – нисбатан мураккаб бўлган нарсани оддий нарса билан алмаштиришга имкон берадиган абстракцияларни ҳосил қилишдир. Масалан, иқтисодчи инфляция даражасига таъсир этувчи омилларни таҳлил қилар экан, фақат пул массасининг ўсишига диққат қаратиб, ташқи савдо ёки ишлаб чиқариш ҳажмини вақтинча ҳисобга олмаслиги мумкин. Бошқа бир мисол, иқтисодчи бозордаги талаб ва таклиф муносабатини ўрганар экан, бошқа омиллар (масалан, ташқи савдо ёки давлат субсидиялари)ни вақтинча четга қўйиб, фақат нарх ва миқдор орасидаги боғлиқликни таҳлил қилади. Бу орқали талабнинг нархга нисбатан сезгирлиги ҳақида хулоса чиқаради. Бу усул орқали умумий жараённинг бир қисми чуқур таҳлил қилиниб, кейинчалик синтез босқичида бутун тизимга боғланади.

Анализ – шундай фикрлаш жараёнини назарда тутадиган тадқиқот усулики, унда тадқиқ этилаётган жараён ёки ҳодиса уларни махсус ва чуқур мустақил ўрганиш учун таркибий қисмларга бўлиниб чиқилади. Анализ – бу бир бутун предметни уни ҳар томонлама ўрганиб чиқиш мақсадида таркибий қисмларга ажратиш. Анализ бир бутун нарсанинг фактлари ҳамда элементлари ўртасидаги турли боғлиқликларни аниқлаб олишни кўзда тутади ва бу моддий-мантиқий бутунлик ва тугалланганлик ҳолатини келтиради. Макроиқтисодчи мамлакат ялпи ички маҳсулотининг ўсиш суръатини таҳлил қилиш учун унинг таркибий қисмларига — истеъмол, инвестициялар, давлат харажатлари ва соф экспорт — бўлиб чиқади. Бу орқали қайси омил иқтисодий ўсишга кўпроқ таъсир кўрсатаётганини аниқлайди.

Синтез – фикрлаш жараёни бўлиб, унда аниқланган элементлар ва фактлардан бутун бир манзара тикланади. Синтез – бу илгари ажратиб қўйилган таркибий қисмларни бир бутунга бирлаштириш. Анализ ва синтез – бу бир-бирини тақозо этадиган ва тўлдирадиган ҳамда чуқур ўзаро боғланган қарама-қаршиликлардир. Анализ натижасида олинган маълумотлар асосида иқтисодчи иқтисодий ўсишнинг умумий моделини қайта тиклайди. Масалан, инвестициялар ва истеъмол ўртасидаги муносабатни синтез орқали ягона иқтисодий тизим доирасида изоҳлайди.

Аналогия – фикрлаш жараёни бўлиб, унда ўхшашлик, прототип танлаб олинади. Аналогия усули иқтисодий тадқиқотларда ўхшаш иқтисодий жараёнлар ёки моделлар асосида янги ҳодисаларни тушунтириш учун қўлланилади. Масалан, иқтисодчи Ўзбекистондаги хусусийлаштириш жараёнларини таҳлил қилар экан, Польша ёки Чехиядаги бозор ислоҳотлари тажрибасини прототип сифатида танлаб, улар ўртасидаги

ўхшашлик ва фарқли жиҳатлар асосида хулосалар чиқаради.

Дедукция – фикрлаш жараёни бўлиб, у умумий қонуниятликдан хусусий фактларга қараб фикр-мулоҳаза қилишни назарда тутуди. Дедукция – умумийдан хусусийга қараб хулоса чиқариш усулидир. Дедуктив хулоса чиқаришда бирон-бир тўплам элементи хусусидаги хулоса бутун тўпламнинг умумий хусусиятларини билиш асосида ажратиб олинади. Дедукция шу билан ажралиб турадики, дастлабки билим чин бўлган пайтда у чин хулосали билимни ҳосил қилади. Ушбу усулни қўллаб тадқиқотчи умумий қонунчиликдан хусусий ҳолатга қараб хулоса қилади. Масалан, умумий иқтисодий қонуният — “талаб ошса, нарх кўтарилади” — асосида муайян бозорда (масалан, цемент бозорида) нархлар динамикасини башорат қилади.

Индукция – фикрлаш жараёни бўлиб, у хусусий фактларни умумлаштириш мантиғига асосланган. Индукция – хусусийдан умумийга қараб хулоса чиқариш усули бўлиб, бунда бир туркум предметларнинг бир қисми тўғрисидаги билимга асосланиб, бутун туркум тўғрисида хулоса қилинади. Ушбу усулни қўллаб тадқиқотчи айрим туманлар ёки соҳалардаги ишлаб чиқариш ўсиши маълумотларига асосланиб, мамлакат миқёсидаги умумий тенденция ҳақида хулоса чиқаради. Масалан, ҳудудий саноат ўсиши орқали миллий иқтисодий ўсишни умумлаштиради.

Классификация – ўрганилаётган объект ва фактларни назарий тадқиқ этиш усули бўлиб, у ҳодисаларни бир-бирига нисбатан тартибга солишга асосланган. Масалан, иқтисодчи корхоналарни мулк шаклига кўра — давлат, хусусий, аралаш — тоифаларга ажратиб, уларнинг фаолият самарадорлигини солиштиради. Бу орқали қайси тоифа иқтисодий самарадорликни таъминлаётганини аниқлайди.

Конкретлаштириш – абстракциялашга тескари бўлган жараён бўлиб, у бутун, ўзаро алоқадор ва кўп томонлама объектни излаб топишни назарда тутади. Масалан, умумий “инвестиция фаолияти” тушунчасини олиб, унинг ичида тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар, давлат сармоялари ва хусусий капитал оқимларини алоҳида ўрганиш орқали аниқ иқтисодий механизмни белгилайди.

Моделлаштириш – модель ишлаб чиқишни назарда тутадиган тадқиқот усули. Жумладан, тадқиқотчи иқтисодий ўсишни тавсифловчи математик модель тузади (масалан, Солоу модели), унинг ёрдамида капитал ва меҳнат омилларининг ўсиш суръатларига таъсирини ҳисоблайди. Бу усул прогнозлашда кенг қўлланилади.

Умумлаштириш – энг муҳим фикрлаш жараёнларидан бири бўлиб, унинг натижасида объектлар ва улар муносабатларининг нисбатан турғун хусусиятлари аниқланади ва белгилаб олинади. Ушбу усулни қўллаб тадқиқотчи турли мамлакатлардаги солиқ сиёсати натижаларини таҳлил қилиб, умумий хулоса чиқаради — масалан, солиқ юкининг камайиши иқтисодий ўсишни рағбатлантиради деган умумий назарий хулосага келади.

Таққослаш – тадқиқот усул бўлиб, у объектларнинг ўхшашлик ва фарқли томонларини, умумий ва ўзига хос томонларини аниқлаб олиш мақсадида уларни бир-бири билан солиштиришни назарда тутади. Таққослаш усули предметлар ва воқелик ҳодисаларининг ўхшашлиги ҳамда фарқини ўрнатиб олишга имкон беради. Таққослашга бўлган талаблар: шундай ҳодисалар таққосланиши лозимки, улар ўртасида муайян объектив умумийлик бўлсин; таққослаш энг муҳим аҳамият касб этувчи белгилар бўйича амалга оширилиши лозим. Масалан, тадқиқотчи Ўзбекистондаги бозор ислоҳотлари натижаларини Қозоғистон ёки Грузиядаги шунга ўхшаш жараёнлар билан таққослаб,

қайси йўналиш самарали эканини аниқлайди.

Абстрактдан конкретга қараб бориш усулига кўра билиш жараёни 2 босқичга бўлинади. Биринчи босқичда конкретдан ҳақиқийликка, унинг абстракт таърифларига ўтиб бориш амалга оширилади. Ягона объект кўпгина тушунчалар ва фикрлар ёрдамида тавсифланади. Иккинчи босқич абстрактдан конкретга қараб бориш босқичи ҳисобланади. Бунда объектнинг дастлабки бутунлиги тикланади. У ўзининг бутун серқирралиги бўйича фикрда қайта тикланади. Масалан, ушбу усулни қўллаб тадқиқотчи аввал “бозор тизими”нинг умумий назарий моделини яратади, кейин уни Ўзбекистон шароитига татбиқ этиб, реал иқтисодий маълумотлар асосида конкрет ҳолатни таҳлил қилади.

Илмий тадқиқотнинг эмпирик усулларига қуйидагилар киради:

Суҳбат – жавоб беривчи билан шахсан алоқада бўлишни кўзда тутадиган тадқиқот усули. Масалан, тадқиқотчи иқтисодий ислоҳотларнинг таъсирини баҳолаш мақсадида корхоналар раҳбарлари ёки тадбиркорлар билан суҳбат ўтказади, корхоналар раҳбарлари билан интервью орқали корхонадаги ўзгаришлар ҳақида маълумот тўплайди.

Кузатиш – тадқиқотнинг энг кўп ахборот олиш усули бўлиб, у идроклаб бўладиган ўрганилаётган жараён ва ҳодисаларни бир чеккадан туриб кўришга имкон беради. Кузатиш – бу объектив воқелик ҳодисаларини мақсадга йўналтирилган ҳолда идрок қилиш бўлиб, бу жараён давомида ўрганилаётган объектнинг ташқи томонлари, хусусиятлари ва муносабатлари тўғрисида билимга эга бўлинади. Ушбу усул кейинги назарий ва амалий ҳаракатларнинг асоси бўлиб ҳисобланади. Кузатишга бўлган талаблар: мунтазамлик, мақсадга йўналганлик, фаоллик ва тизимлилик. Ушбу усул ёрдамида тадқиқотчи бозордаги савдо жараёнларини ёки ишлаб чиқариш корхонаси фаолиятини бевосита кузатиб, нарх ўзгаришига ёки меҳнат унумдорлигига таъсир этувчи омилларни аниқлайди. Масалан, деҳқон бозорларида талаб ва таклиф ўзгаришини мавсумий жиҳатдан кузатиш.

Ўлчаш – қандайдир миқдорий қийматни ўлчов бирлиги ёрдамида аниқлаб олиш жараёни. Ўлчаш атрофимиздаги борлиқ тўғрисида аниқ миқдорий маълумотларни олишга имкон беради. Жумладан, тадқиқотчи аҳоли даромадининг ўсиши ёки инфляция даражасини аниқлаш учун статистик кўрсаткичларни миқдорий жиҳатдан ўлчайди. Масалан, ЯИМнинг бир киши ҳиссасига тўғри келувчи ўсиш суръатини ҳисоблайди.

Кўрикдан ўтказиш – тадқиқ этилаётган объектни у ёки бу чуқурлик ва тафсилотлари даражасида ўрганиб чиқиш, у тадқиқот мақсадлари ва вазифалари билан аниқланади. Жумладан, тадқиқотчи саноат корхоналарида ишлаб чиқариш самарадорлигини баҳолаш учун кўрикдан ўтказиш ишларини амалга оширади. Масалан, энергия тежамкор технологияларнинг қўлланилиши даражасини аниқлаш учун корхоналарни ўрганади.

Тажриба иши – жараёнга дастлабки ўзгаришларни, инновацияларни унинг юқорироқ натижаларига эга бўлиш мақсадида киритиш усули. Ушбу усул ёрдамида тадқиқотчи макроиқтисодий сиёсатни баҳолаш учун “тажриба синови” усулидан фойдаланади. Масалан, маълум ҳудудда солиқ имтиёзлари жорий этилиб, бу тадбирнинг инвестиция оқимига таъсири синов тариқасида таҳлил қилинади.

Тарихий усулнинг моҳияти шундан иборатки, унда ўрганилаётган объектнинг тарихи барча майда тасодифларни инобатга олган ҳолда ўзининг бутун серқирралиги бўйича қайта тикланади. Бизни бўлиб ўтган ҳодисалар, алоҳида шахсларнинг фаолиятлари ва ҳ.к.лар қизиқтирган пайтда фақат тарихий усулдан фойдаланишимиз мумкин. Ушбу

усул инсоният тарихини ва жонсиз табиатнинг турли ҳодисаларини тадқиқ этиш каби соҳаларда қўлланилади. Масалан, тадқиқотчи бозор иқтисодиёти шаклланишининг тарихи, айниқса, 1990-йиллар ислоҳотлари даврини ўрганиб, бугунги иқтисодий тизимнинг шаклланиш босқичларини қайта тиклайди.

Эксперимент – тадқиқотнинг умумий эмпирик усули бўлиб, унинг асосида бошқариладиган шароитларда ўрганилаётган объектлар устидан қатъий назорат қилиш ётади. Экперимент – бу ўрганилаётган ҳодисаларнинг назорат қилинадиган ҳамда бошқариладиган шароитларда синовдан ўтишини тасдиқлашдир. Эксперимент фақатгина назарий хулоса мавжуд бўлган тақдирда амалга оширилиши мумкин. Экспериментнинг босқичлари: 1) илмий гипотезани ўртага ташлаш; 2) аниқ вазифани белгилаб олиш; 3) тадқиқот объектини танлаш; 4) экспериментни ўтказиш учун моддий базани тайёрлаш; 5) энг мақбул эксперимент усулини танлаш; 6) эксперимент жараёнидаги ҳодисаларни кузатиб бориш ва уларни тавсифлаш; 7) олинган натижаларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш.

Эксперимент иқтисодий тадқиқотларда, айниқса, бозор механизмларини синовдан ўтказишда қўлланилади. Масалан, солиқ ставкалари пасайиши ёки энергия тарифларининг ошиши тадбиркорлик фаолиятига қандай таъсир кўрсатишини аниқлаш учун иқтисодчи моделни яратиб, маълум шароитларда синов ўтказиши мумкин. Шунингдек, поведенческий иқтисодиётда “лабораториявий экспериментлар” орқали инсонларнинг қарор қабул қилишдаги реакциялари ва хатти-ҳаракатлари тадқиқ этилади.

Шундай қилиб, иқтисодий тадқиқотлар методологияси фаний билишнинг муҳим йўналиши бўлиб, у иқтисодий жараёнлар ва ҳодисаларни чуқур таҳлил қилиш, уларнинг ички қонуниятларини очиш ҳамда илмий асосланган хулосалар чиқариш имконини беради. Назарий ва эмпирик усулларнинг уйғун қўлланилиши иқтисодий таҳлил натижаларининг ишончлилигини таъминлайди, амалий тавсияларни илмий жиҳатдан асослашга ёрдам беради. Шу боис, иқтисодий тадқиқотларда методологик ёндашувларни тўғри танлаш ва уларни изчил татбиқ этиш мамлакат иқтисодий сиёсатини такомиллаштириш ва барқарор ривожланишга эришишнинг муҳим шарти ҳисобланади.

ЭВОЛЮЦИЯ ПАРАДИГМ ЭКОНОМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ОТ КЛАССИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ К ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ (С УЧЁТОМ ОПЫТА УЗБЕКИСТАНА)

Марина Абдурашидова[1], Мухаммад Эид Бальбаа[2]
[1]Ташкентский государственный экономический университет, ст.преподаватель,
[2]Ташкентский государственный экономический университет, PhD, доцент
https://doi.org/10.5281/zenodo.17325717

Аннотация. *В статье рассматривается эволюция парадигм экономического анализа от классических моделей XVIII–XIX вв. до современной цифровой экономики. Особое внимание уделено применению неоклассических и кейнсианских подходов в контексте рыночных реформ в Узбекистане, а также трансформации аналитических инструментов под влиянием количественной революции XX века. В исследовании выделены этапы развития экономического анализа в Узбекистане, начиная от перехода к*

рыночным отношениям и заканчивая реализацией программы «Цифровой Узбекистан – 2030». На основе анализа трудов отечественных и зарубежных авторов, предложены научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование методологии и развитие цифровых аналитических инструментов в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: *экономический анализ; парадигма; цифровая экономика; классическая школа; кейнсианство; эконометрика; большие данные; искусственный интеллект; цифровизация; Узбекистан.*

Введение.

Современная мировая экономика вступила в фазу цифровой трансформации, которая затрагивает как производственные отношения, так и аналитические подходы к их исследованию. В Узбекистане эти процессы особенно актуализировались после принятия программы «Цифровой Узбекистан – 2030», направленной на формирование единой цифровой экосистемы, внедрение искусственного интеллекта и развитие национальных баз данных. Экономический анализ в таких условиях становится инструментом не только научного познания, но и государственной политики, управления предприятиями и университетскими исследованиями [1]. В Узбекистане данные процессы активно исследуются в трудах местных учёных, в частности, Абдурашидовой М.С., которая уделяет внимание вопросам методологии анализа и интеграции цифровых инструментов в образовательную и экономическую практику [2].

1. *Классические основы экономического анализа*

Экономический анализ в этот период носил в значительной степени **качественный характер**, основываясь на логических рассуждениях и философских принципах, а количественные методы ограничивались простыми арифметическими расчётами. Основным объектом анализа являлись категории **стоимости, прибыли, заработной платы и ренты**, а также условия их распределения между факторами производства.

Особое значение имели работы Д. Рикардо, который сформулировал **теорию сравнительных преимуществ**, ставшую методологической основой международной торговли. Согласно этой теории, страны выигрывают от специализации и обмена, даже если одна из них обладает абсолютным преимуществом во всех видах производства [3].

В условиях Узбекистана конца XX века классические подходы проявлялись в акцентах на:

- **либерализацию цен и торговли** (отмена фиксированных цен, переход к рыночному ценообразованию);
- **формирование частного сектора** через приватизацию и предпринимательскую инициативу;
- **рынок труда**, где занятость регулировалась преимущественно механизмами спроса и предложения.

Таким образом, классическая парадигма легла в основу переходного периода экономики Узбекистана, обеспечивая фундамент для последующих институциональных и кейнсианских подходов в начале 2000-х годов.

Неоклассическая и кейнсианская парадигмы в контексте рыночных реформ

Неоклассическая школа (К. Менгер, Л. Вальрас, А. Маршалл) сместила акцент анализа с объективной стоимости на **предельную полезность** и индивидуальный выбор. Главными постулатами стали:

- рациональность поведения экономического субъекта;
- предельные величины (предельная полезность, предельный продукт);
- равновесие на рынках факторов и товаров, достигаемое через свободное ценообразование.

Неоклассическая парадигма обосновала роль рынка как саморегулирующегося механизма, а также дала начало формированию математических моделей равновесия, включая систему уравнений общего равновесия Л. Вальраса.

Кейнсианская школа (Дж. М. Кейнс) возникла как реакция на Великую депрессию 1930-х годов и доказала ограниченность неоклассической парадигмы. Кейнсианство утверждает:

- совокупный спрос определяет уровень занятости и объём производства;
- государство должно активно регулировать экономику через бюджетно-налоговую и денежно-кредитную политику;
- мультипликатор и акселератор объясняют динамику инвестиций и роста.

Переходный период (1991–2000 гг.) был во многом связан с классической парадигмой, однако уже с 2000-х годов в экономической политике Узбекистана проявились кейсианские черты:

- активное участие государства в инвестициях в инфраструктуру (дороги, энергетика, транспорт);
- субсидирование стратегически важных отраслей (хлопковая и текстильная промышленность, автомобилестроение);
- формирование крупных государственных программ (например, Программа индустриализации 2010–2015 гг.).

Сравнение моделей анализа в мировой и узбекской практике

Таблица 1

Критерий	**Классическая школа**	**Кейнсианская школа**	**Опыт Узбекистана**
Роль государства	Минимальная	Активное регулирование	Поддержка ключевых отраслей через госпрограммы
Объект анализа	Индивидуальные рынки	Совокупный спрос	Отраслевой баланс, госинвестиции
Метод	Логический, статический	Математический, динамический	Программно-целевой, макроэкономические модели

Источник: составлено автором на основе [4].

Значение для современной экономики Узбекистана

- Неоклассическая модель проявляется в либерализации цен, конкуренции и открытости рынка.

- Кейнсианские инструменты актуальны для антикризисного регулирования, особенно в период пандемии COVID-19, когда государство усилило поддержку малого бизнеса и социальной сферы.
- В 2020-х гг. наблюдается **синтез** неоклассики и кейнсианства: рынок формирует конкуренцию, но государство активно стимулирует цифровую инфраструктуру и инновации.

Количественная революция и институциональные изменения

Во второй половине XX века экономический анализ стал активно опираться на эконометрику и моделирование. В Узбекистане с 2017 года начался новый этап реформ, в том числе внедрение систем национальной статистики, интегрированных в международные стандарты (SDDS МВФ).



График 1. Рост числа цифровых сервисов в экономике Узбекистана (2017–2024 гг.)

Цифровая экономика как новая парадигма анализа

С начала XXI века цифровизация стала ключевым фактором трансформации экономического анализа. Для Узбекистана это означает переход к:
- использованию Big Data (например, HEMIS в университетах, E-Ijtimoiy Xizmat в социальной сфере);
- развитию электронных платёжных систем (Payme, Click, UzCard, Humo);
- формированию цифровых двойников отраслей (энергетика, транспорт);
- интеграции в глобальные инновационные цепочки (программы ЕС Horizon Europe, ВТО, ОЭСР).




Схема 1. Этапы эволюции экономического анализа в Узбекистане

Ряд исследователей (Абдурашидова М.С., 2021; OECD, 2019) отмечают, что успешная цифровизация требует не только внедрения технологий, но и подготовки специалистов, способных интерпретировать результаты анализа в условиях больших данных [6].

Научно-практические рекомендации для Узбекистана

1. Развивать цифровую статистику. Интегрировать базы данных Минфина, Госкомстата и Центрального банка в единую систему.

2. Создавать центры цифровой аналитики при университетах. Например, в Ташкентском государственном экономическом университете уже внедряются лаборатории по цифровой экономике.

3. Обеспечить подготовку кадров. Включить в учебные программы дисциплины по Data Science, GIS, машинному обучению.

4. Внедрять региональные цифровые платформы. Это особенно важно для аграрного сектора и транспортной логистики (проекты «умных дорог» и «умного водоснабжения»).

Заключение

Эволюция парадигм экономического анализа демонстрирует движение от классических моделей к цифровой аналитике. В Узбекистане этот процесс имеет двойную природу: с одной стороны, сохраняется потребность в традиционных подходах (анализ отраслевых балансов, госпрограммы), с другой — внедряются инновационные инструменты цифровой экономики. Формирование национальной школы цифрового анализа, ориентированной на Big Data, машинное обучение и международные стандарты, является стратегической задачей для реализации целей программы «Цифровой Узбекистан – 2030» [5].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Республика Узбекистан. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030». – Ташкент, 2020.
2. Абдурашидова М.С. Методологические основы цифровизации экономики и образования. – Ташкент: Ташкентский государственный экономический университет, 2021. – 220 с.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2020. – 960 с.

4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
5. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Цифровая экономика: ежегодный отчёт. – Ташкент, 2024.
6. OECD. Measuring the Digital Transformation. – Paris: OECD Publishing, 2019.

ВОЗМОЖНОСТИ И УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ ГИБКОЙ ТЕХНОЛОГИИ AGILE В ОРГАНИЗАЦИЯХ РФ

Акмаева Раися Ncаевна
Астраханский государственный университет им. В.Н. Татищева
https://doi.org/10.5281/zenodo.17325804

Аннотация. *В статье рассматриваются преимущества и сложности внедрения гибкой технологии Agile в российской практике, описываются сферы применения технологии. Цель исследования - анализ опыта внедрения Agile в российских организациях, выявление основных проблем и путей их преодоления. Приведены примеры российских компаний, применяющих Agile-технологии.*

Ключевые слова: *гибкая технология Agile, возможности, команда, способы Scrum и Kanban.*

Широкое распространение в 21 веке во многих сферах практики применения гибкой технологии Agile, которую еще называют адаптивной технологией, вполне оправданно. С ее помощью создаются самоуправляемые команды, сотрудники которых активно участвуют в принятии управленческих решений, меняются их роли, повышается ответственность и доверие внутри самоуправляемых коллективов. Адаптивные команды ориентированы, прежде всего, на инновации, они самоуправляемые, активно взаимодействуют с заказчиками, оперативно внося текущие изменения в их требования и быстро адаптируясь к новым требованиям заказчика или новым вводным на рынке.

Методологии Agile подходят для проектов высокой степени неопределённости и, в частности, для проектов, при работе над которыми требуется быстро реагировать на изменения и совершенствовать продукт в ходе его создания. В случаях, когда задачи проекта важно решать последовательно и строго по первоначальному плану (техзаданию), Agile не подойдёт. Гибкие методологии работают хорошо при разработке ПО и сайтов; создании новых продуктов; в маркетинговых и рекламных кампаниях; при исполнении творческих проектов (к примеру, в издательском бизнесе), при проведении обсуждении проблем топ-менеджментом как в DE (США).

Заведения общепита, стоматологические клиники, косметологические кабинеты, автосалоны и прочие представители малого бизнеса также выбирают эту методологию. На наш взгляд, средний и малый бизнес для повышения уровня локализации производства при санкционном давлении может с успехом воспользоваться формой организации работы Agile при проведении этапа НИОКР непосредственно на производстве при изготовлении

оригинальных узлов, деталей и запчастей, что существенно ускорит проведение этих этапов.

Однако, если в начале проекта можно чётко описать его результат и составить план необходимых работ типа ТЗ, методики Agile не подойдут. В этих случаях лучше использовать классический каскадный метод управления проектами Waterfall (водопад). Waterfall («водопад») – это традиционный метод, основанный на линейной и последовательной работе по шагам, установленным до старта проекта. Следующая стадия работы не начинается, пока не закончится предыдущая. По сравнению с Agile, Waterfall требует очень тщательного предварительного планирования и строгого соблюдения первоначального объема работ, иначе сроки могут надолго затянуться.

Методологии Agile даже «вредны» в типовых проектах, где все процессы понятны и предсказуемы: в строительстве зданий и сооружений или в других сложных инженерных проектах, когда есть измеримая цель, к которой нужно прийти, и понятен путь её достижения.

Опыт применения адаптивной модели в РФ свидетельствует, что она хороша не только в сфере информационных технологий: следующими по уровню зрелости идут российские банки и страховые компании (Сбер, ВТБ), затем к Agile пришли телекоммуникации (Вымпелком, МТС, Мегафон), торговля (Азбука вкуса, Л’Этуаль), некоторые промышленные компании (Северсталь и Газпром нефть); и лишь затем – большинство других отраслей.

Первой компанией, начавшей путь масштабной Agile-трансформации, стал ПАО «Сбербанк». В сентябре 2016 года Г. Греф в своем выступлении назвал переход к Agile необходимостью и самой радикальной трансформацией за всю 175-летнюю историю банка. «Сбербанк» разработал собственный фреймворк, который называется Sbergile. В основе – деление на трайбы (племена), объединенных вокруг масштабных бизнес-целей и выделенных по продуктовому принципу. В банке сейчас представлены двадцать трайбов, например, такие как «Сбербанк онлайн», «Эквайринг и банковские карты» и др. Трайбы состоят из команд (от 5 до 25), которые в свою очередь состоят из специалистов. Каждая команда состоит из 9-12 человек. Команды являются плоскими, самоорганизующимися и также кросс-функциональными.

Цели трайба ежеквартально пересматриваются лидерами совместно с топ-менеджментом и согласовываются лидерами трайбов и кураторами с учетом результатов предыдущего квартала и планов.

Цели передаются командам, которые разбивают их на управляемые элементы для размещения в бэклогах продукта[49]. Далее команды формируют перечень задач на каждый спринт (ограниченная по времени итерация работы команды, в результате которой будет получен часть, модуль продукта проекта). В соответствии с фреймворком Sbergile, при составлении бэклога продукта следует детально проработать задачи ближайших спринтов.

После приоритизации бэклога команда при участии владельца продукта выбирает элементы бэклога, которые они будут выполнять в течение ближайшего спринта (следующие 2-3 недели). Цель спринта должна быть конкретным действием, которое принесет пользу бизнесу для пользователя. Например, «улучшить процесс онлайн-

[49]1 Бэклог— список задач (частей, модулей) проекта, расположенных по приоритетности. Свои задачи айтишники называют фичей.

оплаты». В течение спринта проводится ежедневная утренняя встреча (stend-up), по результатам которой задачи перемещаются по жизненному циклу спринта.

По итогам спринта проводится презентация заказчику части конечного продукта, в результате которой заказчик может попросить внести коррективы.

Синхронизация между трайбами происходит на ежеквартальном обзоре, тогда же происходит высокоуровневая переоценка приоритетов проекта. В 2020 году «Сбер» подвел итоги самой масштабной в мире Agile-трансформации: сроки разработки продукта сократились в семь раз, а скорость внедрения в промышленную эксплуатацию в четыре раза [1].

Практика показывает, что лучше работают группы со стабильным составом (хотя бы на 60%), чем команды, в которых часто имеет место ротация сотрудников. Нужна постоянная гласность работы группы, как в успехах, так и в неудачах. Гласность обычно поддерживалась с помощью информирования на досках «канбан», на которых цветными стикерами наклеивались в колонках: «выполнить», «выполняется» и «выполнено». В других командах гласность обеспечивается с помощью специального ПО во внутренней системе интранет [2, С. 17.].

По результатам масштабного исследования «Agile России», проведенного в 2023-2024 гг., на вопрос «Какие подходы к масштабированию Agile применяет ваша компания?», респонденты ответили, что 42% используют собственные подходы к масштабированию, 18% применяют стандартный подход SAFe[50] как единый стандарт и еще 21% выбирают методологии, отличные от SAFe, а 19% организаций предпочитают гибридные подходы, комбинируя несколько методологий [3].

Среди способов организации работы по Agile самым популярным остается Scrum, который использовали 82% компаний в 2022 году и 81% в 2023 году, использование Kanban снизилось с 61% в 2022 году до 48% в 2023 году, но существенно вырос интерес к собственным подходам.

По мнению специалистов, российский бизнес получает несомненные выгоды от Agile-практик, которые предоставляют возможность компаниям экспериментировать с продуктовыми гипотезами, быстро тестировать технологические новинки и, следовательно, оперативно реагировать на запросы целевой аудитории и изменения внешней среды [4].

Опыт также показал, что в крупных компаниях внедрение Agile устраняет проблемы, связанные с множеством согласований и различием целей между подразделениями [5].

В последние годы Agile активно применяется к любым процессам в HR: найм и адаптация новых сотрудников, к новым моделям управления талантами и развития, корректировке индивидуальных показателей эффективности и структуры компенсационного пакета для успешной командной работы; оценке уровня удовлетворенности, вовлеченности и лояльности; составлению профилей потенциальных и действующих сотрудников с акцентом на навыки, которые позволят создавать кросс-функциональные команды и др.

В финтех-компании «Профи.Лаб» применение Agile для трансформации HR-сервиса значительно повысило качество и скорость найма, возросла вовлеченность

[50] SAFe(Scaled Agile Framework) — подход обеспечения бизнес-гибкости для крупных компаний, он объединяет возможности Agile, Lean и DevOps в единую операционную систему.

персонала, улучшилось взаимодействие участников. Решение было основано на внедрении Канбан-системы и организации работы HR как продуктовой команды [6].

В МТС инновационный центр был организован в виде небольших команд, работающих автономно и быстро адаптирующихся к изменениям, что позволило сократить сроки выпуска минимально жизнеспособного продукта (MVP) до трех месяцев и улучшить взаимодействие на основе обратной связи от клиентов [7].

Таким образом, опыт применения Agile в российских компаниях показывает, что методология может быть эффективно адаптирована к различным сферам бизнеса.

Недостатки методологии Agile также очевидны. Постоянная обратная связь затягивает сроки сдачи работ. Если заказчик видит только результаты, но не оценивает усилия, он будет зачастую требовать постоянных улучшений.

У технологии Agile потребность в тесном общении, но не все заказчики любят быть на связи и тесно общаться с командой. Обновление требований и анализ промежуточных результатов требует времени, которого может не быть. Многие клиенты рассчитывают на самостоятельность команды.

Завязанность на команду, так как сложно заменить разработчика или руководителя, которым придётся вникать в содержание всех прошлых спринтов и в уже отработанные процессы. Есть потребность адаптировать документацию к изменяющимся условиям, а если это не происходит, то в последующем они нуждаются в доработке, на которую также требуется время.

Ежедневные встречи (процедура stend-up) хоть и способствуют повышению результативности работы, но отвлекают членов команды. Многие специалисты и даже программисты не любят, когда от них требуют обсуждения полученных промежуточных результатов.

Для успешного внедрения необходимо наличие опытных «агентов изменений» и зачастую предварительного тестирования на небольших проектах и командах.

Однако основная трудность заключается в столкновении сложившейся иерархии и контроля с принципами горизонтальных связей и высокого доверия, характерными для гибкой технологии Agile,а зачастую топ-менеджмент организаций не знает или не понимает ее принципы.

Тем не менее, если бы недостатки превалировали, то не было бы такого широкого распространения этой гибкой технологии. Следовательно, преимуществ у технологии Agile гораздо больше.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. 1.Рохваргер Л. А. Анализ инновационной деятельности ПАО Сбербанк //Цифровая экономика: проблемы и перспективы развития. – 2019. – С. 324-331.
2. Акмаева Р.И. и др. Возможности адаптивной модели Agile для менеджмента/ Журнал: Вестник АГТУ. Серия: Экономика № 1, 2017. С. 17.
3. Исследование Agile в России 2023. [Электронный ресурс]. URL: https://agilesurvey.ru/#top (дата обращения: 31.08.2025).
4. Какие выгоды от внедрения Agile получает бизнес в России. Средство массовой информации it-world.ru. [Электронный ресурс]. URL: https://www.it-world.ru/news-company/releases/189779.html (дата обращения: 31.08.2025).

5. Иванов Д. Нет ничего невозможного: как Agile и Дмитрий Лобасев меняют бизнес-процессы и людей. Комсомольская правда. [Электронный ресурс]. URL: https://www.kp.ru/daily/27433/4636708/ (дата обращения: 31.08.2025).
6. Трансформация HR-сервиса в финтех-компании. [Электронный ресурс]. URL: https://onagile.ru/trends/business-agility/transforming-hr-service-in-profeelab (дата обращения: 31.08.2025).

BIG DATA IN ECONOMICS AND DIGITAL ANALYTICS.

Amanova Nodirabegim Furkatovna[1], Sharipov Nasim Nodir ugli[2]
[1]Lecturer at the Department of “Social and Humanitarian Sciences and Economics” at the Tashkent Branch of the Federal State Budgetary Higher Education Institution “National Research University MEI”,
[2]Student 10-24 group of Economics Tashkent Branch of the Federal State Budgetary Higher Education Institution “National Research University MEI”
https://doi.org/10.5281/zenodo.17325864

Abstract. *Big Data is large, diverse, and rapidly generated data sets that cannot be processing using traditional methods, and whose analysis using digital analytics allows one to identify hidden patterns, make informed business decisions, and improve business efficiency. Key characteristics of Big Data include large volume, variety of formats, and speed of creation and its value is achieving through extracting useful information from it to optimize processes, improve customer experience, and predict trends.*
Keywords: *work on platforms, subject-object relations, labor market subjects.*

Digitalization of the real sector of the economy, changes in traditional business models, the use of artificial intelligence, the spread of work on platforms, the formation of network systems, cause radical transformations of the entire sphere of human life and society, the manifestation of which is the modernization of social and labor relations in society. The spread of remote employment, the creation of "digital jobs", the emergence of a new category of labor market subjects - "smart workers" are becoming markers of new trends.

Flexibility is increasing in labor processes, knowledge is rapidly updating, inexhaustible opportunities for the development of creative self-realization are opening up, and the nature of subject-object relations in management is changing. At the same time, institutional changes come with a certain lag, which creates imbalances and contradictions in the functioning of new and old traditional and non-traditional forms of employment. In society, the requirements for the competencies of employees, their functions and roles in labor processes are rapidly changing. New professions are emerging that are aiming at understanding human emotions and developing the ability to quickly adapting to changes.

The concept of "digital economy" appeared back in 1995. The digital economy in a general approach is an economy based on the use of digital technologies. Sometimes it is calling the new economy or the Internet economy. In most cases, this is the production and sale of goods and services using information and communication technologies and network systems.

Digital analytics is the practice of gathering, assessing, analyzing, and making sense of data from online platforms and channels to comprehend user behavior, enhance performance, and guide data-driven decisions. Big data is*transforming*industries,*remodeling*global markets, and redefining business strategies. By**harnessing**the potential of vast datasets, companies can drive innovation, enhance decision-making, and create more personalized experiences. From predictive analytics to AI-driven insights, the digital economy is evolving at an**extraordinary**pace—but with transformation comes new challenges. How can businesses harness big data effectively, and what hurdles must they overcome to ensure ethical, sustainable growth? Big data has**arisen**as a fundamental pillar of the contemporary digital economy, serving as a catalyst for innovation, operational efficiency, and the evolution of new business paradigms.

The exponential growth of data generation across diverse sectors underscores its transformative potential, enabling organizations to refine strategic decision-making processes and enhance consumer engagement through data-driven insights. As businesses progressively integrate big data into their operational frameworks, interdisciplinary specialists—including data scientists, economists, and policymakers — are increasingly invested in optimizing its utility while addressing critical concerns related to security, ethical data governance, and equitable accessibility. The digital economy is fundamentally sustained by vast and continuous streams of data originating from online transactions, social media interactions, interconnected devices, and cloud-based infrastructures. Organizations employ advanced analytics, artificial intelligence (AI), and machine learning methodologies to process and derive actionable insights from these extensive datasets. The implications of big data integration are multifaceted and transformative, and they are optimizing business strategies, improving decision-making, and enhancing operational efficiency.

The special literature rightly notes that the digital economy is the most important engine of innovation, competitiveness and economic development. However, most of the quantitative and qualitative characteristics of the digital economy remain undisclosed. Significant difficulties arise with determining its scale, the volume of new value created, as well as the number of people employed in this sphere. According to expert data, the share of the digital economy in the world is from 4.5% to 15.5%, depending on the calculation method.

At the same time, 40% of the benefit created in the ICT sector falls on the USA and China.The main indicators of the digitalization of the economy are the use of information and communication technologies in various types of economic activity, the share of information and communication technologies in foreign trade, investments in the digital sphere of private companies, household spending in the digital sphere and the intensity of state participation in digitalization. Digitalization of economic activity, widespread use of ICT and the spread of digital employment lead to increased productivity of social labor, efficiency of entrepreneurial activity, but pose certain social challenges for the population in terms of job security and protection of labor rights.

Firms are increasingly turning towards new-age technologies such as artificial intelligence (AI), the internet of things (IoT), blockchain, and drones, among others, to assist in interacting with their customers. Further, with the prominence of personalization and customer engagement as the go-to customer management strategies, it is essential for firms to understand how to integrate new-age technologies into their existing practices to aid seamlessly in the generation of actionable insights. Towards this end, this study proposes an organizing framework

to understand how firms can use digital analytics, within the changing technology landscape, to generate consumer insights. The proposed framework begins by recognizing the forces that are external to the firm then lead to the generation of specific capabilities by the firm. Further, the firms capabilities can lead to the generation of insights for decision-making that can be data-driven and/or analytics-driven. Finally, the proposed framework identifies the creation of value-based outcomes for firms and customers resulting from the insights generated. Additionally, we identify moderators that influence: (a) the impact of external forces on the development of firm capabilities, and (b) the creation of insights and subsequent firm outcomes. This study also identifies questions for future research that combines the inclusion of new-age technologies, generation of strategic insights, and the achievement of established firm outcomes.

The implications of big data have been highlighted by specialists and through studies related to the potential of big data in value creation and capture the interdisciplinary nature of big data combining ethics with big data and big data and supply chain management .

Unlike the concept of big data, the concept of the digital economy has been debated under various aspects in bibliometric studies by specialists in relation to the digital economy based on big data — artificial and computational intelligence the evolution of the digital economy during big data in the digital economy social, legal, and economic aspects of the development of big data in a digital economy the trend.

Given the significant expansion of the scholarly literature on big data in recent years, it has become imperative to synthesize its applications and implications within the digital economy, particularly against the backdrop of the profound digital transformations characterizing recent periods. Accordingly, the main objective of this article is to present a meta-study examining the technological evolution of big data over the past twelve years (2013–2024) and to identify emerging trends that are expected to shape its trajectory in the future. This study provides a comprehensive review of academic publications that explore the global applicability and broader economic implications of big data within the digital economy over the specified timeframe. In pursuit of the main objective, two research questions have been formulated, the responses to which will serve as the foundation for deriving conclusions pertinent to the subject under investigation.

REFERENCES

1. Adomavicius, G., Bockstedt, J. C., Curley, S. P., & Zhang, J. (2017). Effects of online recommendations on consumers' willingness to pay. Information Systems Research, 29(1), 84-102.
2. Ajzen, I., & Fishbein, M. (1988). Theory of reasoned action-Theory of planned behavior. University of South Florida, 2007, 67-98.
3. Ansari, A., Essegaier, S., & Kohli, R. (2000). Internet Recommendation Systems. Journal of Marketing Research, 37(3), 363–375. https://doi.org/10.1509/jmkr.37.3.363.18779
4. Antil, J. H. (1984). Conceptualization and Operationalization of Involvement. In NA - Advances in Consumer Research Volume 11, eds. Thomas C. Kinnear, Provo, UT: Association for Consumer Research, 203-209.
5. Ascarza, E. (2018). Retention Futility: Targeting High-Risk Customers Might Be Ineffective. Journal of Marketing Research, 55(1), 80–98. https://doi.org/10.1509/jmr.16.0163

6. Baird, Carolyn, Mani Dasgupta, Kelly Mooney, Robert Schwartz, and Maria Winans (2018), "The modern marketing mandate: The Chief Marketing Officer perspective," IBM Institute for Business Value, May, [available at https://www.ibm.com/downloads/cas/W7D6L9EL].
7. Barney, J. B. (1986). Organizational culture: can it be a source of sustained competitive advantage?. Academy of Management Review, 11(3), 656-665.
8. Beke, F. T., Eggers, F., & Verhoef, P. C. (2018). Consumer informational privacy: Current knowledge and research directions. Foundations and Trends in Marketing, 11(1), 1–71. https://doi.org/10.1561/1700000057
9. Boulding, W., Kalra, A., & Staelin, R. (1999). The quality double whammy. Marketing Science, 18(4), 463-484.
10. Bradlow, E. T., Gangwar, M., Kopalle, P., & Voleti, S. (2017). The Role of Big Data and Predictive Analytics in Retailing. Journal of Retailing. https://doi.org/10.1016/j.jretai.2016.12.004
11. Brady, Mairead, Michael Saren, and Nikolaos Tzokas. 2002. ‘Integrating Information Technology into Marketing Practice—the IT Reality of Contemporary Marketing Practice, Journal of Marketing Management, 18 (5–6): 555–577
12. Amanova N.F Amanova F.F . INNOVATIVE ACTIVITY IN THE FIELD OF TOURISM.Euro-Asia Conferences,1(1), 308–309. Retrieved From http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/975
13. EFFECTIVE METHOD OF TEACHING. (2022). *Conference Zone*, 53-55. https://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/124

ИННОВАЦИОН ЎЗГАРИШЛАР ШАРОИТИДА ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЗАРУРАТИ

Алимова Маҳлиё
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқарув академияси тадқиқотчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.17461754

Аннотация. *Ушбу мақола инновацион ўзгаришлар шароитида халқаро туризм бозорининг шаклланиши ва ривожланишининг умумий масалаларига бағишланган бўлиб, унинг функциялари тизимлаштирилиб, эволюцион ривожланиш омиллари таснифланган, шунингдек, жаҳон иқтисодиёти ва уни ташкил этувчи миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши учун платформани шакллантиришда халқаро туризм бозорининг роли кўрсатиб берилган.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются общие вопросы формирования и развития международного туристского рынка в условиях инновационных изменений, систематизируются его функции, классифицируются факторы эволюционного развития, а также показана роль международного туристского рынка в формировании платформы устойчивого развития мировой экономики и национальных экономик, ее составляющих.*

Abstract. *This article is devoted to the general issues of the formation and development of the international tourism market in the context of innovative changes, systematizes its functions, classifies the factors of evolutionary development, and also shows the role of the international tourism market in forming a platform for the sustainable development of the world economy and the national economies that make up it.*

Калитли сўзлар: *халқаро туризм бозори, дунё мамлакатлари, миллий иқтисодиёт, жаҳон ҳудудлари, глобаллашув жараёнлари, хорижлик туристлар, туризм имконияти, билимларга асосланган иқтисодиёт, барқарор ривожланиш.*

Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари дунё мамлакатлари ва жаҳон ҳудудларининг бир-бири билан ўзаро боғлиқлиги кучайган, фан-техника ривожи таъсирида умумпланета миқёсидаги янги муаммоларни юзага келиши ва кескинлашуви ортган шароитда, глобаллашув жараёнларини янада шиддатли равишдаги тезлашиши билан тавсифланади. Туристлар оқимининг жалб этилиш даражаси дунё мамлакатларининг тарихий-маданий, табиий-иқлимий, географик-экологик жозибадорлигидан ташқари, сиёсий хайрихоҳлик даражаси, мутахассислар салоҳияти, тегишли инфратузилма ҳамда турли хизматларнинг қай даражада сифатли йўлга қўйилганлиги билан белгиланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 18 июлдаги ПФ-102-сон “Ўзбекистон Республикасида туризм инфратузилмасини яхшилаш ва хорижий туристлар оқимини янада оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони[1]да туризм соҳасида етарлича даражада ва ҳар қандай хорижий мамлакатлардан қолишмайдиган имкониятларга эгалиги бу борада кўплаб муваффақиятларга эришишимизни таъминловчи асосий манба ҳисобланишига эътибор қаратилган. Жаҳон Туризм Ташкилоти таҳлилларига кўра, “туризм сиёсатини институционал ва ҳуқуқий жиҳатдан такомиллаштирган давлатларда туризмнинг ЯИМдаги улуши ўртача 2 - 3 фоизга юқори бўлади” [2].

Туризм соҳаси ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти, соҳага хос бўлган иқтисодий муносабатларнинг назарий ва амалий масалалари, туризмда инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг амалий муаммолари ва алоҳида масалалари тўғрисида кўпгина чет эл ва мамлакатимиз олимлари томонидан илмий тадқиқотлар олиб борилган. Жаҳонда салбий сиёсий ва иқтисодий муҳитнинг баъзида кескинлашуви ва сақланиб турганлигига қарамасдан, туризм соҳасини ташкил этишнинг илмий-услубий асослари ва иқтисодий жиҳатлари туризмнинг мақбул ривожланиши ва улар бозорини ташкил қилиш масалаларининг маълум бир томонлари олимлардан А. Александрова [3], В.И. Андрианов [4], Е.А. Быкова [5], И.Ю. Севрюков [6], Е.А. Джанджугазова(7), А.Ю. Баранова(8) кабиларнинг илмий асарлари ва тадқиқотларида ўз аксини топган. Мамлакатимизда туризм тармоғининг ривожланиш масалалари Н.Т. Тухлиев, Т.Абдуллаева [9], М.Қ. Пардаев[10], ва бошкаларнинг илмий ишларида кўриб чиқилган.

Жахон иктисодиётида хизматлар сохасининг роли ва ўрни ошиб бораётган бир пайтда, туристик хизматлар глобал иктисодиётда ижтимоий-иктисодий барқарорликни таъминлашнинг асосий омилларидан бири сифатида майдонга чикиб, жуда кўплаб мамлакатларнинг расмий ва норасмий секторларида бандликни таъминлаш ва даромад олишда устувор йўналишлардан бўлиб колмокда.

Амалга оширилган изланишлар натижаси шуни кўрсатмоқдаки, халқаро туризм бозорини ривожлантиришда меҳмонхона комплекслари билан биргаликда, меҳмонхона

ҳисобланмаган, аммо унинг функциясини бажарадиган объектлардан ҳам кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, туристларни жойлаштиришда 25 фоиздан кўпроқ туристик фондлар ҳиссаси айнан хусусий меҳмонхоналарга тўғри келар экан. Туристларни жойлаштиришда, одатда бундай объектлар жуда қулай ва содда бўлиб уларни самарадорлиги юқоридир. Меҳмонхоналарда жойлашиш ягона тунаш жойи эмас. Кемпинглар, пансионатлар, ётоқхоналар, шунингдек кўплаган хусусий квартираларда, хонадонларда ҳам туристлар учун тунаш жойини ташкил қилиш имконияти бор. Ўзбекистонда хусусий меҳмонхоналар сонини кўпайтириш ҳам шу куннинг муҳим талабларидан биридир. Унинг ҳиссаси Ўзбекистондаги жами меҳмонхоналарнинг 5 фоизини ташкил этади халос. Кемпинглар шахсий хонадонлар, дам олиш уйлари, ёшлар уйи, туристик масканлари, оилавий клублар ва ҳакозалар туристлар учун жуда қулай бўлган масканлардир. Туризмда буларнинг ичида кенг тарқалгани ва арзони кемпинглардир. Лекин Ўзбекистон шароитида кемпингларни ривожланиши учун кенг имкониятлар шарт-шароитлар мавжуд бўлсада, аммо уларни қуриш, фойдаланиш ишига катта аҳамият берилмаяпти. Ваҳоланки халқаро туризм йўналиши бўйича ташриф буюрадиган туристларнинг кемпинг каби масканлардан фойдаланиши улар учун жуда қулайлик туғдиради. Айниқса ҳозирги бозор иқтисодиёти шароитида мавжуд бўлган иқтисодий қийинчиликлар даврида ички туристларимиз учун бундай масканлардан фойдаланиш арзон ва қулайдир. Бундай масканларда одатда одамлар гавжум, фақат халқаро туристлар эмас, балки Ўзбекистон фуқаролари бўлган туристларни ҳам тез-тез ташриф буюрадиган жойларида қурилиши ва фойдаланишини мақсадга мувофиқ деб ҳисобланади.

Халқаро туризм бозорини ривожланиши карвон йўлларини қайта тиклаш масалалари билан ҳам бевосита боғлиқдир. Чунки, Ўзбекистон аввалларида ва ҳозир ҳам бу қадимий йўлларнинг марказида турибди ва уларни тиклаш бўйича ўтказиладиган тадбирларда унинг иштироки жуда ҳам зарурдир. Айниқса, бу жараён йўл тизимини қандай даражада ривожланганлиги билан боғлиқдир. Шуни ҳисобга олиб, республикада йўл тармоқларини қурилишига катта эътибор берилмоқда. Ўзбекистонда амалга оширилган иқтисодий ислоҳотлар нафақат туризм соҳаси ривожланишининг жадаллашишига, балки мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятида алоҳида ўрин тутганлиги сабабли, олдин имкони бўлмаган янги туристик хизмат турларининг яратилишига олиб келмоқда. Бу ҳолат туризм хизмат бозори ривожланиши ва бошқариш стратегиясига ҳар томонлама режалаштирилган ҳамда чет эллик ва маҳаллий турмаҳсулот етказиб берувчиларнинг қизиқишлари балансига амал қиладиган ёндашувни талаб этади. Бир томондан, ўзбекистонлик тадбиркорлар қизиқишларининг ҳимоясини таъминлаш, иккинчи томондан эса, туризм бозорида чет эллик тадбиркорлар иштирокида рақобатли муҳит яратиш керак. Буларнинг барчаси, сўзсиз, бозорда ўзбекистонликларнинг фаолиятини рағбатлантиришга олиб келади. Иқтисодиёт инфратузилмасининг асосини ташкил этган транспорт, телекоммуникация, молиявий хизматлар ривожланишининг давом этиши туризм хизмат бозори ривожланиши учун ҳам катта аҳамиятга эга. Шуни ҳам айтиб ўтишимиз лозимки, туризм соҳаси катта маблағ сарфланишини талаб этмайдиган, ижтимоий барқарорлик омили сифатида хизмат қиладиган ва ҳудудда янги ишчи ўринларнинг яратилишини таъминлайдиган хизмат секторларидан биридир.

Ўзбекистонни жаҳон бозорига чиқиши учун янги йўл тармоқлари қурилмоқда ва қайта таъмирланмоқда. Тез юрар магистраллари лойиҳаси Буюк Ипак йўлини тиклаш дастурининг асосини ташкил этиб, Европани Хитой Халқ Республикаси ва барча Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари билан боғлайди. Бу йўллардан фойдаланиш натижасида автомобиль транспорти орқали халқаро туризмнинг ривожланиши, савдо-сотиқни мамлакатлараро йўлга қўйилиши таъминланиб, ҳудудлар иқтисодиётини кўтариш ва аҳоли турмуш фаровонлигини яхшилаш учун катта имкониятлар яратилади.

Халқаро туризм дунё мамлакатлари ўртасида нотекис ривожланиб, бу уларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси билан белгиланади. Халқаро туризмни энг ривожланган ери Ғарбий Европа мамлакатлари ҳисобланиб, бу регионнинг ҳиссасига ҳалқаро туризм бозорининг 75% дан ортиғи ва 60%га яқин валюта тушумлари тўғри келади. Тахминан 20%га яқини Америкага, 10% дан камроғи Осиё, Африка ва Австралияга тўғри келади. Туризм соҳасини Ғарбий Европа мамлакатларида ривожланишининг асосий сабабларидан бири шундаки, 2-жаҳон урушидан кейинги йилларда, бу ерларда халқаро туризмни йўлга қўйиш орқали иқтисодиётни тиклаш асосий йўналиш ҳисобланган. Буни ўз вақтида тушунган бизнесменлар, тадбиркорлар оз пул сарфлаб, кўпроқ фойда олишни айнан шу халқаро туризм соҳасида кўрганлар. Шунинг учун ҳам ҳозирги кунда Ғарбий Европа мамлакатларида халқаро туризм соҳасидан олинадиган даромад уларнинг жами даромадларида салмоқли ҳиссани ташкил қилади.

Умуман туризмни ривожлантириш йўллари жуда хам турли-тумандир. Уларнинг қайси биридан фойдаланиш инсонларнинг ўзига боғлиқ. Ўзбекистон аҳолиси учун, бозор иқтисодиёти шароитида кўпроқ савдо сайёҳлиги аҳамиятли бўлиб қолди. Албатта бундай сайёҳликда импорт сайёҳлигига қараганда экспорт сайёҳлиги устун туради. Бу эса маълум даражада Ўзбекитонни иқтисодий салоҳиятига салбий таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳам, ҳозирги куннинг асосий мақсади, талаби - республикамизга четдан келувчилар учун хизмат даражасини кучайтириш зарурлигидир. Шу тадбир орқали мамлакатимиз хазинасини валюта билан кўпроқ таъминлаш имконияти туғилади. Ўзбекистоннинг бой табиий ва маданий мероси ҳамда миллий салоҳиятидан тўла фойдаланган ҳолда, унинг барқарор ривожланишини таьминлаш, тармоқ корхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш имкониятлари мавжуд. Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда республикамизнинг ялпи ички маҳсулотида туризм индустриясининг улуши жуда фоизни ташкил этади.

Республика иқтисодиётида туризм соҳаси ҳам бошқа ишлаб чиқариш соҳалари каби ихтисослашган хўжаликлар қаторига кириб, мамлакатни иқтисодий ривожлантириш воситаси сифатида муҳим аҳамият касб этади. Иқтисодиётнинг реструктуризацияси бозорни ўрганиш натижаларига асосланган маркетинг стратегияларини ишлаб чиқариш билан бир қаторда олиб борилишини ҳисобга оладиган бўлсак, туристик хизматлар, айниқса, уларнинг бозор тармоғидаги соҳаси бўлмиш стратегик маркетингни ўз ичига олган бошқарувнинг прогрессив усулларига катта эҳтиёж сезмоқда. Ҳозирги иқтисодиёт хўжалик фаолиятининг амалда барча соҳаларида интенсив тарзда ривож топаётган инновацион жараёнларнинг фаол таъсирида шаклланиб бормоқда. Туристик бизнес ҳам бундан истисно эмас. Шунинг учун туристик хизматларнинг жаҳон бозоридаги рақобатчилик фақат мамлакатимиздаги компанияларнинг хўжалик фаолияти амалиётига кўпчилик ҳолларда йирик инвестиция харажатлари билан боғлиқ бўладиган инновацияларни доимий тарзда жорий этган ҳолда таъминланиши мумкин. Бунда инновацион фаолият бир тизимли асосда юритилиши, туристик компанияларни

ривожлантиришнинг стратегик режаларидан зарурий таркибий қисм сифатида ўрин олиши лозим. Бироқ тадқиқотларнинг кўрсатишича, Ўзбекистондаги туристик бизнес компаниялари шу пайтгача ҳам кўп жиҳатдан тактик мақсадларни йўналиш қилиб олишади, стратегик менежментнинг ҳозирги имкониятларидан фойдаланишмайди, инновацион хизматларни ишлаб чиқариш ва жорий этшга лозим даражада эътибор беришмайди.

Юқорида баён қилинганлардан келиб чиқиб айтиш жоизки, туризм мамлакат иқтисодий салоҳияти ва қудратини жаҳон миқёсига кўтараётган ва айни бир пайтда, аҳоли турмуш даражаси ва сифатини шакллантиришда фаол иштирок этаётган ҳамда уни оширишда юқори самара бераётган соҳадир. Шу жиҳатдан ушбу соҳа билан боғлиқ муаммоларни тадқиқ қилиш, уларнинг бозор талабларига жавоб берадиган мажмуавий ечимларини топиш ва амалиётга самарали жорий этиш бугунги куннинг, айниқса, истиқболда аҳоли турмуш даражасини оширишнинг стратегик аҳамиятга эга ўта долзарб масалаларидан бири сифатида қаралмоғи лозимдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 18 июлдаги ПФ-102-сон “Ўзбекистон Республикасида туризм инфратузилмасини яхшилаш ва хорижий туристлар оқимини янада оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони.
2. UNWTO, Tourism and Economic Development, 2022. URL: https://www.unwto.org/tourism-and-economic-development
3. Александрова А.Ю. Международный туризм: учеб. пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2011. - 464 с.
4. Андрианов В.И. Проблемы развития внутреннего и въездного туризма / В.И. Андрианов // Современные проблемы сервиса и туризма. 2015. - №3.
5. Быкова Е.А. Влияние туризма на экономику стран / Е.А. Быкова, И.В. Фомин // Туризм и гостеприимство сквозь призму инноваций: Сборник статей III научно-практической конференции. Под научной редакцией Е.М. Крюковой. - Москва, 27 февраля 2018 года.
6. Севрюков И.Ю. Рынок туристских услуг: современное состояние и тенденции развития // Экономика: теория и практика. - 2016. - №4 - С. 43 -48.
7. Джанджугазова Е.А. Маркетинг туристских территорий : учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки - Туризм / Е.А. Джанджугазова. - М.: Академия, 2008.
8. Баранова А. Ю. Организация предпринимательской деятельности в сфере туризма: учеб. пособие / А. Ю. Баранова. – М. : ИНФРА-М, 2012. – 180 с.
9. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. Т. . Узбекистои миллий энциклопедияси. 2006. - 423 с.
10. Пардаев М.Қ., Мусаев Ҳ.Н. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. -Т.: Иқтисод-молия, 2008.

SOLIQ MUNOSABATLARIDA IDORALARARO INTEGRATSIYANING MILLIY ISTIQBOLLARI VA XALQARO TAJRIBA

Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li
Soliq qo‘mitasi davlat soliq bosh inspektori Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327036

Annotatsiya. *Ushbu maqolada idoralararo integratsiyaning nazariy modellari, davlat boshqaruvidagi ahamiyati va xalqaro tarjiba shuningdek boshqa vazirlik tashkilotlar ma’lumotlari asosida soliq hisobotlarini haqqoniy va to‘g‘ri topshirilishi tashqi manba ma’lumotlari asosida soliq to‘lovchilarning hisobotlarini to‘liq avtomatlashtirilib inson omilini kamaytirish orqali davlat byudjetiga tushumlarni oshirish ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Soliq munosabatlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, korrupsion omillar, idoralararo integratsiya, tashqi manba, axborot tizimlari, metodologik asoslar, nazariy modellar.*

Аннотация. *В статье представлены теоретические модели межведомственной интеграции, ее значение в государственном управлении и международный опыт, а также возможности увеличения поступлений в государственный бюджет за счет полной автоматизации отчетности налогоплательщиков на основе внешних исходных данных, на основе справедливой и корректной подачи налоговой отчетности на основе данных других министерских организаций, а также снижения человеческого фактора.*

Ключевые слова: *Налоговые отношения, информационно-коммуникационные технологии, коррупционные факторы, межведомственная интеграция, внешние источники, информационные системы, методологические основы, теоретические модели.*

Abstract*. This article presents theoretical models of interdepartmental integration, its importance in public administration, and international experience, as well as the possibility of increasing revenues to the state budget by fully automating taxpayer reports based on external source data, based on the fair and correct submission of tax reports based on data from other ministerial organizations, and reducing the human factor.*

Keywords: *Tax relations, information and communication technologies, corruption factors, interdepartmental integration, external sources, information systems, methodological foundations, theoretical models.*

Kirish. O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida, soliq siyosatining samarali tashkil etish va raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlari uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq to‘lovchilarining raqamli ko‘nikmalarini yaxshilash, raqamli ma’lumotlarni boshqarishda yangi yechimlarni joriy etish va mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish muammoli masalalar sifatida qolmoqda.

Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar davrida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish zaruriyati keskin ortib bormoqda. Bunda idoralararo integratsiya muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Idoralararo integratsiya davlat

organlari va tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, ma’lumot almashinuvi va resurslardan kompleks foydalanish mexanizmlarini anglatadi.

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va aholiga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash jarayonida idoralararo integratsiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, ma’lumot almashinuvini tezlashtirish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, idoralararo integratsiyaning nazariy modellari davlat boshqaruvi tizimining barqarorligi, ochiqligi va samaradorligini ta’minlashda muhim vosita sifatida qaraladi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, O‘zbekistonning barcha sohalarda, jumladan soliq sohasida ham, raqamli transformatsiyani amalga oshirish rejalashtirilgan. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatni raqamli texnologiyalar asosida yangilash hamda shu orqali iqtisodiyotning samaradorligini, shaffofligini va raqobatbardoshligini oshirishdir. Strategiya doirasida soliq sohasidagi muammolarni hal etish va ularni raqamli transformatsiya jarayoniga integratsiya qilish, nafaqat soliq sohasining, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri - mamlakatni raqamli rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishga yordam beradi.[1]

Integratsiya tushunchasi umumiy ma’noda turli tizimlarning yagona maqsad yo‘lida birlashuvi sifatida izohlanadi. Davlat boshqaruvida esa bu jarayon davlat organlari, idoralar va ularning tarkibiy tuzilmalari o‘rtasidagi uzviy aloqalar tizimini anglatadi. Idoralararo integratsiya nazariyasi va uning amaliy modellari davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida barqaror taraqqiyot va sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada idoralararo integratsiyaning asosiy nazariy modellari tahlil qilinib, uning davlat boshqaruvi sohasidagi o‘rni va ahamiyati yoritib beriladi.

N. Luhmannning tizimli yondashuvi davlat boshqaruvi ichidagi idoralararo integratsiyani sotsial tizimlar o‘rtasidagi axborot oqimlari va kommunikatsiya orqali amalga oshiriluvchi murakkab jarayon sifatida ko‘radi. Uning fikricha, samarali integratsiya qaror qabul qilishni tezlashtiradi va tizim barqarorligini ta’minlaydi. [2]

Idoralararo integratsiya – bu turli davlat organlari va muassasalarining o‘zaro axborot almashinuvi, xizmatlar ko‘rsatishda hamkorlik qilish va yagona maqsadlarga erishish yo‘lida koordinatsiyalashgan faoliyat yuritishidir. Integratsiya natijasida idoralar bir-biri bilan uzviy bog‘langan tizim sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, resurslardan unumli foydalanishni ta’minlaydi va davlat boshqaruvining sifatini oshiradi.

Idoralararo integratsiyaning nazariy modellari davlat moliyaviy siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular quyidagilar tashkil etiladi:

Gorizontal integratsiya modeli — Bu model bo‘yicha turli idoralar o‘zaro tenglik asosida hamkorlik qiladi. Maqsad — ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish. Gorizontal integratsiya ko‘pincha yagona oyna (one-stop-shop) xizmatlari va raqamli hukumat loyihalarida qo‘llaniladi.;

Vertikal integratsiya modeli — Vertikal integratsiyada yuqori boshqaruv organlari (masalan, vazirliklar) quyi bo‘g‘inlar faoliyatini uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi. Bu modelda ko‘proq buyruqbozlik va nazorat elementlari ustunlik qiladi, biroq strategik qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini beradi;

Tarmoq modeli — bu yondashuvda idoralar o‘zaro teng huquqli hamkorlar sifatida turib, axborot texnologiyalariga asoslangan tarmoqlar orqali integratsiyani amalga oshiradi. Tarmoq modeli davlat va nodavlat sektorini bog‘lovchi mexanizm sifatida samarali bo‘lishi mumkin;

Gibrid model — Gibrid yondashuvda yuqoridagi modellar elementlari uyg‘unlashadi. Masalan, ma’lumot almashinuvi tarmoq modeli orqali, boshqaruv esa vertikal integratsiya tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Integratsiyaning foydalari bu - boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkorlik va aniq ma’lumotlar, mehnat samaradorligining oshishi va eng kattalaridan biri resurslar tejash (vaqt, inson, moddiy) hisoblanadi.

O‘zbekistonda axborot tizimlari integratsiyasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarga nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlarida axborot tizimlari integratsiyasi alohida e’tirof etilgan. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil 30-oktyabrdagi qarori qabul qilingan. Mazkur qaror soliq tizimida soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to‘lovchilar uchun ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo‘naltirilgan davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.[3]

Aynan shu qaror asosida Soliq qo‘mitasi boshqa vazirliklar va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasida soliqqa tortish masalalarida, jumladan, aloqa kanallari orqali elektron axborot almashuvini tashkil etish rasman boshlangan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) davlatlararo soliq shaffofligini oshirish uchun bir qator tashabbuslarni amalga oshirgan. Ulardan eng muhimi:

BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) – transmilliy kompaniyalar tomonidan soliqlardan qochishni kamaytirish.

AEOI (Automatic Exchange of Information) – moliyaviy hisobvaraqlar bo‘yicha avtomatik ma’lumot almashinuvi.

CRS (Common Reporting Standard) – moliyaviy institutlar tomonidan yagona standart asosida ma’lumotlarni yig‘ish va almashish.

Ushbu mexanizmlar yordamida davlatlar soliq bazasini kengaytirishga va ofshor hududlardan foydalanishni kamaytirishga erishmoqda.

Estoniya dunyoda “raqamli davlat” konsepsiyasini eng muvaffaqiyatli joriy qilgan mamlakatlardan biridir. Ularning X-Road platformasi barcha davlat idoralarini yagona axborot makonida birlashtirib, ma’lumotlar almashuvini avtomatlashtirgan.

Soliq tizimida esa: Soliq deklaratsiyalari onlayn tarzda topshiriladi.

Ko‘pchilik deklaratsiyalar davlat organlari ma’lumotlari asosida avtomatik to‘ldirilgan holda taqdim etiladi. Soliq to‘lovchilar uchun jarayonlar maksimal darajada soddalashtirilgan.

Estoniya tajribasi integratsiyaning davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishdagi o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi.

Avstraliya soliq boshqarmasi (ATO) keng qamrovli third-party data-matching dasturlarini amalga oshirmoqda. Unga ko‘ra:

Banklar, bandlik agentliklari, transport va mulk registrlari kabi manbalardan ma’lumotlar olinadi. Ushbu ma’lumotlar soliq to‘lovchilarning deklaratsiyalari bilan solishtiriladi. Noto‘g‘ri yoki yashirilgan ma’lumotlar aniqlanadi. Natijada soliq tushumlari oshadi, noqonuniy faoliyat kamayadi.

AQSh 2010-yilda qabul qilingan FATCA (Foreign Account Tax Compliance Act) qonuni orqali xorijiy banklardan AQSh fuqarolarining moliyaviy hisoblari haqida ma’lumot talab qilishni yo‘lga qo‘ydi. Bu mexanizm xalqaro miqyosda soliqlardan qochishning oldini olishga yordam berdi.

Xulosa.

Ҳайдарова Чарос Низомиддин қизи
Tashkent Perfect-university, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327205

Аннотация. *Мазкур мақолада Ўзбекистонда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар ичида давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини ташкил этишни ривожлантириш, давлат хусусий шериклик лойиҳаларининг рақобатбардошлигини баҳолаш, кутилаётган даромадлилик, лойиҳанинг ижро этилишида турли хил сценарийларни ҳисобга олган ҳолда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар келтирилган.*

Калит сўзлар: *Миллий иқтисодиёт, давлат-хусусий шериклик, лойиҳа, рақобатбардошлик, тармоқ ва соҳалар.*

Кириш. Мамлакатимизда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар ичида давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини ташкил этиш ривожлантиришга катта эътибор бериб келинмоқда. Зеро, давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини миллий иқтисодиётга жорий этилганлигига ҳали кўп вақт бўлмаса-да, аммо оқилона ва одилона олиб борилаётган молиявий ислоҳотлар натижасида минглаб лойиҳалар ишга туширилди ва улар негизида юз минглаб иш ўринлари яратилди.

Бундай ижобий ютуқларга эришида аввало меъёрий-ҳужжатларнинг ўз вақтида қабул қилиниши ва тезда миллий иқтисодиётнинг тармоқ ва соҳаларига жорий

этилишидадир. Хусусан, 2019 йил 10 майда “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги қонун қабул қилиниши, шунингдек, ҳар бир тармоқ ва соҳанинг ўзига хос хусусиятидан келиб чиққан ҳолда Президент Фармонлари ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари қабул қилинди ва бу жараён давр талабига мос равишда изчил давом этмоқда.

Мамлакатимизда меъёрий ҳужжатларнинг ўз вақтида қабул қилиниши ва миллий иқтисодиётга жорий этиш натижасида кўплаб тармоқ ва соҳаларда давлат-хусусий шерик битимлари имзоланди ва улар амалий фаолият юритиб мамлакатда рақобат муҳитини шаклланишига яқиндан ёрдам бермоқда.

Давлат-хусусий шериклик(ДХШ) корхоналари асосан, давлат молиялаштирилиши лозим бўлган ижтимоий-иқтисодий объектларга йўналтирилиб, бир вақтнинг ўзида давлат бюджетидан ажратиладиган маблағларинг тежалишига эришаётган бўлса, иккинчидан, мамлакат миллий иқтисодиётига маҳаллий ва хорижий инвестицияларни жалб этишда ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Бунинг натижасида, хўжалик субъектлари ўртасида реал рақобатбардошликни ривожлантиришга ҳам пойдевор бўлмоқда.

ДХШ лойиҳаларининг рақобатбардошликка таъсир этаётганига амин бўлиш учун, қуйида қайд этилган жадвал маълумотларига эътибор қаратамиз.

1- жадвал

Миллий иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида 2019-2023 йилларда ташкил этилган Давлат-хусусий шериклик асосида тузилган битимларнинг ҳисоби тўғрисида маълумот[52] (*млрд. сўмда*)

№	Давлат шериги тармоқ ва соҳасининг номланиши	Лойиҳалар сони		Амалга оширилган лойиҳалар	
		Сони	Инвестиция қиймати	Сони	Инвестиция қиймати
	Жами	**1 016**	**24 789,8**	**820**	**22 189,9**
1	Коммунал соҳасида	3	16 870,2	1	16 856,2
2	Соғлиқни сақлаш соҳасида	52	612,7	18	206,8
3	Сув хўжалиги тармоғида	473	434,7	455	378,8
4	Таълим соҳасида	112	2 345,1	48	763,8
5	Экология, атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида	67	1 261,5	66	1 218,5
6	ПҚ-118 бўйича ижтимоий соҳа иситиш тизимлари[1]	221	1 454,3	196	1 266,8

[52] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ҳисоб палатаси аудит жараёнида фойдаланган маълумотлари асосида тайёрланди.

7	Солиқ соҳасида	2	211,7	2	211,7
8	Ҳуқуқни муҳофаза қилиш соҳасида	9	88,5	6	63,4
9	Агро саноат тармоғида	6	144,5	2	143,9
10	Маданият соҳасида	44	199,4	13	55,4
11	Ҳунармандчилик соҳасида	18	8,1	9	4,1
12	Бандлик соҳасида	1	0,8	1	0,8
13	Транспорт тармоғида	2	1 017,0	1	1 006,8
14	Қурилиш соҳасида	1	111,5	0	0,0
15	Спорт соҳасида	5	30,0	2	13,0

Жадвал маълумотларидан маълум бўляптики, яқин беш йил ичида жами лойиҳалар сони 1 016 тани ташкил этган. Лекин шулардан амалга оширилган, яъни молия-хўжалик фаолиятини бошлаган лойиҳалар 820 тани ташкил этиб, бу 80,7 фоизни ташкил этмоқда. ДХШ лойиҳаларига эътибор қаратадиган бўлсак, сон жиҳатидан энг кўп лойиҳа Сув хўжалиги тармоғида ташкил этилган бўлиб, у 473 тани ташкил этган ва жами лойиҳаларнинг 46,5 фоизини ташкил этган. Аммо, Қурилиш ва бандлик соҳасида бор-йўғи биттадан лойиҳа имзоланган бўлиб, Қурилиш соҳасида лойиҳа фаолиятини ҳам бошламаган.

Худди шунга яқин кўрсаткичларни Солиқ соҳасида ва Транспорт соҳасида ҳам кузатиш мумкин. Қайд этилган рақамлар қайси соҳа ёки тармоқда ДХШ лойиҳалари яхши йўлга қўйилган, қайси бирларида эса фаолиятини жадаллаштириш зарурлигини билдирмоқда.

ДХШ бўйича амалдаги қонуннинг 10-моддаси “Давлат-хусусий шериклик соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари, деб номланган бўлиб, унда хусусий секторнинг молиявий маблағларини, шу жумладан хорижий инвестицияларни жалб этишни таъминлайдиган шарт-шароитлар яратиш”[53], - йўналиши алоҳида қайд этилган. Демак, ДХШ лойиҳалари орқали биз бир вақтнинг ўзида ҳам маҳаллий ҳам хорижий инвестицияларни жалб этиш асосий вазифа эканлигини хотирадан чиқармаслигимиз зарур.

Мамлакатимизда “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида ҳам ДХШ лойиҳаларига катта эътибор қаратилган бўлиб, унда маҳаллий инвестициялар билан бирга, хорижий инвестицияларни ҳам жалб этишни такомиллаштиришга қаратилганлигини қуйидаги иқтибосдан ҳам билиш мумкин. Шунингдек, “Мамлакатимизда 250 миллиард долларлик инвестицияларни ўзлаштириш, жумладан 110 миллиард доллар хорижий инвестициялар ва 30 миллиард доллар давлат-хусусий шериклик доирасидаги инвестицияларни жалб қилиш”[54].

Юқорида қайд этилган маълумотлар асосида айтиш мумкинки, мамлакатимизда ДХШ лойиҳаларини ривожлантириш борасида қарийб барча меъёрий ҳужжатлар қабул қилинган. Бу ўз навбатида, миллий иқтисодиётда рақобатбардошлик муҳитини

ривожлантиришга пойдевор ҳозир эканлигидан далолат. Бугунги кунда ДХШлар кўмагида миллий иқтисодиётда рақобатбардошликни жаҳон андозаларига мос равишда ташкил этиш учун қуйидаги йўналишларга эътибор қаратиш лозим. Жумладан:

Биринчидан, тармоқлар иқтисодиётидаги Қурилиш, Солиқ, Бандлик соҳаси ва Транспорт тармоғида ДХШ лойиҳалар сони орттириш лозим. Айни шу соҳа ва тармоқларга маҳаллий ва хорижий хусусий инвесторлар кириб келиши учун қулай шароитлар яратиш лозим.

Иккинчидан, рўйхатдан ўтган ва амалга ошириши тўхтаб қолган ДХШ лойиҳаларини танқидий ўрганиб, таъсир этаётган объектив ва субъектив сабабларни аниқлаш лозим. Аниқланган камчиликларга мос равишда манзилли дастурларни ишлаб чиқиб, тезда бартараф этиш йўлларини кўриш керак.

Ишончимиз комилки, биз томондан қайд этилган, илмий асосланган таклифлар ижроси таъминланса, тез вақтлар ичида миллий иқтисодиётда рақобатбардошлик янада яхши йўлга қўйилиши билан бирга, ижтимоий-иқтисодий муаммолар кўлами ҳам қисқаришига яқиндан ёрдам беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат-хусусий шериклик тўғрисида»ги Қонуни, 10.05.2019й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисидаги 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон, Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 10 апрель, ПҚ-118-сонли “Ижтимоий соҳа объектларининг иситиш тизимларини давлат-хусусий шериклик асосида модернизация қилиш тўғрисида”ги Қарори.
4. Карабаев. С. “Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг ташкилий ҳуқуқий механизмлари”. Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт номли илмий-электрон журнал. 2024 йил, август. 8- сон
5. Шарифхўжаев У.У., Абдуллаев Д.А. Давлат хусусий шериклиги ва унинг таркиби. Бюллетень науки и практики/Bulletins of Science and Practice. Т.7. №5. 2021.
6. PhD.Шавкатов Наврузбек “Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари: амалиёт ва ривожлантириш истиқболлари” “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №1, февраль, 2022 йил.
7. Якубова С.С., “Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик асосида мактабгача таълим тизимини молиялаштиришни такомиллаштириш” PhD диссертацияси автореферати, Тошкент, 2022 йил.
8. www.lex.uz
9. https://president.uz/uz
10. www.pppd.uz

MADANIY MEROS OB’EKTLARIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI TA’MINLASH: TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIMLIGI

Ibodillayev Habibulla Abdullayevich
Qarshi davlat universiteti, Yoshlar bilan ishlash bo‘limi tyutori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327255

Annotatsiya. *Mazkur maqolada madaniy merosni asrash, uni zamonaviy turizm sohasi bilan uyg‘unlashtirish orqali aholi bandligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizmning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ta’siri, xususan, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy rivojlanishga xizmat qilishi hamda tarixiy obidalarni saqlab qolishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, xalqaro va mahalliy tajriba asosida madaniy merosga asoslangan turizmning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasi ko‘rib chiqilgan. Maqolada mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so‘zlar*: madaniy meros, turizm, bandlik, iqtisodiy rivojlanish, barqaror turizm, turizm infratuzilmasi, mahalliy iqtisodiyot, turizm sohasidagi ish o‘rinlari, tarixiy obidalar, ekologik barqarorlik.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются вопросы сохранения культурного наследия и повышения занятости населения через развитие современной туристической отрасли. Исследование анализирует влияние туризма на экономику и общество, в частности, создание новых рабочих мест, содействие региональному развитию и роль в сохранении исторических памятников. Также рассмотрен вклад культурного туризма в устойчивое развитие на основе международного и местного опыта. В статье приведены актуальные проблемы и предложены пути их решения.*

Ключевые слова*: культурное наследие, туризм, занятость, экономическое развитие, устойчивый туризм, туристическая инфраструктура, местная экономика, рабочие места в туризме, исторические памятники, экологическая устойчивость.*

Annotation*. This article examines the issues of preserving cultural heritage and increasing employment through the development of the modern tourism sector. The research analyzes the impact of tourism on economic and social spheres, particularly its role in job creation, regional development, and the conservation of historical monuments. It also explores the contribution of culture-based tourism to sustainable development, drawing on both international and local experiences. The article offers an overview of current challenges and proposes recommendations for their resolution.*

Keywords*: cultural heritage, tourism, employment, economic development, sustainable tourism, tourism infrastructure, local economy, tourism job opportunities, historical monuments, environmental sustainability.*

Kirish. Bugungi kunda turizm sohasi nafaqat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, balki aholining hayot sifatini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy daromadni oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Ayniqsa, madaniy meros ob’ektlari asosida shakllanadigan turizm yo‘nalishlari bu borada katta salohiyatga ega. O‘zbekiston – boy tarixiy va madaniy merosga ega davlatlardan biri bo‘lib, bu merosni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ko‘plab

ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish mumkin. Qadimiy obidalar, tarixiy shaharlar, me’moriy yodgorliklar va ziyoratgohlar yildan-yilga ko‘proq sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda. Shu bilan birga, bu hududlarda turizm infratuzilmasining rivojlanishi mahalliy aholiga ish topish imkonini bermoqda. Masalan, mehmonxonalar, yo‘l ko‘rsatuvchi xizmatlar, suvenir do‘konlari, kafelar va mahalliy hunarmandchilik bilan shug‘ullanish – bularning barchasi aholi uchun daromad manbaiga aylanmoqda. Bu jarayon ayniqsa qishloq va chekka hududlarda yashovchi odamlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki turizm u yerda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, ayollar va yoshlarning bandligini ta’minlash borasida turizm sohasi katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Ko‘p hollarda bu ish turlari katta tajriba yoki yirik sarmoya talab qilmaydi. Odamlar o‘z uyi yoki usta hunarini ishga solgan holda sayyohlarga xizmat ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, kimdir o‘z uyini mehmon uyi sifatida taklif qilsa, boshqasi milliy taomlar pishirib sayyohlarga taqdim etadi yoki suvenirlar tayyorlaydi. Bularning barchasi oddiy odamlar uchun o‘z hayotini yaxshilash imkonini beradi.

Turizm rivojlangani sari madaniy meros ob’ektlariga e’tibor ham ortadi. Chunki sayyohlarni jalb qilish uchun bu obidalarni saqlash, ta’mirlash va xizmatga mos holatga keltirish kerak bo‘ladi. Bu ishlar esa yana qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratadi. Bundan tashqari, ob’ekt atrofidagi hududlar obod bo‘ladi, infratuzilma yaxshilanadi, bu esa aholining umumiy yashash sharoitini ham ko‘taradi. Shuningdek, mahalliy mahsulotlarga bo‘lgan talab ham oshadi. Sayyohlar ko‘pincha o‘zlari bilan esdalik sovg‘alarini olib ketishadi. Bu esa hunarmandlar, kulollar, zardo‘zlar, yog‘och o‘ymakorlari va boshqa ko‘plab mahalliy kasb egalari uchun doimiy daromad manbai yaratadi. Natijada kichik va o‘rta biznes rivojlanadi, raqobat kuchayadi va sifat oshadi. Bularning barchasini hisobga olgan holda aytish mumkinki, madaniy meros ob’ektlari nafaqat tarixiy va madaniy ahamiyatga ega, balki ular orqali aholini ish bilan ta’minlash, iqtisodiy faollikni oshirish, yoshlar va ayollar uchun imkoniyatlar yaratish mumkin. Shu sababli, davlat siyosatida turizmga, xususan, madaniy meros asosidagi turizmga alohida e’tibor qaratilishi o‘rinli. Bu yo‘nalishda xususiy sektor, mahalliy hokimiyatlar va fuqarolik jamiyati vakillari birgalikda harakat qilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Madaniy merosni saqlash va uni turizm orqali rivojlantirishga doir masalalar so‘nggi yillarda xalqaro va mahalliy miqyosda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning markazida turibdi. Jumladan, G. Ashworth va J. Tunbridge (2000) tomonidan ishlab chiqilgan “turist-tarixiy shahar” konsepsiyasi madaniy merosning zamonaviy turizm bilan uyg‘unlashuvi orqali barqaror urbanistik rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvda tarixiy muhitni tijoriylashtirmasdan, uning saqlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlash asosiy prinsip sifatida ko‘rsatiladi. UNESCO va UNWTO tomonidan olib borilgan xalqaro dasturlar madaniy turizmni nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki madaniy xilma-xillikni saqlash va jamiyatlararo muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida baholaydi. Xususan, UNESCO (2019) hisobotida turizm orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish, obidalarni restavratsiya qilish va mahalliy aholini bu jarayonlarga jalb etish samarali mexanizm sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston kontekstida esa N.T. Karimov (2021) va M.M. Jo‘rayev (2020) asarlarida madaniy merosning turizm salohiyatini ochib berish, uni mahalliy iqtisodiyot bilan bog‘lash va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar misolida turizm orqali regional bandlikka erishish va yoshlar ishtirokini faollashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, D.A. Xolmatov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi va uning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Muallif

bandlikning mavsumiyligi va malakali kadrlar tanqisligi muammolariga e’tibor qaratadi. Xalqaro miqyosda esa Jahon bankining (2020) tahliliy hisobotlarida madaniy meros va turizm integratsiyasining iqtisodiy samaradorligi, xususan, bandlik, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksport xizmatlarini ko‘paytirishdagi roli keng yoritilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, madaniy merosni saqlash va turizmni rivojlantirish bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi omillar bo‘lib, ular o‘zaro uyg‘un holda olib borilgandagina barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Biroq, bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan har qanday tashabbus professional rejalashtirish, mahalliy jamoalarning ishtiroki va ekologik hamda madaniy muvozanatni saqlash prinsiplariga asoslangan bo‘lishi lozim.

Munozara. O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasi madaniy merosni saqlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu ikki yo‘nalish o‘zaro uyg‘unlashganda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga chiqish mumkin. Madaniy meros obyektlari sayyohlarni jalb etishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi, ammo ularni tijoratlashtirishda muvozanatni saqlash zarur. Ya’ni, tarixiy obidalarni faqat daromad manbai sifatida ko‘rish ularning asl madaniy va ruhiy qadriyat sifatidagi rolini zaiflashtirishi mumkin. Shu bois, barqaror turizm tamoyillariga amal qilgan holda, meros obyektlarini saqlash, ularni restavratsiya qilish va turistik xizmatlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasi orqali ish bilan bandlikni oshirish imkoniyati keng. Xususan, xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik, transport, mehmonxona va gastronomiya sohalarida minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Biroq, bu bandlikning mavsumiy xarakterda bo‘lishi, xodimlar malakasining pastligi, til bilish darajasi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati kabi muammolar turizmni iqtisodiy barqarorlikka yetaklovchi kuchga aylantirishda to‘siq bo‘lmoqda. Buning uchun davlat va xususiy sektor tomonidan malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, kasb-hunar ta’limini turizm sohasiga yo‘naltirish dolzarbdir.

Madaniy merosni saqlash borasida esa xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda O‘zbekistonda obidalarni asrash bo‘yicha huquqiy va moddiy bazani mustahkamlash talab etiladi. UNESCOning tavsiyalariga binoan, mahalliy jamoalarni bu jarayonga jalb etish, ularning merosni asrashdagi ishtirokini rag‘batlantirish samaradorlikni oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, turizmni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyot vositasiga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniy merosni asrash va turizmni rivojlantirish o‘rtasidagi bog‘liqlik har ikki sohani yanada mustahkam integratsiyalashni talab qiladi. Bunda davlat siyosati, mahalliy boshqaruv, xususiy sektor va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yoshlar va ayollarni band qilish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion turizm texnologiyalarini joriy etish va ekoturizmga e’tibor qaratish – kelajakda turizm orqali madaniy merosni saqlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Xulosa. Madaniy merosni saqlash va turizmni rivojlantirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasi orqali ish bilan bandlikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin. Biroq, turizmni barqaror rivojlantirish uchun madaniy merosni saqlashda muvozanatni saqlash zarur. Yangi texnologiyalarni joriy etish, ta’lim va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash asosiy omillar sifatida ko‘riladi. Shuningdek, davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ashworth, G.J., & Tunbridge, J.E. (2000). The Tourist-Historic City: Retrospect and Prospect of Managing the Heritage City. – London: Routledge.
2. Jo‘rayev, M.M. (2020). Madaniy meros va turizm integratsiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti.
3. Karimov, N.T. (2021). Turizm va hududiy rivojlanish: muammolar va imkoniyatlar. – Samarqand: Ilmiy izlanishlar markazi.
4. Xolmatov, D.A. (2022). O‘zbekiston turizm sanoati: rivojlanish bosqichlari va istiqbollari. – “Turizm iqtisodiyoti” jurnali, №2, 45–53-betlar.
5. Shokirova, G.R. (2019). *Ekoturizm va madaniy obidalar: barqarorlik yondashuvi*. – “Ijtimoiy fanlar” jurnali, №3, 22–29-betlar.
6. Batyrbekov S., Karimova D. *Madaniy meros va barqaror turizm: O‘zbekiston tajribasi*. // *Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*. – 2021. – №2. – B. 45–52.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA BIG DATA VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimova Manzura Marat qizi
Tashkent ISFT (International school of finance and technology) universiteti bakalavriyat talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327310

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida prognozlash jarayonlarining o‘rni, dolzarbligi hamda uni samarali tashkil etishning muhim jihatlari yoritiladi. Xususan, Big Data (katta hajmdagi ma’lumotlar) va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Prognozlashning an’anaviy usullari va zamonaviy raqamli yondashuvlar taqqoslanadi, mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan prognozlash tizimlarini joriy etish, algoritmlarni moslashtirish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, Big Data, sun’iy intellekt, prognozlash, algoritmlar, metodologiya, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются роль, актуальность и ключевые аспекты эффективной организации процессов прогнозирования в условиях цифровой экономики. В частности, анализируются возможности применения технологий Big Data (больших данных) и искусственного интеллекта. Сравниваются традиционные методы прогнозирования и современные цифровые подходы, выявляются существующие проблемы. Кроме того, предлагаются практические рекомендации по внедрению интегрированных систем прогнозирования, адаптации алгоритмов и развитию кадрового потенциала.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, Big Data, искусственный интеллект, прогнозирование, алгоритмы, методология, инновация.*

Abstract. *This article highlights the role, relevance, and key aspects of organizing forecasting processes in the digital economy. In particular, it analyzes the potential of Big Data and artificial intelligence technologies. Traditional forecasting methods are compared with*

modern digital approaches, and existing challenges are discussed. Furthermore, practical recommendations are provided on the implementation of integrated forecasting systems, the adaptation of algorithms, and the development of human capital.

Keywords: *digital economy, Big Data, artificial intelligence, forecasting, algorithms, methodology, innovation.*

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda iqtisodiy jarayonlar raqamli transformatsiya bosqichiga o‘tdi. Internet, mobil ilovalar, elektron tijorat, onlayn bank xizmatlari va raqamli to‘lov tizimlari tufayli iqtisodiy faoliyat hajmi keskin oshib bormoqda. Natijada, ma’lumotlar oqimi misli ko‘rilmagan darajada ortdi. Bu esa iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish uchun prognozlash usullarini tubdan yangilashni talab qilmoqda.

Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalari — bu jarayonning eng asosiy vositalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Big Data yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va vizuallashtirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt esa ushbu ma’lumotlarga tayangan holda mustaqil qaror qabul qilish, bashorat qilish va o‘rganish qobiliyatiga ega.

Prognozlash iqtisodiy siyosat, moliya bozorlari, ishlab chiqarish rejalashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasi hamda xalqaro savdoda asosiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, raqamli iqtisodiyot sharoitida prognozlash metodologiyasini takomillashtirish nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega masaladir.

Muammo va dolzarblik.

1. Ma’lumotlarning hajmi va xilma-xilligi.

Zamonaviy iqtisodiyotda faqat rasmiy statistika emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, mijozlar sharhlari, onlayn xaridlar, logistika tizimlari, sensorlar va IoT qurilmalaridan kelayotgan oqimlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularni tezkor qayta ishlash ko‘plab tashkilotlar uchun qiyin.

2. An’anaviy usullarning chegaralanganligi. Oldindan belgilangan matematik formulalar asosida ishlovchi usullar ko‘pincha real iqtisodiy dinamikani to‘liq qamrab ololmaydi. Masalan, iqtisodiy inqiroz yoki pandemiya kabi kutilmagan omillar prognozlarning aniqligini keskin pasaytiradi.

3. Sun’iy intellekt imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligi.Ko‘plab tashkilotlarda AI texnologiyalari joriy qilinsa-da, ular asosan yuzaki ishlatiladi: chatbotlar yoki oddiy tahlilchi vositalar shaklida. Aslida esa prognozlash jarayoniga chuqur integratsiya qilish imkoniyatlari yetarlicha o‘rganilmagan.

4. Metodologik va standartlashtirish muammolari. Turli mamlakatlar va tashkilotlar o‘z prognozlash metodologiyasini qo‘llamoqda, ammo umumiy standartlar yo‘qligi global hamkorlikni qiyinlashtiradi.

5. Kadrlar salohiyatining yetarli emasligi.Big Data va AI bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi. Bu esa yangi texnologiyalarning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Yechim va tavsiyalar

1. Integratsiyalashgan prognozlash tizimlarini joriy etish

Prognozlash samaradorligi turli manbalar va ma’lumot turlarini yagona platformaga birlashtirish orqali oshadi. Masalan, davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlarini banklar,

kompaniyalar va ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlari bilan integratsiya qilish imkoniyatini beruvchi tizimlar yaratish lozim. Bu orqali:

- real vaqt rejimida iqtisodiy vaziyat monitoringi amalga oshiriladi;
- prognozlar aniqroq va tezkor bo‘ladi;
- qaror qabul qiluvchilar uchun tushunarli vizual tahlillar yaratiladi.

2. Sun’iy intellekt algoritmlarini moslashtirish va o‘qitish

AI algoritmlari iqtisodiy prognozlash jarayoniga to‘liq moslashtirilsa, yuqori samaradorlik beradi. Masalan:

- Mashinalarni o‘rganish (machine learning) orqali talab va taklif dinamikasini o‘rganish.

Chuqur o‘rganish (deep learning) asosida aksiyalar narxini bashorat qilish.

- Natural Language Processing (NLP) yordamida ijtimoiy tarmoqlardagi kayfiyatni tahlil qilib, bozor tendensiyalarini aniqlash.

AI’ni o‘qitish jarayonida lokal iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olish ham muhim. Masalan, O‘zbekiston iqtisodiyotida mavsumiylik (paxta yig‘im-terimi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosili) va tashqi bozorlarga bog‘liqlik sezilarli rol o‘ynaydi.

3. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish va metodologiyani standartlashtirish

- Mutaxassislar tayyorlash: Big Data tahlili, AI dasturlash va iqtisodiy modellashtirish bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlarini kengaytirish zarur.
- Metodologik standartlar: xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitiga mos yagona prognozlash metodologiyasini ishlab chiqish lozim. Bu davlat organlari, biznes va ilmiy institutlar uchun yagona til yaratadi.
- Xalqaro hamkorlik: OECD, UNCTAD va boshqa xalqaro tashkilotlarning ilg‘or tajribalarini qo‘llash orqali metodologiyani global standartlarga yaqinlashtirish mumkin.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida prognozlash metodologiyasini takomillashtirish — bu faqat ilmiy masala emas, balki amaliy zaruratdir. Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalarini to‘laqonli joriy etish orqali:

- iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoni tezlashadi;
- prognozlar aniqligi oshadi;
- iqtisodiy xavflarni oldindan ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, integratsiyalashgan tizimlar, moslashuvchan algoritmlar va malakali kadrlar iqtisodiy prognozlashning asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekistonning nafaqat ichki iqtisodiy barqarorligi, balki global raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age*. – MIT Press, 2017.
2. Marr B. *Big Data in Practice: How 45 Successful Companies Used Big Data Analytics to Deliver Extraordinary Results*. – Wiley, 2016.
3. Chen M., Mao S., Liu Y. *Big Data: A Survey*. – Mobile Networks and Applications, 2014.
4. OECD. *AI in the Digital Economy*. – OECD Publishing, 2021.
5. Ivanov V., Petrova N. *Digital Transformation and Big Data in Economics*. – Springer, 2020.
6. Manyika J., Chui M., Brown B. *Big Data: The Next Frontier for Innovation, Competition, and Productivity*. – McKinsey Global Institute, 2011.
7. Davenport T. H., Ronanki R. *Artificial Intelligence for the Real World*. – Harvard Business Review, 2018.

ZAMONAVIY IQTISODIY TADQIQOTLARDA MIQDOR-SIFAT INTEGRATSIYASI VA VIZUAL TAHLIL

Ibrohimov Sharifjon Adhamjon o‘g‘li
Tashkent ISFT (International school of finance and technology) universiteti bakalavriyat talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327348

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda miqdoriy va sifat yondashuvlarini integratsiyalash zarurati tahlil qilinadi. An’anaviy econometrik modellar murakkab jarayonlarning ijtimoiy hamda institutsional jihatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu bois sifat usullari qo‘llanishi natijalarni chuqurlashtiradi va amaliy ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, ma’lumotlarni vizual tahlil qilish va interaktiv taqdim etish ilmiy tahlil samaradorligini kuchaytiradi. Tadqiqot integratsiyalashgan metodologiyaning ustunliklarini yoritib, xalqaro tajribaga asoslangan amaliy tavsiyalarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy tadqiqot metodologiyasi, miqdoriy va sifat usullar, vizual tahlil, econometrika, Big Data*

Annotation*. This article examines the necessity of integrating quantitative and qualitative approaches in modern economic research. Traditional econometric models often fail to capture the social and institutional dimensions of complex processes. Therefore, the use of qualitative methods enhances the depth and practical relevance of results. In addition, data visualization and interactive presentation are emphasized as tools that improve the effectiveness of analysis. The study highlights the advantages of an integrated methodology and offers practical recommendations for economic policy based on international experience.*

Keywords: *economic research methodology, quantitative and qualitative methods, visual analysis, econometrics, Big Data*

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость интеграции количественных и качественных подходов в современных экономических исследованиях. Традиционные эконометрические модели нередко не охватывают социальные и институциональные аспекты сложных процессов. Применение качественных методов углубляет результаты и повышает их практическую значимость. Также подчеркивается роль визуализации данных и их интерактивного представления в повышении эффективности анализа. В исследовании раскрываются преимущества интегрированной методологии и предлагаются практические рекомендации для экономической политики на основе международного опыта.*

Ключевые слова: *методология экономических исследований, количественные и качественные методы, визуальный анализ, эконометрика, Big Data*

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda iqtisodiy tadqiqotlarning metodologik bazasi sezilarli darajada kengaydi. An’anaviy econometrik modellar iqtisodiy jarayonlarni matematik asosda tahlil qilish va prognozlashda samarali bo‘lsa-da, ular ko‘pincha iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy, institutsional hamda insoniy omillarini yetarli darajada hisobga olmaydi [1]. Shu bois, zamonaviy izlanishlarda miqdoriy va sifat yondashuvlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Miqdoriy metodlar (econometrika, statistik tahlil, prognozlash) iqtisodiy ko‘rsatkichlarning matematik asosda o‘lchanishini ta’minlasa, sifat yondashuvlari (case study, ekspert intervyular, komparativ tahlil) iqtisodiy jarayonlarning ichki mazmunini ochib beradi [2]. Ushbu ikki yo‘nalishni birlashtirish natijalarning aniqligini oshirish bilan birga, ilmiy-amaliy xulosalarni ham yanada ishonchli qiladi.

Bundan tashqari, ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va raqamli analitika iqtisodiy tadqiqotlarda yangi bosqichni boshlab berdi. Interaktiv grafikalar, vizual tahlil vositalari va Big Data asosidagi yondashuvlar murakkab jarayonlarni tezkor va aniq ko‘rinishda ifodalash imkonini yaratmoqda [3].

Ushbu maqolaning maqsadi – zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda miqdoriy va sifat metodlarining integratsiyasi hamda vizual tahlilning afzalliklarini ochib berish, xalqaro tajribaga tayangan holda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Muammo tahlili. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar ko‘lamining kengayishi bilan birga, tadqiqotchilar duch kelayotgan asosiy muammolarni quyidagicha izohlash mumkin:

An’anaviy econometrik usullar iqtisodiy jarayonlarning institutsional va ijtimoiy omillarini yetarli darajada qamrab olmaydi.[1]

Faqat miqdoriy natijalarga asoslanish bir tomonlama tahlilga olib keladi. Masalan, raqamli ko‘rsatkichlar ijtimoiy tenglik yoki madaniy omillarni aks ettira olmaydi.[2]

Katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) qayta ishlash va vizual tahlil qilish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi sababli prognozlar kechikkan yoki noaniq bo‘lib chiqadi.[3]

Fanlararo yondashuv yetarlicha tatbiq etilmagan. Real iqtisodiy jarayonlar psixologiya, sotsiologiya va texnologiya bilan uzviy bog‘liq, ammo tadqiqotlarda bunday integratsiya ko‘pincha yetarli emas.[4]

Nazariy asoslar. So‘nggi yillarda Scopus, Oxford Academic va Springer bazalarida chop etilgan maqolalarda **mixed-methods research** iqtisodiy tadqiqotlarda alohida e’tibor qozonmoqda. Creswell va Clark (2023) miqdor va sifat metodlarini uyg‘unlashtirish “murakkab iqtisodiy jarayonlarning ko‘p o‘lchamli manzarasini yaratadi” deya ta’kidlaydi. Deaton va Cartwright (2021) esa miqdoriy indikatorlar ortida yotgan ijtimoiy kontekstni e’tiborsiz qoldirish “noto‘liq xulosalar”ga olib kelishini qayd etadi.

Shuningdek, vizual tahlil (data visualization) zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda keng tarqalmoqda. Harvard Business Review (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, vizualizatsiya yordamida iqtisodiy model natijalarini siyosatchilar, biznes va jamoatchilikka aniq va tushunarli shaklda yetkazish samaradorlikni 40%ga oshiradi.

Tahlil va dolzarblik. Integratsiyalashgan metodologiya orqali iqtisodiy tadqiqotlar:

1.Empirik ishonchlilikni oshiradi – statistik natijalar ijtimoiy omillar bilan tekshiriladi.

2.Kontekstual chuqurlikni ta’minlaydi – iqtisodiy qarorlarning inson, jamiyat va madaniyat bilan bog‘liqligi yoritiladi.

3.Natijalarni tushunarli taqdim etadi – vizual tahlil yordamida ilmiy izlanish natijalari ko‘proq auditoriya uchun ochiq bo‘ladi.

Biroq ko‘plab tadqiqotlarda integratsiya yuzaki bo‘lib, metodlar yonma-yon qo‘llaniladi, ammo bir-birini chuqur boyitmaydi. Bu esa ilmiy yangilik darajasini pasaytiradi.

Yechim va tavsiyalar. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda metodologik muammolarni samarali hal qilish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim:

1.Miqdoriy va sifat metodlarini uyg‘unlashtirish. Statistik ko‘rsatkichlarni sifat tahlil bilan boyitish iqtisodiy jarayonlarni to‘liqroq yoritadi.

2.Vizual tahlil vositalarini keng qo‘llash. Katta hajmdagi ma’lumotlarni grafik va interaktiv usullarda ko‘rsatish tezkor va aniq qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

3.Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish yordamida prognozlarning aniqligi oshiriladi.

4.Fanlararo hamkorlik. Iqtisodchi, sotsiolog, psixolog va Data-analitiklarning hamkorligi murakkab jarayonlarni yanada chuqurroq tahlil qiladi.

5.Xalqaro tajribani moslashtirish. Singapur va Koreya tajribasidan foydalanib, uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Xulosa. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar nafaqat raqamlar va statistik natijalar, balki inson va jamiyat omillarini ham chuqur yoritishni talab qiladi. Shu bois miqdoriy va sifat metodlarini integratsiyalash metodologik zaruratdir. Vizual tahlilning qo‘llanilishi esa murakkab iqtisodiy jarayonlarni yanada tushunarli va ta’sirchan shaklda ifodalash imkonini beradi.

Tahlildan ko‘rinadiki, metodlar uyg‘unligi:

1.empirik asoslarning ishonchliligini mustahkamlaydi;

2.kontekstual chuqurlikni ochib beradi;

3.ilmiy natijalarni keng auditoriyaga yetkazishni osonlashtiradi.

Shu sababli iqtisodiy tadqiqotlarda metodologik integratsiya, raqamli texnologiyalar va fanlararo hamkorlikni rivojlantirish xalqaro miqyosda dolzarb masalalarga samarali yechim taklif etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Creswell, J. W., & Clark, V. L. P. (2023). *Designing and Conducting Mixed Methods Research.* SAGE Publications. [Scopus]
2. 2.Deaton, A., & Cartwright, N. (2021). “Understanding and Misunderstanding Randomized Controlled Trials.” *Social Science & Medicine*, 282, 113–127. [ScienceDirect]
3. 3.Bryman, A. (2020). “Integrating Quantitative and Qualitative Research: How is it Done?” *Qualitative Research*, 20(2), 159–172. [Oxford Academic]
4. 4.Kelle, U. (2022). “Mixed Methods in Economic and Social Research.” *Springer Handbook of Research Methods*, 45–68. [Springer]
5. Few, S. (2022). *Show Me the Numbers: Designing Tables and Graphs to Enlighten.* Analytics Press. [Scopus]
6. Harvard Business Review. (2022). “Why Data Visualization Matters in Economics and Policy-making.” *Harvard Business Review Digital Articles.*

TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA TA’LIM TIZIMI SAMARADORLIGI VA SIFATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH

Ismoilova Feruza Kubaymurodovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327388

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim xizmatlarini samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda ularni shakllantirish jarayonlari yoritilgan. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv uslublaridan foydalanish, raqobatbardoshlikni ta’minlash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va xalqaro tajribani qo‘llash orqali ta’lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim xizmatlari bozorining barqaror rivojlanishi uchun davlat va nodavlat sektor o‘rtasidagi hamkorlik, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish kabi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning ahamiyati asoslab berilgan.*
Kalit so‘zlar: *Ta’lim xizmatlari, samaradorlik, sifat, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, raqobatbardoshlik, innovatsiya, boshqaruv, barqaror rivojlanish.*

Hozirgi kunda globallashuv va axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi jarayonida ta’lim tizimi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biriga aylanmoqda. Ta’lim xizmatlari bozori nafaqat inson kapitalini shakllantirish, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ta’lim tizimida samaradorlik va sifatni oshirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozorida raqobat kuchayib borayotganligi, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning joriy qilinishi, xalqaro standartlarga moslashish zarurati mavjud mexanizmlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni samarali shakllantirish orqali ta’lim sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda davlat va nodavlat sektor o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish zarur bo‘lib bormoqda. Ta’lim xizmatlari sohasi bevosita aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga, iqtisodiyotning rivojlanishi va samaradorligining oshishiga ta’sir qiladigan muhim omillardan biri sifatida baholanadi. Ammo ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligi va sifatini oshirish o‘ta murakkab bo‘lib, uni amalga oshirishda ta’sirchan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan to‘g‘ri foydalanishni taqozo qiladi.

Shu o‘rinda, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar barcha sohalardagi singari, ta’lim xizmatlari sohasida ham qotib qolgan yoki o‘zgarishi mumkin bo‘lmaydigan dastaklardan emas. Davr talabining o‘zgarishi bilan ushbu mexanizmlar ham o‘zgarib boradi. Bular bir tomondan, vaqt o‘tishi bilan jamiyatning rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning yuksalishi, hayot talabining o‘zgarishi bilan takomillashib boraveradigan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bir vaqtning o‘zida turli sohalarda qo‘llaniladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ham turlicha bo‘ladi.

Ta’lim xizmatlari bozorida samaradorlik va sifatni oshirish muammosi ilmiy jihatdan o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur jarayonning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari faqat amaliy choralar bilan emas, balki nazariy yondashuvlar bilan ham asoslanishi zarur. Nazariy konsepsiyalarga ko‘ra, samaradorlikni oshirish resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali ro‘yobga chiqadi, sifat esa innovatsion yondashuvlar va xalqaro standartlarga asoslangan baholash tizimlari bilan belgilanadi.

Mazkur masalaning nazariy mazmunini chuqur o‘rganish, bir tomondan, ta’lim xizmatlari bozorida yuzaga kelayotgan muammolarni tizimli ravishda aniqlashga yordam beradi, ikkinchi tomondan, tadqiqotning keyingi bosqichlarida qo‘llaniladigan amaliy mexanizmlarning samaradorligini ta’minlaydi. Shuningdek, iqtisodiyot fanlari va ta’lim sohasidagi nazariy qarashlarni uyg‘unlashtirish orqali mazkur yo‘nalishda kompleks ilmiy yondashuv shakllantiriladi.

Mamlakatimizda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning nazariy, uslubiy jihatlari kam tadqiq qilingan. Mazkur masala bo‘yicha ayrim fikrlar O.M.Pardaev, Z.A.Ashurov, I.U.Ibragimov kabilarning asarlarida o‘z aksini topgan[1]. Ushbu tadqiqotlarda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning turli tarmoq va sohalarda takomillashtirishga oid masalalar yoritilgan. Ammo aynan ta’lim tizimida mazkur masalaning aniq yechimiga bag‘ishlangan tadqiqotlar kam olib borilgan. Bularni inobatga olib, ushbu masalaning nazariy jihatlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim xizmatlari bozorida samaradorlik va sifatni oshirish bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning samarali faoliyat yuritishiga bevosita bog‘liqdir.

Ta’lim xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari deganda, sohani rivojlantirish, ta’lim xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan dastaklarni tashkil etish, uyushtirish, pedagogik kadrlarni rag‘batlantirish bilan bir vaqtda talabalarning ham qiziqishini orttirishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlarni hamda ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Tashkiliy mexanizmlar – bu ta’lim jarayonini boshqarish tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalarida ichki va tashqi nazoratni kuchaytirish, sifat monitoringini yo‘lga qo‘yish, inson kapitalini rivojlantirish va xalqaro akkreditatsiya talablari asosida faoliyat yuritishni anglatadi. Bunday mexanizmlar ta’lim jarayonida samaradorlikni nazorat qilish va natijalarga yo‘naltirilgan boshqaruvni amalga oshirish imkonini beradi.

Iqtisodiy mexanizmlar esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, ta’lim xizmatlarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini jalb etish, byudjetdan tashqari mablag‘larni samarali yo‘naltirish va rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish bilan izohlanadi. Ularning asosiy vazifasi – ta’lim muassasalarining iqtisodiy mustaqilligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish orqali sifatni kafolatlashdir.

Ta’lim xizmatlari samaradorlikni oshirish mexanizmlari ta’lim jarayonini ilmiy asosda boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy mablag‘larni samarali taqsimlash hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish, ichki audit va

nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda ta’lim natijalarini baholashning zamonaviy indikatorlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, **sifatni oshirish mexanizmlari** xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlarini joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim platformalaridan samarali foydalanish orqali shakllanadi. Talabalar bilimini baholashda xalqaro reyting va akkreditatsiya tizimlari tajribasidan foydalanish esa ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Ta’lim xizmatlari bozorida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishda bir nechta omillar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. **Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish** – davlat byudjeti mablag‘lari bilan bir qatorda, grantlar, xalqaro moliyaviy institutlar resurslari va xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish.
2. **Davlat va nodavlat sektor hamkorligini rivojlantirish** – davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish.
3. **Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish** – sifatni muntazam o‘lchash va natijadorlikka qarab rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish.
4. **Innovatsion rivojlanishga yo‘naltirish** – ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini qo‘llab-quvvatlash, startaplar bilan hamkorlikni kengaytirish.

Bundan tashqari, ta’lim xizmatlari bozorida samaradorlikni oshirish jarayoni nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ta’lim sifatining oshishi, aholining bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligining yuksalishi mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshiradi hamda global ta’lim bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Ta’lim xizmatlari bozorida ta’lim tizimi samaradorligi va sifatni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omildir. Ta’lim tizimida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga asoslangan sifat baholash tizimini rivojlantirish ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish hamda monitoring va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish ta’lim xizmatlari bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pardaev O.M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2017. – 88-89 betlar;
2. Z.A.Ashurov “Aksiyadorlik korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2019;
3. I.U.Ibragimov “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”. **I**qtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2019
4. Abdullaeva N. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida sifatni boshqarish mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 156 b.

5. Axmedova M. Innovatsion ta’lim xizmatlari va ularning iqtisodiy samaradorligi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 132 b.
6. Bekmurodov A. Iqtisodiyotda samaradorlik va raqobatbardoshlik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019. – 210 b.
7. Qurbonov Sh. Oliy ta’limda integratsiya jarayonlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar // Iqtisod va ta’lim jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–52.
8. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.

NOMODDIY AKTIVLARNING IQTISODIY MAZMUNI VA AHAMIYATINI QO‘LLASH TARTIBI

Kadirov Saxobiddin Sharofovich
Renessans ta’lim universiteti, “Moliya va kredit” kafedrasi dotsenti i.f.f.d., (PhD), 0000-0003-3983-5657

https://doi.org/10.5281/zenodo.17414432

Annotatsiya. *Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bu - nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi tahlili va foydali hizmat muddati tahlili ko‘rsatkichlari bayoni keltirilgan, shuningdek, bu ko‘rsatkichlarni takomillashtirish yuzasidan fikr-muloxazalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *nomoddiy aktivlar, amortizatsiya, to‘g‘ri chiziqli usul, ishlab chiqarish usuli, kamayib boruvchi qoldiq, kumulyativ usul, xarajatlar, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil.*

Abstract. *The indicators representing the accounting and analysis of intangible assets are the amortization analysis of intangible assets and the analysis of useful life, and suggestions are given for improving these indicators.*

Keywords: *intangible assets, depreciation, straight-line method, production method, diminishing balance, cumulative method, costs, accounting, economic analysis.*

Аннотация. *Показателями, характеризующими учет и анализ нематериальных активов, являются анализ амортизации нематериальных активов и анализ срока полезного использования, а также даются предложения по совершенствованию этих показателей.*

Ключевые слова: *нематериальные активы, амортизация, линейный метод, производственный метод, уменьшаемый остаток, кумулятивный метод, затраты, бухгалтерский учет, экономический анализ.*

Jahonda innovatsion jarayonlarning rivojlanishida nomoddiy aktivlardan maqsadli va samarali foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda nomoddiy aktivlarning o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, «nomoddiy aktivlarning o‘sish sur’atlari yiliga 15 foizdan yuqori holda saqlanib qolinmoqda, jumladan bu holat Xitoyda 30 foiz, AQShda 7-10 foizgacha va Germaniyada 5 foiz. Oxirgi o‘n yilda qariyb 1,2 mlrd. AQSh doll. miqdoridagi nomoddiy aktiv obyektlari muomalaga chiqariladi. Natijada, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining umumiy aktivlari 120,0 trln. AQSh doll.dan ortdi, buning 63,6 trln. doll (53,0 foiz) moddiy ko‘rinishdagi, ya’ni asosiy vositalar, TMZ va pul mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aktivlarning qolgan 56,4 trln. AQSh doll (47,0 foiz) nomoddiy aktivlar, ya’ni patent, nou-xau, dasturiy mahsulotlar, tovar belgilar kabilarning hissasiga to‘g‘ri keladi»[1]. Dunyo mamlakatlarida **nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va uning axborotlaridan samarali foydalanish muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.**

Jahonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash sharoitida nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini tashkil etishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini tashkil etishni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, tadbirkorlik subyektlarining nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish; tijorat korxonalarida nomoddiy aktivlarni hisobga olish va tahlil qilishning nazariy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish, nomoddiy aktivlar hisobi metodologiyasini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi korxonalarida nomoddiy aktivlarni hisobga olishni takomillashtirish yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda ham nomoddiy aktivlar hisobi, auditi va tahlili uslubiyotining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida nomoddiy aktivlarni tasniflash, ularni tan olish, baholash, hisobini tashkil etish va yuritish, foydalanuvchilar uchun axborot imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish hamda tahlil qilish uslubiyoti masalalari takomillashtirib kelinmoqda. Ammo, dunyo mamlakatlarida nomoddiy aktivlarning rivojlanishi turli darajada bo‘lganligi sababli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo‘yilgan talablarda ularning hisobi va tahlili bo‘yicha xalqaro darajada erishilgan natijalarning to‘liq joriy etilmay qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda xalqaro hisob tajribasi asosida nomoddiy aktivlarga bo‘lgan huquqlarni hisobda tan olish, baholash, buxgalteriya schyotlarida yuritish, amortizatsiya hisoblash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, ularning tahlili uslubiyati yuzasidan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 maydagi 302-son «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida»gi qarori hamda buxgalteriya hisobi va tahlili faoliyatiga tegishli bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Xorijlik mutaxassislar tomonidan berilgan ta’riflar va yondashuvlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, iqtisodchi olim V.F. Paliy nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilinishi, qadrsizlanishi, zaxiralar yaratilishi, 38-, 37- va 36-MHXSlari bo‘yicha «nomoddiy aktivlarning amortizatsiya hisobi, amortizatsiya hisoblash usullari, foydalilik muddatlari, aniqlash talablari, nomoddiy aktivlarni baholash, qayta baholash, nomoddiy aktivlarning boshqa jihatlari haqida ma’lumotlar bergan»[2].

Respublikamizda ham nomoddiy aktivlar hisobi, tahlili va auditi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Natijada ushbu sohaga oid qator ilmiy maqolalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar chop etildi. Bular jumlasiga R.D.Dusmuratov, A.K.Ibragimov, I.N.Ismanov, B.I.Isroilov, Sh.I.Ilxamov, A.A.Karimov, N.F.Karimov, M.Q.Pardayev, N.K.Rizayev, M.E.Po‘latov, K.B.Urazov, B.A.Xasanov, Z.N.Qurbanov, K.R.Hotamov,

I.N.Qo‘ziyev, Z.A.Muqumov, I.R.Davletov, O.T.Nurmatov, A.M.Xudaykulov va boshqalarning [3] izlanishlarini kiritish mumkin.

Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida nomoddiy aktivlarni hisobga olish, tahlil qilish va auditini o‘tkazishning metodologik masalalari tadqiq etilgan.

Iqtisodchi olim R.Dusmuratov tomonidan nomoddiy aktivlarni hisobga olish va audit o‘tkazish uslubiyoti shakllantirilgan [4].

I.Ismanov nomoddiy aktivlarni hisobni e’tibor qaratishni talab etuvchi aktivlar sifatida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga transformatsiya qilish masalalariga to‘xtalib o‘tgan[5].

Sh.Ilxamov esa nomoddiy aktivlarni uzoq muddatli aktivlarni tan olishdagi mezonlar bo‘yicha o‘rgangan[6].

I.Davletov agrar sohada nomoddiy aktivlarni intellektual mulk obyektlari sifatida tadqiq etgan va ularni hisobga olish hamda auditi masalalarini yoritgan[7].

M.Pardayevning ilmiy asarlari va yaratilgan darsliklarida nomoddiy aktivlar tahlilining modellari va ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirilgan[8].

N.Rizayev esa avtomobilsozlik sohasidagi nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini o‘rgangan, shuningdek, doktorlik dissertatsiyasida esa nomoddiy aktivlarning tarkibiga kiruvchi intellektual mulk obyektlar hisobi va tahlili metodologiyasini tadqiq etgan[9].

O.Nurmatov tomonidan nomoddiy aktivlarni baholash usullari, ularni qadrsizlanishi yoritilgan, nomoddiy aktivlar bilan bog‘liq jarayonlarni soliqqa tortish masalalari o‘rganilgan[10].

A.Xudaykulov tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tizimidagi korxonalarning nomoddiy aktivlar hisobini yuritishdagi faoliyati hamda auditorlik korxonalarining nomoddiy aktivlar auditini yuritishdagi faoliyati tadqiq qilingan[11].

Shunday bo‘lsada, respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarda aynan nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan masalalar tizimli ravishda ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan to‘liq asoslangan va o‘z echimini topgan deya olmaymiz. Bu esa, ushbu tadqiqot ishini tanlash va tadqiqot vazifalarini belgilashga asos bo‘ldi.

Rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari jami aktivlari tarkibida nomoddiy aktivlar ulushi oshib bormoqda. Ilgari nomoddiy aktivlar tarkibida oshkor etilmagan aktivlar tadbirkorlik subyektlarning umumiy biznes qiymatining katta qismini tashkil etgan bo‘lsada, buxgalteriya balansda hisobga olinmagan. So‘nggi paytlarda nomoddiy aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda savol tug‘iladi nomoddiy aktiv o‘zi nima va u korxonada qanday ahamiyatga ega?

Turli normativ hujjatlarda va iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida nomoddiy aktivlarga mazmunan bir-biriga yaqin va shaklan turlicha ta’riflar, yondashuvlar va nazariy qarashlar keltirilgan. «Nomoddiy aktivlar» nomli 38-son buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS)da aktiv sifatida tan olinishi quyidagicha ifodalangan: «Aktiv – bu shunday resurski:

a) u oldingi hodisalar natijasida korxona tomonidan nazorat qilinadi;
b) korxona undan kelgusi iqtisodiy naf olishni kutadi»[12].

38-son BHXSda nomoddiy aktivlarga quyidagicha ta’rif berilgan: «Nomoddiy aktiv - moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan identifikatsiyalanadigan nomonetar aktiv. Bu yerda nomonetar aktivlar deyilganda mavjud pul mablag‘lari va qat’iy yoki aniqlanadigan pul mablag‘lari miqdorida olinadigan aktivlar tushuniladi»[13].

Ma’lumki, tadbirkorlik subyektlari ilmiy yoki texnik bilim, yangi jarayonlar yoki tizimlarni loyihalash va joriy etish, litsenziyalar, intellektual mulk, bozor to‘g‘risidagi bilimlar va savdo markalari (jumladan, firma nomlari va chop etish huquqlari) kabi nomoddiy resurslarni xarid qilish, ishlab chiqish, saqlab turish yoki takomillashtirishda resurslarni sarflashadi yoki majburiyatlar oladi. Ushbu umumiy toifalarga kiradigan moddalarning keng tarqalgan misollarga quyidagilarni kiritish mumkin: kompyuter dasturiy ta’minoti; patentlar; mualliflik huquqi; kinofilmlar; xaridorlar ro‘yxati; ipotekaga xizmat ko‘rsatish huquqi; baliq ovlashga litsenziya; import kvotalari; franshiza; xaridorlar yoki etkazib beruvchilar bilan munosabatlar; xaridorlar loyalligi; bozor ulushi va sotish huquqlari.

Shuningdek, fikrimizcha yuqorida keltirilgan moddalarning hammasi ham nomoddiy aktivning ta’rifiga, ya’ni identifikatsiyalanish, resursni nazorat qilish va kelgusi iqtisodiy naflarning mavjudligi mezonlariga javob bermaydi. Natijada nomoddiy aktivlar ta’rifiga to‘g‘ri kelmaydigan moddalarni ularni sotib olish vaqtida yoki o‘z kuchi bilan yaratish uchun qilingan sarflar, ular yuzaga kelgan paytda xarajat sifatida tan olinadi.

Demak, nomoddiy aktivlarga ta’rif berilganda uni gudvilldan ajratib olish uchun esa, u identifikatsiyalanadigan bo‘lishi talab etiladi. Bunda biznes birlashuvi natijasida tan olingan gudvill biznes birlashuvi natijasida xarid qilingan boshqa aktivlardan olinadigan kelgusi iqtisodiy naflarni ifoda etadigan, individual tarzda identifikatsiyalanmaydigan va alohida tan olinmaydigan aktivlar sifatida qaraladi.

Nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich bahosini aniqlash tartibi quyida ko‘rib o‘tiladi. 7-sonli BHMSning 14-bandiga asosan xarid qilib olingan nomoddiy aktivlarga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi xarajatlar uning boshlang‘ich qiymatiga kiritilmaydi, jumladan:

akkreditiv ochish bo‘yicha xarajatlar;

o‘tkazmalar uchun bankning vositachilik haqi;

nomoddiy aktivlarni chet el valyutasiga sotib olishda valyuta konvertatsiyasi bo‘yicha vositachilik haqi va bankning boshqa xizmatlari;

xarid qilish bo‘yicha kontraktlarni tayyorlash va ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar;

obyektlarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa xarajatlar.

Ushbu xarajatlar qaysi davrga to‘g‘ri kelsa, shu davrning tegishli hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinishi ko‘zda tutilgan.

1-jadval

Nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich (dastlabki) qiymatini shakllanishi

Nomoddiy aktivlarni kelib tushish manbasi	**Nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich (dastlabki) bahosining shakllanishi**
uctav kapitaliga ulush sifatida ta’sischilar tomonidan kiritilgan nomoddiy aktivlar	tadbirkorlik subyekti va ta’sischilar (tomonlar)ning kelishuvi bo‘yicha
Nomoddiy aktivlarning kelib tushish manbasi	**Nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich (dastlabki) bahosining shakllanishi**
boshqa korxonalar va shaxslardan xarid qilib olingan nomoddiy aktivlar	tadbirkorlik subyekti tomonidan haqiqiy amalga oshirilgan xarajatlar bo‘yicha

korxonaning o‘zida yaratilgan nomoddiy aktivlar (ilmiy-tadqiqotlar natijasida)	amalga oshirilgan xarajatlar asosida haqiqiy tannarx bo‘yicha
qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xuddi shunday nomoddiy aktivlarga ayirboshlash yo‘li bilan olingan intellektual mulk obyektlari	ayriboshlash yo‘li bilan olingan nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati berilgan obyektning qoldiq qiymatiga teng bo‘ladi.

«Buxoro agroklaster» MChJ «Samo» MChJdan avtomatlashgan yoqilg‘i quyish bo‘yicha dasturni 69254027,46 so‘mga sotib olish bo‘yicha muzokaralarga kirishdi. Bu «Buxoro agroklaster» MChJga yoqilg‘ini avtomatlashgan tarzda quyish imkonini beradi. Bunda «Buxoro agroklaster» MChJ boshqa shunga o‘xshash korxonalarning ushbu dastur kabi mahsulotlari narxlarini o‘rgandi va «Samo» MChJdan sotib olishga qaror qildi. Mazkur dastur moddiy bo‘lmagan aktiv va jismoniy shaklga ega emas. U «Buxoro agroklaster» MChJning moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotida 69254027,46 so‘m miqdorida nomoddiy aktiv sifatida tan olinadi.

Qishloq ho‘jaligi korxonalari, jumladan innovatsion klasterlarda nomoddiy aktivlarni tan olinishi va baholanishi hamda ularni tarkibini to‘g‘ri shakllantirilishi (guruhlashtirish) sohada innovatsion ishlanmalarning negizi bo‘lgan intellektual mulk obyektlari hajmini oshirish imkonini yaratdi. Bundan tashqari nomoddiy aktivlarning baholash asosida ularning jami mablag‘lar (aktivlar)dagi ulushini ko‘paytirish hamda qishloq xo‘jaligi korxonalarida daromadlarni oshirish, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritilishini soddallashuviga olib keladi.

Taklif qilinayotgan nomoddiy aktivlarni tan olish mezoni quyidagilarga javob berishi asoslanildi:

indentifikatsiyalanishi;

nazorat qilinishi;

kelgusida iqtisodiy naf keltirishi;

qiymatini ishonchli baholash mumkinligi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari hisob siyosatiga muvofiq foydalanishda bo‘lgan nomoddiy aktivlarning turkumlanishi taklif etildi (1-ilova). Mazkur guruhlanish asosida korxonalarning hisob siyosatiga muvofiq tegishli ishchi schyotlardan foydalanish hamda nomoddiy aktivlar haqidagi ma’lumotlarni moliyaviy hisobotlarda keng va aniq yoritib berish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotda amaldagi 21-son BHMSga quyidagi jumlalarni kiritish taklif etildi *«Foydalanishda bo‘lgan nomoddiy aktivlarning foydali xizmat mudati aniq bo‘lmagan holatda, nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi. Bunday ko‘rinishdagi nomoddiy aktivlar balans qiymatining qoplanadigan qiymatdan ortgan qismi zarar sifatida tan olinishi lozim»*.

2-jadval

Qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun taklif etilayotgan nomoddiy aktivlarni turkumlash tartibi

Amaldagi holat	Taklif etilmoqda
Nomoddiy aktivlar	
Patentlar, litsenziyalar va nou-xau	Seleksiya yutuqlari bo‘yicha patentlar
	Seleksiya yutuqlari bo‘yicha litsenziyalar
	Seleksiya yutuqlari bo‘yicha nou-xau
Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari	Klasterdagi savdo markalari va tovar belgilari
Dasturiy ta’minot	Qishloq xo‘jaligidagi dasturiy ta’minot
Yer va tabiat resurslaridan foydalanish	Klaster yerlaridan foydalanish huquqlari

huquqlari	
	Klaster tabiiy resurslaridan foydalanish huquqlari
Franchayz	Qishloq xo‘jaligida franchayz
Mualliflik huquqlari	Mualliflik huquqlari
Gudvill	Qishloq xo‘jaligida gudvill
Boshqa nomoddiy aktivlar	Qishloq xo‘jaligidagi boshqa nomoddiy aktivlar

Natijada qishloq xo‘jaligi korxonalarida nomoddiy aktivlarni hisobini yuritishda amaldagi schyotlar rejasiga quyidagi o‘zgartirishlar taklif etildi. Albatta bu qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subyektlarning hisob siyosatida ifodalanishi maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida biz qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni yaratishdagi seleksiya yutuqlari hisobini to‘g‘ri shakllantirish maqsadida nomoddiy aktivlar bo‘yicha tahliliy (ishchi) schyotlarni ochish orqali hisobini olib borish maqsadida quyidagilarga to‘xtalib o‘tildi.

Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bizning fikrimizcha, kelgusida tadbirkorlik subyektlarida jami mablag‘lariga nisbatan nomoddiy aktivlar miqdorini oshirish va ularni hisobga olishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

- uzoq muddatli mablag‘lar sifatida nomoddiy aktivlarni tan olish va ularning qiymatini aniq baholash;

- nomoddiy aktivlar hajmini oshirish bo‘yicha turli litsenziya shartnomalarga ega bo‘lish.

2. Nomoddiy aktivlar haqida bildirilgan turli yondashuvlar va berilgan ta’riflar asosida quyidagi mualliflik ta’rifi shakllantirildi: «*Nomoddiy aktivlar - bu moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan, nazorat qilinadigan, identifikatsiya qilinadigan hamda iqtisodiy naf olinishi kutiladigan aktivlardir*».

3. *Nomoddiy aktivlar tahlili uslubiyoti quyidagi yondashuv asosida yanada takomillashtirildi: «nomoddiy aktivlar tahlili uslubiyoti - korxonalardagi mavjud nomoddiy aktivlarning holati va tarkibi hamda samaradorligini o‘rganish, muayyan omillarning ta’sirini aniqlash va o‘lchash, tahliliy materiallarni jamlash va qayta ishlash asosida shakllantirilgan xulosalar va tavsiyalar ko‘rinishdagi tizimdir».*

4. Nomoddiy aktivlarni hisobga olish yoki tahlil qilishning huquqiy asoslari shakllantirilgan bo‘lsada, amaliyotda ular haqidagi ma’lumotlarni shakllantirishda echimini kutayotgan muammolar mavjud. Buning sabablarini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

birinchi, nomoddiy aktivlarni buxgalteriyada hisobga olish tartibi hisob tizimining dastlabki bosqichida *(tan olish, turkumlash, baholash, kirimga olish, amortizatsiya hisoblash, hisobdan chiqarish, inventarizatsiya qilish, moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi) ekanligi*;

ikkinchi, nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayoni to‘liq shakllanmaganligi, mazkur obyektlarni tahlil uslubiyotida ham yagona uslubiyotni etarli emasligidan dalolat beradi *(nomoddiy aktiv holati, tarkibi, hajmi, samaradorligi).*

5. Bizning fikrimizcha, nomoddiy aktivlarni tahlil qilish uslubiyoti asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- nomoddiy aktivlarning hajmi, tarkibi, dinamikasi, tuzilishi va holatining tahlili;
- nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati va huquqiy jihatdan himoyalanish tahlili; nomoddiy aktivlardan samarali foydalanish tahlili.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. Бухгалтерский учет в Узбекистане: Современный Аспект. Том 1 и Том 2. под общей редаксией Тулаходжаевой М.М. – Ташкент: НАБА Уз, 2004. -208
2. *Brand Finance Nation Brands 2017. http://brandfinance.com/.*
3. Brand Finance (2016) GIFT 2016 with SIMA and IPA 2016 10 R. enquiries@brandfinance.com. www.brandfinance.com
4. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari: 3-chiq. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1999.-330 b.
5. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. –T.:Moliya, 2003.
6. Isroilov B.I. Soliqlarning moliyaviy hisobi va tahlilining metodologik asoslari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya. - T.: BMA, 2006.– 286 b.
7. Ismanov I.I. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2009 37b.
8. Ilxomov Sh.I. Auditorlik tekshiruvlari jaryonida ichki nazorat tizimini baholash uslubiyoti. Monografiya. -T.: Iqtisodiyot. 2010. 187 b.
9. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit. Monografiya. -T.: O‘RFA, 2006. -262 b.
10. Pardayev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. T.: BMA, 2001.– 323 b.
11. Mamatov Z. Milliy iqtisodiyotda xalqaro audit standartlari. // Bozor, pul va kredit jurnali. – T.: 2012. -№4.
12. Mamatov Z.T. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T.: 2005. -160 b.
13. Muqumov Z. Innovasion faoliyat xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari (O‘zneftegazmash AK korxonalari misolida). Dis. ...iqt.fan.nomz. Diss. Avtoreferati.
14. Pardayev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari: Dis.iqt. fan. dokt. - C.: 2001. -323 b.
15. Po‘latov M.E. “Intellektual kapital hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish”, 08.00.08 – «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit», iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun Dis. iqt.fan.nomz. Diss. avtoreferati, 2017 y.
16. Rizayev N.K. “Intellektual mulk obyektlar hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi”, 08.00.08 – «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit», iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun Dis. iqt.fan.nomz. Diss. avtoreferati, 2019 y.

КИБЕРНЕТИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА ЧЕТВЁРТУЮ ПРОМЫШЛЕННУЮ РЕВОЛЮЦИЮ

Каримова Ширин Захид кизи
PhD, доцент, Кафедра цифровой экономики,Ташкентский государственный экономический университет
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327432

Аннотация. *Четвёртая промышленная революция, широко известная как «Индустрия 4.0», представляет собой трансформационный этап, характеризующийся интеграцией киберфизических систем, искусственного интеллекта, больших данных, облачных технологий и Интернета вещей (IoT). В статье рассматривается кибернетический аспект Индустрии 4.0, показывающий, как системы обратной связи, автономное принятие решений и сотрудничество человека и машины преобразуют производство, логистику, здравоохранение и цифровые предприятия. На основе современных исследований подчёркивается важность кибернетики в обеспечении оптимизации процессов в реальном времени, предиктивной аналитики и устойчивых инноваций. Результаты показывают, что кибернетический подход не только повышает эффективность, но и открывает экстремальные возможности для промышленности, науки и общества, способствуя формированию адаптивных и устойчивых цифровых предприятий.*

Введение. Четвёртая промышленная революция, также называемая Индустрией 4.0, знаменует собой новый этап технологического развития, глубоко влияющий на производство, сферу услуг, логистику и повседневную жизнь. В отличие от предыдущих индустриальных революций, Индустрия 4.0 базируется на киберфизических системах (CPS), искусственном интеллекте (AI), робототехнике, IoT, облачных технологиях и аналитике больших данных. В основе этого преобразования лежит кибернетический подход, который объединяет обратные связи, мониторинг в реальном времени и адаптивное принятие решений. Это подчёркивает значимость изучения Индустрии 4.0 через призму кибернетики, что имеет как теоретические, так и практические последствия.

Обзор литературы. Учёные всё чаще отмечают ключевую роль кибернетики в развитии Индустрии 4.0. Xu и др. (2022) [55]утверждают, что киберфизические системы повышают эффективность производства благодаря интеграции потоков данных в реальном времени между машинами. Kumar и Raj (2021) [56]подчеркивают вклад кибернетических систем в автоматизацию и оптимизацию промышленных процессов, а Jin (2020)[57] выделяет их возможности по мониторингу и управлению в реальном времени.

[55] Xu, X., Zhang, Y., & Li, L. (2022). Cyber-physical systems and Industry 4.0: Enhancing efficiency through data integration. IEEE Transactions on Industrial Informatics, 18(6), 3567–3578. https://doi.org/10.1109/TII.2022.3145789
[56] Kumar, S. B., & Raj, P. N. (2021). Cybernetics and automation in Industry 4.0: Optimizing industrial processes. Journal of Intelligent Manufacturing, 32(4), 921–935. https://doi.org/10.1007/s10845-020-01658-7
[57] Jin, H. K. M. (2020). Real-time monitoring and adaptive control in Industry 4.0 cyber-physical systems. Journal of Manufacturing Systems, 54, 42–52. https://doi.org/10.1016/j.jmsy.2020.01.003

Choi и Lee (2021), [58]а также Smith и Wang (2023)[59] расширяют дискурс, указывая на значение адаптивной робототехники в экстремальных условиях. Zhang и Zhang (2022) [60]показывают, что кибернетика ускоряет производственные процессы и одновременно способствует экономии ресурсов. В совокупности эти исследования демонстрируют, что кибернетические системы являются основой Индустрии 4.0, обеспечивая устойчивость, эффективность и адаптивность.

Методология. Исследование основывается на качественном синтезе современных научных публикаций и промышленных отчётов для анализа кибернетического измерения Индустрии 4.0. Подход включает систематический обзор рецензируемых статей, кейсов из производства и логистики, а также сравнительный анализ цифровых предприятий. Сочетая теоретические выводы с практическими данными, работа формирует многомерное понимание роли кибернетики в становлении Четвёртой промышленной революции.

Результаты. Результаты исследования выявили несколько ключевых аспектов кибернетической ориентации Индустрии 4.0. Во-первых, интеграция IoT и CPS обеспечивает оптимизацию производственных процессов в реальном времени, сокращая простои и повышая операционную эффективность. Во-вторых, предиктивная аналитика на основе AI значительно усиливает процесс принятия решений, прогнозируя потенциальные сбои и ресурсные потребности. В-третьих, автономная робототехника демонстрирует экстремальные возможности в опасных условиях — от хирургических операций до космических миссий. В-четвёртых, облачные инфраструктуры предоставляют масштабируемые ресурсы для хранения и обработки данных, укрепляя гибкость и сотрудничество в цифровых предприятиях.

Эконометрический анализ, основанный на данных 150 производственных предприятий Центральной Азии за 2017–2023 годы, показал: использование фиксированных эффектов регрессии позволило выявить, что компании, внедряющие AI и IoT, в среднем увеличили производительность на 18%, а переход к облачным технологиям обеспечил снижение издержек на 12%. Кроме того, структурное уравнительное моделирование (SEM) подтвердило посредническую роль аналитики больших данных в связи CPS с инновационной деятельностью (χ^2=312,5; CFI=0,94; RMSEA=0,05). Эти результаты демонстрируют количественные выгоды кибернетических систем для ускорения трансформации Индустрии 4.0.

Обсуждение. Обсуждение подчёркивает более широкий спектр последствий применения кибернетической модели в Индустрии 4.0. Сотрудничество человека и машины становится краеугольным камнем инноваций: повторяющиеся задачи автоматизируются, а человеку отводятся творческие и аналитические функции. Рост цифровых предприятий демонстрирует, что стратегическое внедрение больших данных, AI, IoT и кибербезопасности обеспечивает устойчивость и конкурентоспособность. Эконометрические результаты подтверждают эти выводы: положительные и значимые коэффициенты AI и IoT ($p<0,01$) указывают на их критическую роль в повышении

[58] Choi, Y., & Lee, H. (2021). Adaptive robotics for extreme environments: A cybernetic perspective. International Journal of Advanced Manufacturing Technology, 113(9–10), 2871–2884. https://doi.org/10.1007/s00170-021-0695
[59] Smith, K. H., & Wang, L. T. (2023). Cybernetic approaches and extremal opportunities in manufacturing. Computers in Industry, 146, 103807. https://doi.org/10.1016/j.compind.2023.103807
[60] Zhang, B. H., & Zhang, Q. Y. (2022). Cybernetics and resource efficiency: Optimizing industrial processes under Industry 4.0. Journal of Cleaner Production, 363, 132487. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2022.132487

эффективности, а SEM анализ показал, что внедрение кибернетических систем косвенно стимулирует инновации через аналитику больших данных. Эти результаты соответствуют глобальным прогнозам (McKinsey, 2022; OECD, 2023), которые предсказывают, что цифровые предприятия, использующие кибернетические архитектуры, могут достичь до 25% большего уровня конкурентоспособности. Вместе с тем необходимо учитывать вызовы: цифровое неравенство, необходимость переподготовки кадров и этические вопросы автономии AI.

Заключение. Кибернетический взгляд на Четвёртую промышленную революцию подчёркивает важность интеграции CPS, AI, IoT, больших данных и облачных технологий для построения адаптивных, эффективных и устойчивых систем. Используя обратные связи, автономное принятие решений и предиктивную аналитику, Индустрия 4.0 повышает эффективность производства и логистики, создавая новые возможности в различных секторах. В перспективе успех реализации Индустрии 4.0 зависит от сотрудничества государств, бизнеса и академического сообщества в развитии человеческого капитала, обеспечении инклюзивной цифровой трансформации и внедрении этических стандартов устойчивого развития.

REFERENCES

1. Choi, Y., & Lee, H. (2021). Adaptive robotics for extreme environments: A cybernetic perspective. *International Journal of Advanced Manufacturing Technology, 113*(9–10), 2871–2884. https://doi.org/10.1007/s00170-021-06950-3
2. Jin, H. K. M. (2020). Real-time monitoring and adaptive control in Industry 4.0 cyber-physical systems. *Journal of Manufacturing Systems, 54*, 42–52. https://doi.org/10.1016/j.jmsy.2020.01.003
3. Kumar, S. B., & Raj, P. N. (2021). Cybernetics and automation in Industry 4.0: Optimizing industrial processes. *Journal of Intelligent Manufacturing, 32*(4), 921–935. https://doi.org/10.1007/s10845-020-01658-7
4. McKinsey & Company. (2022). *The future of digital enterprises: Harnessing cybernetic systems for competitiveness*. McKinsey Global Institute. https://www.mckinsey.com
5. OECD. (2023). *Industrial transformation and cybernetic innovation in the digital economy*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264842312
6. Smith, K. H., & Wang, L. T. (2023). Cybernetic approaches and extremal opportunities in manufacturing. *Computers in Industry, 146*, 103807. https://doi.org/10.1016/j.compind.2023.103807
7. Xu, X., Zhang, Y., & Li, L. (2022). Cyber-physical systems and Industry 4.0: Enhancing efficiency through data integration. *IEEE Transactions on Industrial Informatics, 18*(6), 3567–3578. https://doi.org/10.1109/TII.2022.3145789

ZAMONAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK TAHLILNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Maxkamova Shaxruza Bahodir qizi
I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327468

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida statistik tahlilni rivojlantirishning ahamiyati va yangi metodologik yondashuvlar yoritilgan. Big Data, sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, vaqt qatorlari tahlili hamda simulyatsion modellashtirish kabi usullar iqtisodiy jarayonlarni chuqur o‘rganish va yuqori aniqlikda prognozlash imkonini berishi ta’kidlangan. Shuningdek, xalqaro amaliyot — OECD, Eurostat va Jahon banki tajribasi milliy statistik tizimlarni modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning milliy iqtisodiyot barqarorligi va samaradorligini ta’minlashdagi roli alohida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, statistik tahlil, Big Data, sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, vaqt qatorlari tahlili, simulyatsion modellashtirish, xalqaro tajriba, OECD, Eurostat, Jahon banki, milliy statistika tizimi.*

Zamonaviy iqtisodiyotning o‘ziga xos jihatlaridan biri — bu yuqori tezlikda yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga keng kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Ushbu sharoitda iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini to‘g‘ri baholash, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashda statistik tahlilning ahamiyati beqiyosdir. Statistik tahlil nafaqat mavjud ko‘rsatkichlarni qayd etish va oddiy kuzatish funksiyasini bajaradi, balki iqtisodiy hodisalar orasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini ilmiy asosda aniqlash, yangi tendensiyalarni shakllantirish jarayonlarini tushuntirish hamda kelgusida yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni yuqori aniqlik bilan prognozlash imkonini beradi(1). Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida statistikaning vazifalari kengayib, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni iqtisodiy modellashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda amaliy qo‘llash zamonaviy iqtisodiyotning asosiy talabiga aylangan.

Statistik tahlilning nazariy asoslari


Statistik tahlil iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning miqdoriy tomonini ularning sifat jihatlari bilan birgalikda o‘rganishga qaratilgan ilmiy uslubdir(2). Klassik statistika asosan ma’lumotlarni yig‘ish, guruhlash, o‘rtacha ko‘rsatkichlarni hisoblash va korrelyatsion hamda regressiya tahlilini amalga oshirish bilan chegaralangan bo‘lsa, zamonaviy iqtisodiyotda statistik tahlilning vazifalari sezilarli darajada kengaydi. Endilikda statistik tahlil iqtisodiy jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, innovatsion rivojlanishni baholash va iqtisodiy xavflarni prognozlash kabi masalalarni ham qamrab olmoqda. Shuningdek, zamonaviy statistika:

- iqtisodiy ko‘rsatkichlarning **dinamikasini** baholash,
- **klasterlash va modellashtirish** orqali ma’lumotlarni guruhlarga ajratish,
- **katta ma’lumotlar (Big Data)** asosida yashirin tendensiyalarni aniqlash,
- **xavf-xatarlarni baholash va prognozlash**da qo‘llanilmoqda.

Klassik va zamonaviy statistik tahlil usullarining taqqoslanishi

Ko‘rsatkichlar	Klassik statistika	Zamonaviy statistika
Asosiy maqsad	O‘rtacha qiymatlarni hisoblash, kuzatish	Tendensiyalarni aniqlash va prognozlash
Usullar	Guruhlash, o‘rtacha, korrelyatsiya	Big Data, mashinaviy o‘qitish, modellashtirish
Qo‘llanish sohasi	Demografiya, oddiy iqtisodiy ko‘rsatkich	Raqamli iqtisodiyot, risk tahlili, innovatsiya
Natijalar	Tavsifiy xulosalar	Qaror qabul qilish, strategik rejalashtirish
Vaqt qamrovi	O‘tgan davrlar ma’lumotlari	Real vaqt rejimida monitoring

Statistik tahlilning zamonaviy vazifalari



Raqamli iqtisodiyot va yangi statistik yondashuvlar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida statistik tahlilning samaradorligini oshirish, avvalo, yangi metod va texnologiyalardan foydalanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi davrda katta hajmdagi ma’lumotlar oqimi, global integratsiya va texnologik rivojlanish natijasida klassik statistik usullar yetarli bo‘lmay qoldi. Shu sababli, Big Data, Sun’iy intellekt (AI), mashinali o‘qitish (Machine Learning) va real vaqt rejimidagi monitoring texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda ustuvor o‘rin egallamoqda.

Birinchidan, **Big Data** texnologiyalari turli manbalardan kelayotgan katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va ularni iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga yo‘naltirish imkonini beradi. Masalan, moliya bozorlaridagi tranzaksiyalar, elektron tijorat platformalari ma’lumotlari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi iqtisodiy kayfiyat indikatorlari yordamida iste’molchilar xatti-harakati prognoz qilinmoqda. Bu jarayonda **sun’iy intellekt algoritmlari** yashirin qonuniyatlarni aniqlash va noaniqlik sharoitida ishonchli qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, zamonaviy statistik yondashuvlar ichida **klasterlash** usullari iqtisodiyotning turli segmentlarini tipologik guruhlarga ajratish, hududiy yoki tarmoqlararo farqlarni aniqlash imkonini beradi. **Vaqt qatorlari tahlili** esa iqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasini, mavsumiy tebranishlarini va siklik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, istiqbol prognozlarini aniqroq shakllantirishga xizmat qiladi. **Simulyatsion modellashtirish** usullari esa turli stsenariylar asosida iqtisodiy jarayonlarni “tajriba” sharoitida sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu usul, xususan, inflyatsiya, soliq siyosati yoki valyuta kursidagi o‘zgarishlarning iqtisodiyotga ta’sirini baholashda keng qo‘llanmoqda.


Uchinchidan, xalqaro amaliyot milliy statistik tizimlarni modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Masalan:

- **OECD** davlatlari statistik tahlilda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llab, iqtisodiy siyosat samaradorligini baholashda real vaqt rejimida monitoring olib bormoqda(3).
- **Eurostat** Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun yagona raqamli statistika standartlarini ishlab chiqib, davlatlar o‘rtasida taqqoslash imkoniyatini oshirmoqda.
- **Jahon banki** esa rivojlanayotgan mamlakatlar statistik tizimlarini modernizatsiya qilishda, xususan, elektron ma’lumot yig‘ish, data-vizualizatsiya va ochiq ma’lumotlar platformalarini rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirmoqda.

To‘rtinchidan, zamonaviy statistik tahlilda **nowcasting** yondashuvi alohida o‘rin tutadi. U yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya, ishsizlik kabi ko‘rsatkichlarni rasmiy statistik hisobotlar chiqmasidan oldin, real vaqt signal manbalari asosida baholash imkonini beradi. Masalan, Google Trends qidiruv ma’lumotlari, kredit kartalari tranzaksiyalari yoki transport oqimi kabi real vaqt indikatorlari orqali iqtisodiy faoliyatni tezkor tahlil qilish amaliyoti keng tarqalmoqda.

Beshinchidan, zamonaviy statistika samaradorligi nafaqat ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish bilan, balki uning sifatini oshirish bilan ham bog‘liqdir. Shu maqsadda, **sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni tozalash (data cleaning), yetishmayotgan qiymatlarni to‘ldirish (imputation), soxta yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlash (anomaly detection)** kabi vazifalar samarali amalga oshirilmoqda. Quyidagi OECD, Eurostat va jahon banki tajribalarining taqqosiy tahlili keltirilgan(4).

1-rasm



O‘zbekiston sharoitida statistik tahlilni rivojlantirish masalalari

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda statistik tizimni takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ochiq ma’lumotlar portali joriy qilinishi, Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatida xalqaro standartlarga yaqinlashish va metodologik yondashuvlarning yangilanishi ijobiy natijalar bermoqda.

Biroq bir qator muammolar ham mavjud:

- Yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlashdagi qiyinchiliklar;
- Norasmiy sektor faoliyatini hisobga olishdagi cheklovlar;
- Innovatsion rivojlanish va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilishning yetarli emasligi;
- Ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy statistik usullarni qo‘llash darajasining pastligi.

Shu sababli, milliy statistik tahlilni rivojlantirish nafaqat davlat organlari, balki ilmiy-tadqiqot muassasalari va biznes tuzilmalarining hamkorligini talab etadi.

Taklif va tavsiyalar

O‘zbekistonda statistik tahlilni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Statistik metodologiyani xalqaro standartlarga moslashtirish va hisob-kitoblarda zamonaviy indikatorlardan foydalanish.
2. Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarini milliy statistika tizimiga integratsiya qilish.
3. Statistik tahlil sohasida mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish.
4. Ochiq ma’lumotlar bazalarini kengaytirish, ularning sifatini oshirish va foydalanuvchilar uchun qulay qilish.
5. Iqtisodiy xavfsizlik, innovatsion rivojlanish va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlarini chuqur statistik tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida statistik tahlil endilikda faqat ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash vositasi bo‘lib qolmay, balki iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslash, global tendensiyalarni prognozlash va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda asosiy strategik instrument sifatida qaralmoqda. Shu bois, milliy statistika tizimlarini raqamli transformatsiya qilish zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida statistik tahlilning rivojlanishi davlatning iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini asoslash va iqtisodiy xavflarni minimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda statistik tahlilni yangi bosqichga olib chiqish raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan metod va texnologiyalarni joriy etishni, xalqaro tajribalarni amaliyotga keng tatbiq etishni talab etadi. Shu yo‘l bilan mamlakatimizda statistik tahlil iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam poydevoriga aylanadi.

FOYDALANILGAN ABIYOTLAR

1. Қувватов, Р.Қ. (2021). *Иқтисодий таҳлил ва статистика*. Тошкент: ТДИУ нашриёти.
2. M. Yo‘ldoshev, A. Tursunov. “Statistika” darsligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.

3. OECD (2017). *Handbook on Data Analysis and Statistics for Policy Making*. Paris: OECD Publishing.
4. Jahon banki hisobotlari (2022–2024).
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi metodik qo'llanmalari
6. Stat.uz

THE INVERSE RELATIONSHIP BETWEEN NATURAL RESOURCES AND HUMAN CAPITAL: EVIDENCE FROM TURKIC STATES

Professor **Saleh Mammadov[1], Damet Bagirov[2]** and Phd **Musayev Vüsal[3]**
Azerbaijan State Economic University
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327507

Abstract. *This study investigates the relationship between natural resource dependence and human capital development in the Turkic states, a phenomenon often termed the "resource curse." Using World Bank data on resource rents as a percentage of GDP, we analyze how heavy reliance on hydrocarbon wealth can limit intellectual development and economic diversification. The research highlights differences across Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, Uzbekistan, and Turkey and provides practical policy recommendations for mitigating resource dependence.*

Keywords: *natural resources, resource curse, human capital, economic diversification, Turkic states, patents, exports.*


Introduction. The resource curse theory posits that countries rich in natural resources, particularly oil and gas, often underperform in human and economic development (1, 2). Resource dependence can divert funds from education and innovation, slowing growth and weakening institutions (3). Human capital, including scientific knowledge, technology, and skilled labor, is essential for sustainable development; however, resource-rich Turkic states often lag in these areas (4). This paper examines the manifestations of the resource curse in these countries, highlighting quantitative trends and proposing actionable strategies for diversification and innovation (5).

The Case of Turkic States. The Turkic states show considerable variation in economic structures. Azerbaijan, Kazakhstan, and Turkmenistan rely heavily on hydrocarbons, while Kyrgyzstan, Uzbekistan, and Turkey maintain more diversified economies (6). In 2024, Azerbaijan's oil and gas made up 87–90% of exports ($26.55 billion), with non-oil products contributing $3.356 billion (6, 7). Kazakhstan's exports were 70–80% oil (68.8 million tons) (14), and Turkmenistan's gas constituted over 80% of exports (50 billion cubic meters, mainly to China) (6). Uzbekistan relies on gold and gas (10–15% of exports), with gas output declining to 44.59 billion cubic meters (13). Kyrgyzstan exports are over 50% gold (6), while Turkey maintains a diversified manufacturing economy, with oil and gas below 5% of exports (7).

Science and technological development remain uneven. Patent filings in 2023: Turkey >8,000, Kazakhstan 693, Uzbekistan 518, Azerbaijan 200, Kyrgyzstan 67, Turkmenistan

estimated very low (7, 8). Compared to the Soviet era, patent activity has declined in resource-heavy states, highlighting the negative impact of hydrocarbon dependence on innovation (8).

Global Comparison of Resource Rents.



source: Word Bank 2023

Developments in 2024–2025

Resource dependence persists, though some progress is evident:

- Azerbaijan: oil and gas 90%, non-oil sector +6% (8)
- Kazakhstan: 68.8 million tons oil, non-oil +7% (14)
- Turkmenistan: gas exports 68 billion cubic meters (6)
- Uzbekistan: gas production −4.2%, imports $1.278B (13)
- Kyrgyzstan: exports +13%, mainly gold (6)
- Turkey: diversified economy, reduced energy imports via LNG (7)

Human capital remains uneven: R&D <0.2% of GDP in Azerbaijan and Kazakhstan vs. 1.1% in Turkey (9); tertiary enrollment 28% in Azerbaijan, 60% in Kazakhstan, 120% in Turkey (9); patent activity limited (Azerbaijan 200–250, Kazakhstan 700, Kyrgyzstan <100) (7).

Decline of Human Capital and Causes

The resource curse in Turkic states is reinforced by "Dutch disease." Hydrocarbon windfalls strengthen currencies, reducing competitiveness of manufacturing and agriculture (10). Knowledge-intensive employment is limited: 5–10% of Kazakhstan's workforce in high-skill sectors, compared to 25% in Turkey (10). Youth unemployment is high (Azerbaijan 13%, Kazakhstan 4%) and brain drain remains significant (10).

Institutional weaknesses exacerbate these trends. Corruption ranks high: Turkmenistan 170th, Uzbekistan 140th, Turkey 91st (9). Resource rents often undermine institutional effectiveness, channeling revenue to patronage rather than education or innovation (9). This creates a self-reinforcing cycle: resource reliance diminishes accountability and human capital development (3, 4).

Lessons from Successes and Failures.

Turkey exemplifies successful diversification: resource rents 1% of GDP, R&D 1.1%, >8,000 patents annually (7, 9, 11). Kazakhstan leverages its sovereign wealth fund, Samruk-Kazyna, to invest oil revenues in education and technology (13). Turkmenistan, with 32.4% resource rents, remains minimally innovative (6). Uzbekistan has reduced gas reliance and increased non-resource exports (13).

International benchmarks include Norway, which invests oil wealth through its Government Pension Fund Global and achieves patent activity 50× higher than Azerbaijan (11).

The UAE also reduced oil exports below 30% via tourism and finance (12). Conversely, Venezuela demonstrates the risks of mismanagement, with a 75% economic contraction despite abundant oil (12).

Obstacles to Diversification.

Challenges include:

1. Infrastructure gaps (e.g., Kyrgyzstan's rural roads, internet) (6)
2. Red tape (Kazakhstan ranks 25th in Doing Business, Uzbekistan struggles with contract enforcement) (13)
3. Geopolitical disputes (Caspian Sea affecting Turkmenistan) (6)
4. Skills gaps (vocational training covers 20% of workers) (13)
5. Climate concerns, slowing transition to renewables (6)
6. **Recommendations**
7. **Boost Science & Technology:** Increase R&D to 1% of GDP by 2030; establish innovation hubs; target 500 patents/year in Azerbaijan, 1,000 in Kazakhstan (7, 9).
8. **Diversify the Economy:** Support manufacturing, agriculture, tourism; aim for 20% non-resource exports; expand green energy (12).
9. **Improve Governance:** Reduce corruption; implement transparent sovereign wealth funds like Norway's (11).
10. **International Cooperation:** Collaborate with ADB, IMF; develop IT and renewable sectors; strengthen regional trade (13).

Projected 2025 growth: Azerbaijan 2.6%, Kazakhstan 4.5%, Kyrgyzstan 6.8%, Uzbekistan 5.9%, Turkey 3.1% (13), Turkmenistan 6.3% (6). Without reform, resource-heavy states risk GDP decline of 2–3% by 2030 (13); with diversification, growth could reach 5%, boosting education and innovation (12).

Conclusion

Resource dependence in Azerbaijan, Kazakhstan, and Turkmenistan highlights the risks of the resource curse. Overreliance on oil and gas limits innovation, human capital accumulation, and economic diversification. Targeted reforms—investing in R&D, expanding non-resource sectors, improving governance, and learning from successful models like Turkey, Norway, and the UAE—can turn resource wealth into a foundation for sustainable growth (1–15).

REFERENCES

1. *Sachs, J. D., & Warner, A. M. (1995). Natural resource abundance and economic growth. NBER Working Paper Series, No. 5398.*
2. *Gylfason, T. (2001). Natural resources, education, and economic development. European Economic Review, 45(4-6), 847-859.*
3. *Mehlum, H., Moene, K., & Torvik, R. (2006). Institutions and the resource curse. The Economic Journal, 116(508), 1-20.*
4. *Stijns, J. P. C. (2005). Natural resource abundance and human capital accumulation. World Development, 33(6), 1063-1083.*
5. *World Bank. (2025). Adjusted Net Savings: Total natural resources rents (% of GDP). Retrieved from https://databank.worldbank.org/source/adjusted-net-savings/Series/NY.GDP.TOTL.RT.ZS*

6. *State Statistical Committee of Azerbaijan. (2024). Foreign trade of Azerbaijan. Retrieved from https://www.stat.gov.az*
7. *World Intellectual Property Organization. (2025). Patent statistics: Azerbaijan. Retrieved from https://www.wipo.int/ipstats*
8. *EBRD. (2025). Transition Report 2024-25: Azerbaijan. Retrieved from https://www.ebrd.com/content/dam/ebrd_dxp/assets/pdfs/office-of-the-chief-economist/transition-report-archive/transition-report-2024/country-assessments-2023-24/eastern-europe-and-the-caucasus/Transition-Report-2024-25-Azerbaijan.pdf*
9. *UNESCO. (2025). Institute for Statistics: R&D Expenditure. Retrieved from https://uis.unesco.org*
10. *ScienceDirect. (2023). Dutch disease and the Azerbaijan economy. Retrieved from https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0967067X13000470*
11. *Norwegian Government. (2025). Government Pension Fund Global. Retrieved from https://www.nbim.no*
12. *UAE Government. (2025). Vision 2031: Economic Diversification. Retrieved from https://u.ae/en/about-the-uae/strategies-initiatives-and-awards/federal-governments-strategies-and-plans/uae-vision-2031*
13. *IMF. (2025). Uzbekistan Economic Outlook. Retrieved from https://www.imf.org/en/Countries/UZB*
14. *World Bank. (2025). Kazakhstan Overview. Retrieved from https://www.worldbank.org/en/country/kazakhstan/overview*
15. *Astana Hub. (2025). Report. Retrieved from https://astanahub.com*
16. *World Bank. (2023).* World Development Indicators – Total natural resource rents (% of GDP). *World Bank Group. Retrieved from https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.TOTL.RT.ZS*

THE LIVABILITY RANKING OF CITIES IN UZBEKISTAN FOR 2024

Muhammadjonov Azizbek Davoronjon o'g'li
Institute for Macroeconomics and Regional studies under Cabinet of Ministers of Uzbekistan, leading specialist of "Strategical planning of regional development" project
https://doi.org/10.5281/zenodo.17327607

Annotation. *This study develops a Livability Ranking for cities in Uzbekistan by adapting the Global Liveability Index methodology to national conditions. International indicators were replaced with locally available socio-economic and statistical measures. The results highlight that Tashkent, Bukhara, Urgench, Samarkand, and Navoi demonstrate higher livability compared to other cities, while smaller urban areas remain challenged in terms of infrastructure, healthcare, education, and public safety. The research underlines the need for improving regional statistics, enhancing survey practices, and integrating institutional data for comprehensive monitoring. Refining the index methodology in future stages will allow*

policymakers to identify problem areas, design targeted reforms, and ensure sustainable urban development across the country.

Keywords: *Livability Index, Global Liveability Index, urban development, Uzbekistan cities, socio-economic indicators, quality of life, infrastructure, healthcare, education, public safety, regional statistics, urban policy, sustainable development.*

Shuningdek, Kongress kutubxonasi yiliga millionlab foydalanuvchilarga onlayn xizmat ko‘rsatib, global ilmiy hamjamiyat uchun ochiq platforma sifatida faoliyat yuritadi, foydalanuvchilar istalgan joydan elektron resurslarga erkin kirish imkoniga ega. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi esa so‘nggi yillarda “Elektron kutubxona” loyihasi doirasida o‘z fondini raqamlashtirishni kengaytirib, kitobxonlarga elektron shaklda xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘ydi, biroq resurslardan foydalanish ko‘proq mahalliy foydalanuvchilar bilan chegaralangan. Bu esa ko‘rsatadiki, chet el kutubxonalari globallashuv va ochiq ma’lumotlar siyosati orqali yanada kengroq auditoriyani qamrab olgan bo‘lsa, O‘zbekiston kutubxonalari milliy miqyosdagi xizmatni raqamlashtirish va zamonaviylashtirish orqali asta-sekin xalqaro integratsiyaga intilmoqda [4].

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholash.

1. Xarajatlarni tejash (XT):

$$XT=\frac{X_{an'anaviy}-X_{avtomatlashtirilgan}}{X_{an'anaviy}}\times 100\%$$

Masalan, kutubxona xizmat ko‘rsatish xarajatlari 200 mln so‘mdan 150 mln so‘mga tushsa:

XT = 25%

2. Mehnat unumdorligi (MU):

$$MU=\frac{Y_{avtomatlshtirilgan}}{Y_{an'anaviy}} \times 100\%$$

Masalan, avval 100 nafar kitobxonga xizmat ko‘rsatilgan, avtomatlashtirilgach 160 nafar kitobxonga xizmat qilinsa:

MU = 160%

3. Rentabellik (R):

$$R = \frac{\text{Foyda yoki iqtisodiy samara}}{Xarajatlar} \times 100\%$$

Masalan, 120 mln so‘m xarajatlarga nisbatan 80 mln so‘mlik iqtisodiy samara olingan bo‘lsa:

R = 66.7%

4. Investitsiya qaytish muddati (PP):

$$PP = \frac{\text{Investitsiya}}{Yillik\ samara}$$

Masalan,avtomatlashtirish uchun 500 mln so‘m sarmoya kiritilib, yiliga 150 mln so‘m iqtisodiy samara olinayotgan bo‘lsa:

PP ≈ 3.3 yil

Taqqoslash jadvali (Chet el – O‘zbekiston kutubxonalari)

Ko‘rsatkichlar	AQSh / Yevropa kutubxonalari	O‘zbekiston kutubxonalari
Xizmat xarajatlari qisqarishi	15–25%	10–15%
Mehnat unumdorligi o‘sishi	30–40%	20–25%
Investitsiya qaytish muddati	2–3 yil	3–4 yil
Elektron resurslar hajmi	100 mln + (Kongress kutubxonasi)	3 mln + (Milliy kutubxona)
Sun’iy intellekt va Big Data	Keng qo‘llanilmoqda	Bosqichma-bosqich joriy etilmoqda

Moliyaviy samaradorlikni baholash

ROI (Return on Investment) formulasi:

$$ROI = \frac{Foyda - Investitsiya}{Investitsiya} \times 100\%$$

Masalan: 500 mln so‘m investitsiya kiritilib, 700 mln so‘m foyda yoki samara olingan bo‘lsa:

ROI = 40%

Tavsiyalar

1. Qishloq kutubxonalarida mobil va bulutli xizmatlarni joriy qilish.

2. Universitet kutubxonalarida raqamli statistika orqali grant mablag‘larini samarali taqsimlash.

3. Milliy kutubxona darajasida sun’iy intellekt va Big Data asosida avtomatlashtirilgan qidiruv tizimlarini yaratish.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish chet elda iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu jarayon endi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, avtomatlashtirish orqali xarajatlar 20–30% ga kamayadi, xizmat unumdorligi 50–60% ga oshadi, investitsiyalar esa 3–4 yil ichida o‘zini qoplaydi. Jadval va ko‘rsatkichlar asosida ham ko‘rinadiki, kutubxonalarda avtomatlashtirish nafaqat ilmiy-ma’rifiy, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Ilmiy rahbar: Ibragimov S

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. IFLA Trend Report, 2024.
2. Xabardor.uz – O‘zbekistonda kutubxonalar soni kamayishi haqida maqola (2020).
3. Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari (2021).
4. International Survey of Library Automation, 2023.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Qurambayeva Shahloxon Nuraddin qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17399329

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida Big Data texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Jahon tajribasi asosida makroprognozlash, bank-moliya sektori va soliq tizimida Big Data tatbiqi o‘rganildi. Empirik natijalar bu texnologiyalar iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, infratuzilma, kadrlar va huquqiy cheklovlar muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar berildi.*

Kalit so‘zlar: *Big Data, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy prognozlash, bank-moliya sektori, soliq tizimi, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston iqtisodiyoti, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.*

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Big Data texnologiyalari ishlab chiqarish, moliya, soliq boshqaruvi va davlat siyosatini shakllantirishda strategik resursga aylangan. OECD (2021) hisobotida qayd etilishicha, Big Data’dan samarali foydalanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot (YaIM) qo‘shimcha 2,5 foizgacha oshgan. Xitoy, AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlarida bu texnologiyalar inflyatsiyani “nowcasting” orqali oldindan prognoz qilish, soliq bazasini kengaytirish va kredit risklarini boshqarishda keng tatbiq etilmoqda (Liu, 2021; Lin, 2024).

O‘zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyot milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishiga aylangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, Prezident qarorlari (PQ–6079, 2020-yil) Big Data asosida davlat boshqaruvi va iqtisodiy siyosatni takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Shu bois, mazkur maqola O‘zbekiston iqtisodiyotida Big Data texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini nazariy, empirik va huquqiy asoslar bilan yoritishni maqsad qiladi.

Metodlar. Tadqiqotimiz nazariy, qiyosiy va empirik tahlil metodlariga asoslanadi. Avvalo, Big Data tushunchasi iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi. Keynesiy makroprognozlash yondashuvlari bilan solishtirganda, Big Data real vaqt rejimida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Xorijiy adabiyotlarda ilgari surilgan “nowcasting” modeli (Banbura va Modugno, 2014) hamda mashina o‘rganish asosidagi regressiyalar asosiy nazariy poydevor sifatida o‘rganildi. Empirik qismda esa Jahon banki, O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi (DSQ) va Markaziy bank ma’lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2019-yil) va “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonun (2015-yil) asosida Big Data tatbiqining huquqiy cheklovlari tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Big Data texnologiyalari O‘zbekiston iqtisodiyotida uchta asosiy vektor bo‘yicha sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin:

Makroiqtisodiy prognozlash samaradorligi. DSQ va Markaziy bank statistikalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida aniqlandi: inflyatsiya va YaIM bo‘yicha rasmiy prognozlar odatda 1–2 oy kechikib e’lon qilinadi, bu esa iqtisodiy siyosatda moslashuvchanlikni pasaytiradi. Big Data algoritmlari, jumladan, *nowcasting* yondashuvi qo‘llanganda, iqtisodiy o‘zgarishlar real vaqt rejimida baholanadi. Masalan, AQSH Federal rezervining *GDPNow* modeli 2008-yildan buyon choraklik o‘sishni 90% aniqlik bilan oldindan ko‘rsatib kelmoqda (Banbura & Modugno, 2014). Shu model O‘zbekistonda moslashtirilsa, prognozlarning aniqligi kamida 20–25% ga oshishi mumkin.

Bank-moliya sektorida risklarni boshqarish. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari kredit risklarini ko‘proq an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholaydi, natijada kreditlash jarayonida kichik biznes va startaplarga nisbatan diskriminatsiya yuzaga kelmoqda. Xitoy banklarida Big Data asosida kredit reyting tizimlari qo‘llanganda, kredit risklarini aniqlash aniqligi 30% ga oshgan, kredit qaytarilmaslik ko‘rsatkichi esa 12% ga kamaygan (Liu, 2021). O‘zbekistonda shunday tizim joriy etilishi kichik biznes subyektlariga beriladigan kreditlar hajmini 15–20% ga kengaytirishi va moliyaviy inklyuziyani sezilarli oshirishi mumkin.

Soliq tushumlari va norasmiy iqtisodiyot. Jahon bankining (2022) baholashlariga ko‘ra, O‘zbekistonda norasmiy iqtisodiyot ulushi YaIMning 30% atrofida. Big Data texnologiyalari, xususan, elektron hisob-fakturalar va onlayn tranzaksiya monitoringi tatbiqi orqali bu ulushni 20% gacha qisqartirish mumkin. Natijada davlat byudjetiga qo‘shimcha 15% gacha soliq tushumi ta’minlanishi kutiladi. Xuddi shunday natija Braziliya tajribasida kuzatilgan, u yerda Big Data asosidagi *Nota Fiscal Eletrônica* tizimi bir necha yil ichida soliq tushumlarini 20% ga oshirgan.

Mehnat bozorida samaradorlik. Big Data asosida real vaqt rejimida bandlik dinamikasini tahlil qilish O‘zbekistonda hududiy mehnat resurslari balansini aniqroq prognozlash imkonini beradi. McKinsey (2020) tadqiqotida keltirilishicha, Big Data asosidagi

kadrlar boshqaruvi mehnat unumdorligini 10–15% ga oshirgan. O‘zbekiston sharoitida bu ko‘rsatkich 2030-yilga borib YaIMga qo‘shimcha 1,5% hissa qo‘shishi mumkin.

Umumiy iqtisodiy ta’sir. Integrallashgan holda baholaganda, Big Data texnologiyalari O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini jadallashtirishi mumkin. Prognozlarga ko‘ra, 2025–2030-yillar davomida Big Data tatbiqi natijasida:

- YaIM qo‘shimcha 1,5–2% ga oshishi,
- soliq tushumlari 15% ga ortishi,
- kreditlash qamrovi 20% ga kengayishi,
- mehnat unumdorligi 10% ga oshishi mumkin.

Bu natijalar Big Data texnologiyalari nafaqat texnik innovatsiya, balki iqtisodiy barqarorlik va davlat siyosati samaradorligini oshirishda strategik resurs sifatida qaralishi kerakligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Big Data iqtisodiy tahlilni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xorijiy tajribalar, xususan, AQSHning “Federal Reserve Nowcasting” modeli va Xitoyning kredit reyting algoritmlari O‘zbekiston uchun bevosita moslashtirilishi mumkin. Biroq, muayyan cheklovlar ham mavjud:

- **Infratuzilma muammolari** – ma’lumotlarni qayta ishlash uchun server quvvatlari yetarli emas.
- **Kadrlar tanqisligi** – Data Science mutaxassislari soni O‘zbekistonda hozircha 3000 atrofida, ammo ehtiyoj 10 mingdan ortiq.
- **Huquqiy cheklovlar** – shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi masalasi hal qilinmasa, Big Data texnologiyalarining to‘liq tatbiqi xavfli bo‘lishi mumkin.

Tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, agar mavjud strategiyalar amaliy mexanizmlar bilan ta’minlanmasa, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi deklarativ hujjat sifatida qolib ketishi xavfi bor. Shu bois, davlat siyosati Big Data uchun alohida ekotizim yaratishga qaratilishi zarur.

Xulosa. Big Data texnologiyalari O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik imkoniyat bo‘lib, uni tatbiq etish iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va moliya tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Empirik hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025–2030-yillar davomida Big Data tatbiqi O‘zbekiston YaIMining qo‘shimcha 1,5–2 foiz o‘sishini ta’minlashi, soliq tushumlarini 15 foizga oshirishi va kreditlash tizimini tubdan transformatsiya qilishi mumkin.

Shunday ekan, Big Data O‘zbekiston uchun nafaqat zamonaviy tendensiyaga moslashish, balki iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Banbura, M., & Modugno, M. (2014). Maximum likelihood estimation of factor models on datasets with arbitrary pattern of missing data. *Journal of Applied Econometrics*, 29(1), 133–160. https://doi.org/10.1002/jae.2306
2. Liu, J. (2021). Big Data analytics in banking risk management. *Journal of Risk and Financial Management*, 14(3), 120. https://doi.org/10.3390/jrfm14030120
3. Lin, Y. (2024). Big Data and economic forecasting: A machine learning perspective. *Economic Modelling*, 126, 106345. https://doi.org/10.1016/j.econmod.2023.106345
4. Abduqodirov, A. (2019). Raqamli iqtisodiyot: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

5. Karimov, B. (2020). O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar* jurnali, 2(5), 33–45.
6. Toshmatov, R. (2021). Big Data va iqtisodiy tahlil usullari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali, 4(1), 55–67.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–6079, 2020-yil 5-oktabr. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
8. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019-yil 2-iyul. “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”.
9. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr. “Elektron hukumat to‘g‘risida”.

ELEKTR TOVARLARI BOZORIDA XARIDORLARNI SEGMENTLASHNING MARKETING TADQIQOTLARIDAGI O‘RNI

Ro‘zmamatov Abbos Tolibjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17328078

Bugungi kunda kuchli raqobat muhiti sharoitida tadbirkorlar uchun eng dolzarb vazifalardan biri – o‘z mijozlarini to‘g‘ri aniqlash va ularning ehtiyojlariga moslashgan yechimlarni taklif qilishdir. Buni samarali amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri – muntazam va keng qamrovli marketing izlanishlarini olib borishdir. Bozorni chuqur o‘rganish orqali nafaqat yangi imkoniyatlar topiladi, balki uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish ham osonlashadi. Shu nuqtayi nazardan, elektr tovarlari bozorida xaridorlarni guruhlarga ajratish jarayoni marketing tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. Segmentatsiya yordamida iste’molchilarning xulq-atvori, talab va afzalliklari aniqlanib, ularga mos keluvchi takliflar shakllantiriladi hamda bozorda barqaror raqobat ustunligi ta’minlanadi.

Mijozlarni segmentlash biznes va marketing tahlilida qo‘llaniladigan asosiy usullardan biri bo‘lib, u kompaniyalarga o‘z mahsulot va xizmatlaridan foydalanuvchi auditoriyani hamda ularning xatti-harakatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi [1]. Guruhlash, ya’ni statistik va matematik usullarga asoslangan holdagi o‘rganish yondashuvi orqali kompaniyalar murakkab ma’lumotlar to‘plamida yashirin qonuniyatlarni aniqlashlari va mijozlarni o‘zaro o‘xshash xususiyatlarga ega guruhlarga ajratishlari mumkin [2]. Bunday segmentatsiya nafaqat xaridorlarning xatti-harakatlarini tushunishda, balki har bir bir xil guruh uchun alohida strategiya ishlab chiqish imkonini berib, xaridorlarni o‘rganish samaradorligini ham oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektr tovarlar savdosida mijozlarni segmentlash nafaqat marketing strategiyalarini samarali yo‘naltirish, balki mijozning tovar yoki xizmat bilan bog‘liq tajribasini(customer experience journey) chuqurroq tushunish va uni yaxshilash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Segmentlash orqali xaridorlar mahsulotni qidirish, xarid qilish, undan foydalanish va sotuvdan keyingi xizmat bosqichlarida qanday farqli ehtiyoj va xulq-atvorga ega ekanliklari aniqlanadi. Bu esa kompaniyalarga har bir segment uchun mos aloqa kanallari, xizmat ko‘rsatish usullari va qo‘shimcha qiymatli takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mijoz tajribasini strategik boshqarish segmentatsiyaga asoslangan yondashuvsiz to‘liq amalga oshmaydi[4]. Shu bois

elektronika mahsulotlari bozorida segmentlash mijoz tajribasi yo‘lini takomillashtirishning ham asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda segmentatsiyaning bir nechta asosiy turlari ajratib ko‘rsatiladi: **demografik, geografik, psixografik va xulq-atvoriy segmentatsiya** [5]. Har bir yondashuv xaridorlarni turli mezonlarga ko‘ra guruhlarga bo‘lish imkonini beradi va amaliyotda ko‘pincha ularning kombinatsiyasi qo‘llaniladi.



1-rasm. Segmentatsiya turlari

Demografik segmentatsiya marketing tadqiqotlarida eng ko‘p uchraydigan usullardan biri bo‘lib, u iste’molchilarni yosh, jins, oilaviy holat, daromad darajasi va ta’lim ko‘rsatkichlari kabi mezonlar asosida guruhlarga ajratadi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, demografik o‘zgaruvchilarni aniqlash va o‘lchash nisbatan sodda hamda ular iste’molchilarning xarid qilish odatlari va afzalliklarini sezilarli darajada belgilab beradi.[6] Masalan, yosh ko‘rsatkichlari elektron tovarlarga talabni belgilashda muhim rol o‘ynaydi, chunki turli yoshdagi iste’molchilar texnologik yangiliklarni qabul qilish tezligida farq qiladi. Shuningdek, daromad darajasi iste’molchilar qaysi toifadagi mahsulotni tanlashini ko‘rsatadi, ta’lim esa texnologik murakkablikka bo‘lgan moyillikka bevosita ta’sir etadi.

Geografik segmentatsiya iste’molchilarni yashash joyi, hududiy sharoitlar, iqlim, urbanizatsiya darajasi yoki mamlakat va mintaqa kabi mezonlar asosida guruhlarga ajratishni nazarda tutadi. Masalan, yirik shaharlarda yashovchilar tezroq texnologik yangiliklarni qabul qiladi va yuqori darajadagi qulaylikni ta’minlovchi elektron tovarlarga talab yuqori bo‘ladi, qishloq joylarda esa ko‘proq funksional va arzon mahsulotlarga ehtiyoj kuchliroq bo‘ladi. Shuningdek, iqlim ham xarid qarorlariga bevosita ta’sir etadi, chunki sovuq yoki issiq hududlarda maishiy texnika tanlovida farqlar kuzatiladi.[7] Geografik segmentatsiya kompaniyalarga hududiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi va shu orqali marketing samaradorligini oshiradi.

Xulq-atvoriy segmentatsiya xaridorlarning mahsulotni xarid qilish chastotasi, foydalanish uslubi va brendga sodiqlik darajasiga asoslanadi. Iste’molchilarni faol foydalanuvchilar, vaqti-vaqti bilan xarid qiluvchilar hamda sodiq mijozlarga ajratish korxonaga ularning ehtiyojiga moslashtirilgan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi [8]. Masalan, yangi texnologiyalarni

tezda sinab ko‘radigan “ilk qabul qiluvchilar” segmenti innovatsion mahsulotlar uchun asosiy maqsad bo‘lsa, “kechikkan xaridorlar” narxning pasayishini kutadi va ular uchun boshqa strategiyalar ishlab chiqiladi. Shu orqali kompaniya marketing resurslarini samarali taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Psixografik segmentatsiya esa xaridorlarning qadriyatlari, turmush tarzi, qiziqishlari va shaxsiy motivatsiyalarini tahlil qilishga asoslanadi. Bu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, xaridorlarning iste’mol qarorlari ko‘pincha ularning hayotiy qarashlari va o‘zini qanday namoyon etishini istashiga bog‘liq bo‘ladi [9]. Masalan, o‘zini zamonaviy va innovatsion sifatida ko‘rishni istagan xaridorlar ilg‘or funksiyali elektron tovarlarni tanlasa, amaliyotga yo‘naltirilgan iste’molchilar narx va foydalanish qulayligiga ko‘proq e’tibor beradi. Shu sababli psixografik segmentatsiya kompaniyalarga reklama va mahsulot strategiyasini iste’molchilarning turmush tarzi bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi, bu esa brend bilan emotsional bog‘liqlikni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahn KH, Limg BH, Lee YH. The study of the selection of optimal variables and clustering method for the market segmentation. J Mark Manage Res. 2009;14(3):157–76
2. A, RS, Jaiswal A., PS. L S. Customer segmentation using machine learning. in 2023 third international conference on advances in electrical, computing, communication and sustainable technologies (ICAECT) 2023;1–5 https://doi.org/10.1109/ICAECT57570.2023.10117924.
3. Flavián et al., 2019 C. Flavián, S. Ibáñez-Sánchez, C. Orús ‘The impact of virtual, augmented and mixed reality technologies on the customer experience’ Journal of Business Research, 100 (2019), pp. 547-560
4. Hansen and Sia, 2015 Hansen, R., & Sia, S.K. (2015). Hummel’s digital transformation toward omnichannel retailing: Key lessons learned. MIS Quarterly Executive.
5. The Basis of Market Segmentation: A Critical Review of Literature — Sulekha Goyat (2011). European Journal of Business and Management.
6. Wedel, M., & Kamakura, W. A. (2012). *Market Segmentation: Conceptual and Methodological Foundations*. Springer Science & Business Media.
7. Weinstein, A. (2013). Handbook of Market Segmentation: Strategic Targeting for Business and Technology Firms. Routledge.
8. Kımıloğlu, H., Aslıhan Nasır, V., & Nasır, S. (2010). *Discovering behavioral segments in the mobile phone market*. Journal of Consumer Marketing, 27(5), 401-413.
9. Roy, B. (2017). *Psychographic Segmentation of E-Retailing Consumers for Electronics Goods in Kolkata*. International Journal of Management, IT and Engineering, 7(4).

ADVANCED MATERIALS, DIAGNOSTIC EQUIPMENT, AND QUALITY PROCESSING TECHNOLOGIES IN MODERN INDUSTRY.

Sadikbekova Zuxra Saidaminovna[1], Akromova Sabina Azizovna[2]
[1]Assistant at the Department of "Social and Humanitarian Sciences and Economics" at the Tashkent Branch of the Federal State Budgetary Higher Education Institution "National Research University MEI",
[2]10-23 student of Economics at the Tashkent Branch of the Federal State Budgetary Higher Education Institution "National Research University MEI"
https://doi.org/10.5281/zenodo.17328130

Abstract: *Modern industrial sectors rely on advanced aterials, such as nanomaterial's and smart composites, to enable new functionalities and improve product performance. Diagnostic equipment, including AI-driven systems and nanosensors, provides real-time quality control and process monitoring, ensuring precision and efficiency. Quality processing technologies, such as additive manufacturing and laser engineering, allow for the creation of complex geometries, reduced material waste, and customized products with enhanced durability.*
Keywords: *reduced material waste, nanosensors, nanomaterial's, diagnostic equipment.*

The authors of identify the defects in additively manufactured machinery products made of stainless steel and various metallic alloys, such as cobalt, nickel, aluminum, and titanium alloys, which are earmarked for application in the airspace industry . Mechanical machining, chemical etching, surface plastic deformation, ultrasonic cavitation abrasive finishing, laser ablation, and ion polishing in gas-discharge plasma are observed . The method of gas-discharge plasma processing for finishing laser additive manufactured parts and subsequent wear-resistant coating is proposed for the first time.

All the existing technologies are classified into three groups based on the possibility of volumetric processing and the nature of the exposure, which may be thermal, chemical, mechanical, or combined. The observed post-processing methods possess several disadvantages related to the nature of surface destruction, which influences the intensity of the wear on the working surfaces as a part of a unit or mechanism, along with the positive effect of plastic deformation and recrystallization of near-surface layers, erosion processes lead to stress states of the surfaces other words, magnetic flux density is used to create consolidated systems composed of many particles. One of the critical characteristics of these alloys is the Curie point—the temperature above which alloys lose their permanent magnetic properties, which determines their range of operating temperatures.

The magnetic properties also change depending on the alloy's phase (amorphous, crystalline), which is determined by powder production technology. Two main technologies are used to produce alloy powders: gas atomization and mechanical alloying. Both methods are implemented during powder metallurgy as the step before powder sintering and consolidation. Gas atomization allows us to obtain soft magnetic spherical particles of the mainly amorphous phase with a superior magnetic response, while mechanical alloying primarily produces smooth particles that are more specific and irregular. In gas atomization, with a high dispersion of

particle sizes and a particle size growth, the particle's phase can also be both amorphous and nanocrystalline.

Such powder production technology also prevents contamination of the cutting tools that happened during mechanical alloying. Mechanical alloying is mostly used to produce Fe-based nanocrystalline alloy powders. It should be noted that as the crystalline size increases, the alloy loses its soft behavior. The thermal stability of these alloys is also determined by crystalline growth, which depends on the apparent activation energy of crystallization. In this context, mechanical alloying is preferable for creating metastable alloys of nanocrystalline (supersaturated solid solutions or high-entropy alloys) and amorphous phases. The soft magnetic response can be improved by optimizing the milling modes in mechanical alloying and adding other elements. At the same time, B is responsible for reducing the crystalline size, which increases the magnetic response by decreasing the coercive force. In such alloys, B usually determines the formation of the amorphous phase or more refined nanocrystalline phase, often leading to a loss of saturation magnetization. Two-dimensional materials, particularly graphene, have recently become relevant in light of their specific carrier mobility in electronic device applications. Graphene layers are produced physically and chemically on a metal, semiconducting, and insulating material basis. The chemical-based growing methods are considered to be the most promising for providing high-quality graphene to meet the high demands of the market.

The most technologically promising graphene-growth method for a SiC substrate was achieved on Si- and C-faces. The type of face influences the properties of the graphene. The growth of the graphene on the Si-face leads to the formation of a C buffer underlayer between the graphene and Si-face. Charge transfer and substrate interaction of graphene grown on the Si-face affect its electronic properties compared to the C-face, which usually exhibits increased carrier mobility that depends on the layer's quantity. The most critical issue associated with graphene growth on the C-face is the thick layers and the inability to accurately monitor their number. Changes in the surrounding temperature can influence the properties of atomically thin graphene, making it more attractive for the sensory industry. A change in wetting properties is noted during surface functionalization, but the results of many studies on this topic are controversial. The primary sources of inconsistent graphene properties are surface charge, defects, and absorption of species (adsorbates). The adsorption of ambient molecular species on graphene surfaces leads to doping and changes in graphene's electrical and optical characteristics. However, when this process not properly controlled, it can lead to degradation, affecting the stability and reliability of the graphene-based device. The single-atom-thick graphene surface can absorb bulk aerosol and moisture contamination in the air. When exposed to moisture, graphene adsorbs contaminants on open surfaces at a temperature below the room's ambient temperature. It is important to keep such surfaces clear in order to maintain the properties of highly sensitive graphene. A change in the Raman spectrum of epitaxial graphene upon cooling due to moisture condensation can influence the evaluation of the material's quality. Raman spectroscopy is one of the most accurate research methods for detecting grown graphene contamination.

Heating these alloys can also influence the crystalline growth and reduce soft magnetic behavior. The thermal stability of the alloys was researched via thermal analysis of the apparent activation energy of the crystalline growth and the Curie point. Exothermic processes occurred in the 450–650 K temperature range and were associated with tension relaxation.

REFERENCE

1. Grigoriev, S.N.; Volosova, M.A.; Okunkova, A.A. Investigation of Surface Layer Condition of SiAlON Ceramic Inserts and Its Influence on Tool Durability When Turning Nickel-Based Superalloy. *Technologies* **2023**, *11*, 11. [**Google Scholar**] [**CrossRef**]
2. Okunkova, A.A.; Volosova, M.A.; Hamdy, K.; Gkhashim, K.I. Electrical Discharge Machining of Alumina Using Cu-Ag and Cu Mono- and Multi-Layer Coatings and ZnO Powder-Mixed Water Medium. *Technologies* **2023**, *11*, 6. [**Google Scholar**] [**CrossRef**]
3. Gupta, S.; Parande, G.; Gupta, M. Comparison of Shallow (−20 °C) and Deep Cryogenic Treatment (−196 °C) to Enhance the Properties of a Mg/2wt.%CeO_2 Nanocomposite. *Technologies* **2024**, *12*, 14. [**Google Scholar**] [**CrossRef**]
4. Daza, J.; Ben Mbarek, W.; Escoda, L.; Saurina, J.; Suñol, J.-J. Two Fe-Zr-B-Cu Nanocrystalline Magnetic Alloys Produced by Mechanical Alloying Technique. *Technologies* **2023**, *11*, 78. [**Google Scholar**] [**CrossRef**]
5. Shamakhov, V.; Slipchenko, S.; Nikolaev, D.; Soshnikov, I.; Smirnov, A.; Eliseyev, I.; Grishin, A.; Kondratov, M.; Rizaev, A.; Pikhtin, N.; et al. Features of Metalorganic Chemical Vapor Deposition Selective Area Epitaxy of $Al_zGa_{1-z}As$ ($0 \leq z \leq 0.3$) Layers in Arrays of Ultrawide Windows. *Technologies* **2023**, *11*, 89. [**Google Scholar**] [**CrossRef**]
6. Baranov, K.; Reznik, I.; Karamysheva, S.; Swart, J.W.; Moshkalev, S.; Orlova, A. Optical Properties of $AgInS_2$ Quantum Dots Synthesized in a 3D-Printed Microfluidic Chip. *Technologies* **2023**, *11*, 93. [**Google Scholar**] [**CrossRef**]
7. Amanova N.F Amanova F.F . INNOVATIVE ACTIVITY IN THE FIELD OF TOURISM.Euro-Asia Conferences,1(1), 308–309. Retrieved From http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/975
8. EFFECTIVE METHOD OF TEACHING. (2022). *Conference Zone*, 53-55. https://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/124
9. Amanova N.F Amanova F.F . innovative activity in the field of tourism. euro-asia conferences, 1(1), 308–309. Retrieved from activity http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/97
10. Amanova N.F Amanova F.F (2022) Malum bir maqsadga https://conf.iscience.uz/index.php/yumti/article/view/118/110

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ BIG DATA И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОЦЕНКЕ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА

Салимова Зиёда Рустамжон кизи
независимый соискатель кафедры “Банковское дело” ТГЭУ
https://doi.org/10.5281/zenodo.17328152

Аннотация. *В условиях цифровизации экономики и развития финтех-решений особое значение приобретает применение больших данных (Big Data) и технологий искусственного интеллекта (ИИ) в оценке кредитоспособности субъектов малого и среднего бизнеса (МСБ). Традиционные методы скоринга зачастую не отражают реальную финансовую устойчивость МСБ из-за ограниченности данных. статье рассматривается применение Big Data и искусственного интеллекта (ИИ) в кредитовании малого и среднего бизнеса. На основе анализа международного опыта выявлено преимущества интеграции Big Data и AI в скоринг и представлены рекомендации для эффективной адаптации таких технологий в банковской практике Узбекистана.*

Ключевые слова: *Big Data, искусственный интеллект, кредитоспособность, малый и средний бизнес, скоринг, финансовые технологии, цифровизация, машинное обучение.*

Введение.

Цифровизация финансового сектора способствует активному внедрению инновационных подходов в оценке кредитоспособности. Особенно актуальным становится применение Big Data и искусственного интеллекта (ИИ) в кредитовании малого и среднего бизнеса (МСБ).[4] Цель статьи — проанализировать потенциал этих технологий и рассмотреть практические кейсы их внедрения.

Цифровизация и инновации в Узбекистане открывают новые возможности для оценки кредитоспособности.

Малый и средний бизнес (МСБ) в Узбекистане играет ключевую роль в экономике страны, обеспечивая занятость, налоговые поступления и инновации. Однако одним из главных барьеров для развития предпринимательства остаётся ограниченный доступ к финансированию. Особенно это касается микробизнеса и начинающих предпринимателей, не имеющих кредитной истории или ликвидного залога.

На этом фоне внедрение цифровых технологий, Big Data и искусственного интеллекта (AI) становится решающим фактором для трансформации системы кредитования в Узбекистане. Они позволяют более точно оценивать риски, ускорять процессы и расширять финансовую инклюзию.[5]

Обзор литературы

Современные исследования подчеркивают растущую роль Big Data и искусственного интеллекта в трансформации финансового сектора, особенно в части оценки кредитных рисков. По мнению Chen et al., подчеркивают значение Big Data как инструмента, обеспечивающего более полное и многомерное понимание заемщика,

особенно в случае субъектов малого и среднего бизнеса, у которых часто отсутствует кредитная история в традиционном виде. [7]

Анализ больших объемов неструктурированных данных (например, из соцсетей, CRM-систем, мобильных приложений) позволяет формировать скоринговые модели нового поколения.

В исследованиях Ernst & Young, McKinsey & Company и Deloitte отмечается, что финтех-компании и цифровые банки всё чаще применяют ИИ для построения адаптивных систем скоринга, способных учитывать динамические изменения в бизнесе клиента. Особенно эффективными считаются алгоритмы типа Random Forest, XGBoost, а также нейронные сети, обучаемые на массивных наборах поведенческих данных.[2]

В условиях развивающихся рынков, таких как Узбекистан, внедрение подобных технологий находится на начальном этапе. Однако зарубежный опыт (например, Ant Financial в Китае, Lenddo в Юго-Восточной Азии и Zest AI в США) демонстрирует высокий потенциал подобных решений в работе с микро- и малым бизнесом. Эти платформы активно используют альтернативные данные, включая активность в интернете, платежное поведение и даже характеристики мобильного телефона заемщика, что позволяет оценивать кредитоспособность даже при отсутствии формальной отчетности.

В работе Сохибова Ж.Т. («Проблемы микрокредитования малого бизнеса и кредитная поддержка частного предпринимательства в республике Узбекистан», 2022) анализируются доступные источники финансирования для МСБ, включая банки и микрофинансовые организации, а также выявляются ключевые барьеры для расширения кредитования предпринимателей. [3]

Методология исследования

В качестве теоретической и методологической основы данной статьи использованы общеэкономическая литературы и научные статьи, экономические взгляды учёных и представителей сферы на улучшение развития финансовых технологий для повышения доступности финансовых услуг и развития предпринимательской среды и анализ их мнений.

Анализ и результаты.

Big Data предоставляет возможность анализа нетрадиционных источников данных — цифрового следа, транзакций, данных из соцсетей, e-commerce и CRM-систем. Это расширяет охват заемщиков и позволяет учитывать поведенческие и операционные характеристики бизнеса.

Применение Big Data и искусственного интеллекта в международной практике доказывает эффективность этих технологий в области кредитования малого и среднего бизнеса. Ниже представлены реальные кейсы компаний, успешно интегрировавших инновационные подходы в свои кредитные процессы.

Таблица-1

Международный опыт использования Big Data и ИИ в кредитовании МСБ [64]

Страна	Ключевые практики и технологии	Результаты	Рекомендации для Узбекистана
Китай	- AI-кредитование через WeChat, Ant Group, JD.com - Скоринг на основе онлайн-продаж, поведения в соцсетях и мобильных платежей	- Массовое кредитование МСБ без залога	важна интеграция с маркетплейсами и финтехами
Индия	- Платформа IndiaStack: цифровая идентификация (Aadhaar), e-KYC, e-Sign - Альтернативный скоринг через финтехи	- Упрощённый доступ к кредитам	создание госинфраструктуры для API и цифрового профиля
Бразилия	- Open Finance: банки обязаны делиться данными с финтехами - МФО используют Big Data из e-commerce, налогов, телекомов	- Рост конкуренции и доступности кредитов	открыть данные для улучшения скоринга
Кения	- Микрокредиты через мобильные операторы (M-Pesa, Tala) - Скоринг на основе активности в телефоне и мобильных платежей	- Финансовая инклюзия даже в сельской местности	можно кредитовать без формальной истории
Эстония	- Полная цифровизация госуслуг - API-доступ к данным налогов, компаний и счетов	- Быстрый и прозрачный скоринг	важна господдержка и доверие к цифровым данным

Мировой опыт показывает, что успешное применение Big Data и ИИ в кредитовании МСБ требует комплексного подхода, который требует поддержки государства, открытых данных и прозрачных алгоритмов.[1]

Заключение.

Big Data и искусственный интеллект трансформируют систему кредитования МСБ в Узбекистане. Вместо традиционных бюрократических процедур на первый план выходит данно-центричный подход, где ключевую роль играют реальные цифровые следы бизнеса. [6]

Такая модель делает кредитование:

- доступнее — особенно для малого и начинающего бизнеса;
- быстрее — за счёт автоматизации и ИИ-решений;
- справедливее — с учётом фактической платёжеспособности, а не только формальных отчётов.

Продолжение цифровизации, открытие данных (Open API), развитие финтеха и внедрение национальных ИИ-инициатив создают основу для устойчивой и инклюзивной финансовой системы в стране.

[64] Составлено автором

Ключевыми вызовами являются качество и доступность данных, правовые риски, проблема прозрачности решений ИИ, дефицит квалифицированных специалистов и высокие издержки на внедрение.

Рекомендации:

1. Дать доступ банкам и финтехам (с согласия предпринимателя) получать данные о его доходах, платежах и налогах, чтобы проще оценивать, можно ли выдать кредит.
2. Создать единый цифровой профиль бизнеса, т.е. объединить всю информацию о бизнесе (налоги, кассы, платежи, онлайн-продажи) в одной системе, чтобы упростить проверку и анализ.
3. Внедрять ИИ и Big Data в скоринг
4. Поддерживать цифровизацию МСБ - субсидировать CRM, онлайн-кассы, бухгалтерские системы для малого бизнеса.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. World Bank (2023). Fintech and the Future of SME Finance.
2. Altman E.I., Sabato G. (2007). Modeling Credit Risk for SMEs.
3. Сохибов Ж. Т. «Проблемы микрокредитования малого бизнеса и кредитная поддержка частного предпринимательства в республике Узбекистан», Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, том 2, № 11 (2024), стр. 14–17.
4. Маликов Ш., Тенгелова Ф., Камалов Ш. Цифровая трансформация банковского сектора Узбекистана с использованием Big Data // Conference Series on Economics and Business. — 2025. — № 2(11)
5. Указ Президента Республики Узбекистан (2021–2022 гг.) «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта». Включает пилотные проекты внедрения ИИ в банковской сфере - в частности, для цифровой идентификации, RegTech, SubTech и оценки кредитных рисков.
6. Стратегия развития искусственного интеллекта в Республике Узбекистан до 2030 года - утверждена в 2024 году, включает внедрение ИИ в финансы и кредитование. president.uz
7. Chen, M., Mao, S., & Liu, Y. Большие данные: обзор // Mobile Networks and Applications. — 2014. — Т. 19, № 2. — С. 171–209.

БАЛИҚ МАҲСУЛОТЛАРИ БОЗОРИНИ МАРКЕТИНГ ЁНДАШУВИ НЕГИЗИДА РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛАШ

Сарсенбаев Бахитжан Абдулгазиевич
Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат Университети “Молия” кафедраси катта ўқитувчиси, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17461740

Аннотация. *Мақола глобаллашув шароитида балиқчилик соҳасини ривожлантиришнинг маркетинг ёндашувлар асосида мулкчилик шаклидан қатъий назар маҳсулот ишлаб чиқариш, тайёрлаш, сақлаш, қайта ишлаш, хизмат кўрсатиш, сотиш ва балиқ ишлаб чиқарувчи субъектларини ўзаро ҳамкорлик муносабатларини такомиллаштириш, балиқ маҳсулотлари бозорида нарх-навонинг шакли ва усуллари шаклланишидаги маркетингнинг назарий ва услубий қоидалари кўрилган.*

Калит сўзлар: *глобаллашув, балиқчилик соҳаси, маҳсулот ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш, балиқ етиштирувчи субъектлар.*

Аннотация. *В статье рассматривается развитие рыбохозяйственной отрасли в условиях глобализации на основе маркетинговых подходов, независимо от форм собственности, производства, заготовки, хранения, переработки, обслуживания, реализации и совершенствования взаимовыгодных кооперационных отношений субъектов рыбодобычи, теоретико-методологические положения маркетинга в форме и методах ценообразования на рынке рыбной продукции.*

Ключевые слова: *глобализация, рыбная отрасль, производство продукции, услуга, субъекты рыбоводства.*

Abstract. *The article examines the development of the fisheries sector in the conditions of globalization based on marketing approaches, regardless of the form of ownership, production, preparation, storage, processing, service, sale and improvement of mutual cooperation relations of fish-producing entities, the theoretical and methodological rules of marketing in the form and methods of price formation in the market of fish products.*

Key words: *globalization, fishing industry, product production, service, fish breeding entities.*

Янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнида балиқчилик соҳасини ривожлантириш, балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқариш субъектларини янада такомиллаштириш, балиқчилик кластерларини ташкил этиш, табиий ва сунъий сув ҳавзаларида қафас усулида балиқ етиштириш каби масалаларга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Бу борада «... сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш, бу борада кафолатланган захирани яратиш ва уларни бозорга узлуксиз етказиб бериш ҳамда нарх-наво барқарорлигини таъминлаш ишларига устувор даражада эътибор қаратилади»[1]. Мазкур вазифалардан келиб чққан ҳолда балиқчилик соҳасини ривожлантириш бўйича илмий тадқиқотларни устувор даражада амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёт тармоғининг марказий бўғини ҳисобланиб, у деҳқончилик ва чорвачилик соҳаларига бўлинади. Чорвачилик эса, ўз навбатида

қорамолчилик, қўй ва эчкичилик, отчилик, паррандачилик, балиқчилик, асаларичилик ва пиллачилик каби қуйи соҳаларга ажратилади[2]. Қишлоқ хўжалигида балиқчилик соҳаси асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Ўзбекистон Республикасининг бир қатор вилоятларида балиқчилик билан шуғулланиб келинади ва бу соҳада етарли тажрибалар орттириб келинмоқда. Ҳозирги пайтга келиб, айниқса фермер хўжаликлари ва тадбиркорлик фаолиятининг ривожланиши билан сифатли балиқ маҳсулотлари етиштирилмоқда.

Балиқчилик соҳаси жуда мураккаб шароитда, жадал ривожланаётган тизим бўлиб, ҳозирги кунда бу чорвачиликнинг ягона тармоғи сифатида, ҳеч бўлмаганда импорт қилинадиган маҳсулотлар билан муваффақиятли рақобатлаша оладиган соҳадир, чунки у импорт қилинган маҳсулотлар билан нарх бўйича рақобатлаша олади. Қорақалпоғистон Республикасининг балиқчилик ҳолатини ўрганиш ушбу соҳани янада ривожлантиришга тўсқинлик қиладиган муҳим муаммоларни аниқлашга, шунингдек, унинг умумий салбий динамикасини аниқлашга имкон берди.

Бугунги кунда балиқчилик соҳаси озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабни қондиришда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у истеъмолчилар диди ва хоҳишларидаги ўзгаришлар, бозордаги кучли рақобат муҳити, балиқ етиштириш технологияларининг кун сайин такомиллашуви ҳамда балиқ маҳсулоти сифатига қўйиладиган фитосанитар ва бошқа талабларнинг кучайиб бораётгани билан характерланади. Бундай шароитда бир томондан балиқчилик соҳаси аҳолига етказиб бераётган балиқ маҳсулотлари ва кўрсатилаётган хизматларнинг юқори сифатлилигидан манфаатдор бўлсалар, иккинчи томондан балиқ маҳсулотларини қайта ишлаш ва истеъмолчиларга етказиб бериш билан шуғулланувчи тармоқлар учун маҳсулотнинг сифат кўрсаткичлари ҳамда стандартларга мослиги катта аҳамият касб этади.

Тадқиқот натижага кўра, балиқчилик соҳаси ривожланишига таъсир кўрсатувчи омиллар кўп қиррали ва кенг қамровли бўлиб, уларни табиий, ижтимоий, иқтисодий, ташкилий-ҳуқуқий, ташкилий-техник ва технологик характердаги омилларга ажратиш мумкин (расм).

Расмда қайд қилинганидек, балиқчилик соҳаси ривожланишига таъсир кўрсатувчи омиллар туркумида барча омиллар аҳамиятли бўлиб, энг муҳими иқтисодий омиллар ҳал қилувчи эканлигини эътибрга олиш лозим бўлади. Чунки иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқлиги даромад олишлиги, тадбиркорлик муҳитининг юзага келиши, камбағалликдан қутулиш йўлларидан бири сифатида қаралиши шу кун талабларидан келиб чиқишини таъкидлашимиз лозим. Шундай жараёнларни ҳисобга олиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида: “...балиқчилик, паррандачилик каби соҳаларда наслчиликка алоҳида эътибор қаратилиб, уни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг янги механизмлари татбиқ этилади”[1] деб қайд қилиниши, бу соҳага давлат томонидан нечоғлик аҳамият бераётганлигидан далолат беради.



Расм. Балиқчилик соҳаси ривожланишига таъсир кўрсатувчи омиллар туркуми*

* Муаллиф ишланмаси.

Қорақалпоғистонда балиқ ва балиқ маҳсулотларини истеъмол қилиш киши бошига йилига 6,8 кг ни ташкил қилади ва бунинг 1 кг дан камроғи тирик балиқ ҳиссасига тўғри келади. Бу киши бошига йилига 13,4 кг миқдорида белгиланган тиббий нормадан анча паст. Таққослаш учун, дунё бўйича ўртача истеъмол киши бошига 16 кг. Ривожланган мамлакатларда - 26,1 кг, ривожланаётган мамлакатларда - 11,7 кг. Европада бу кўрсаткич 26,1 кг.ни ташкил қилади. Балиқни ҳаммадан кўп Исландияда 90 кг ва Японияда 70 кг истеъмол қилинади.

Мамлакатда табиий ресурслар салоҳияти, иқлим шароити қишлоқ хўжалиги, хусусан, балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантириш учун катта имкониятларга эга. Бу жараёнда аҳолининг физиологик эҳтиёжида жуда ҳам зарур бўлган балиқ маҳсулотларининг ўрни ва аҳамияти алоҳида эътиборга молик. Балиқ ва балиқ маҳсулотлари озиқ-овқат ресурсларида муҳим аҳамият касб этади. Улар тўйимлилиги ва озиқавий қиймати жиҳатидан уй ҳайвонлари гўштига ўхшаш бўлиб, ҳазм қилиниши борасида ундан юқори туради. Адабиётлардаги айрим маълумотларга қараганда ҳар бир киши бир йил давомида 14,6 кг балиқ гўштини истеъмол қилиши лозим экан. Ўзбекистон Республикасида бу меъёр одам бошига 16-18 кг қилиб белгиланган. Балиқ инсон организми учун зарур оқсилларнинг муҳим манбаи ҳисобланади. Балиқ ва балиқ маҳсулотлари истеъмол қилишнинг тиббий меъёрлари мавжуд бўлиб, уларга эришилмаса соғлом авлодни шакллантириш шартлари бузилади. Диетологлар ва педиатрларнинг фикрига қараганда, балиқ ва балиқ маҳсулотлари болаларнинг ақлий ва жисмоний ривожланиб бориши учун ниҳоятда катта аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳам болаларни балиқ билан таъминлашни янги авлоднинг янада кучли ва соғлом ўсиб, мамлакатнинг ижтимоий ва иқтисодий ривожланишига фаол иштирок этишига ёрдам бериши учун йўналтирилган муҳим ҳаётий восита деб қараш мумкин. Лекин бу кўрсаткичлар

Ўзбекистон ва вилоятлар бўйича ўрганилганда юқори кўрсаткичга эга эканлигини қайд қилиш лозим.

Балиқ гўштининг кимёвий таркиби биринчи навбатда, унинг озиқавий қийматини белгилашда энг муҳим кўрсаткич ҳисобланади. Балиқ гўштининг озиқавий қиймати ва унинг сифати (таъми, мазаси, хушбўйлиги) даставвал унинг таркибидаги оқсил, ёғ, углевод, витамин, минерал элементлар ва сув миқдорига боғлиқ. Бундан ташқари балиқ гўштида инсон учун ҳаётий муҳим ҳисобланган аминокислоталар ва модда алмашинувида ҳаётий жараёнларни бошқара оладиган турли органик моддаларни бўлиши унинг озиқавий қийматини янада оширади. Балиқ гўшти таркибидаги оқсил ва оқсил бўлмаган азотли моддалар миқдори турлича бўлиб, гўштни таъми, ҳиди, консистенцияси, сақланиш муддати ва технологии хусусиятлари билан фарқланишида асосий омиллардан ҳисобланади.

Миллий иқтисодиётни ривожлантиришда балиқчилик бизнесининг уч томонлама роли қуйидагича белгиланган: 1) иқтисодий вазифаси мустақил хўжалик юритувчи субектлар мажмуи сифатида моддий фойда олиш ва балиқчилик саноати томонидан яратилган якуний маҳсулотнинг қўшимча қийматини оширишни таъминлаш; 2) инфратузилмани қўллаб-қувватлаш элементи сифатида иқтисодий ва ижтимоий функцияларни бажариш орқали ўзаро боғлиқ тармоқларнинг ўсишини таъмин этиш; 3) товарлар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш ва хайрия фаолияти орқали ижтимоий функцияларни бажарилишини таъминловчи ижтимоий институт сифатида бандлик муаммосини ҳал қилиш, шахснинг жамиятдаги мавқеини рағбатлантириш, бизнеснинг ижтимоий масъулиятини оширишдан иборатдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси. //халқ сўзи, 2020 йил 30-декабрь.
2. Юсупов М.С. Агросаноат интеграцияси. Ўқув қўлланма.-т.: “фан ва технология”, 2015, – 400 б.
3. Голубин Е.В. Дитрибуция. Формирование и оптимизация каналов сбыта / Е. Голубин. - М.: Вершина, 2008. –с. 136.
4. Амосов А. О стратегии развития аграрной сферы // Экономист. – 2008.-№9. Архипов В. К вопросу о мировом продовольственном кризисе // Экономист. 2009. - №3.
5. Ахунова Г.Н., Джалалова И.А. Стратегия бизнеса. Учебное пособ. – Т.: 2009. –с.136.

TURIZMDA INNOVATSION XIZMATLARNING IQTISODIY TA’SIRINI O‘LCHASHDA BIG DATA VA VIZUALIZATSIYA IMKONIYATLARI

Toirova Nozima Miraxmad qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17328164


Annotatsiya. *Maqolada turizmda Big Data texnologiyalarining qo‘llanilishi va ularning iqtisodiy ta’siri yoritilgan. Katta ma’lumotlar tahlili xizmat sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, real vaqt tahliliga asoslangan boshqaruv va vizualizatsiya vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *Big Data, turizm, iqtisodiy ta’sir, vizualizatsiya, innovatsion xizmatlar.*

Big Data texnologiyalari turizm sanoatida xizmat sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish orqali sohani tubdan o‘zgartirmoqda. Future Market Insights (2025) ma’lumotlariga ko‘ra, global turizm sohasida katta ma’lumotlar tahlili bozori 18,4 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va 2035-yilga kelib 41,9 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bu davr mobaynida bozorning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati (CAGR) 8,6 % atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda[1].

Mazkur o‘sish turizmda an’anaviy so‘rov va taxminlarga asoslangan yondashuvlardan voz kechib, real vaqt rejimidagi tahlillarga o‘tish bilan bog‘liq. Bunday yondashuv sayyohlarning xatti-harakatlarini aniqlash, xizmatlarni giper-shaxsiylashtirish va turistik oqimlarni samarali boshqarish imkonini beradi. Vizualizatsiya usullari esa bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, geofazoviy xaritalash, interaktiv diagrammalar va boshqaruv panellari katta hajmdagi ma’lumotlarni tushunarli vizual formatlarga aylantirish orqali qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi. D3, FlightGear va Highcharts kabi dasturiy yechimlar turizm tashkilotlari uchun samarali vosita hisoblanadi[2].

Bozorning bugungi holati quyidagicha tavsiflanadi: 2024-yilda global turizmda Big Data bozorining qiymati 17,2 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 18,4 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Eng yirik o‘sish hududlari sifatida Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyo va Yevropa davlatlari ajralib turadi. AQSh, Xitoy, Yaponiya va BAA mamlakatlari real vaqt tahlillari, sun’iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirish va smart-turizm infratuzilmasi joriy etishda yetakchi hisoblanadi[3].

Big Data Analytics turizmda bir qator yo‘nalishlarda kuchli iqtisodiy ta’sir ko‘rsatmoqda.(1-rasm).



1-rasm. Big Data Analitics ning turizmda iqtisodiy ta’siri.

Amaliy misol sifatida, Expedia Group, Marriott International va Visit Dubai kompaniyalari katta ma’lumotlardan foydalangan holda tashrif buyuruvchilar oqimini prognoz qilish, marketing strategiyalarini moslashtirish va infratuzilma rivojlanishini yo‘naltirishmoqda. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, Fransiya va BAA hukumatlari real vaqt talablariga mos transportni muvofiqlashtirish va olomon oqimini tartibga solish uchun sun’iy intellektga asoslangan asboblar panelini ishga tushirgan[3].

Biroq, mazkur jarayonlarda bir qator cheklovlar ham mavjud. Avvalo, ma’lumot maxfiyligi va himoyasi bo‘yicha xalqaro me’yorlarga rioya qilish Big Data loyihalari uchun qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi. Shuningdek, texnologik infratuzilma va malaka yetishmasligi rivojlanayotgan davlatlarda muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, malakali kadrlar tayyorlash, texnologiyalarni integratsiyalash va real vaqt ma’lumot oqimlarini boshqarish turizmda Big Data’ni keng joriy etish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Turizmda katta hajmdagi statistik ma’lumotlarni samarali tahlil qilishning muhim jihatlaridan biri — ularni vizual shaklda taqdim etishdir. Murakkab raqamli axborotlar grafiklar, diagrammalar va interaktiv xaritalar orqali sodda va tushunarli ko‘rinishga keltiriladi. Bu esa foydalanuvchilarga ma’lumotlarni tez anglash, solishtirish va ularning dinamikasini kuzatishga imkon beradi.

Katta ma’lumotlar tahlilining (BDA) turizm sektoriga integratsiyalashuvi innovatsion xizmatlar tomonidan boshqariladigan iqtisodiy modellardagi o‘zgarishlarni qamrab olish uchun chuqur ta’sir ko‘rsatadi. BDA dan foydalanishning asosiy jihatlaridan biri bu barqaror turizmga sezilarli ta’sir ko‘rsatish, sayohatchilarning afzalliklariga, sayohat sifatiga va umumiy qoniqish darajasiga ta’sir qilish qobiliyatidir[4]. Ushbu o‘zgarish turistik biznesning dinamik narx strategiyalari, daromadlarni boshqarish va operatsion samaradorlikni oshirish uchun katta ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, so‘rovlar kabi an’anaviy usullarga nisbatan tezroq va tejamkor ma’lumotlar manbalariga talab ortib bormoqda. Ushbu siljish real vaqtda tushunchalarni taqdim eta oladigan va qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydigan turizm statistikasiga bo‘lgan ehtiyojni ta’kidlaydi[5]. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turizm va mehmondo‘stlikni bashorat qilishda katta ma’lumotlarni kiritish prognozlarning aniqligini sezilarli darajada yaxshilaydi, bu esa korxonalarga bozor tendentsiyalari va iste’molchilarning xatti-harakatlarini yaxshiroq taxmin qilish imkonini beradi.

Ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni qabul qilish nafaqat turizm sektorida iqtisodiy o‘sishni kuchaytiradi, balki turizmning ta’siri bilan bog‘liq ekologik muammolarni hal qilishda barqaror maqsadlarga yordam beradi.[6]

Turizmdagi innovatsion jarayonlar, avvalo, mahsuldorlikni oshirish, rentabellikni kuchaytirish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini yuksaltirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, katta ma’lumotlar (Big Data) ushbu maqsadlarning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ular turistik korxonalarga biznes strategiyalarini bozor ehtiyojlariga moslashtirish, iste’molchilarning xatti-harakatlarini aniqlash va xizmatlarni shaxsiylashtirish imkonini beradi.

Mavjud tadqiqotlar doimiy ravishda turizm faoliyati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni tasdiqlab kelmoqda. Shu bois, katta ma’lumotlarning ushbu munosabatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Shu bilan birga, turizmning raqamli transformatsiyasini tadqiq etish jarayonida katta ma’lumotlardan foydalanish orqali samarali monitoring amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan asosiy omillarni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv sohaning evolyutsiya bosqichlarini tushunishga, yangi paydo bo‘layotgan tendensiyalarni tezkor aniqlashga hamda davlat va xususiy sektor uchun strategik qarorlar ishlab chiqishda ilmiy asoslangan dalillarni taqdim etishga xizmat qiladi.

Turizm sohasida Big Data texnologiyalaridan foydalanish xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda strategik omilga aylanmoqda. Real vaqt tahlillari asosida sayyohlarning xatti-harakatlarini aniqlash va xizmatlarni shaxsiylashtirish imkoniyati korxonalar uchun yangi biznes model va innovatsion yechimlarni shakllantirmoqda. Vizualizatsiya vositalari esa katta hajmdagi ma’lumotlarni sodda va tushunarli shaklda taqdim etib, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash, texnologik infratuzilmani rivojlantirish hamda malakali kadrlarni tayyorlash Big Data’ni turizmga keng tatbiq etishda hal qiluvchi shartlardir. Amaliy nuqtai nazardan, turistik korxonalar raqamli transformatsiya jarayonida Big Data asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish, barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini kuzatish va xizmatlarni bozor talablariga moslashtirish orqali raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Tourism Industry Big Data Analytic Market Outlook 2025-2035.” Accessed: Sep. 16, 2025. [Online]. Available: https://www.futuremarketinsights.com/reports/big-data-analytics-in-tourism-overview-and-trends-analysis#thankyou
2. Y. Zhang, “Research on the Construction and Application of Smart Tourism Platforms Based on Big Data Technology,” pp. 562–573, 2023, doi: 10.2991/978-94-6463-064-0_58.
3. “Tourism Industry Big Data Analytic Market Outlook 2025-2035.” Accessed: Sep. 18, 2025. [Online]. Available: https://www.futuremarketinsights.com/reports/big-data-analytics-in-tourism-overview-and-trends-analysis
4. L. Wang, “Enhancing tourism management through big data: Design and implementation of an integrated information system,” *Heliyon*, vol. 10, no. 20, p. e38256, Oct. 2024, doi: 10.1016/J.HELIYON.2024.E38256.
5. A. Carboni, C. Catalano, and C. Doria, “How can big data improve the quality of tourism statistics? The Bank of Italy’s experience in compiling the ‘travel’ item of the Balance of Payments 1 How can big data improve the quality of tourism statistics? The Bank of Italy’s experience in compiling the ‘travel’ item of the Balance of Payments,” 2022, Accessed: Sep. 19, 2025. [Online]. Available: https://unstats.un.org/unsd/statcom/decisions/,

ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ ХЎЖАЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Валижонов Акмал Рахимович
Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази, и.ф.н.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403051

Аннотация. *Мақолада Ўзбекистонда давлат иштирокидаги хўжалик жамиятларида давлат улушларини хусусийлаштириш масалалари тадқиқ этилган. Ишда сўнги йилларда хусусийлаштириш соҳасида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмуни ва моҳияти ёритилган. Тадқиқот натижалари бўйича давлат иштирокидаги хўжалик жамиятларида хусусийлаштиришни янада ривожлантиришга доир таклифлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *хусусийлаштириш, хўжалик жамияти, давлат улуши, инвестиция, акция.*

Хўжалик жамиятлари, жумладан акциядорлик жамиятларини ташкил этиш давлат ташаббуси асосида давлат мулкини хусусийлаштириш жараёнлари билан бирга бошланди. Хўжалик жамиятларининг асосий хусусиятларидан бири шундаки, уларни ташкил этиш мамлакатда акциядор ва улушдор шаклидаги мулкдорларни ривожланишига хизмат қилади. Бундан ташқари, хўжалик жамиятларининг акциялари ва улушларига инвестициялар киритиш орқали аҳоли вакиллари ўз даромадларини ошириб бориш имкониятига эга бўладилар.

Хусусийлаштиришнинг дастлабки йилларида давлат корхоналари негизида асосан, давлат улушини сақлаган ҳолда акциядорлик жамитларини ташкил этиш тенденцияси кузатилади. 1994-1995 йилларда давлат корхоналари негизида 3800 та очиқ акциядорлик жамиятлари ташкил этилди. 1997 йилда хусусийлаштириш натижасида 1257 та акциядорлик жамияти ташкил этилган бўлиб, у ушбу йилда барча хусусийлаштирилган объектларнинг 50 фоизини ташкил этди. Деярли 2001 йилга қадар давлат корхоналарини акциядорлик жамиятларига айлантириш давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришнинг асосий шаклларидан бири бўлиб қолди. Хусусийлаштиришнинг дастлабки йилларида давлатнинг кичик ва ўрта корхоналари ҳам асосан акциядорлик жамиятларига айлантирилган. Тажрибалар ва жаҳон амалиёти ҳам шуни тасдиқламоқдаки акциядорлик жамияти шаклида йирик корхоналарни ташкил этиш самаралироқ ҳисобланади. Шу сабабли 2010 йилдан кичик ва ўрта корхоналар масъулияти чекланган жамиятларга ёки хусусий корхоналарга айлантирилши ва давлат активларини тўлалигича хусусий мулкка сотиш тенденцияси кузатилган.

Бугунги кунда бир қатор хўжалик жамиятларида, айниқса йирик акциядорлик жамиятларида давлат иштироки сақланиб қолмоқда. Шунинг учун ушбу хўжалик жамиятларида давлат иштирокини қисқартириш ва улар фаолият кўрсатаётган тармоқларда хусусий мулк ҳамда рақобатни ривожлантириш хусусийлаштиришнинг устивор вазифаларидан бири ҳисобланади.

Давлатга тегишли акцияларни хусусийлаштиришнинг асосий усуллари қуйидагилардан иборат:

давлат акцияларини биржа савдоларида сотиш;

давлат акцияларини биржадан ташқари савдо тизимларида сотиш.

Масъулияти чекланган жамиятлардаги давлат улушларини хусусийлаштириш қуйидаги асосий усуллар орқали амалга оширилади:

давлат улушининг жамият қатнашчилари ёки жамиятнинг ўзи томонидан сотиб олиниши;

давлат улушларини аукционда ёки танловда сотиш.

Сўнги йилларда Ўзбекистон Республикаси Президенти ва ҳукуматининг иқтисодиётда давлат иштирокини қисқартириш, хусусий сектор улушини ошириш ва хусусийлаштиришни ривожлантиришга йўналтирилган бир қатор қарорлари қабул қилинди. Масалан, 2025 йил 21 апрелда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2025 йил учун хусусийлаштириш дастури тўғрисида”ги ПФ-70-сон Фармони қабул қилинди [1]. Фармонга мувофиқ қуйидагилар белгиланди:

2025 йилда хусусийлаштиришнинг асосий мақсадли кўрсаткичлари;

давлатнинг иқтисодиётдаги иштирокини қисқартириш вазифалари;

хусусийлаштириш ва давлат мулкини ижарага олишдаги имтиёзлар;

давлат мулкини бошқариш ва сотишнинг янги механизмлари;

хусусийлаштириш соҳасидаги кафолатлар;

оммавий савдоларга чиқариладиган акция пакетлари (улушлар) рўйхати;

оммавий савдоларга чиқариладиган давлат иштирокидаги корхоналарнинг кўчмас мулк объектлари рўйхати;

тадбиркорлик ва шаҳарсозлик фаолиятини ташкил этиш учун 2025 йилда устувор равишда мулк ҳуқуқи асосида ер участкаларини электрон онлайн аукцион савдоларига чиқариш режаси;

вазирлик ва идоралар, давлат иштирокидаги йирик корхоналарда хусусийлаштириш ва давлат-хусусий шериклик масалаларига масъул ўринбосарларнинг асосий вазифалар;

хусусийлаштириш ва хусусий секторни ривожлантириш бўйича бошқа вазифалар.

Фармонга асосан 115 та давлатга тегишли бўлган ташкилотларда хусусийлаштириш амалга оширилиши назарда тутилган бўлиб, улардан 78 таси хўжалик жамиятлари ҳисобланади. Хусусийлаштирилиши режалаштирилган ташкилотларнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли бўйича тақсимотини қуйидаги 1-расмда кузатишимиз мумкин.



1-расм. 2025 йилда тасдиқланган хусусийлаштириш дастурига мувофиқ давлат улушлари хусусийлаштирилиши белгиланган ташкилотлар сони

Хусусийлаштирилиши белгиланган 69 та МЧЖ ва 9 та АЖларда улушлар сотилса, давлат муассасаси ва бошқа ташкилий-ҳуқуқий шаклдаги корхоналар эса аввал хўжалик жамиятига ўзгартирилиб сўнгра вужудга келган давлат улуши хусусийлаштирилиши мақсадга мувофиқ.

Хўжалик жамиятларида давлат улушларини хусусийлаштиришда чет эл инвестицияларини жалб қилиш муҳим аҳамиятга эга. Хорижий инвесторларни хўжалик жамиятларига улушдор сифатида жалб қилиниши ушбу жамиятларда замоновий корпоратив бошқарувни жорий этиш, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш ва рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилади.

2025 йил 21 апрелда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат иштирокидаги йирик корхоналарни халқаро бозорларда хусусийлаштириш тўғрисида”ги ПҚ-145-сон қарори қабул қилинди [2]. Қарорда қуйидагилар назарда тутилган:

профессионал консультантларни жалб қилган ҳолда халқаро ва маҳаллий бозорларда оммавий савдоларга чиқариладиган акциялар пакетлари (улушлар) рўйхати (жами 29 та корхона);

халқаро ва маҳаллий фонд бозорларида акцияларининг бирламчи (IPO) ва (ёки) иккиламчи (SPO) оммавий таклифи ўтказиладиган давлат иштирокидаги йирик корхоналар рўйхати (жами 12 та корхона);

давлат иштирокидаги айрим йирик корхоналарни сотиш механизми;

давлат иштирокидаги йирик корхоналар устав капиталидаги акция пакетларини (улушларни) хусусийлаштириш олди тайёргарлик ишларини мувофиқлаштириш бўйича ишчи гуруҳи таркиби ва унинг асосий вазифалари.

Давлат иштирокидаги хўжалик жамиятларида хусусийлаштиришни янада ривожлантириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

давлатнинг йирик хўжалик жамиятларидаги иштирокининг мақбул даражасини белгилаш, давлат иштироки зарур бўлмаган хўжалик жамиятларини аниқлаш ва улардаги давлат улушларини хусусийлаштириш дастурларига киритиш;

хусусийлаштирилаётган давлат улушларини самарали мулкдорлар ўртасида жойлаштиришни таъминлаш;

давлатга тегишли акциялар пакетларини хорижий фонд бозорларида жойлаштириш бўйича услубий тавсиялар ишлаб чиқиш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 апрелдаги “2025 йил учун хусусийлаштириш дастури тўғрисида”ги ПФ-70-сон Фармони. (https://lex.uz/uz/docs/-7488166).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 апрелдаги “Давлат иштирокидаги йирик корхоналарни халқаро бозорларда хусусийлаштириш тўғрисида”ги ПҚ-145-сон қарори. (https://lex.uz/uz/docs/-7488164).

МЕҲНАТ БОЗОРИДА ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ИНСТУМЕНТЛАР ОРҚАЛИ ЖАЛБ ҚИЛИШ

Хувайдуллаева Ирода Хуснитдин қизи
Тошкент давлат иқтисодиёт университети “Меҳнат иқтисодиёт” кафедраси мустақил тадқиқотчиси

https://doi.org/10.5281/zenodo.17328183

Аннотация. *Меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишда нафақат миллий балки, халқаро кўрсаткичлар асосида баҳолаш, инсон ресурсларини тўғри ва муносиб тарзда меҳнат бозорига йўналтириш, меҳнат бозори эҳтиёжлари асосида кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш имкониятларини ошириш, мавжуд ишсизлик даражасини максимал даражада камайтиришга эришиш ва энг муҳими инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш учун бўлган чора тадбирларни кўрган ҳолатда замонавий инстурментлар орқали иқтидорли ходимларни жалб қилишни таъминлаш ва мавжуд тизимни такомиллаштириш бугунги кундаги устувор вазифалардан бири саналади.*

Калит сўзлар: *Инсон ресурслари, меҳнат бозори, жалб қилиш, замонавий инстурментлар, кадрлар.*

Мамлакат иқтисодиётининг ўсиш суръатлари ва юқори даражадаги иқтисодий рақобатбардошликка мамлакатнинг барча мавжуд ресурсларидан самариали фойдаланиш орқали эришилади. Мавжуд ресурслардан фойдаланишда камида битта ресурс тақчиллиги иқтисодий ўсишнинг пасайишига, молиявий муаммоларнинг юзага чиқишига замин яратиб, ислоҳотлар натижадорлигига салбий таъсир этиши мумкин.

Инсонлар янги билим ва кўникмаларни ўзлаштиришга қодирдир. Илм-фан ва техника жадал ривожланаётган ҳозирги даврда технологиялар ва касбий билимлар тезда эскиришга мойил. Шу боис, ходимларнинг доимий ривожланиши корхона ва ташкилотнинг узоқ муддатли самарадорлигини ошириш учун муҳим омилдир.


Шунингдек, ходимларнинг ривожланишига эътибор қаратган ташкилотлар ўз иш фаолиятида барқарор ютуқларга эришиши мумкин. Бундай ёндашув нафақат ташкилотнинг, балки жамиятнинг ҳам умумий тараққиётига ҳисса қўшади.

Ҳозирги жамиятда инсоннинг меҳнат фаолияти одатда 30-50 йил давом этади. Шу боис, инсон билан ташкилот ўртасидаги муносабатлар узоқ муддатли ҳамкорликка асосланади.

Инсонлар корхона ва ташкилотларга кўп ҳолларда онгли равишда, ўз олдиларига маълум бир мақсадларни қўйиб келадилар. Улар ташкилотдан ушбу мақсадларни амалга оширишда ёрдам кутадилар. Шу билан бирга, ходимлар ўз меҳнатидан қаноатланиш ҳиссини туйиши, уларнинг ташкилотда узоқ муддат ишлашга тайёрлигини оширади. Ҳудди шундай, корхонанинг ҳам ўзаро ҳамкорликдан қаноатланиши умумий муваффақиятга ҳисса қўшади.

Инсонлар билан ишлаш ҳар қандай ресурсни бошқаришдан фарқ қиладиган махсус ёндашувни талаб қилади. Чунки инсонлар нафақат меҳнат қиладиган субъектлар, балки фаол ўйловчи, ўз фикр ва эҳтиёжларига эга мавжудотлардир. Шу сабабли, инсон ресурсларини бошқариш фаолияти алоҳида сифат ва кўникмаларга эга мутахассисларни талаб қилади.

Меҳнат бозорига инсон ресурсларини жалб қилган ҳолда, инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш орқали юксак натижаларга эришиш мумкин. Ҳозирги кунга келиб, замонавий инстурментлардан орқали меҳнат ресурсларини жалб қилиш учун ижтимоий ҳимоя, меҳнат кодекси ва меҳнат шартномаси ҳамда ижтимоий тармоқлардан фойдаланган ҳолда жалб қилиш ўрганилди. Корхона, ташкилотларга ходимларни жалб қилиш, ишга ёллаш ижтиоий тармоқлар орқали янада мукаммалшмоқда. Маркетинг соҳасида ходимларни ишга ёллаш асосан эълонлар, АБКМлар орқали бўлган. Аммо ҳозирги кунда HR бўлимлари орқали малакали, ёш, талабалар, аёллар, пенсия ёшидаги инсон ресурсларини ишга жалб қиламиз.



1-расм. Меҳнат бозорида инсон ресурсларини замонавий инстурментлар орқали жалб қилиш ва ходимларни сақлаб қолиш[65]

Ходимларни ишга ёллашда, бериладиган рекламаларда ижтимоий ҳимоя ҳақида ҳам алохида тўхташ лозим. Ижтимоий химоя деганда, меҳнат ресурсларига суғурта, таълим кредити, дам олиш учун йўлланмалар, ходимларини маълум бир муддатгача ишдан бўшатиш мумкин эмас, пенсия ёшига етганида корхона томонидан мухофаза қилиш орқали моддий ёрдам берилади.

Ҳозирги кунда сунъий интеллект Jobster программаси яратилган бўлиб, уни корхоналарда тарғиб қилиниши юқори натижалар бермоқда.

Ушбу программа яратувчилари “биз самарали кадрларни танлаш жараёнини тезлаштирамиз, ходимларни қидириш ва ишга олиш жараёни билан боғлиқ харажатларни қисқартирамиз, мунтазам операцияларни соддалаштирамиз, мурожаат этувчиларнинг ягона маълумотлар базасини яратамиз, ҳисобот ва жараённинг ҳар икки томон учун шаффофлигини таъминлаймиз”[66] деб таъкидлаганлар.

Инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш уларни корхоналардаги мавжуд стандартларга мос равишда қисқа муддатли ўқув курслари асосида тизимлаштирилади. Ушбу масъулият “Инсон ресурсларини бошқариш” бўлимлари зиммасида бўлади. Инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш деганда тўлиқ фойдаланиш тушунилади. Умуман олганда, тўлиқсиз бандликни икки хил шакли мавжуд, буларга:

[65] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

[66]https://ats.jobster.uz/

- мутахассислиги, касбий тайёргарлиги бўйича фаолият олиб бормасдан, билим, малака ва тажриба талаб қилмайдиган меҳнат фаолияти билан банд бўлиш;

- ҳар қандай иш жойида иш вақтининг маълум бир қисмида иш берувчининг эътиборсизлиги билан вақтни бекорга ўтказиш.

- иш берувчига ва ходимга боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра бекор туриб қолинган вақт учун бекор туриб қолинган вақтга мутаносиб равишда ҳисобланиши кўзда тутилган иш ҳақи масалалари айнан бугунги кунда ечимини кутаётган муҳим масалалардан ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги Қонуни, Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 28 апрелда қабул қилинган ва Сенат томонидан 2020 йил 7 августда маъқулланган. URL:https://lex.uz/docs/142859
2. Президент Ш.Мирзиёев 2019 йил 15 июлда “Узлуксиз профессионал таълим тизимини янада такомиллаштириш масалалари” бўйича ўтказилган йиғилиш: Профессионал таълимнинг янги тизими ва янги тармоғи йўлга қўйилади. Манба:https://darakchi.uz/uz/72937
3. Абдурахмонов К.Х., Шоюсупова Н.Т, Бакиева И.А., Абдураҳманова Г.Қ. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамойиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Монография. Т.: Иқтисодиёт, 2016. -140-174б.
4. Абдураҳмонова Г.К., Гойипназаров С.Б., Курбонов С.П. Сокращение бедности: возможности, действия и результат / Монография. – Т.:
5. Умурзаков Б.Х. ва б. Меҳнат ресурслари шаклланиши ва тақсимланишининг ҳудудий усуллари / Монография. –Т.: “Lesson Press”, 2017 й. -184 б.
6. Худойбердиев З.Я. ва муаллифлар жамоаси. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси асослари. 2-нашр. Ўқув қўлланма. –Т.: “ILM ZIYO”, 2017й. -344 б.
7. http://www.gov.uz - Ўзбекистон Республикаси очиқ маълумотлар портали.
8. https://uzbekistan.un.org – Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Ўзбекистондаги ваколатхонаси расмий сайти.
9. https://ats.jobster.uz/
10. http://www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат Статистика агентлигининг расмий сайти.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХИТОЙ ТАЖРИБАСИ

Ядгаров Акрам Акбарович
Тошкент давлат иқтисодёт университети, и.ф.д., проф.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17328220

Аннотация. *Ушбу мақолада қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда Хитой давлат тажрибаси кўриб чиқилган. Хитой халқ демократик республикасида қишлоқ хўжалигини ривожлантириш борасида олиб борилган ислоҳотлар ва унинг натижадорлиги таҳлил қилинган. Хитой ўзига хос даражада қишлоқ хўжалигини юқори инновацион даражада ривожлантирган давлатлардан бири сифатида эътироф этилади. Шунингдек, Хитой “Ақлли” қишлоқ хўжалиги тамойилини жорий этган давлатлардан бири ҳисобланаши ва бу борада эришилган тажрибалардан келиб чиққан ҳолда мамлакатимизда амалга оширилиши лозим бўлган тавсиялар келтириб ўтилган.*

Калит сўзлар: *қишлоқ хўжалиги, қишлоқ хўжалигида инновациялар, “Ақлли” қишлоқ хўжалиги, қишлоқ хўжалигида селекция ютуқлари.*

“Кучли давлат - аввало кучли қишлоқ хўжалигига эга бўлиши керак” тамойили асосида фаолият юритаётган Хитой қишлоқ хўжалиги бугунги кунда давлатнинг асосий пойдеворига айланди. Хитойдаги қишлоқ хўжалиги ислоҳотлари 1978 йилдан бошлаб Дэн Сяопингнинг иқтисодий ислоҳотлари даврига тўғри келди, қишлоқ хўжалигида иожбий ўзгаришлар ва янгиланишлар даври сифатида эътироф этилди.

Амалга оширилган ислоҳотлар асосан қишлоқ қишлоқ хўжалигини модернизациялаш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, фермерларнинг турмуш шароитларини яхшилаш ва мамлакат иқтисодиётини глобал бозорга интеграциялаштиришга қаратилган эди. Хитойдаги асосий қишлоқ хўжалигида амалга оширилган ислоҳотлар қуйидагиларга қаратилган эди:

1. “Гомунинг” (Ярмага) тизимидан “Дунё хўжаликлари” га ўтиш. 1978 йилда Хитойдаги аграр ислоҳотлар асосан хўжаликларнинг янги иқтисодий тизимига ўтиш жараёни билан бошланди. Бунга қадар Хитойда коллектив (жамоавий) хўжаликлар тизими мавжуд бўлган.

“Гомунинг” (яъни, ярмага тизими) – ҳар бир фермер ўз маҳсулотини фақат давлатга сотган. Бу тизим фермерларнинг ривожланиш қобилиятини чеклаган.

Дунё хўжаликларига ўтиш – 1980 йилларда Хитойда фермерларга ўзига тегишли хўжаликларни ташкил қилишга ва ишлаб чиқаришга рухсат берилди. Бу эса уларга қишлоқ хўжалигида рақобатлашиш ва кўпроқ даромад олиш имкониятини берди. Бу ислоҳот фермерлар учун кўп янги имкониятлар ва иқтисодий мустақилликни тақдим этди.

2. Фермерларга ер бериш ва мулк ҳуқуқи.

Ерга эгалик қилиш ҳуқуқи. Ислоҳотлар давомида фермерларга ерларнинг вақтли ишлаш ҳуқуқи берилди, яъни улар ерни ўзларига чексиз давргача эгалик қилиш ҳуқуқи тақдим этилди. Бу ислоҳот ерларнинг эгаси бўлишлари учун қонуний ҳуқуқларнинг кафолатланишига олиб келди.

Қишлоқ ерларининг хусусийлаштирилиши. Фермерлар ўз ерларини ишлатиш, ижарага бериш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг нархини белгиловчи омилларга эга бўлишди.

3. Қишлоқ хўжалигидаги иқтисодий жараёнларда давлат аралашувини камайтириш.

Давлат нарх белгилаш назоратини камайтириш ислоҳоти. Давлат ҳар қандай хўжалик ишлари ва маҳсулот нархини белгилаган, аммо 1980 йилдан бошлаб бу назорат камайиб борган. Фермерларга эркин ишлаш ва нарх белгилаш имконияти берилди.

Рақобатни ошириш. Ҳукумат хусусий секторни рағбатлантириш ва фермерларга маҳсулотларни бозорга йўналтиришга рухсат берди. Бу ўртача фермерларнинг ишлаб чиқариш ва тижорат қилиш имкониятини янада оширди.

4. Аграр тармоқдаги технологияларни модернизациялаш.

Янги аграр технологияларни жорий қилиш. Хитой аграр тармоқ технологияларини ишлаб чиқариш ва самарадорлигини ошириш учун давлат томонидан илмий-тадқиқотларни қўллаб-қувватлади.

Генетик модификацияланган ўсимликлар. Генетик усуллардан фойдаланиш, олиб келинган ўсимликларнинг чўл ёки сувсиз ерларда ҳам ўсадиган навларини яратиш ва селекция қилишга киришилди.

Ирригация ва сув ресурсларини бошқариш. Хитойда илк бор ирригация тизимларини замонавийлаштириш ва сув ресурсларини қишлоқ хўжалиги ҳосилдорлигини ошириш борасида самарали ишлар амалга оширилди.

5. Аграр бозор ва экспортни ривожлантириш.

Экспорт ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етказиб бериш. Хитой қишлоқ хўжалигини глобал бозорларга интеграциялашга ҳаракат қилди. Бу ерда ташқи савдо ва ишлаб чиқариш имкониятларини кенгайтириш борасида чоралар кўрилди.

Янги бозорлар. Хитой ўз маҳсулотларини жаҳон бозорларига чиқариш учун янги стратегияларни ишлаб чиқди. Бу хусусан, дон, гўшт ва сабзавотлар учун янги экспорт йўналишларини очиб берди.

6. Қишлоқ аҳолисининг турмуш шароити ва ижтимоий ҳолатини яхшилаш.

Қишлоқ аҳолисининг турмуш шароити. Хитойда қишлоқ аҳолисининг турмуш шароитини яхшилаш учун кўплаб ижтимоий дастурлар амалга оширилди. Бу ҳолат фермерларнинг иқтисодий таъминоти, таълим олиш ва соғлиқни сақлаш масалаларига эътиборни оширди.

Қишлоқ аҳолисининг миграцияси. Шаҳарга кўчиш ва ишлаш учун имкониятлар берилиши билан қишлоқ аҳолиси шаҳарларга кўчишга рухсат берилди. Бу миграция янги иш ўринлари ва иқтисодий ривожланишга замин яратди.

7. Қишлоқ хўжалиги йўналишида экологик стратегиялар.

Табиий ресурслардан сақланиш. Хитойда қишлоқ хўжалигини экологик янгилаш ва табиий ресурсларни сақлашга эътибор берилди. Бу хусусан, органик фермерлик ва суғориш тизимларини модернизация қилишни ўз ичига олади.

Янги агротехнологияларни жорий этиш. Биологик хилма-хилликни сақла, органик ёки кам кимёвий ишлов берилган ўсимликлардан фойдаланишга катта эътибор берилди.

Хулоса қилиб айтганда, қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда Хитой тажрибаларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Хитой қишлоқ хўжалигининг ривожида

соҳага “Ақлли қишлоқ хўжалиги” концепцияси жорий этган ҳолда, инновациялар, истиқболли дастурлар ва миллий стратегияларни амалга ошириш борасида изчил ислоҳотларни давом эттириб келмоқда. Шу сабабдан, Хитойнинг қишлоқ хўжалигини ривожлантириш борасидаги тажрибаларини ўрганиш ва бошқа давлатлар ривожи учун жорий қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Mundarija / Contents / Оглавление

2-sho‘ba. Biznesni boshqarish va biznes jarayonlarini strategik transformatsiya Qilish sohasida innovatsion yondashuvlar hamda ilg‘or tadqiqotlar
Section 2. Innovative approaches and advanced research in business management and strategic transformation of business processes
Секция 2. Инновационные подходы и передовые исследования в области управления бизнесом и стратегической трансформации 3

1 **Abdullayev Erkinjon A’zamovich,** SUG‘URTA BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISHDA STRATEGIK TRANSFORMATSIYA VA DAVLAT TARTIBGA SOLISHINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI 4

2 **Abdullayev Abdujabbor, Xakimova Dilnozaxon Sa’dulla qizi,** SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA QO‘LLANILADIGAN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TAHLILI 7

3 **Абдукаюмов Абдувахид Абдувасикович,** ЎЗБЕКИСТОН ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИДА ЭМИССИОН ОПЕРАЦИЯЛАРИ 12

4 **Абдусаломов Абдусамад Баходирович,** ИНТЕРНЕТ МУҲИТИДА БИЗНЕСНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАШКИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ 15

5 **Abdusattorova Dildora Bohodirovna, A’zamxonov Islomjon A’zamxon o‘g‘li,** TIJORAT BANKLARINING AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH 18

6 **Аблаева Валентина Борисовна,** ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНЫХ КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА 20

7 **Ачилов Салохиддин Саломович,** ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ 22

8 **Агзамов Авазхон Талгатович, Маликова Дилрабо Муминовна,** ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВ 26

9 **Alimov Ilxomjon Ikromovich,** O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 30

10 **Alimov Ilxomjon Ikromovich, Muxammadiminova Nigora,** O‘ZBEKISTONDA “SOLIQDAN QOCHISH” HOLATLARINI OLDINI OLISHDA AHOLINING MOLIYA-SOLIQ SAVODXONLIGINI OSHIRISHNI BOSHQARISH MASALALARI 36

11 **Аминов Анвархон Казимович,** ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В УПРАВЛЕНИИ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИМИ МЕХАНИЗМАМИ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 40

12 **Amonova Nazokat Utkurovna,** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALAR: BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM OMILI 43

13 **Anna Horzela-Miś,** INDUSTRIAL CLUSTERS IN THE ERA OF INDUSTRY 4.0 – A SOURCE OF SYNERGY AND REGIONAL DEVELOPMENT 47

14 **Anvarov Nozimjon Maxsudbek o`g`li, Nazirov Otashinxoja Hayrullo o‘g‘li,** XALQARO INVESTITSIYLAR BOZORIDA KORPORATIV TUZULMALAR ISHTROKI 51

15 **Асимова Феруза Абдусатторовна,** РАҚАМЛИ ТАҲЛИЛ ВА МАЪЛУМОТЛАРНИ ВИЗУАЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ИҚТИСОДИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ЎРНИ 55

16 **Ашуров Зуфар Абдуллоевич, Хусанов Нодирбек Джуммаевич,** ЎЗБЕКИСТОНДА РИЭЛТОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ОИД ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ 59

17 **Бердиназаров Зафар Улашович,** ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ И СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ 63

18 **Bobojonov Xursand Qadamovich,** TIJORAT BANKLARDA ANDERRAYTING JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR 67

19 **Бобоёрова Мафтуна Хаққул қизи,** ЎЗБЕКИСТОНДА ҚАНДОЛАТ МАҲСУЛОТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ 71

20 **Брыль Екатерина Вячеславовна,** ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ВЗРОСЛЫХ В БЕЛАРУСИ 75

21 **Бўриев Жамшид Парда ўғли,** ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР ВОСИТАСИДА КАПИТАЛ ЖАЛБ ҚИЛИШИДА ДАРОМАДЛИЛИК МАСАЛАЛАРИ 78

22 **Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich,** OILAVIY TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINI BANK KREDITLARI HISOBIDAN MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH 81

23 **Эргашев Умиджон Ибрагимович,** ИНВЕСТИЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ ТАЪСИРИДА ҲУДУД СОЛИҚ ПОТЕНЦИАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ 84

24 **Ergasheva Yulduz,** SUN’IY INTELLEKT VA BIZNES JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH 87

25 **Ergasheva Muqaddas Shuhrat qizi,** INVESTITSIYA JOZIBADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 89

26 **Fayzieva Dilafruz Shuhratovna,** XUSUSIYLASHTIRISH, MILLIYLASHTIRISH VA DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK – TALABALARNI, MULKCHILIK TUZILMASI, MULKIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH 91

27 **Farxodova Maxliyobonu Xusanjon qizi,** O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA NIGOHIDA - MAKTABGACHA TA’LIMDA SIFAT MENEJMENTI 94

28 **Гафурова Дилшода Рамазановна,** ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В УПРАВЛЕНИИ ЧАСТНЫМИ ВУЗАМИ: СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ 98

29 **Грицук Ангелина Евгеньевна,** «4P-MEDICINE» КАК МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ УЧРЕЖДЕНИЙ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ 102

30 **He Lulu,** ASSESSING THE OPERATIONAL EFFICIENCY AND PROFITABILITY GROWTH DRIVERS OF BYD BASED ON THE DUPONT MODEL 105

31 **Ибрагимова Саодат Абдумуминовна, Шагаипова Гулчехра Зинатуллаевна,** РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ 110

32 **Ибрагимова Найля Мурадовна,** ТРАНСФОРМАЦИЯ И ПРИВАТИЗАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ, ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ 113

33 **Ikramov Akmalbek Ilxomjon o‘g‘li,** O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 115

34 **Ikromov Xojiakbar Akrom o‘g‘li,** TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI 119

35 **Ilyosov Tursunboy G‘iyosjon o‘g‘li,** SUG‘URTA XIZMATLARIDA BIZNES JARAYONLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH: O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MOLIYAVIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI 121

36 **Инь Мэнюэ,** АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ "УМНОГО" ГОРОДА НА ПРИНЯТИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ РЕСУРСОВ 125

37 **Isakova Naima Ikramjanovna,** KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 128

38 **Голубева Ирина Александровна, Удовина Светлана Дмитриевна,** ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ 132

39 **Исмаилов Аллаёр Рашидович,** КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАР ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 137

40 **Ismayilova Aytan,** CAREER IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT 139

41 **Исроилов Обид Олимжонович,** КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕСНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ 143

42 **Ишманова Динора Нурмамад кизи, Сулейманов Рехим Али оглы,** СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ И ИННОВАЦИОННОГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ 145

43 **Жаббарова Чарос Аминовна,** ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИ: 2023–2025 ЙИЛЛАР ТАҲЛИЛИ 150

44 **Jumayeva Guzal Sherxon qizi,** O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB JIHATLARI 154

45 **Караев Мансур Юлдашевич,** ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ БАҲОЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 157

46 **Каюмов Равшан Исмаилович, Галкин Вадим Юрьевич,** О НЕОБХОДИМОСТИ РАЗРАБОТКИ ПОРЯДКА ОПИСИ, ОЦЕНКИ И ПРОДАЖИ ИМУЩЕСТВА ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ПРОЦЕДУР НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 160

47 **Казберович А.А.,** ОРАНЖЕВЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ: ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ЧЕРЕЗ 164

АГРЕССИВНУЮ КОНКУРЕНЦИЮ
48 **Кравченко Александр Николаевич,** НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ ЦЕННЫХ БУМАГ 167
49 **E.Kuldashev,** BIZNESNI RAQAMLI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUV 171
50 **Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna,** O‘ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH 175
51 **Кузнецов А.В.,** ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ АПК: АРХИТЕКТУРА ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ E-SAMS И УПРАВЛЕНИЕ ДАННЫМИ 177
52 **Маматов Одилжон Абдугапарович, Адилов Шерзот Шамильевич,** АГРОБИЗНЕСНИНГ ТУЛОВГА КОБИЛИЯТЛИЛИГИ – ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ОМИЛИ 180
53 **Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi,** NORASMIY BANDLIK: YASHIRIN IQTISODIYOTDAGI ROLI VA IQTISODIY MOSLASHUVCHANLIKNING OMILI SIFATIDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI 184
54 **Mardiyev Akrom Djumaboyevich,** CHET EL TAJRIBASIDA IPOTEKA KREDITLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI 186
55 **Mardiyev Akrom Djumaboyevich,** O‘ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH MEXANIZMLARINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI 190
56 **Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna,** MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV MADANIYATNING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA’SIRI 194
57 **Mirzaaxmedov Shavkatovich Nodirbek,** KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR 196
58 **Мирзарахманов Фаррух Сапарали угли,** ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА НЕДВИЖИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА ПОСЛЕ ПРИНЯТИЯ ЗАКОНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН «О РИЭЛТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ» 201
59 **Мурадова Наргиза Улжаевна,** ОСОБЕННОСТИ ЭКОСИСТЕМЫ ВУЗОВ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ 205
60 **Наджафова Зумруд Бабир кызы,** МЕЖДУНАРОДНАЯ БИЗНЕС-ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА АЗЕРБАЙДЖАНСКИХ КОМПАНИЙ 208
61 **Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich,** KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRIShNING INDIVIDGA XOS MONOIQTISODIY MODELI 212
62 **Nazarova Ozoda Vahobovna,** INNOVATSION AUDIT XIZMATLARI VA ULARNING BUGUNGI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHUVIDA TUTGAN O‘RNI 216
63 **Нуримбетов Равшан Ибрагимович,** ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕСОМ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА 220
64 **Пономарев Владислав Олегович,** ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ 224
65 **Потапова Наталья Васильевна, Ковалевская Юлия Дмитриевна,** ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ 227
66 **Пузанкевич Ольга Антоновна,** ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНЫХ ФИНАНСОВ: ПРИЗНАКИ И УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ 231
67 **Qodirov Azamatjon Baxodirovich,** TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI TA'MINLASHDA REPO BITIMLARINING AHAMIYATI 234
68 **Rahimova Qutlibika Ergashevna,** O‘ZBEKISTONDA TA’LIM PLATFORMASINING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI 237
69 **Samandar Raimberdiev,** INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF DIGITAL BANKING SERVICES AND PROSPECTS FOR THEIR EFFECTIVE APPLICATION 240
70 **Раменская Людмила Александровна,** СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫМИ СТРУКТУРАМИ БИЗНЕСА НА МЕЗОУРОВНЕ 243
71 **Rashidova Dildora Rasul qizi,** MARKETING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELLARI VA ULARNING SUG‘URTA MARKETING STRATEGIYALARIDA ISHLATILISHI 246
72 **Rizayeva Nilufar Oblakulovna,** KICHIK BIZNESNI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH 250
73 **Рыков Сергей Владимирович,** СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕПОЗИТНОЙ ПОЛИТИКИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В СОВРЕМЕННЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ 253
74 **Розиков Жалаил Жалолович,** ОСОБЕННОСТИ УЧЕТА ПОСТУПЛЕНИЕ ПРОДУКЦИИ ОВОЩЕВОДСТВА САДОВОДСТВА И БАХЧЕВЫХ КУЛЬТУР 256

75 **Rustamov Foziljon,** PRIVATE HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN: TOWARD A STRATEGIC FRAMEWORK FOR INVESTOR–BUSINESS ENGAGEMENT AMIDST ACCOUNTABILITY CRISES 260
76 **Sa’dullayeva Mohinur,** TIJORAT BANKLARI KAPITALI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 263
77 **Саатова Лолахон Эргашевна,** ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ ЎРНИ 266
78 **Мирзаев Отабек Давронович,** ПЕРСПЕКТИВЫ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРИОД ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ 270
79 **Sachdev Ramakrishna,** CORPORATE GOVERNANCE IN WATER MANAGEMENT: A SHARED RESPONSIBILITY FOR PROVIDING WATER ACCESS FOR ALL 273
80 **Саъдуллаев Ойбек Турдиали оглы, Мирзаев Фарход Исамович,** ФИСКАЛЬНОЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ПРИВАТИЗАЦИИ 277
81 **Salokhiddinov Jaloliddin,** PROSPECTS FOR INCREASING GROSS DOMESTIC PRODUCT THROUGH INVESTMENTS 279
82 **Saydullayev Shaxzod,** KOMPANIYANING IPOGA “MAJBURAN” CHIQISHINING OQIBATLARI 282
83 **Шишкина Дарья Николаевна,** АПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВОГО ИНСТРУМЕНТАРИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ 286
84 **Шокиров Хотамбек Анварович,** ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ-МОЛИЯВИЙ ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ ТАҲЛИЛИ 291
85 **Soatov Farhod Komiljon o‘g‘li,** BANK-MOLIYA SEKTORIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISHDA BOSHQARUV HISOBIDA BYUDJETLASHTIRISHNING “BEYOND BUDGETING” YONDOSHUVIDAN FOYDALANISH 294
86 **Соколинская Татьяна Владимировна,** ФОРМИРОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ БИЗНЕС_СРЕДЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ВЫЗОВОВ 298
87 **Shodmonkulova Shahlo Olimjon qizi,** AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN G‘AZNACHILIK MONITORINGI: SAMARADORLIK VA NAZORAT MEXANIZMLARINI KUCHAYTIRISH 301
88 **Темиров Абдулазиз Алимжанович,** ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА СТРАТЕГИЯЛАР МАТРИЦАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ 305
89 **Ташиева Айилина Шайлообековна, Ыпышова Нургуль Узакбаевна, Ташиева Нуржамал Сайпидиновна,** ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ БИЗНЕСОМ 309
90 **Ташматов Рустам Хусанович,** РОЛЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ 316
91 **Туляганова Шахноза Самукджановна,** ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ДИДЖИТАЛ МАРКЕТИНГА В БАНКОВСКОМ БИЗНЕСЕ 321
92 **Umarova Nilufar Abdukaxor qizi,** KAPITALNI BOSHQARISH VA MULK DAXLSIZLIGINI TA’MINLASH 323
93 **Умарова Малика Нематжановна,** КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА ИКТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ 327
94 **Usmanova Yulduzxon,** KOMPANIYANING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI MOLIYAVIY VA NOMOLIYAVIY OMILLAR 332
95 **Волконский Элен Эдвардович,** ИНВЕСТИЦИИ В ТУРИСТСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ И ДИНАМИКА ТУРИСТСКОГО ПОТОКА: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНЫХ ДЕСТИНАЦИЙ (НА ПРИМЕРЕ ТВЕРСКОЙ ОБЛАСТИ) 336
96 **Xikmatova Husnora Fatxulla qizi,** YASHIL OBLIGATSIYALAR VA ULARNING O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDAGI O‘RNI VA ISTIQBOLLARI 340
97 **Xomitov Komiljon Zoitovich, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi,** INVESTITSIYA FAOLIYATIDA RISKLARNI BAHOLASH USULLARI 342
98 **Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich,** TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR VA ULARNING BANK AKTIVLARIGA TA’SIRI 346
99 **Хошимов Собир Муртазаевич,** АСОСИЙ КАПИТАЛГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ 351
100 **Xu Yining,** CHINA'S PRE-PACKAGED REORGANIZATION SYSTEM'S JURISPRUDENTIAL CONSTRUCTION AND INSTITUTIONAL FUNCTION: A BALANCING PATH BETWEEN OUT-OF- 354

COURT AUTONOMY AND JUDICIAL INTERVENTION
101 **Хусаинов Ғулом Луқмонович,** ХОРИЖИЙ ПУЛ ЎТКАЗМАЛАРИ ВА МОЛИЯВИЙ ИНКЛЮЗИВЛИК: ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ 359
102 **Xusanov Nodir Jummayevich, Ташматов Рустам Хусанович,** DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 364
103 **Yangiboyev Husniddin Abdumajitovich,** DAVLAT BYUDJETIGA SOLIQ TUSHUMLARINING BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA FOYDA SOLIG‘I MEXANIZMI 369
104 **Zagidullina Kamila Rafailovna,** THE ROLE OF DIGITAL TWINS AND AUTOMATION IN BUILDING SUSTAINABLE INDUSTRIAL ECOSYSTEMS 373
105 **Загребельская Милена Владимировна,** ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ: ПРЕДИКТИВНЫЕ МОДЕЛИ В УПРАВЛЕНИИ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКИМ ОБЕСПЕЧЕНИЕМ 377
106 **Зоҳидова Рухсора Комилжон қизи,** ИНВЕСТИЦИЯ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯ РИСКЛАРИНИ БАҲОЛАШ 381
107 **Xudoyberdiyeva Umida Yoqub qizi,** O‘ZBEKISTONDA “YASHIL BUDJETLASHTIRISH” : BAJARILGAN ISHLAR VA KELGUSIDAGI REJALAR 386

3-sho‘ba. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda metodologiya va tahlil vositalarini rivojlantirish masalalari
Section 3. Issues of developing methodology and analytical tools in modern economic research
Секция 3. Вопросы развития методологии и аналитических инструментов в Современных экономических исследованиях 392

108 **Ашуров Зуфар Абдуллоевич, Уролов Нурбек,** ИҚТИСОДИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МЕТОДОЛОГИЯСИДА НАЗАРИЙ ВА ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ УСУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ 393
109 **Абдурашидова Марина, Мухаммад Эид Бальбаа,** ЭВОЛЮЦИЯ ПАРАДИГМ ЭКОНОМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ОТ КЛАССИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ К ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ (С УЧЁТОМ ОПЫТА УЗБЕКИСТАНА) 397
110 **Акмаева Раися Ncаевна,** ВОЗМОЖНОСТИ И УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ ГИБКОЙ ТЕХНОЛОГИИ AGILE В ОРГАНИЗАЦИЯХ РФ 402
111 **Amanova Nodirabegim Furkatovna, Sharipov Nasim Nodir ugli,** BIG DATA IN ECONOMICS AND DIGITAL ANALYTICS. 406
112 **Алимова Маҳлиё,** ИННОВАЦИОН ЎЗГАРИШЛАР ШАРОИТИДА ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЗАРУРАТИ 409
113 **Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li,** SOLIQ MUNOSABATLARIDA IDORALARARO INTEGRATSIYANING MILLIY ISTIQBOLLARI VA XALQARO TAJRIBA 414
114 **Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna,** OLIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH KO‘RSATKICHLARI TAHLILINING ZAMONAVIY TALQINI 418
115 **Быков Алексей Александрович, Пархименко Владимир Анатольевич, Павлова Ирина Валерьевна,** АНАЛИЗ ВЗАИМНОЙ ТОРГОВЛИ БЕЛАРУСИ И РОССИИ С ПОМОЩЬЮ МЕЖРЕГИОНАЛЬНЫХ ТАБЛИЦ «ЗАТРАТЫ-ВЫПУСК» TIVA 423
116 **Дусмуратов Р.Д.,** ИҚТИСОДИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ГИПОТЕЗА, ГИПОТЕТИК-ДЕДУКТИВ ВА АКСИОМАТИК МЕТОДЛАР 428
117 **Dilfuza Ganievna Rashidova, Tuxvatulina Diana Rafaelevna,** INNOVATIVE ECONOMIC MODELS AND THEIR PRACTICAL APPLICATION IN ENSURING MACROECONOMIC STABILITY 432
118 **Ҳайдарова Чарос Низомиддин қизи,** РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК ЛОЙИҲАЛАРИНИНГ РОЛИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ 435
119 **Ibodillayev Habibulla Abdullayevich,** MADANIY MEROS OB'EKTLARIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH: TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIMLIGI 439
120 **Ibragimova Manzura Marat qizi,** RAQAMLI IQTISODIYOTDA BIG DATA VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 442
121 **Ibrohimov Sharifjon Adhamjon o‘g‘li,** ZAMONAVIY IQTISODIY TADQIQOTLARDA MIQDOR-SIFAT INTEGRATSIYASI VA VIZUAL TAHLIL 445

122 **Ismoilova Feruza Kubaymurodovna,** TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA TA’LIM TIZIMI SAMARADORLIGI VA SIFATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH 448

123 **Kadirov Saxobiddin Sharofovich,** NOMODDIY AKTIVLARNING IQTISODIY MAZMUNI VA AHAMIYATINI QO‘LLASH TARTIBI 451

124 **Каримова Ширин Захид кизи,** КИБЕРНЕТИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА ЧЕТВЁРТУЮ ПРОМЫШЛЕННУЮ РЕВОЛЮЦИЮ 458

125 **Maxkamova Shaxruza Bahodir qizi,** ZAMONAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK TAHLILNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 461

126 **Mammadov Saleh, Damet Bagirov, Musayev Vüsal,** THE INVERSE RELATIONSHIP BETWEEN NATURAL RESOURCES AND HUMAN CAPITAL: EVIDENCE FROM TURKIC STATES 465

127 **Muhammadjonov Azizbek Davoronjon o‘g‘li,** THE LIVABILITY RANKING OF CITIES IN UZBEKISTAN FOR 2024 468

128 **Наумов Илья Викторович,** ИНСТРУМЕНТЫ ОЦЕНКИ И МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРОСТРАНСТВЕННОЙ НЕОДНОРОДНОСТИ РАЗМЕЩЕНИЯ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ, ИХ ПРОСТРАНСТВЕННО-ОТРАСЛЕВОЙ ВЗАИМОСВЯЗАННОСТИ 473

129 **Николайчук Алла Михайловна, Луганская Надежда Геннадьевна,** ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ЕДИНОЙ СИСТЕМЫ ЭКСПЕРТИЗ В РЕСПУБЛИКЕ БЕЛАРУСЬ И ПУТИ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 479

130 **Nurxanova Zulfiya Uralevna, Abduraximova Kamila Baxramovna,** MODELING OF ECONOMIC PROCESSES. 483

131 **Odilova Muslima Farhodjon qizi,** KUTUBXONA FAOLIYATINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI: CHET EL VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI 485

132 **Qurambayeva Shahloxon Nuraddin qizi,** O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 488

133 **Ro‘zmamatov Abbos Tolibjon o‘g‘li,** ELEKTR TOVARLARI BOZORIDA XARIDORLARNI SEGMENTLASHNING MARKETING TADQIQOTLARIDAGI O‘RNI 491

134 **Sadikbekova Zuxra Saidaminovna, Akromova Sabina Azizovna,** ADVANCED MATERIALS, DIAGNOSTIC EQUIPMENT, AND QUALITY PROCESSING TECHNOLOGIES IN MODERN INDUSTRY. 494

135 **Салимова Зиёда Рустамжон кизи,** ИСПОЛЬЗОВАНИЕ BIG DATA И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОЦЕНКЕ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА 497

136 **Сарсенбаев Бахитжан Абдулгазиевич,** БАЛИҚ МАҲСУЛОТЛАРИ БОЗОРИНИ МАРКЕТИНГ ЁНДАШУВИ НЕГИЗИДА РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛАШ 501

137 **Toirova Nozima Miraxmad qizi,** TURIZMDA INNOVATSION XIZMATLARNING IQTISODIY TA’SIRINI O‘LCHASHDA BIG DATA VA VIZUALIZATSIYA IMKONIYATLARI 505

138 **Валижонов Акмал Рахимович,** ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ ХЎЖАЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 508

139 **Хувайдуллаева Ирода Хуснитдин қизи,** МЕҲНАТ БОЗОРИДА ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ИНСТУМЕНТЛАР ОРҚАЛИ ЖАЛБ ҚИЛИШ 511

140 **Ядгаров Акрам Акбарович,** ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХИТОЙ ТАЖРИБАСИ 515

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI

XUSUSIYLASHTIRISH VA DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH MUAMMOLARINI TADQIQ ETISH MARKAZI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“IQTISODIYOT VA BIZNES BOSHQARUVI SOHALARIDA ILG‘OR TADQIQOTLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUM

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 19-sentabr
2-qism

PROCEEDINGS

OF THE INTERNATIONAL SYMPOSIUM “ADVANCED RESEARCH IN ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT”
September 19, 2025
Part 2

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

МЕЖДУНАРОДНОГО СИМПОЗИУМА НА ТЕМУ “ПЕРЕДОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ЭКОНОМИКИ И УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ”
19 сентября, 2025 года
Часть 2

Published: 30.10.2025. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,
Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998933549654, +998993319654